O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2025-YIL, 4-SON

journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov
Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks: (***0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2025

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

GEOGRAFIYA VA TARIX FANLARI INTEGRATSIYASINING METODOLOGIK UMUMIYLIKLARI

Toxiriyon Abdulloxi Sheralizoda,
tarix fanlari nomzodi, dotsent, O'zMU huzuridagi PKQTMO tarmoq (mintaqaviy) Markazi dotsenti;
Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti v.b. professori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada geografiya va tarix fanlarining o'zaro integratsiyasi hamda ularning metodologik umumiyliklari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida ushbu fanlar o'rtasidagi bog'liqliklar o'quvchilarning tarixiy-geografik tafakkurini rivojlantirish, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy jarayonlarni kompleks o'rganish imkonini beradi. Maqolada geografiya va tarix fanlarining ilmiy asoslari, umumiy metodologik yondashuvlari, ya'ni tarixiy va makon-ma'lumotlar asosida tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, kartografiya va xronologiya kabi vositalardan foydalanish kabi umumiyliklar ochib berilgan. Shuningdek, ta'limda integrativ yondashuvning afzalliklari va amaliyotdagi qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *geografiya, tarix, integratsiya, metodologiya, ta'lim, xronologiya, kartografiya, fanlararo yondashuv.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОБЩНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ ДИСЦИПЛИН ГЕОГРАФИИ И ИСТОРИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимная интеграция географии и исторических наук и их методологические общности. Связи между этими дисциплинами в учебном процессе позволяют развивать историко-географическое мышление учащихся, всесторонне изучать сложные социально-экономические и природные процессы. В статье раскрываются научные основы географии и истории, общие методологические подходы, такие как исторический и пространственный анализ данных, восприятие причинно-следственных связей и использование таких инструментов, как картография и хронология. Также были рассмотрены преимущества интегративного подхода в образовании и возможности его применения на практике.*

Ключевые слова: *география, история, интеграция, методология, образование, хронология, картография, междисциплинарный подход.*

METHODOLOGICAL COMMONALITIES OF INTEGRATION OF GEOGRAPHY AND HISTORY DISCIPLINES

Annotation. *This article analyzes the mutual integration of geography and historical sciences and their methodological similarities. The connections between these disciplines in*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

the educational process allow students to develop historical and geographical thinking, comprehensively study complex socio-economic and natural processes. The article reveals the scientific foundations of geography and history, general methodological approaches such as historical and spatial data analysis, perception of cause-effect relationships, and the use of tools such as cartography and chronology. The advantages of the integrative approach in education and the possibilities of its application in practice were also considered.

Keywords: *geography, history, integration, methodology, education, chronology, cartography, interdisciplinary approach.*

KIRISH

Bugun maktab ta'limining samaradorligini hayotiy ko'nikmalar va real dunyoqarash bilan boyitish masalasi fanlararo integrativ yondashuvni keng qo'llashni taqozo etmoqda. Aytish mumkinki, zamonaviy ta'limdagi metodologik yondashuvlarning asosini integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Ilmiy tahlillarga ko'ra, integratsiya metodologiya tarkibida, bu fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikni ta'minlovchi jarayondir [6]. Chunki bunday yondashuv o'quvchilarga ta'lim jarayonida turli fanlar orqali umumiy g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo aloqalar va integrativ yondashuvlar nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirish, balki ta'limning tarbiyaviy va dunyoqarashni shakllantirish funksiyalarini ham samarali amalga oshirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, geografiya va tarix fanlari o'rtasidagi integratsiya ushbu fanlarning mazmunan yaqinligi, metodologik umumiyliklari va o'zaro bog'liq vazifalari tufayli alohida ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktab ta'limida geografiya va tarix fanlari o'rtasidagi integratsiya, ushbu fanlarning mazmun va mohiyat jihatidan o'zaro to'ldiruvchi va biri-biriga manba sifatida xizmat qilishidan kelib chiqadi. Ular orasida yaqinlik va tabiiyki metodologik umumiyliklar ko'p bo'lganligi bois, ko'p ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar bajarishini oson va sifatli amalga oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, bizningcha, bugungi kunda maktab ta'limidagi dasturlarda ushbu fanlar integratsiyasini yanada chuqurlashtirish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Muammoning qo‘yilishiga muvofiq, yuqorida ta’kidaganimizdek, maqolada geografiya va tarix fanlari ta’limining metodologik umumiyliklari va ularni integratsiyalash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Mavzuni yoritish uchun, ilmiy adabiyotlar [1;3;4;5;], shuningdek umumta’lim maktablardagi mavjud holat o‘rganildi va fanlar integratsiyasida umumiy metodologik jihatlar aniqlandi. Birinchidan, geografiya va tarix fanlarining umumiy xususiyatlari haqida. Ma’lumki, geografiya, maktabdagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni o‘rganuvchi fan bo‘lib, ko‘proq joy va makon tushunchalariga asoslanadi. Tarix esa insoniyatning o‘tmishini, jamiyatlar taraqqiyoti va ularning ma’lum makondagi harakati, o‘zgarishi va ijtimoiy jarayonlarni xronologik izchillikda yoritib beradi. Biroq, ikkala fandagi umumiylik jihatlar xronologiya va makon bilan bog‘liqligi, hududiy o‘zgarishlar va ta’rixiy jarayonlarni tushunishni talab etilishi, hujjatli manbalar, xaritalar, statistik ma’lumotlar va arxeologik topilmalardan foydalanilishi, ilmiy tahlil, ta’rif va modellashtirish usullarini qo‘llanilishida ko‘proq seziladi.

Ikkinchidan, ikki fan orasidagi metodologik tahlilning umumiyliklari quyidagi metod va yondashuvlarda yorqin namoyon bo‘ladi, jumladan:

- *makon va vaqt tushunchasida*, ya’ni har ikki fan makon (joy) va vaqt (xronologiya) asosida qurilgan. Geografiya makonni zamonaviy holda, tarix esa uning vaqt ichidagi o‘zgarishini o‘rganadi. Masalan, shaharlarning rivojlanishi, tabiiy resurslarning ishlatilishi yoki migratsiya jarayonlari ham geografik, ham tarixiy tahlilni talab qiladi.

- *sabab-oqibat aloqalari,* bunda tarixiy voqealar va geografik hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari har ikki fanning markaziy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Masalan, iqlim o‘zgarishlari sivilizatsiyalarning qulashiga olib kelgan holatlar (Mesopotamiya, Misr, Mayya) ham geografiya, ham tarixni qamrab oladi.

- *komparativ tahlil usuli,* ya’ni ikkala fan ham taqqoslash (komparativ tahlil) usulidan keng foydalanadi, ayniqsa, geografiyada turli mintaqalar va tarixda davrlar o‘rtasidagi farq va umumiyliklar taqqoslanadi hamda o‘rganiladi. Bu metod orqali

turli madaniyatlarning geografik omillar ta'sirida hamda tarixiy voqea-hodisalar sabab shakllanishi tahlil etiladi.

- *modellashtirish va rekonstruksiya* metodi orqali geografiyada tabiiy va iqtisodiy hududlar modellashtirilsa, tarixda tarixiy jarayonlar rekonstruksiya qilinadi. Bunda ikkalasi ham mavjud ma'lumotlar asosida yangidan yaratish, jarayonni qayta tiklashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Uchinchidan, geografiya va tarix fanlari o'zaro integratsiyaning afzalliklari ham ta'lim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishiga kafolat bo'ladi. Chunki integrativ yondashuv kompleks dunyoqarashni shakllantiradi, ya'ni o'quvchilarda jamiyat, tabiat va tarixiy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglashga yordam beradi [2]. Integratsiya o'quvchilarda mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantiradi hamda geo-tarix ta'limidan olinajak bilimlar birgalikdagi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi. Ushbu fanlar integratsiyasi milliy va global identifikatsiyani mustahkamlaydi, ya'ni geo-ta'rixiy manzaralar yoshlarda vatandoshlik va insoniy qadriyatlarga asoslangan qarashlarni shakllantiradi. Qolaversa, bunday integratsiya o'quvchilarda zamon talablari asosida media va axborot savodxonligini oshiradi, chunki har ikki fanning manba asosida ishlash qobiliyati zamonaviy axborot muhitida muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan,geografiya va tarix fanlarining metodologik umumiyliklarini mavzulardagi misollar va tahlillarda ham ko'rish mumkin. Masalan, "O'rta Osiyo sivilizatsiyalari: Amudaryo va Sirdaryo bo'yi tarixiy-madaniy markaz sifatida", "Buyuk Ipak yo'li: geografik joylashuv va tarixiy aloqalar markazi", "Ekologik inqirozlar va tarix: Aral dengizi fojiasi va uning ijtimoiy-tarixiy oqibatlari" kabi mavzular bo'yicha darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etish, oqibat tarix va geografiya fanlarining integrativ ta'limini muntazam yo'lga qo'yishga zamin yaratadi.

Beshinchidan, geo-ta'rixiy ta'lim konsepsiyasi ham o'ziga xos o'xshash va umumiy jihatlarga asoslanib ikki fan integratsiyasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Bunda, avvalo, geo-ta'rixiy tahlil modeli e'tiborlidir. Chunki geo-ta'rixiy tahlil modeli, yuqorida ta'kidlaganimizdek, maktab o'quvchilariga ma'lumotni, makonda joylashtirish (xarita, hudud), vaqtda joylashtirish (davrlar, toifalar), sabab-oqibat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bog‘liqligi (jarayonlar tahlili) asosida o‘zlashtirishni o‘rgatadi. Undan tashqari, geo-ta’rixiy ta’lim konsepsiyasida ta’lim texnologiyalari ahamiyatli omildir. Ayniqsa, keys-tahlil, ya’ni tarixiy voqeani geografik omillar asosida tahlil qilish zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biridir. Shuningdek, interaktiv xaritalar orqali voqealarning makondagi harakatini vizual ko‘rsatish ham o‘quvchida tarixiy va geografik bilimini mushtarak tarzda mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Ikkala fanni loyiha asosida o‘qitish ham integrativ jarayonga yangi mazmun bag‘ishaydi, masalan, o‘quvchilar mustaqil ravishda muayyan hudud va davrdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Nihoyat, geo-ta’rixiy ta’lim konsepsiyasi eng zamonaviy texnologiyalar, jumladan, AR/VR texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi va unda tarixiy joylarni geografik muhiti bilan qayta yaratish, ya’ni rekonstruksiya qilish o‘quvchi tasavvurotini rivojlantirish va boyitishga ko‘maklashadi.

Shu alohida ta’kidlash joizki, geo-tarix ta’limi konsepsiyasini joriy etish bo‘yicha qo‘yidagi amaliy tavsiyalar ikkala fandan olingan bilimlarni mustahkamlash va amalda qo‘llashga yordam berishi mumkin:

a) *Fanlararo darslar tashkil etish*. Geografiya va tarix o‘qituvchilari hamkorlikda umumiy mavzular asosida darslar ishlab chiqishi (masalan, “Qadimgi sivilizatsiyalarning geografik omillari” yoki “Iqlim o‘zgarishi va tarixiy ahamiyati”).

b) *O‘quv dasturlarini integratsiyalash*. Ta’lim muassasalarida tarix va geografiya fanlari mazmuniga integratsiyalashtirilgan modullarni kiritish, xususan, umumta’lim maktablarida “Geo-ta’rixiy tahlil” kabi yo‘nalishlar tashkil etish.

v) *Axborot texnologiyalaridan foydalanish*. Elektron xaritalar, interaktiv taftish platformalari va tarixi-qiyosiy simulyatsiya dasturlaridan foydalanish ta’limni vizual va faol xarakterga ega qiladi.

g) *O‘lkashunoslik va ekskursiyalar*. Geografiya va tarixni amaliyotda ko‘rsatish uchun ekskursiyalar, muzey darslari, arxeologik maydonlarga tashriflar tashkil etish.

d) *O‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyati*. Maxsus topshiriqlar va loyihalar orqali o‘quvchilarni mustaqil tadqiqotlarga yo‘naltirish, masalan: “Mening

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shahrim geo-ta'rixiy nuqtai nazardan", "O'zbekiston tarixi xaritalarda" kabi mavzularda.

XULOSA

Geografiya va tarix fanlarini integratsiya qilish metodologik jihatdan to'liq asoslangan bo'lib, ta'lim jarayonini mazmunan boyitish, o'quvchilarda murakkab jarayonlarni kompleks anglash qobiliyatini rivojlantirishda samarali yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fanlarning metodologik umumiyliklari ta'lim jarayonida ularni o'zaro bog'liq holda o'qitish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'quvchida hayotiy voqelikka nisbatan kompleks, mantiqiy-tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur fanlar o'rtasidagi integratsiya ta'lim sifatini oshirish, tarixiy voqealarning makon va vaqt nuqtai nazaridan chuqur tahlili, shuningdek, fuqarolik ongi va ekologik madaniyatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday integratsiya ta'limda fanlararo yondashuvlarni rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va milliy hamda global madaniyatni anglashga asosli zamin yaratadi. Shuning uchun, maqola matnida keltirilgan tavsiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev I. Fanlararo ta'lim va pedagogik integratsiya // O'zbekistonda ta'lim islohotlari, 2019, №2.
2. Karimov J. Tarixni o'rganishda geografik omillar ahamiyati. // Samarqand: SamDU nashriyoti. 2020.
3. Xudayberdiyeva M. Geo-ta'lim – fanlararo yondashuvning yangi bosqichi // O'zbekiston pedagogika jurnali, 2022. №3.
4. Anderson M. & Holt R. The Chrono-Spatial Framework in Social Studies Education // London: Routledge. 2018.
5. National Geographic Education. // Geography and History: Integrating Spatial and Temporal Thinking. Washington DC. 2019.
6. UNESCO Teaching History and Geography through Integrated Approaches. Paris: UNESCO Publishing. 2017.

BIOLOGIYA FANIDAN MEDIARESURSLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Saparov Kalandar Abdullayevich
Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti “Zoologiya va anatomiya” kafedrasi professori., biologiya fanlari doktori
Jumaniyazova Sanobar Qadambaevna
Toshkent Farmasevtika Instituti qoshidagi akademik litsey “Biologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola biologiya fanidan mediaresurslar vositasida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, mediaresurs tushunchasining mazmun-mohiyati, ta’lim jarayonlarida mediaresurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda bu bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Shuningdek, biologiya fanidan o‘quvchilarning mustaqil ta’lim sharoitida mediasavodxonlik darajalarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *mediaresurslar, mediasavodxonlik, biologiya ta’limi, mustaqil ta’limni tashkil etish, o‘quv-bilish faoliyati, axborot-kommunikatsiya taxnologiyalari, elektron axborot ta’lim resurslari, zamonaviy tendensiyalar, didaktik mediatexnologiyalar.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITY IN BIOLOGY THROUGH MEDIA RESOURCES

Abstract. *This article is devoted to the issues of organizing and developing independent educational activities of students in biology using media resources, analyzing the essence of the concept of media resources, the possibilities of using media resources in educational processes, and foreign experiences in this regard. Attention is also paid to the issues of developing the levels of media literacy of students in independent education in biology.*

Keywords: *media resources, media literacy, biology education, organization of independent education, educational and cognitive activities, information and communication technologies, electronic information and educational resources, modern trends, didactic media technologies.*

РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО БИОЛОГИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕДИАРЕСУРСОВ

Аннотация. *Статья посвящена вопросам организации и развития самостоятельной учебной деятельности студентов по биологии с использованием медиаресурсов. Анализируется сущность понятия медиаресурсов, возможности*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

использования медиаресурсов в образовательных процессах, зарубежный опыт в этом направлении. Также уделяется внимание развитию уровня медиаграмотности у студентов-биологов в условиях самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *медиаресурсы, медиаграмотность, биологическое образование, организация самостоятельного обучения, учебно-познавательная деятельность, информационно-коммуникационные технологии, электронные информационно-образовательные ресурсы, современные тенденции, дидактические медиатехнологии.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim muassasalari o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarida mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, ta’lim oluvchilarda mustaqil ta’lim olish faoliyatini tizimli tahlil qilish, ta’lim jarayonlariga kasbiy-ijodiy, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, ta’lim oluvchilar o‘quv-bilish faoliyatining asosiy qismini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga moslashtirish hamda mazkur vazifalar ijrosini taxminlashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish dolzarb hisoblanadi. Xususan, respublikamizda faoliyat olib borayotgan akademik litseylar faoliyatini modernizatsiyalash, o‘quvchilarni yuqori bilim salohiyatli qilib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son Qarori qabul qilindi [1]. Mazkur Qarorda akademik litseylarda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish yuzasidan bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan,

- o‘quvchi yoshlarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish;

- o‘quvchilarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, vatanparvarlik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash;

- akademik litseylarda ta’lim sifatini yaxshilash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, o‘quvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish,

ularni "ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda akademik litseylarda o'qitiladigan barcha fanlar, jumladan, biologiya fanidan o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda mediata'lim resurslaridan foydalanish kutilgan samarali natijani beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi globallashuv davrida mediata'lim (Media Education) dunyoning ilog'or ilmiy markazlari va ta'lim muassasalaridan xalqaro ta'lim, fan va madaniyat tashkilotlari YuNESKO (UNESCO), Aloqalar va ma'lumotlar almashinuvi markazi (Centre de liaison de l'enseignement et des medias d'information – Fransiya), Institute fur Film Und Bild im Wissenschaft - Germaniya, The University Southampton-Buyuk Britaniya, shuningdek, maxsus mediamarkazlar – Center for Media Education) da o'zaro tajribalar almashish orqali amalga oshirilmoqda. Jahonning yetakchi ta'lim muassasalarida, xususan, AQSh, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda o'quvchilarda tabiiy fanlarni mediatexnologiyalar asosida o'qitishning sifat darajasini oshirish va takomillashtirish, mediatexnologiyalar yordamida o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda mediata'lim resurslaridan foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" [2] asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan. Bu borada o'quvchilarning biologiya faniga oid fazoviy tasavvurini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, tabiiy fanlarga oid o'quv materiallarini animatsion-vizual tarzda havola etish asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'limini tashkil etishning didaktik tizimi va o'qitish metodlarini o'zlashtirish usuli sifatida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

egallash bir qator olimlar D.S.Vasilina [3]., O.I.Suxova [4] kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Yu.A.Dubrovskaya [5] va xorijiy olimlardan R.S.Tuninga., I.B.Seinen [6]lar mustaqil ta’lim faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitishning an’anaviy shakllari uchun ham dolzarb vositalar qatoriga kiritishadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali pedagogik qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning musatqil ta’lim faoliyatini tashkil etishning samarali vositasi ekanligi tufayli, zamonaviy axborot sharoitlarida mustaqil ta’lim kompyuter asosida bo‘lishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi.

Ye.A.Shuklina [7] va I.N.Shaxovalarning [8] fikriga ko‘ra, mavjud pedagogik tadqiqotlarda ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini axborot-kommunikatsiya taxnologiyalari vositasida tashkil etishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. “Kommunikatsiya” – ong va tilning, shaxsning, ma’naviy ehtiyojning shakllanishi uchun asos bo‘ladi, jamoalarning yashashi, mavjud bo‘lishi uchun shart, tarixiy tajribani to‘playdigan ijtimoiy-tarixiy xotirani saqlash manbaidir.

I.N.Shaxova [8] uni ichki kommunikatsiya sifatida o‘rganishni va bunda kommunikator va qabul qiluvchi bir sub’ekt rolida, internetdan foydalanganda, avtokommunikatsiya jarayonida sodir bo‘lishini taklif qiladilar.

O.I.Suxova mustaqil ta’lim shakllariga quyidagilarni kiritadi: adabiyotlarni o‘rganish, ma’ruzalar, konsertlarni tinglash, video tomosha qilish, ko‘rgazmalarda qatnashish, axborot texnologiyalari (tajribalar, eksperimentlar, modellashtirish) asosida turli xil amaliy tadbirlar. Bu borada internet – kutubxona katta imkoniyatlar yaratadi [4].

Mamlakatimiz ta’lim tizimini axborotlashtirish maqsad va vazifalariga muvofiq holda akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini mediatexnologiyalar vositasida tashkil etish quyidagi imkoniyatlarga keng yo‘l ochadi:

- mediavositalar orqali o‘quvchilarning biologiya fanidan o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish, mustahkamlash, takrorlash, topshiriqlarni erkin bajara olish imkoniyati mavjud;

- o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatida elektron axborot ta’lim resurslaridan samarali foydalanishi ularning axborot savodxonligining

rivojlanishiga erishiladi;

- biologiya fanidan yaratilgan elektron darsliklar, videodarslar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari yordamida fanga doir har qanday murakkab hodisa yoki jarayonni kuzatish, bajarish imkoni bo‘lmagan tajribalarni ko‘rsatish hamda o‘quvchilarga tushuntirish mumkin bo‘ladi;

- biologiya fanidan qiziqarli interaktiv dars va laboratoriya topshiriqlarini uy sharoitida ham mustaqil o‘tkazish imkoniyati yaratiladi;

- virtual laboratoriya ishlarini ta’lim jarayonlarini yanada qiziqarliroq va yangiliklarga boy tarzda tashkil etishda qo‘shimcha material sifatida namoyish etish mumkin bo‘ladi;

Mediatexnologiyalar xususida gap borar ekan, avvalo mediata’lim tarixiga nazar tashlash maqsadga muvofiq. Mediata’limning rivojlanish tarixi bir necha o‘n yilliklarga borib taqalsa-da, turli xil tadqiqotchilar o‘z ilmiy yo‘nalishlari nuqtai nazaridan yondashib turlicha ta’riflar berib o‘tganlar. Ushbu ta’riflar ba’zi hollarda bir-biriga yaqin, ba’zida esa bir-birini inkor etadi. “Media” atamasi lotinchada “medium”, ya’ni vosita, usul degan ma’nolarni anglatib, turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini bildiradi. A.A.Jurinning fikriga ko‘ra “media” – lotincha “media” so‘zidan olingan bo‘lib, “vosita”, “vositachi”, yanada aniqrog‘i, “ommaviy axborot vositalari” degan ma’nolarni anglatadi. [87; 405-406-b.]. Shuningdek u mediata’lim tushunchasini quyidagicha izohlaydi:

Mediata’lim – bu:

a) pedagogik fan bo‘lib, u – ommaviy axborot vositalari (OAV)ning bolalar va o‘smirlarga ta’sirini o‘rganadi va o‘quvchilarni OAV dunyosi bilan tanishtirishga tayyorlashning nazariy masalalarini ishlab chiqish;

b) o‘qituvchi va o‘quvchilarning amaliy hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, bolalar va o‘smirlarni OAVdan foydalanishga, OAVning madaniyatdagi roli va dunyoni qabul qilishga tayyorlash;

v) ta’lim sohasi – uning mazmuni – OAVning madaniyatdagi roli, dunyoni qabul qilishi haqida bilimlar va OAV axborotlari bilan samarali ishlash [9].

Ya.Mamatova va S.Sulaymanovalarning fikricha hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-

voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqdalar [10].

Ta'lim jarayonlarida mediatexnologiyalardan foydalanish masalalari Rossiyada hozirgi vaqtda quyidagi yo'nalishlarda takomillashmoqda:

1) ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash hamda ulardan ta'lim jarayonlari sifat-samaradorligini oshiruvchi zamonaviy metodik vosita sifatida foydalanish;

2) zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, hamda ularni o'quv-metodik, ilmiy axborotlar bilan ta'minlashda foydalanish;

3) mustaqil ta'lim va sifatli ta'lim jarayonlarini joriy etishning yangi shakllarini rivojlantirish, aholining jahon mamlakatlari ta'lim resurslariga kirish imkoniyatini ta'minlash;

4) o'quvchilar bilmini faqat informatika bo'yicha rivojlantirish emas, ularda global axborot sharoitiga tayyorlash uchun zaruriy yuilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimidagi barcha fanlar qatori biologiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid mediatexnologiyalarni yaratish va foydalanishga kamroq e'tibor berilayotganligi sir emas. A.V.Fedorov mediata'limni quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatadi [11]:

1. Mediata'lim matbuot, radio, televedenie, kino, video va internet olamiga bo'lg'usi professionallar – jurnalist, muxarrir, rejissyor, prodyusser, aktyor, operatorlar va boshqalarni tayyorlaydi.

2. Mediata'lim ta'lim muassasalaridagi mediamadaniyat kurslarini olib boruvchi bo'lg'usi pedagoglarni tayyorlaydi.

3. Mediata'lim maktablar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalarida yoki mustaqil tartibdagi ta'lim oluvchi o'quvchi-o'quvchilar umumiy ta'limining bir qismi.

4. Qo‘shimcha ta’lim muassasalari va o‘quvchi-o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etuvchi markazlar (yoshlar saroylari, madaniyat uylari, maktabdan tashqari markaz ishlari, estetik va badiiy tarbiya)gi mediata’lim.

5. Matbuot, televedenie, video, DVD, Internet yordamida yoshi kattalar, o‘quvchilar-o‘quvchilar uchun olib boriluvchi masofaviy ta’lim.

Akademik litseylarda biologiya fanidan o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning bugungi kun talabiga va vazifalariga ko‘ra bir nechta xususiyatlarini ajratishimiz mumkin:

1. Media - axborotlar orqali biologiya faniga oid materiallarni boyitish va samarali ishlash ko‘nikmasini shakllantirish mexanizmi sifatida;

3. O‘qituvchining samarali metodik faoliyati asosida o‘quvchilarda mediaaxborotlar orqali biologiya fanini mukammalroq o‘rganish, tushunishdagi o‘rni va ahamiyatini oshiruvchi omil sifatida;

4. Mediatexnologiyalar – biologiya faniga doir voqea-hodisalarning mohiyatini makon va zamonda tez anglatuvchi, oson tushuntiruvchi manba sifatida;

6. O‘quvchilarda keng qamrovli informatsiyalarni qisqa muddatda qayta ishlash, sintez qilish imkonini yaratuvchi omil sifatida va boshqalar.

Quyida biz biologiya fanidan o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishda mediatexnologiyalardan foydalanishga oid resurslarni keltiramiz (1-rasm).





1-rasm. Biologiya fanining mediatexnologiya metodik resurslari

J.Gonne mediatexnologiyalarni taxlil qilar ekan, butunlay yangicha fikrlarni olg‘a suradi. Uning fikricha, o‘quv jarayoniga axborot vositalarini samarali joriy etishda o‘quv etish tamoyillari haqidagi ta’lim mazmunini anikdash mahorati hamda turli hodisalardagi o‘xshashliklarni aniqlash, tashxislash kabi bilimlar nazarda tutiladi [12].

Demak, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim sharoitida mediasavodxonlik darajalarini oshirishda ta’lim tushunchalarining yangi qirralarini, ya’ni o‘qish va o‘qitish jarayonida voqeliklarning yangi ko‘rinishlari va qo‘shimcha materialni yuzaga keltiradi. Ta’lim jarayoni asosan mustaqil ta’lim bilan bogliq. Sababi, o‘quvchilar aynan mustaqil ta’lim jaryonida mediatexnologiyalardan foydalanish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Ta’lim jarayonida didaktik mediatexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha eksperimentni tashkil etishda hisobga olingan bu holat zamonaviy mediatexnologik ta’limning eng muhim yo‘nalishi - tabiiy va texnik madaniyatlarning zamonaviy tendensiyasi doirasida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi [13].

XULOSA

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, biologiya fanini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish orqali erishiladigan ijobiy imkoniyatlar quyidagilarni tashkil etadi:

1. Biologiya fani bo‘yicha yaratilgan elektron axborot resurslari (yelektron darsliklar, videodarslar, elektron nazzorat testlari, mobil ilovalar, multimedia texnologiyalari va boshqalar) ushbu fan bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda kompyuterlashgan texnologiyalarni qo‘llanilishini ta’minlashga sharoit yaratadi.

2. Biologiya fani bo‘yicha ishlab chiqilgan mediavositalar o‘quvchilarda zamonaviy, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rgatadi, mustaqil holda o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

3. Biologiya fanini o‘qitishning ijodiy muhiti yaratiladi.

4. Mediatexnologiyalar asosida o‘quvchi mustaqil ta’lim faoliyatida sifatli o‘quv materiallari bilan ta’minlanadi;

5. O‘quvchilar biologiya fani bo‘yicha yangiliklar, ilg‘or tajribalar, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so‘ngi yutuqlaridan xabardor bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
3. Василина Д.С. Развитие творческих способностей учащихся классов музыкально-эстетического профиля на уроках мировой художественной культуры (Текст): автореф. дис. …канд. наук: 13.00.01 / Василина Даря Сергеевна. – Уфа. 2009. – 22 с.
4. Сухова О.И. Педагогическое самообразования в системе повышения квалификации учителей гимназий (Текст): дис. …канд. пед. наук: 13.00.08 / Сухова Олга Ивановна: Толятти, 2006. – 167 с.
5. Дубровская Ю.А. Педагогическое сопровождение самообразования студентов в условиях дистансионного обучения. Дис.канд.пед.наук: 13.00.01 / Юлия Аркадевна. – СПб., 2005. – 159 с.
6. Tuninga, R.S.J. The supply and Demand of Distans Education in Russia (Text) IRSJ. Tuninga, IBJ, Sienen. II The World Bank. – Bureau: Cross, 1995. – Pp. 140.
7. Шуклина Е.А. Технологии самообразования: социологический аспект (Текст) / Е.А.Шуклина // Общественные науки и современност. – 1999. -№5. – С. 140-151.
8. Шахова И.Н. Самообразование как коммуникативное взаимодейтсвие: социологический анализ (Тест): дисс. …канд. сотсиал. наук: 22.00.06 / Шахова Ирина Николаевна. Екатенбург, 2006. – 166 с.
9. Журин А.А. Интегривонное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 405.
10. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. -T.: Extremum-press, 2015. 60-64-6.
11. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2004. – 340 с.
12. Gonnet, J. (1997).Educationetmedias.Paris: Pressuniversitairede France.

13. Jumaniyazova S.Q. Organization Of Biology Education On The Basis Of Personalized Educational Technologies. American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR). Vol. 2 Issue 9, January – 2025, Pages: 281-285.

УДК:028.5

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ У УЧЕНИКОВ СТАРШИХ КЛАССОВ

Ходжаев Дилшод Хамидхонович
Докторант Наманганского Государственного Университета
dilshod8282772@gmail.com
Научный руководитель,
Сатаров Александр Хошимович,
канд. пед. наук. доцент. НамГПИ Satarov51@inbox.ru

Аннотация: *В данной статье представлено исследование актуальных проблем чтения книг среди современной молодежи и проблем, которые возникли в результате этого анализа. В статье рассматриваются работы ученых, исследовавших данную проблему в разные периоды. Дан ряд рекомендаций по дальнейшему развитию процесса чтения среди молодежи.*

Ключевые слова*: мегаполис, общественно-политический, социологический, культура чтения, социокультурный, библиография.*

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya*: ushbu maqolada xozirgi zamonaviy yoshlarni kitob mutolaasini bugungi muammolarini o'rganilganligi va bu tahlil natijasida ayon bo'lgan muammolarni o'rganilinganlik holatlari keltirib o'tilgan. Maqola davomida ushbu muammoni turli davrlarda o'rgangan olimlarni ishlari ko'rib chiqildi. Yoshlarni mutolaa jarayonini yanada rivojlantirish yuzasidan bir qator tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar*: metropoliya, ijtimoiy-siyosiy, sotsiologik, mutolaa madaniyati, ijtimoiy-madaniy, bibliografiyashunoslik.*

PROBLEMS OF FORMING A READING CULTURE IN SENIOR PUPILS

Abstract: *This article presents a study of current problems of reading books among modern youth and the problems that arose as a result of this analysis. The article examines the works of scientists who studied this problem in different periods. A number of recommendations are given for the further development of the reading process among young people.*

Key words: *metropolis, socio-political, sociological, reading culture, socio-cultural, bibliography.*

ВВЕДЕНИЕ

Сегодня в связи с появлением множества способов проведения свободного времени молодежью интерес к чтению книг снизился, и это отражается на воспитании этой молодежи с негативной стороны. Заметив это изменение, руководители государства принимают меры по повторному вдохновению молодежи на чтение книг. Президент неоднократно говорил о важности чтения книг и необходимости его популяризации среди молодежи и лидеров. Одна из 5 важных инициатив, выдвинутых Главой государства для повышения морального духа молодежи и содержательной организации ее свободного времени, направлена на чтение книг, которая направлена на организацию системной работы по повышению морального духа молодежи и широкой популяризации чтения среди нее.

В условиях развития всех современных развлекательных технологий становится очевидным, что необходимо системно изучать процесс формирования культуры чтения у современных школьников, понимать сложившуюся ситуацию и анализировать перспективы ее развития, учитывать возможности использования зарубежного опыта и национальную специфику. Объективный социально-философский анализ состояния процессов формирования культуры чтения у молодежи становится все более актуальным по следующим причинам: - реальное состояние культуры чтения у молодежи недостаточно определено специальными исследованиями; - не изучены специфика формирования культуры чтения у подростков, проблемы и пути их решения; - интенсификация процессов чтения, ее оценка как неотъемлемой части концепции общекультурного развития не находится на должном уровне; - необходимость гармонизации культуры чтения с современными передовыми технологиями, электронными системами, современным уровнем дистанционных коммуникаций; растущая социально-философская потребность в адекватной оценке положения информационно-ресурсных центров образовательных учреждений как институтов, ответственных за воспитание всесторонне развитого поколения в Узбекистане, и недостаточный уровень нормативно-правовых документов и методических рекомендаций, определяющих их адресную

активизацию с учетом современных требований к системе образования; - отсутствие достаточного уровня инклюзии культуры чтения как процесса, соответствующего современным технологиям чтения, обучения и понимания, учебным предметам и существующим научно-образовательным условиям на повестке дня; - отсутствие теоретического обоснования путей системного совершенствования процессов чтения, рассмотрения их как важного звена воспитания молодежи в рамках национальной идеи. Изучаемая тема находится на стыке ряда дисциплин, и для ее полного освещения необходимо сравнительно-аналитическое изучение научных достижений в области социологии, философии, психологии, педагогики, библиотековедения, культурологии. Поэтому необходим анализ литературы, изучаемой в рамках библиотековедения, которая непосредственно посвящена изучению проблем информационно-ресурсных центров образовательных учреждений, а также психологии подростков и социологии как неотъемлемой части социальных процессов, исходя из объекта исследования. Необходимо наладить системный процесс пополнения фондов школьных библиотек с учетом мнения учителей-предметников и учащихся.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Вопросы чтения, его пользы и формирования культуры чтения в семье освещены в трудах наших великих мыслителей Абу Насра аль-Фараби, Ибн Сины, Юсуфа Хос Хаджиба, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлони и др. В частности, просвещенный интеллектуал Абдулла Авлони, живший и творивший в начале XX века, говорит: «...с юности, чтобы укрепить свой ум и восприятие, мы не должны тратить свою драгоценную жизнь на развлечения, глупости и пустые разговоры, а должны читать различные книги, газеты и журналы, открывать свой ум и укреплять свой разум» [1]. Как известно, в современной науке под чтением понимают не только процесс чтения книг или другой печатной продукции, но и процесс усвоения информации из различных источников информации. Сегодняшняя молодежь опережает всех в этом плане, ведь Интернет предоставляет каждому возможность получить доступ к информации без лишних усилий. С этой точки зрения можно сказать, что тяга к чтению всегда была высока среди узбекского народа. Потому

что даже во времена, когда уровень грамотности населения был довольно низким, люди собирались вместе, чтобы вместе читать различные книги, организовывать декламации стихов, газелей или маснави, вечера декламации достана и декламации бахру-байта (разновидность поэзии).

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Со второй половины XIX века в результате завоевания Туркестана царской Россией расширилось общественно-политическое, а позднее и социокультурное пространство, занимаемое нашим народом, и влияние культурных изменений в метрополии постепенно стало ощущаться и в Средней Азии. К XX веку появились труды Н.А. Рубакина, Н.М. Сикорского, О.С. Чубарьяна, Ю.С. Зубова и других, в которых изучались читатели книг и их структурная структура в период царской России, а позднее и в бывшем Советском Союзе, анализировались процессы непосредственного чтения, изучались принципы возникновения и формирования культуры чтения, а также эффективность чтения и усвоения текста.[2] В это же время в нашей стране и за рубежом был опубликован ряд научных работ, которые неразрывно связаны с разрабатываемой нами темой. Труды А.Ю. Айзенберга, А. Ванеева, Н.С. Карташова, Ю.Н. Столярова, О.Г. Касимовой, Э.Ю. Йулдашева, Э.О. Охунжонова, М.А. Рахимовой, Ш.М. Шамсиева, М.М. Туропова и других по библиотековедению и библиографии значимы тем, что они направлены на решение и уточнение некоторых теоретических и практических вопросов исследуемой проблемы. Социологические вопросы чтения книг в Узбекистане впервые были изучены как особый объект исследования в научных трудах А.А. Умарова. Б.И. Ганиева, с другой стороны, изучала педагогические возможности воспитания культуры чтения. Как было отмечено выше, проблема чтения книг в Узбекистане является одной из наименее изученных областей, и в частности, вопрос формирования культуры чтения учащихся средних учебных заведений не изучался как целостный объект исследования. Особо следует отметить научное исследование, опубликованное узбекским библиотекарем Э. Юлдашевым по руководству чтением читателей в детских библиотеках и воспитанию культуры чтения у подрастающего поколения [3]. Вопросы формирования культуры чтения у юных

читателей нашли отражение и в научных исследованиях Ы. Каюмходжиевой [4]. Исследование Й. Каюмходжаевой также значимо с историко-социологической точки зрения, так как в нем сопоставляются вопросы чтения в школьных библиотеках в период независимости с периодом бывшего Советского Союза. Научно-теоретические вопросы формирования культуры чтения у младших школьников изучала Б.И. Ганиева. В его кандидатской диссертации «Педагогические возможности формирования культуры чтения у детей в библиотеках» изложены педагогические и психологические возможности формирования культуры чтения у учащихся младших классов нашей республики, а также сущность, содержание, формы, методы и средства воспитания культуры чтения у учащихся младших классов [5].

Меняются требования к источникам информации и их формам, интерес молодежи к произведениям искусства, место книг по значимости, ожидаемые результаты от процесса чтения книг и рассказов, их жанр и идеология. Цели, которые ставят перед собой молодые читатели при чтении книг, постоянно меняются. Круг чтения прежних книг сегодня расширяется. Большинство современных школьников еще в старших классах школы определились с тем, в какой области они будут работать в будущем, поэтому в свободное время они также уделяют внимание чтению художественной литературы: будущие юристы интересуются детективными произведениями, специалисты по иностранным языкам — произведениями, изданными на иностранных языках, а врачи — трудами, исследующими физиологию и психологию человека. Выбор такой литературы связан с бурным развитием науки и техники в наши дни, быстрым и основательным освоением той или иной области молодыми людьми.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Задача развития чтения молодежи заключается не в ограничении доступа к интересующей ее информации, а в том, чтобы научить ее выбирать действительно хорошую научную и художественную литературу и в полной мере понимать ее богатое содержание. Таким образом, развивая интерес к чтению, можно влиять на формирование информационной культуры современного подростка. В этих процессах необходимо и дальше развивать работу по

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

представлению произведений, подходящих для молодежи, с учетом ее интересов. Необходимо как можно чаще проводить социологические опросы среди педагогов, работающих с учащейся молодежью, библиотечных специалистов, учащейся молодежи. Мы считаем, что подбор литературных произведений должен быть в рамках выбора учащихся.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Авлони А. Турецкая культура или этика. – Ташкент: Учитель, 1992; Раджабов С. История советской школы в Узбекистане. – Ташкент: 1957;
2. Сикорский Н.М. Книга и наука о книге. В сб. «К книге. Исследования и материал1». Книга № 11, - М.: 1965; Рубакин Н.А. Этюд1 о русской читаювдей публике. Н.А. Рубакин. Избранное. Т. I, -М.: «Книга», 1975; Рубакин Н.А. Практика самообразования. Н.А. Рубакин. Избранное. Т. II, М.: «Книга», 1975 Чубарьян О. С, Общее либреттоведение, 3 изд., -М.: 1976;
3. Юлдашев Э. Формы и методы обучения детскому чтению. - Ташкент: 1986; Юлдашев Э. Руководство чтением читателей в детской библиотеке. - Ташкент: 1983; Юлдашев Э. Формирование культуры чтения детей в библиотеке. Учебное пособие. - Ташкент: 1986, - С.48.
4. Каюмхожаева Ю. Возможности формирования читательской культуры учащихся. -Ташкент: Фан, 2007. -110 6.
5. Ганиева Б.И. Педагогические возможности воспитания культуры чтения у детей в библиотеках. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Ташкент: Низаминский государственный педагогический университет, 2008.
6. https://lex.uz/docs/-3338600

MIDIERGONOMIK QARASHLAR - PEDAGOG VA RAHBARLARNING KOMPETENTLIGINI OSHIRIB BORISHI SIFATIDA

Eraliyev Xalimjon Alimbekovich
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o`qitish metodikasi kafedrasi mudiri dotsent.
eraliyev2020@gmail.com. tel: +99897 251-81-91

Annotatsiya: *Umumta'lim maktabi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirish va hozirgi zamon maktab rahbarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirishda ergonomik bilim, ko`nikma va malakalarning dolzabligi asoslangan. O`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirish jarayoni mazmuni va amalga oshirish texnologik tizimi tarkibiga kiruvchi komponentlarni taqdim etilgan.*

Tayanch so`z va tushunchalar: *ergonomik yondashuv, midiergonomik madaniyat, ergonomik ta'lim muhiti, texnologik tizim.*

МЕДИЭРГОНОМИЧЕСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ – КАК СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ И РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация: *Развитие мидиэргономической культуры заместителей директоров по учебной работе общеобразовательной школы и развитие мидиэргономической культуры современного руководителя школы основано на потребности в эргономических знаниях, умениях и квалификациях. Представлено содержание процесса развития мидиргономической культуры заместителей директора по учебной работе и компоненты, входящие в технологическую систему внедрения.*

Ключевые слова и понятия: *эргономический подход, эргономическая культура, эргономическая образовательная среда, технологическая система.*

MEDIERGONOMIC CONSIDERATIONS - AS A WAY TO IMPROVE THE COMPETENCE OF TEACHERS AND LEADERS

Abstract: *The development of the mid-ergonomic culture of deputy directors for educational work of a general education school and the development of the mid-ergonomic culture of a modern school leader is based on the need for ergonomic knowledge, skills and qualifications. The content of the process of development of the midirgonomic culture of deputy directors for academic work and the components included in the technological implementation system are presented.*

Key words and concepts: *ergonomic approach, ergonomic culture, ergonomic educational environment, technological system.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar bilan bir qatorda, ta'limni tizimini yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati inson kapitalini rivojlantirish va intellektual salohiyatini oshirish shuningdek, ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo`lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishni nazarda tutgan holda pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazi pedagog xodimlarning asosiy vazifalari sifatida tinglovchilarning o`quv fanlari, fan modullari va bloklari bo`yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o`zlashtirish ehtiyojini, asosiy o`quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni, kasbiy rivojlanishlarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo`lishni belgilab berdi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o`quv dasturlari asosida ta'lim-tarbiya berish, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishdir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo`naltirilgan tizimli jarayonda muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga erishishga yo`naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayon tashkil etish o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlaridan midiergonomika bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalarga asoslangan madaniyatni talab etadi. Dars mashg'ulotlarining internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofadan turib amalga oshirish, muayyan loyiha asosida tashkil etish, aniq maqsadga erishishga yo`naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayonlarda eng samarali metodlardan foydalanish, ta'lim va tarbiya texnologiyalarini tanlash hamda dars jarayonlarini tashkil etish samaradorligini midiergonomik madaniyat ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kun ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o`zgartirib, yangilab borishni ko`zda tutadi.

Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etgan holda o`quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondoshuvlarni hisobga olib, o`quv materiallarini midiergonomika talablariga muvofiq modellashtirish, yaxlit pedagogik jarayonning umumiy konun, konuniyat va tamoyillariga amal kilgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg'unligiga erishish, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlarining o`zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish, o`qituvchi va o`quvchilarni bo`sh vaqtini samarali tashkil etish va o`tkazish, kreaktiv saloxiyatni, midiergonomika bo`yicha bilim va ko`nikmalarni shakillantirish va rivojlantirish dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Hozirgi zamon o`qituvchisi o`tgan asrdagi o`qituvchidan tubdan farq qiladi. Avvallari o`qituvchi uchun sinf xonasi, sinf taxtasi va bo`r, partalar ya'ni o`quvchilar ish o`rni bo`lishi kifoya edi. Xozirgi zamonda esa umumta'lim maktablarining faoliyatini moddiy texnik bazasi, ta'lim vositalarining turli tuman ko`rinishlarisiz tasauvvur qilib bo`lmaydi. Ushbu moddiy texnik baza va ta'lim vositalar pedagogik va ergonomik talablar, meyoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

O`quvchi shaxsining kamol topishiga, muayyan umumta'lim va politexnik bilim, malaka, ko`nikmalarini shakillanishiga xizmat qilish uchun ta'lim vositalarining yaroqliligi masalasi pedagogik va ergonomik talablar orqali belgilanadi. SHuningdek, ta'lim vositalariga qo`yiladigan ergonomik talablar ushbu vositalardan foydalanish jarayonida namoyon bo`luvchi insonning antropometrik, fiziologik, psixofiziologik va psixologik xususiyatlarini e'tiborga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlari midiergonomik madaniyatini tashkil etuvchi eng asosiy yetakchi omillar o`quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o`quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o`z faoliyatida to`la rioya qilish sifatlarining ularda mavjudligini ta'minlovchi bilim, malaka, fikrlash va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yo`nalganlik hisoblanadi. Agar direktor o`rinbosarida midiergonomik madaniyat shakllangan bo`lsa, demak, u hozirgi zamon maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari ob'ektlarini(naturalь ob'ektlar; modellar; o`quv asboblari va jixozlari; tasvirli-ovozli ta'lim vositalari; ta'limning bosma vositalari; dastgoxlar, asobolar, uskunalar; hisoblash texnikasi vositalari; elektron maktab darsliklari; interьer, o`quvchi va o`qituvchi ish o`rni; yoritilganlik; xavfsiz va qulay isitilganlik; maktab mebeli; faoliyatni rejalashtirish; dars jadvali va shu kabilarni loyixalashtirish) ergonomik talablar asosida tashkillashtirish va ushbu talablarga og'ishmasdan amal qilishni o`z faoliyatida amaliyotga joriy eta oladi, ya'ni:

1. Maktabda o`quvchilar shaxsini kamol toptirishda xavfsiz va kulay ish o`rinlari va ta'lim muxiti sharoitini yaratadi.

2. O`qituvchining o`z ish o`rnida xavfsiz va kulay ta'lim muxiti sharoitida o`zining kasbiy vazifalarini samarali bajaradi.

3. Salomatlikni saqlash, texnologik va o`quv uskunalar bilan jixozlanishga qo`yiladigan ergonomik talablarga og'ishmay amal qilishi natijasida fan kabinetlari va maktab faoliyatini qulay va xavfsiz sharoitlarda yuritilishini ta'minlaydi.

Har bir fan kabinetining moddiy texnik bazasi, ta'limning texnik vositalari va jixozlaridan foydalanish, o`qituvchi va o`quvchilarning mashg'ulotlarni o`tkazish va bilim olish jarayonlarini xavfsiz va qulay pedagogik hamda midiergonomik talablar asosida tashkil etish o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosaridan kasbiy faollik va midiergonomik madaniyatni talab etadi.

Kasbiy faollik - ta'limning me'yoriy-xukukiy xujjatlari, boshkaruv maxorati, midiergonomika asoslarini, ish yuritish tizimi, ta'lim jarayonida va boshkaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kasbiy kompetentligi, chet tillarini bilishda ifodalanadi.

Kasbiy faollik darajasi - kasbiy malaka darajasi, tegishli funktsional vazifalar buyicha ish tajribasi, kasb soxasiga muvofikligi, egallab turgan lavozimi buyicha funktsional vazifalarni bilishi, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashuv darajasi, xolislik, oshkoralik, shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajalari, amaliy tajribasi, boshkaruv maxoratlari mavjudligi, ta'lim vositalari va moddiy texnik bazasiga

qo`yiladigan maxsus midiergonomik talablarning bilishi, kasbiy madaniyati, mas'uliyatliligi, jamoadagi mavkei va shu kabi bir qator sifatlar orqali belgilanadi.

Umumiy holda, pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazlarida o`quv ishlari bo`yicha diretor o`rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini takomillashtirishga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo`ladi. Ob'ektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazining innovatsion faoliyat yo`nalishidagi tajribalarini keltirishimiz mumkin.

Sub'ektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markazi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining rivojlanish jarayoni, tinglovchilarning midiergonomik bilim, ko`nikma va malakalarga extiyoji, ilmiy salohiyatining rivojlanishi, ta'lim muassasasi salohiyatining o`sishi, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqaruv xususiyatlarining o`zgarishi misol bo`ladi.

XULOSA

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta'lim tizimini takomillashtirish yo`nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar "Malaka oshirish jarayonida o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosarlari midiergonomik madaniyatini takomillashtirish"ni ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bular o`z navbatida, ta'lim muassasasi rahbarlari va o`qituvchilari pedagogik jarayonlarni midiergonomik talablar asosida tashkil etish va boshqarish yo`nalishidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni aniqlash, mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish yo`nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub'ektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o`rganishlari zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi kunda esa ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga ta'sir ko`rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida midierganomika talablarini o`zlashtirgan, ergonomik madaniyati rivojlangan malakali mutaxassislar zarurligi dolzarb muammo bo`lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.Абдуллаев С.Х. Ўқитувчиларнинг эргономик маданиятини ривожлантириш муҳитини ташкил этиш тизими ва технологияси // Замонавий таълим. Тошкент, 2021. 9-сон. Б.28-

2.Абдуллаев С.Х. Технологик таълим ўқитувчиларининг эргономик компетентлиги // Монография. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.

3.Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство/учебное пособие для магистратуры всех специальностей. - Т.: ТГПУ им. Низами, 2003. – 192 с.

4. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.

5.Ўзбекистон республикаси халқ таълими вазирлиги олий ва ўрта махсус таълими вазирлиги маданият ва спорт ишлари вазирлиги. Таълим муассасаларидаги мебель, ўқув-лаборатория асбоб-ускуналари, компьютер техникаси, спорт анжомлари ва бошқа инвентарлардан самарали фойдаланиш ҳамда уларни сақлаш тўғрисида й ў р и қ н о м а (қўлланма). Тошкент – 2010.

MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI HAMDA TARIX DARSLARIDA QO‘LLANILISHI

Qoriyev Abdumalik Ubaydullayevich
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi,
Elektron pochta: Aqoriyev88@gmail.com, tel raqam: +998999744436
ORCID: 0009-0008-6308-2871

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarix darslarida mediatexnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-metodik asoslari, ularning o‘quvchilar tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni, amaliy imkoniyatlari va qo‘llashdagi dolzarb masalalar hamda ushbu mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinadi. VR texnologiyalarini tarix darslarida foydalanishning afzalliklari amalga oshirish bosqichlari ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarix, media texnologiya, VR texnologiyasi, vizuallashtirish, interaktiv dars, tahliliy fikrlash, LMS tizimi, Moodle, Google Classroom*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING MEDIA TECHNOLOGIES AND THEIR APPLICATION IN HISTORY LESSONS

Qoriyev Abdumalik Ubaydullayevich
Senior teacher at the Namangan Regional Center for Pedagogical skill
Email: Aqoriyev88@gmail.com, Phone: +998999744436
ORCID: 0009-0008-6308-2871

Abstract: *This article explores the scientific and methodological foundations of using media technologies in history lessons, their role in shaping students' thinking, practical opportunities, current issues in their implementation, and an analysis of relevant literature on the topic. The advantages and implementation stages of using VR technologies in history education are also discussed.*

Keywords: *history, media technology, VR technology, visualization, interactive lesson, analytical thinking, LMS system, Moodle, Google Classroom*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

Корияев Абдумалик Убайдуллаевич
Старший преподаватель Наманганского областного центра педагогического мастерства,
Электронная почта: Aqoriyev88@gmail.com, тел: +998999744436.
ORCID: 0009-0008-6308-2871

Аннотация: *В данной статье рассматриваются научно-методические основы использования медиа технологий на уроках истории, их роль в формировании мышления учащихся, практические возможности и актуальные вопросы их*

применения, а также проводится анализ литературы по данной теме. Показаны преимущества и этапы внедрения VR-технологий в преподавание истории.

Ключевые слова: *история, медиа технология, VR-технология, визуализация, интерактивный урок, аналитическое мышление, система LMS, Moodle, Google Classroom*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida mediatexnologiyalar ta’lim sifatini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. So`nggi yillarda O‘zbekistonda ushbu omilga chuqur e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrifi chog‘ida “…Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi”[1], degan fikrini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu fikr orqali barcha sohalarda, shu jumladan ta’lim sohasida ham mediatexnologiyalarni rivojlantirish nazarda tutilmoqda. Ta’lim tizimini rivojlantirishda albatta barcha fanlarni o‘qitishda mediatexnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarix fanida ular darslarni jonlantirish, tarixiy voqealarni ko‘rgazmali yetkazish, shuningdek, o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta’limda mediatexnologiyalardan foydalanishning samarali omil ekanligi bo‘yicha juda ko‘plab ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar o‘tkazilib, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, maqola va tezislar nashr etib kelinmoqda. Bu mavzuga oid xorijiy va mahalliy nashrlarda chiqqan adabiyotlar va maqolalarni tahlil qilinadiga bo‘lsa, ushbu mavzuni bugungi kunda naqadar muhim ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Hususan, Amerikalik tarixchi pedagog va tadqiqotchilar Loik Tallon va Kevin Walkerning “Digital Technologies and the Museum Experience” nomli kitobida muzeylarda raqamli texnologiyalardan foydalanish va tarixiy moddiy manbalarni elektron shaklga o‘tkazib, o‘quvchi-yoshlarga bilimlar berish, samarali ekanligi asoslashga urinilgan [2]. Yevropalik tarixchi tadqiqotchilar J.Anderson, H. Davis, M. Wilsonlar tomonidan yozilgan “Using VR in History Education” nomli kitobda tarix fanini o‘qitishda VR texnologiyasidan foydalanish jarayoni va uni ijobiy tomonlari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tadqiq etilgan hamda amaliy foydalari keltirilgan[3]. Belarussiyalik pedagog V.Frolov tomonidan tayyorlangan "Современные медиатехнологии в системе вузовского обучения" qo'llanmada mediatexnologiyalarni oliy ta'limdagi o'rni va roli, qo'llanilishi yoritilgan[4].

O'zbekistonlik pedagog M.Yusupovning "Zamonaviy ta'limda mediatexnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida ham ushbu mavzuga oid bir qator izlanishlari keltirib o'tilgan[5]. Ushbu o'quv qo'llanma 2021-yilda nashr etilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli va media vositalardan foydalanish metodikasini nazariy va amaliy jihatdan yoritadi. O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida ta'limni samarali tashkil etish zaruriyati asoslab berilgan. Mediatexnologiya tushunchasi kengroq yoritilgan, ya'ni audio, video, grafika, interaktiv vositalar, virtual va kengaytirilgan reallik elementlari ekanligi keltirilgan hamda multimediali taqdimotlar, elektron darsliklar, mobil ilovalar, videodarslar, LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom) haqida aniq misollar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mediatexnologiyalar interaktiv taqdimotlar, virtual muzeylar va 3D ekskursiyalar, VR(Virtual Reality) texnologiyalari, dasturiy ilovalar va ta'limiy platformalar, animatsiyalar, infografikalar hamda gamifikatsiya vositalari kabi asosiy turlarda namoyon bo'ladi. Darslarda doimiy foydalanilayotgan Office dasturlari, internet va boshqa ta'limga oid programmalar hamda brauzerlar ham albatta mediatexnologiyalarning ajralmas bir bo'g'inidir.

Tarix darslarida mediatexnologiya turlari	**Tavsifi va qo'llanilishi**
Video darslar va hujjatli filmlar	Tarixiy voqealarni ko'rgazmali ko'rsatish, tahlil qilish imkonini beradi.
Interaktiv taqdimotlar (Canva, SlidesGo, Gamma, PowerPoint, Genially)	Voqealar ketma-ketligi, xaritalar, muhim shaxslar haqida vizual taqdimot tayyorlanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tarix darslarida mediatexnologiya turlari	Tavsifi va qo‘llanilishi
Virtual muzeylar va 3D ekskursiyalar	O‘zbekiston va jahondagi muzeylar(Amir Temur va temuriylar tarixi davlat muzeyi, Luvr, Ermitaj kabilar)ni virtual ko‘rishni ta’minlaydi.
VR (Virtual Reality) texnologiyalari	O‘tmish muhitini his qilish, tarixiy joylarga sayohat qilish (masalan, Shohi Zinda, Kolizey, Piramida) imkoniyatini yaratadi.
Dasturiy ilovalar va ta’limiy platformalar	Crossword, Quizizz, Padlet orqali testlar, interaktiv savollar tuzish.
Animatsiyalar va infografikalar	Tarixiy jarayonlarni tahliliy va soddalashtirilgan ko‘rinishda ko‘rsatish
Gamifikatsiya vositalari	Wordwall, Kahoot, kabi dasturlardagi o‘yinlar orqali tarixiy faktlarni o‘rganish mumkin

Mediatexnologiyalarni qo‘llashning asosiy maqsadlari o‘quvchida tarixiy tafakkur va xotirani rivojlantirish, tahliliy ko‘nikmalar (taqqoslash, sabab–oqibatni aniqlash, muammo qo‘yish)ni shakllantirish, tushunishga asoslangan o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchining darsga qiziqishini va motivatsiyasini oshirish, tarixiy bilimlarni real voqelik bilan bog‘lash, hayotiylikni kuchaytirishdan iboratdir.

Mediatexnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan va muammolarga texnik vositalarning yetishmasligi, dars vaqtining yetarli emasligi, internet muammolari, o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmasi past bo‘lishi kabilarni kiritishimiz mumkin. Ularni bartaraf etish uchun alternativ variantlardan, ya’ni telefon, planshetlardan topshiriq shaklida foydalanish, oldindan dars rejasini texnologiyaga moslab tuzish, offline videolar, PDF va office dasturlaridagi ma’lumotlarni darsga fleshka orqali olib kirish, trening va o‘quv kurslar tashkil etish, metodik tavsiyalar tayyorlash tavsiya etiladi.

Mediatexnologiyalardan muntazam foydalanish davomida o‘quvchilarda tahliliy fikrlash asosida sabab–oqibatni tushunish, vizual savodxonlik hamda xarita, jadval, grafikalarni tahlil qilish, madaniy merosni qadrlash va tarixiy obidalarni ko‘rish orqali milliy ongni rivojlantirish, texnologik savodxonlik, turli ilova va platformalardan samarali foydalanish kabi ko‘nikmalari shakllanadi [6].

Tarix darslarida mediatexnologiyalarni qanday amalga oshirilishini quyidagi jadval misolida ko‘rib chiqish mumkin:

Dars mazmuni	**Mediatexnologiya**	**Amalga oshirish shakli**
Temuriylar davrida ilm-fan	**PowerPoint va video**	Al-Xorazmiy haqida video, ilmiy yutuqlar jadvali
Buxoro xonligida madaniy hayot	**Virtual ekskursiya**	Google Earth 3D yoki VR tour, tahliliy savollar bilan ishlash
XIX asr boshida Qo‘qon xonligi	**Genially interaktiv taqdimot**	Xaritalar, shaxslar, ijtimoiy tuzumni solishtirish
Ikkinchi jahon urushiga oid mavzularda	**Hujjatli filmlardan parchalar**	Film tahlili va "Nega bunday bo‘ldi?" savollari asosida muhokama
Mustaqillik yillari	**Video-posterlar va infografika**	O‘quvchilar o‘z posterini yaratadi va taqdim etadi

Ta’limga kirib kelayotgan zamonaviy mediatexnologiyalardan biri bu VR (Virtual Reality) texnologiyalaridir. Ushbu texnologiyadan tarixiy-me’moriy obidalarni o‘rganishda foydalanish zamonaviy ta’limni yanada samarali qiladi. VR orqali tarix fanini, ayniqsa tarixiy-me’moriy obidalarni o‘rganishda 3D modellar yoki virtual sayohatlardan foydalanish mumkin. VR ilovalari yordamida (Google Earth VR, Open Heritage, Oculus VR History, Unreal Engine turlari) tarixiy obidalarni 360° ko‘rish, tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ular orqali o‘quvchilar obidalar ichida o‘zini Registon majmuasi, Ichan qal’a, Shohi Zinda kabi obidalarda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"yurgandek" sezadi. Shuningdek, tarixiy davrlarga oid ssenariylar asosida simulyatsiya qilingan ekskursiyalar orqali muhitni his qilishga erishiladi.

VR orqali qadimiy shaharlarga (masalan, qadimiy Rim, Machu Picchu, yoki Samarqand) sayohat qilish, tarixiy voqealarni qayta tiklash, o'quvchilarning tarixiy janglar, yig'ilishlar yoki ijtimoiy hodisalarning virtual ishtirokchisi bo'lishi, muayyan davr muhitini his qilish, ya'ni o'quvchilar o'zlarini o'sha davrda yashayotgandek his qilishlari uchun muhitdagi detallar, ovozlar va voqealarni taqdim etish jarayonidir[7].

Bunda nimalarga alohida e'tibor qaratish kerak? Avvalo, mazmunga, pedagogik maqsadga, texnik vositalarga, individual yondashuvga, mahalliy va global kontekstga diqqat qaratilsa, so'ngra me'moriy obidani tarixiy kontekst asosida rekonstruksiya qilinganligiga, faqat "ko'rish" uchun emas, tahlil qilish**,** solishtirish va o'z fikrini bildirishga yo'naltirilganiga, VR qurilmalari yoki alternativ tarzda 3D veb-saytlar, smartfon ilovalarini mavjudligiga, har bir o'quvchining o'rganish sur'ati, faollik darajasini hisobga olinishiga, mahalliy tarixiy obidalar bilan bir qatorda xorijiy obidalarni ham ko'rsatishga e'tibor qaratish lozim.

VR texnologiyalari VR ko'zoynaklari, interaktivlik hamda tarixiy o'yinlar va dasturlar orqali ishlaydi. VR ko'zoynaklari maxsus qurilma bo'lib, Oculus Rift, HTC Vive, Google Cardboard orqali o'quvchilarga 3D formatdagi tarixiy manzaralar va hodisalarni ko'rsatadi. Interaktivlik esa VR platformalarida o'quvchilarga virtual muhitda harakat qilish, ob'ektlar bilan o'zaro ta'sir qilish imkoniyatini beradi. Tarixni o'rganishga bag'ishlangan o'yinlar va simulyatsiyalar VR platformalarida keng qo'llaniladi.

Virtual tarixiy tajribalar va VR (Virtual Reality) texnologiyalaridan foydalanishda "Virtual ekskursiya", "Tahliliy stansiyalar", "Rolli tafakkur", "Solishtirma tahlil" kabi metodlar va "Tarixiy obidani men tiklasam..." mavzusidagi esse yaxshi samara beradi. Bunga sabab, metodlardan foydalanish jarayonida o'quvchi tarixiy obida ichida yurib, uni ko'zdan kechiradi, yo'nalishli savollar asosida ma'lumot to'playdi, VR ko'rganidan so'ng o'quvchilar stansiyalarda me'moriy uslub, tarixiy kontekst, diniy-ijtimoiy ahamiyatini tahlil qiladi, o'quvchi o'zini me'mor, tarixchi, sayyoh yoki podshoh rolida tasavvur qilib, obidaga baho beradi, bir nechta

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

obidani ko‘rganidan so‘ng, ularning arxitektura, tarixiy davr, funksiya jihatidan o‘xshash va farqlarini topadi. “Tarixiy obidani men tiklasam...” mavzusidagi esse yozish davomida o‘quvchilar obidani qanday saqlash, qayta tiklash haqida o‘z takliflarini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

J.Anderson va uning jamoasi tomonidan 2 ta oliy ta’lim tashkilotida o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha[8], Tarix darslarida VR (Virtual Reality) texnologiyasini doimiy qo‘llab borish tahlil qilinganida o‘quvchi va talabalarda analitik(tahliliy) fikrlash ko‘nikmasi rivojlanib borishi kuzatilgan. Bu esa quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi ilgari suriladi:

Birinchi, kuzatish bosqichi. VR orqali obidani ko‘rish, tuzilishi, rangi, bezagi, joylashuviga e’tibor qaratiladi.

Ikkinchi, savollar orqali yo‘naltirish bosqichi. “Bu obidaning vazifasi nima bo‘lgan?”, “U qanday tarixiy davrga tegishli?”, “Nega bu obida muhim hisoblanadi?” kabi savollar beriladi.

Uchinchi, grafik-tahliliy va solishtirma topshiriqlarni qo‘llash bosqichi. Tarixiy obida sxemasi, arxitektura elementlari ajratilishi, tarixiy va madaniy qiymat jadvalini to‘ldirish hamda boshqa davr yoki davlatdagi me’moriy yodgorliklar bilan solishtirish topshirig‘idan foydalaniladi.

To‘rtinchi, og‘zaki yoki yozma fikr bildirib xulosalash bosqichi. “Ushbu obida bugungi kunda qanday rol o‘ynaydi?”, “Agar bu obida tiklanmasa, nimani yo‘qotamiz?” kabi savollarga javob berib yakuniy xulosa qilinadi.

VR texnologiyalaridan tarix darslarida foydalanib borishning foydali jihatlariga ta’limda yangi imkoniyatlarni yaratishi, tajriba asosida o‘rganishni kuzatilishi, qiziqarli va motivatsion usullarni amaliyotga tadbiq etilishi kiradi. Bu esa o‘quvchilarda tarixni o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. Masalan, “The British Museum” VR dasturi qadimiy artefaktlarni 3D ko‘rinishda o‘rganish imkonini beradi, “Virtual tours of Pompeii” sayti Pompeyni VR orqali tomosha qilish imkoniyatini yaratadi, “Google Expeditions”da esa VR sayohatlari orqali tarixiy joylarni tadqiq qilish mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarix darslarida mediatexnologiyalarni qo‘llash an’anaviy ta’lim usullarini to‘ldiradi, o‘quvchilarning axborotni chuqurroq anglashiga, mustaqil fikr yuritishiga, faolligini oshirishga xizmat qiladi, milliy qadriyatlarni chuqur anglashga va yosh avlodda tarixiy ongni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. VR texnologiyalari esa tarixiy-me’moriy obidalarni o‘rganishda zamonaviy, samarali, motivatsiyalovchi vositadir. Bu texnologiyalar orqali tarixiy tahlil, mantiqiy fikrlash, tafakkur qilish, qiyoslash, va madaniy ong shakllanadi.

Bir so‘z bilan aytkanda “Ta’limda mediatexnologiyalar orqali o‘quvchining ongiga emas, balki qalbiga murojaat qilish kerak”.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://president.uz/oz/lists/view/6937
2. Loik Tallon va Kevin Walkerlar tomonidan “Digital Technologies and the Museum Experience”. Altamir press, 2008.
3. Anderson J., Davis H., Wilson M. VR Using VR in History Education. Educational Technology Review. 2019.
4. Frolov V. Современные медиатехнологии в системе вузовского обучения, -Moskva, 2017.
5. Yusupov M. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2021.
6. Qodirov S. Tarix darslarida innovatsion metodlar. Samarqand: Ma’rifat. 2020
7. Jonbekova L. Mediatexnologiyalar va tarixiy tafakkur. O‘zbekiston tarixshunosligi jurnali, 4-son. 2022.
8. Mike Viktor “The impact of virtual reality on historical education: an investigation into the effectiveness and efficacy of immersive learning experiences”. IJHR, 2023.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TIL, SHEVA VA TAFAKKUR: TOG‘AY MUROD PROZASIDA XALQONA NUTQNING ROLI

Ravshanova Madina Zafarjon qizi
University of Business and Science
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
ravshanovamadinabonu05@gmail.com
Ilmiy rahbar: X.D. Xashimova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning badiiy asarlarida xalqona til va shevalarning badiiy muhit yaratishdagi o‘rni va funksiyasi tahlil etiladi. Muallif realistik obrazlar, mahalliy ruh va ijtimoiy tafakkurni ochishda jonli og‘zaki nutq elementlariga tayanadi. Tahlil jarayonida muallifning ayrim asarlari tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Tog‘ay Murod, sheva, xalqona til, badiiy muhit, lingvistik realizm.*

ЯЗЫК, ДИАЛЕКТ И МЫШЛЕНИЕ: РОЛЬ НАРОДНОЙ РЕЧИ В ПРОЗЕ ТОГАЯ МУРАДА

Аннотация: *В статье анализируется роль и функция народных языков и диалектов в создании художественной среды в произведениях Тогай Мурода. Автор опирается на элементы живой устной речи для раскрытия реалистических образов, местного колорита и общественного мышления. В процессе анализа были проанализированы некоторые произведения автора.*

Ключевые слова: *Тогай Мурод, диалект, народная речь, художественный реализм, национальная стилистика.*

LANGUAGE, DIALECT, AND THOUGHT: THE ROLE OF VERNACULAR SPEECH IN TOGAY MURAD'S PROSE

Abstract: *This article analyzes the role and function of folk languages and dialects in creating an artistic environment in the works of Togay Murod. The author relies on elements of lively oral speech to reveal realistic images, local spirit, and social thinking. In the process of analysis, some of the author's works were analyzed.*

Keywords: *Togay Murad, dialect, vernacular speech, linguistic realism, Uzbek literature.*

KIRISH

Tog‘ay Murod o‘zbek nasrining o‘ziga xos yirik vakillaridan biri bo‘lib, adabiy uslubi, xalqona ifodasi va realistik tasvir kuchi bilan milliy adabiyotimizda chuqur iz qoldirgan yozuvchilardandir. Uning asarlarida real hayot manzaralari, xalqona

tafakkur, ruhiy kechinmalar chuqur badiiy tasvirga ega. Xususan, xalq og‘zaki nutqi va shevalardan foydalanish orqali u obrazlarning tabiiyligini ta’minlaydi va o‘quvchini bevosita voqealar markaziga olib kiradi. Uning prozasida til va tafakkur, sheva va xalqona ifoda uyg‘unligi obrazlar psixologiyasini yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat voqelikni badiiy ifodalagan, balki xalq ruhiyati, mentaliteti va ijtimoiy ziddiyatlarni tabiiy tilda, jonli xalq so‘zlari vositasida badiiy tahlil etgan.

TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada adabiy-tilshunoslik tahlil usuli, matnlararo taqqoslash va stilistik kuzatuvlar asosida ikki asosiy asar — “Ot kishnagan tun” (Toshkent, 1995) va “Otamdan qolgan dalalar” (Toshkent, 1994)dagi sheva birliklari o‘rganildi. Iqtiboslar nashr sahifalari bilan ko‘rsatildi.

NATIJALAR

Tog‘ay Murod asarlarida mahalliy sheva unsurlari – ayniqsa Qoraqalpog‘iston va Xorazm lahjalariga yaqin bo‘lgan nutq shakllari keng qo‘llanilgan. Bu shevalar obrazlar tilini jonlantiradi, voqea sodir bo‘layotgan joyni tabiiy tarzda gavdalantiradi. Masalan, “Ot kishnagan tun” hikoyasida qahramonlarning nutqida ushbu sheva elementlari nihoyatda tabiiy ifodalangan: “Birodarlar... Men araz urishni yaxshi ko‘raman! O‘layin agar-a! Oy tug‘adi, o‘ttizida to‘ladi. Shu oyda biror-bir nimadan, aqalli bir martagina bo‘lsa-da, arazlamasam bo‘lmaydi.”

Bu parchada “araz urmoq”, “o‘layin agar-a” kabi xalq orasida ishlatiladigan ifodalar orqali muallif tilga xalqona ruh, satira va kulgi kiritadi. Bu holat yozuvchining obrazlarni hayotga yaqinlashtirishga bo‘lgan harakati natijasidir. Bu parcha mahalliy ohang va xalqona uslub orqali qahramonning o‘ziga xos fe’l-atvorini va ruhiy holatini ochib beradi. “Araz urish” iborasi mintaqaviy tilda o‘ziga xos konnotatsiyaga ega. Yana bir misol: “Bo‘z ot qanday bo‘ladi? Surpday opioq bo‘ladi... Tarlon – xol xol ot!” *(Shu asar, B. 45)*Bu parchada otlarga berilayotgan xalqona ta’rif va benazir obrazlar orqali o‘zbek dehqonchilik, chorvachilik madaniyati haqida chuqur tasavvur hosil qilamiz.

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasida shevaviy nutq orqali Bo‘ri polvon, Momoqiz kabi qahramonlar xarakteri, jamiyatdagi holatlar va ko‘ngilli holatlar jonli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tasvirlangan. Masalan: *"Mayda-yo, mayda-yo, Momo o'zi yaxshi qiz…"* – bu mahalliy xalq qo'shiqlari tarzida ifodalangan sheva elementlari sifatida asar jozibasini oshiradi. Shuningdek, "Oydinda yurgan odamlar" va boshqa qissalarida xalq qo'shiqlaridan – "turey-turey", "alla-alla" kabi elementlardan samarali foydalanib, shevalarning psixologik va badiiy funksiyasini kuchaytirgan. Tog'ay Murod asarlarida ishlatilgan sheva va xalqona til: "hadahaladi", "o'tirib jo'nadi", "yig'lab qo'ya berdi", "aytib qo'ya berdim" kabi iboralar tilga noyob jonli ekspressiya beradi; "ahay-hay", "ahay-ahay" kabi undov ishlatish orqali matnning musiqiyligi va xalq og'zaki nutqi badiiy ifodaga aylantirilgan

"Birodarlar, o'zi, Bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday opioq bo'ladi... Tarlon – xol xol ot!... Temir odamga el bo'lmaydi!" (*"Ot kishnagan tun", sahifa 45*)

"Surpday opioq", "xol xol ot" kabi ifodalar jonli til vositasida estetik obraz yaratilganining isbotidir. Tog'ay Murod o'z asarlarida xalqning tarixiy, ijtimoiy xotirasini jonlantiradi. U yuksak til madaniyatini o'zbek xalqining hayoti bilan uyg'unlashtirib, uni milliy ruh bilan to'ldiradi. Bu, ayniqsa, "Otamdan qolgan dalalar" asarida yaqqol ko'rinadi: "U mustabid tuzum sharoitida mehnatkash, rostgo'y inson sifatida yuksalishga emas, ko'proq xo'rlik va ezilishlarga duch keladi." *(Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – B. 112)* Bu parcha orqali yozuvchi ijtimoiy voqelikni badiiy idrok etgan holda xalq ruhiyatiga xos kinoyali, ammo isyonkor ohangni yetkazadi.

Sheva, faqat tilning lisoniy birligi sifatida emas, balki psixologik holatlarni ochishda ham kuchli vositaga aylangan. "Ot kishnagan tun" asarida qahramon Ziyodullaning ichki kechinmalari bevosita xalqona ifodalar orqali ifodalanadi: "Ziyodulla tunning sokinligida yulduzlarga tikilib, hayotining mazmuni haqida o'ylardi. U ichki tinchlik izlar, yuragi birdan titrar edi." *(Shu asar, B. 63)* Bu yerda fonga kiritilgan xalqona kontekst, mavhum tasvir va ichki monologlar ruhiy jarayonni chuqurlashtiradi.

"U mustabid tuzum sharoitida mehnatkash, rostgo'y inson sifatida yuksalishga emas, ko'proq xo'rlik va ezilishlarga duch keladi." (*"Otamdan qolgan dalalar", sahifa 112*)

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bu parchada ijtimoiy adolatsizlik va insoniy kechinmalar mahalliy tilda tushunarli va ta'sirchan ifodalanadi.

MUNOZARA

Tog‘ay Murod ijodining yuksak badiiy qadriyati uning til bilan ishlash mahoratida namoyon bo‘ladi. U shevalar orqali nafaqat obraz, balki butun milliy muhit, xalq ruhini yaratadi. Til boyligi, mahalliy so‘z va iboralarning jo‘shqinligi asarni o‘qiladigan, qahramonlarni esa hayotiy qiladi. O‘zbek nasrida bu kabi xalqona tilga tayanuvchi yondashuv Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov an'analarini davom ettiruvchi muhim bosqich hisoblanadi.

XULOSA

Tog‘ay Murod xalqona til va shevalarni badiiy tasvir vositasi sifatida mahorat bilan qo‘llab, realizm, ijtimoiy tafakkur va ruhiy analizni uyg‘unlashtira oldi. Tog‘ay Murod asarlarida til – shunchaki vosita emas, balki badiiy-estetik mazmun manbai sifatida xizmat qiladi. Mahalliy shevalar, xalqona iboralar orqali u o‘zbek xalqining hayoti, kechinmalari, ichki olami va tarixiy taqdirini so‘zlagan. Bu yondashuv yozuvchining tilga bo‘lgan estetik munosabati, xalq ruhiyatiga yaqinligi va realizmga sodiqligini ko‘rsatadi. Uning ijodi milliy adabiyotimizda til, sheva va tafakkurning badiiy uyg‘unligining yorqin namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murod, T. Ot kishnagan tun. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 160 b.
2. Murod, T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994. – 192 b.
3. To‘ychiyev, S. *O‘zbek nasrida lingvistik realizm*. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Jo‘raqulov, H. *Adabiy qahramon va xalq tili*. – O‘zR FA, 2012.
5. Sharopov, N. *Milliy obraz va shevalarning adabiy uslubdagi roli*. – Filologiya masalalari, 2021, №2.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Boymanova Muxlisa Ismoil qizi
FarDU tayanch doktoranti
muxliska7090@gmail.com ,
+998 93 165 76 79

Annotatsiya. *TALIS xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mavzusi dolzarb ta'limiy ilmiy mavzu bo'lib, mazkur maqolada milliy ta'lim sifatini oshirish va modernizatsiyalashtirish uchun ilg'or xorijiy xalqaro baholash dasturlaridan biri TALIS tadqiqoti o'rganilib,u asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, modernizatsiya, inson kapitali, bilim, ko'nikma, kompetentsiya, TALIS.*

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ TALIS

Аннотация. *Тема совершенствования профессиональной компетентности будущих учителей на основе международной программы оценки TALIS является актуальной образовательной научной темой. В данной статье рассматривается исследование TALIS, одной из передовых зарубежных международных программ оценки для повышения качества и модернизации национального образования. На основе этого исследования освещаются мнения о роли и значении совершенствования профессиональной компетентности будущих учителей в системе образования.*

Ключевые слова: *образование, модернизация, человеческий капитал, знания, навыки, компетенции, TALIS.*

IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE TALIS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

Abstract: *The topic of enhancing the professional competence of future teachers based on the international TALIS assessment program is a relevant educational and scientific subject. This article examines the TALIS study, one of the leading international assessment programs aimed at improving the quality and modernizing national education systems. Drawing on this research, the article highlights various perspectives on the role and*

significance of enhancing the professional competence of future teachers within the education system.

Keywords: *education, modernization, human capital, knowledge, skills, competencies, TALIS.*

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning roli beqiyosdir. Global miqyosda ta'lim tizimlarini baholash va ularni takomillashtirish inson kapitalini shakllantirishning muhim omili ekanligini hisobga olsak, ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini, kompetentsiyalarini, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini shakllantirish, hamda ilg'or horijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish,mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro nufuzli reytinglarda munosib o'rinlarni egallash masalalariga davlat siyosati darajasida, alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Ta'lim to'g'risida"gi qonun"[1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi[3] Farmon hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish xalqaro baholash dasturlari xususan PISA, PIRLSS, TIMSS, TALIS muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, professional va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etiladi. O'z navbatida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ushbu tadqiqotlarda ishtirok etish uchun kirishgan davlatlarda alohida tuzilmaning (ko'p hollarda Milliy markazlar deb yuritiladi) mavjud bo'lishi tadqiqotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Chunki, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish va uni tashkil etish uchun alohida ilmiy va professional darajadagi yondashuv talab etiladi. Ushbu maqsad yo'lida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi tizimida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Ko'rib, tahlil qilingan ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturi TALISni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslash, shuningdek, solishtirma tahlillar asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish, tadqiqotlarda uzluksiz ishtirok etish va davriy ravishda o'zgarishlarni kuzatib borishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

TALIS (Teaching and Learning International Survey) – bu OECD (Iqtisodiy hamkorlikva taraqqiyot tashkiloti) tomonida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqot bo'lib, o'qituvchilarning ish sharoitlari,kasbiy rivojlanish darajasi,rahbarlik va dars berish metodlari haqida ma'lumot to'playdi va tahlil qilinadi. TALIS o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ish yuklamalari,darsga tayyorgarlik, o'quvchilar bilan munosabat,maktabdagi muhit kabi masalalarni o'rganadi. Mazkur tadqiqot natijalari turli mamlakatlardagi ta'lim tizimi holatlarini solishtirish,kuchli va zaif tomonlarini aniqlash,shuningdek ta'lim siyosatini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Xalqaro baholash dasturi TALIS ta'lim sifatini oshirish,modernizatsiyalash, milliy baholash tizimini takomillashtirish yo'lida bir qancha afzalliklar va imkoniyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi ilk bor 2018-yilda ishtirok etib,bu ishtirok mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro mezonlar asosida tahlil qilish,mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga zamin yaratdi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning ta'lim siyosatini isloh qilishda,xususan o'qituvchilar malakasini oshirish,ularning mehnat sharoitlarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yahshilash,maktab muhitini demokratlashtirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Shu asosdan kelib chiqib bo'lajak o'qituvchilarni TALIS tadqiqotlari talablaridan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentligini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb mavzu hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun yangilik bo'lganligi, unda o'qituvchilar 2018-yilda ilk marotaba qatnashganliklari sababli, bu tadqiqotlar nisbatan zamonaviydir. O'zbek olimlaridan M. Quronov, A. Sh Muxsiyeva, B. X. Xodjayev komptentsiyalar bo'yicha, rus olimlari G.S Kovaleva, L.O Roslova, G.A Sidorova, A.Y. Pentenlar, horij olimlaridan Andreas Shlyaxer[4],Adams,R[5],Griffin,P,E.Care[6], Jorj Morgan V.S Mullis, Michail Martin[7] kabilar xalqaro baholash tizimi,dasturlar va o'quvchilar kompetentsiyasini ilmiy-metodologik jihatdan o'rganishmoqda.

MUHOKAMA

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning bilimi,tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion ta'lim-tarbiya texnologiyalaridan foydalana olishiga pedagogik tayyorgarligiga, ma'suliyatligiga, malakali mutaxassislarga ta'lim-tarbiya berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga etkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi ishtirokida tashkil qilinadi va olib boriladi. Zamonaviy talablarga mos ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning hayotiy kompetentsiyalarini shakllantirish, pedagogik faoliyatda ularni bilimli, odob-axloqli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, yuksak ma'naviyatli barkamol inson qilib tarbiyalash va turli kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan pedagogik jarayon xisoblanadi.

O'quvchilarni kompetentsiyasini shakllantirishda pedagogning mahorati va salohiyati juda muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olsak,xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanish jarayonida o'qituvchilarni metodik va amaliy jihatdan ushbu tadqiqotlarga tayyorlab borish dolzarb hisoblanadi.Ularning bilim ko'nikmalari orqali o'quvchilarga kerakli yo'l-yuriqlar va tavsiyalar berib boriladi. O'qituvchining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yuksak tayyorgarligi o'quvchida bilim ko'nikma va malakalar shakllanishida muhim omil bo'ladi va ularda tayanch kompetentsiyalar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Ta'lim tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. PISA dasturi tashabbuskori Andreas Shlyaxer : "O'quv dasturlarining o'zini o'zgartirib qo'yish bilan yuqori natija kutish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Buning uchun o'qitish jarayonini, uning ishtirokchilari bo'lgan o'quvchilar va ularning ota-onalarining dunyoqarashini o'zgartirish lozim. |Bunda esa o'qituvchilar mahorati, bilim va saviyasining muntazam o'sib borishi hal qiluvchi kuch ahamiyat kasb etadi. Zero, biz o'quvchilarni hozirgi zamon uchun emas kelajak uchun tayyorlashimiz kerak" deb aytib o'tadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish dunyo miqyosidagi raqobatbardoshlilikni ta'minlashning eng muhim mexanizmi hisoblanadi. Uning darajasini oshirishda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Funksional savodxonlikning eng yuqori darajasiga yetmagan o'qituvchilar guruhini kamaytirishga erishish, o'qituvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish,barcha bo'lajak o'qituvchilarda bilim olish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish,shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirish.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XULOSA

TALIS xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqotining tahlillari o'qituvchilarda XXI asr ko'nikma va kompetentsiyalarni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa, avvalam bor bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini, malakasini oshirish, innovatsion o'qitish usullarini joriy qilish alohida ahamiyatga egadir.

TALIS xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi orqali quyidagilarga erishish mumkin:

yurtimizdagi ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot olish;

ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi;

ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;

ta'lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetentsiyaviy yondoshuvlar, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish;

kasbiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash;

kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni o'rganish;

Shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo'ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi.

Shunday ekan, milliy ta'lim tizimidan farqli bo'lganligi sababli mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, shu orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish uchun bo'lajak o'qituvchilardan yuksak mas'uliyat, yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik, shuningdek bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy innovatsion o'qitish usullarini o'zlashtirishi lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020y. https://lex.uz/docs/-5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida” gi 997-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli farmoni. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari onlayn milliy bazasi
4. Andres Shlyaxer.Jaxon miqyosidagi ta’lim.-Toshkent:”Zamin nashr”, 2022
5. Adams,R.(2022),Country comparisons in PISA:The Impact of Item Selections
6. Griffin,P. and E.Care (2015),Assesment and Teaching of 21st Century Skills,Springer Dordchrecht,New York
7. Martin,M. and I.Mullis.(2013),TIMSS 2011 International Results in Mathematics,Chestnut Hill,MA

"O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI QAHRAMONLARINI O‘ZGARTIRISH VAQTI KELMADIMIKIN?"

Abdumajidova Dilnoza Abdumajidovna
Navoiy Innovatsiyalar Uneversiteti
“Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi 4-bosqich talabasi
dilnozaabdumajidovna06@gmail.com
Tel:(+99877) 235-28-09
Ilmiy rahbari: G.A.Sapayeva

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarining hozirgi zamonaviy bolalar tarbiyasiga ta’siri, ularning mazmuni va qahramonlarining dolzarbligi tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi kun bolalarining psixologiyasiga mos keladigan yangi obrazlarga ehtiyoj mavjudligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar. *Ertak qahramonlari, o‘zbek xalq ertaklari, zamonaviy tarbiya, gender tengligi, bolalar psixologiyasi, pedagogik yondashuv, ma’naviy tarbiya, innovatsion obrazlar*

«НЕ ПОРА ЛИ МЕНЯТЬ ГЕРОЕВ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК?»

Аннотация*. В статье анализируется влияние узбекских народных сказок на воспитание современных детей, их содержание и актуальность образов героев. Также рассматривается необходимость создания новых образов, соответствующих психологии современных детей.*

Ключевые слова*: Сказочные персонажи, узбекские народные сказки, современное образование, гендерное равенство, детская психология, педагогический подход, духовное воспитание, инновационные образы.*

"ISN'T IT TIME TO CHANGE THE HEROES OF UZBEKISTAN FOLK TALES?"

Annotation.*This article analyzes the influence of Uzbek folk tales on the upbringing of modern children, their content and the relevance of their characters. It also discusses the need for new images that correspond to the psychology of today's children.*

Keywords: *Fairy tale characters, Uzbek folk tales, modern education, gender equality, child psychology, pedagogical approach, spiritual education, innovative images*

KIRISH

O‘zbek xalq ertaklari xalqimizning bebaho ma’naviy merosidir. Ularda xalqning dunyoqarashi, orzu-umidlari, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalari mujassam. Ammo zamon o‘zgarayotgan bir davrda yashar ekanmiz, ertaklarimizdagi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qahramonlar ham bolalar hayotiga, tafakkuriga qanday ta'sir qilmoqda? Ularni hozirgi kun talablariga moslab o'zgartirish vaqti kelmadimikin?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqolada asosiy o'rganilayotgan mavzu – bu o'zbek xalq ertaklari qahramonlarining zamonaviylik, dolzarblik va tarbiyaviy mezonlar nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi masalasidir. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq ertaklarining qahramonlarini o'zgartirish faqat estetik emas, balki pedagogik, psixologik va madaniy zaruratdir. Ertaklar muallifi emas, xalq tomonidan yaratilgan asarlar bo'lsa-da, ular doimiy ravishda zamon bilan hamnafas bo'lib, qayta ishlanishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklaridagi qahramonlar obrazlarini tahlil qilish, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga nechog'lik mosligini aniqlash, shuningdek, yangi zamonaviy qahramonlarga ehtiyoj bor-yo'qligini o'rganish maqsad qilingan. Shu asosda quyidagi metodlar asos qilib olindi:

1. Adabiy-tarixiy tahlil Metodi.Bu metod orqali o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan an'anaviy qahramon obrazlari – masalan, Botir yigit, Tentak yigit, Zolim podsho, Mehribon kampir kabi obrazlar tarixiy kontekstda ko'rib chiqildi. Ularning folklordagi ildizlari, shakllanish sabablari aniqlab olindi.

2. Taqqoslash (komparativ) metodi. O'zbek xalq ertaklari qahramonlari boshqa xalqlar (jumladan, rus, ingliz va turk ertaklari) qahramonlari bilan solishtirildi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" qahramonlari "Kichkina Qizil Shapkacha" yoki "Sinderella" kabi obrazlar bilan taqqoslandi. Bu metod orqali umumiylik va farqlar aniqlandi.

3. Kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) metodi. 20 dan ortiq mashhur o'zbek xalq ertaklari matnlari tahlil qilindi. Har bir ertakdagi bosh qahramonning xarakteri, harakati, ijtimoiy roliga e'tibor qaratildi. Ulardagi axloqiy g'oyalar zamonaviy bolalar uchun qanday ta'sir qilish ehtimoli baholandi.

4. Pedagogik yondashuv. Ertaklar bolalar tarbiyasida qanday o'rin tutishini aniqlash maqsadida o'qituvchilar, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va psixologlar fikrlari o'rganildi. Ularning fikricha, ba'zi klassik obrazlar bolalarda

noto‘g‘ri tushunchalar shakllantirishi mumkin. Shuning uchun ertaklarni qayta tahrirlash yoki yangi qahramonlar yaratish taklif etiladi.

5. So‘rovnoma va suhbat usuli. Tadqiqot doirasida 30 nafar 10–14 yoshli o‘quvchilardan iborat guruh bilan so‘rov o‘tkazildi. Ulardan sevimli ertaklari, qaysi qahramonni yoqtirishlari, qanday qahramonlar yetishmayotgani haqida ma’lumotlar olindi. Shuningdek, 5 nafar tajribali pedagog bilan suhbat o‘tkazildi.

6. Zamonaviy didaktik tahlil. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, shuningdek, raqamli avlodga mos ertak formatlari (animatsiya, interaktiv ertaklar, QR-kitoblar) ham ko‘rib chiqildi. Bular orqali ertak qahramonlari qanday transformatsiya qilinayotganiga e’tibor qaratildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

An’anaviy qahramonlar: Afzallik va kamchiliklar: O‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan an’anaviy qahramonlar — Alpomish, Zumrad, Qimmat, Yalmog‘iz kampir, Tulki, Bo‘ri — o‘z vaqtida tarbiyaviy maqsadga xizmat qilgan. Biroq ba’zilarida stereotiplar: "ayol hiylakor", "yaxshi bola doimo jim va itoatkor", "qudratli yigit hammaga yordam beradi" degan fikrlar kuchli aks etgan.

Zamonaviy bolalar psixologiyasi va ertaklar Hozirgi bolalar tez fikrlaydi, ko‘proq interaktiv o‘yinlar, media orqali rivojlanadi. Ba’zi ertaklardagi qattiqqo‘l jazo, zo‘ravonlik, yoki ayollarni inkor etuvchi obrazlar ular ruhiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Yangicha yondashuvlar zarurati. Bugungi kunda bolalarga ertak orqali: tenglik, hamkorlik, ekologiya, raqamli savodxonlik, empatiya kabi tushunchalarni singdirish zarur. Shuning uchun, zamonaviy qahramonlar — mehribon, ammo qat’iyatli, bilimli, halol va faol obrazlar bo‘lishi lozim.

Yangi ertak qahramonlariga misollar: Masalan: “Kompyuter qizaloq Laylo”, “Ekolog do‘sti Sherzod”, “Mobil robot va Mehribon bola” kabi zamonaviy qahramonlar orqali bolalarga foydali xabarlar berish mumkin. Shu bilan birga, xalq ertaklaridagi ijobiy obrazlarni saqlab qolgan holda ularni yangilash ham muhim

Ertaklar orqali gender tengligi va zamonaviy qadriyatlar. Bugungi kunda bolalar tarbiyasida gender tengligi, shaxsiy huquq va ijtimoiy adolat tushunchalari muhim o‘rin tutmoqda. Ammo ko‘plab ertaklarda ayol obrazlari faqat chiroyli,

itoatkor yoki himoyaga muhtoj tarzda aks etadi. Bunday stereotiplar zamonaviy oilaviy tarbiyaga zid bo‘lishi mumkin. Shu sabab, yangi ertaklarda faol, bilimli, ijobiy ayol obrazlarini yaratish muhim: masalan, muhandis qiz, jasur qahramon ona, ixtirochi singil va hokazo.

Yangi ertaklar yozishda pedagoglarning o‘rni. Pedagoglar, ayniqsa maktabgacha ta’lim tarbiyachilari, bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan holda ertaklar yozishga va ularni zamonaviy ruhda yetkazishga katta hissa qo‘shishlari mumkin. Tarbiyachilar o‘z amaliyotida yangi obrazlarni yaratish, bolalarning ishtirokida ertaklar to‘qish, dramatizatsiya qilish orqali ular fikrlash va his qilish salohiyatini oshiradilar.

XULOSA

Xalq ertaklari — o‘tmish merosi bo‘lish bilan birga, kelajak avlod tafakkurini shakllantiruvchi vosita. Ertak qahramonlarini yangilash bu — bizning madaniy ildizlarimizni inkor etish emas, balki ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishdir. Bu orqali biz sog‘lom tafakkurli, ijodkor va ongli avlod tarbiyasiga hissa qo‘shamiz.

Xalq ertaklari — bu o‘tmish bilan bog‘lovchi ko‘prik. Biroq zamon o‘zgarar ekan, bu ko‘prikning poydevorini yangilash, unga mustahkamlik berish lozim. Yangi ertaklar, yangi qahramonlar bolalarimizni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Demak, o‘zbek xalq ertaklari qahramonlarini yangilash vaqti allaqachon kelgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. Bet 15-23
2. Abduazizov A. O‘zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati. – T.: Fan, 2010. Bet 34-41
3. Qodirov A. Bolalar adabiyoti va estetik tarbiya. – T.: O‘qituvchi, 2005. Bet 52-60
4. Rustamova M. Zamonaviy pedagogika va tarbiya asoslari. – T.: Ilm Ziyo, 2022. Bet 88-95
5. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” (to‘plam). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019.bet 102-110
6. Xidirova Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ertak orqali axloqiy tarbiya. – Andijon davlat universiteti maqolalar to‘plami, 2021. Bet 45-49
7. Internet manbasi:
https://edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim portali) Maqola” Manaviy tarbiya asoslarii” 2023-yil 2-bet
https://ziyouz.uz (xalq ertaklari va adabiy merosi Maqola” o’zbek xalq ertaklarining turlari” 2022-yil
3-5 bet

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGIK MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH ORQALI MILLIY ONG VA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISH

Ismoilov Temurbek Islomovich
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi Professori, jaloliddinfirdavs@gmail.com
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi
zilolamirzaraximova1@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqola pedagogik muloqotni shakllantirish orqali milliy ong va milliy g'ururni rivojlantirishning ahamiyatini tahlil etadi. Pedagogik muloqot – bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida bilim almashish, hissiy va ma'naviy aloqa o'rnatish jarayoni bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan o'rnatilgan ochiq, samimiy va ishonchli muloqot milliy qadriyatlar, madaniyat va tarixni o'rgatish orqali ularning milliy ongini shakllantirishga yordam beradi. Milliy ong va milliy g'urur – bu shaxsning o'z xalqining tarixiga, madaniyatiga, tiliga va qadriyatlariga bo'lgan munosabatidir. Bu ikki element jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy poydevorini tashkil qiladi. Maqolada pedagogik muloqotning o'quvchilarda milliy g'ururni va milliy ongni shakllantirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi yoritiladi. O'qituvchilar o'z darslarida o'quvchilarga milliy madaniyat, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy voqealar haqida bilib olish imkonini berishi kerak. Shuningdek, ular o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch, o'z millati va xalqiga bo'lgan hurmatni oshirish orqali milliy g'urur va milliy ongni rivojlantirishi lozim.*

Kalit so'zlar*: milliy ong, milliy g'urur, pedagogik muloqot, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar.*

FORMING NATIONAL CONSCIOUSNESS AND NATIONAL PRIDE THROUGH FORMING PEDAGOGICAL DIALOGUE

Annotation*: this article analyzes the importance of developing national consciousness and national pride through the formation of pedagogical dialogue. Pedagogical communication is the process of exchanging knowledge, emotional and spiritual communication between the teacher and students, and plays an important role in the effective organization of the educational process. The open, sincere and confident communication established by the teacher with students helps to form their national consciousness by teaching national values, culture and history. National consciousness and national pride is the attitude of an individual to the history, culture, language and values of his people. These two elements form the social and spiritual foundation of society. The article highlights the importance of pedagogical communication in the formation of national pride and national consciousness in readers. Teachers in their classes should allow students to learn about national culture, national values, customs and historical events. They must also develop national pride and*

national consciousness by increasing self-confidence in students, respect for their nation and people.

***Keywords**: national consciousness, national pride, pedagogical dialogue, National Culture, national values*

ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ ЧЕРЕЗ ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИАЛОГА

***Аннотация:** В данной статье анализируется значение развития национального сознания и национальной гордости через формирование педагогического диалога. Педагогическое общение – это процесс обмена знаниями, установления эмоциональной и духовной связи между учителем и учениками, играющий важную роль в эффективной организации образовательного процесса. Открытое, искреннее и доверительное общение, установленное учителем с учениками, способствует формированию их национального сознания посредством обучения национальным ценностям, культуре и истории. Национальное сознание и национальная гордость-это отношение личности к истории, культуре, языку и ценностям своего народа. Эти два элемента составляют социальную и духовную основу общества. В статье освещается значение педагогического общения в формировании у учащихся национальной гордости и национального самосознания. Учителя должны на своих уроках давать возможность учащимся узнать о национальной культуре, национальных ценностях, традициях и исторических событиях. Они также должны развивать национальную гордость и национальное сознание, повышая у учащихся уверенность в себе, уважение к своей нации и народу.*

***Ключевые слова**: национальное сознание, национальная гордость, педагогическое общение, национальная культура, национальные ценности*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik muloqot vositasida yoshlar ongida milliy ong va milliy g‘ururni shakllantirish muhim tarbiyaviy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy jarayon bo‘lib, u orqali shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar singdiriladi[1]. Pedagogik muloqot, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi fikr almashish jarayoni bo‘lib, ta’lim tizimining asosiy unsurlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni shaxs sifatida tarbiyalash va ularning milliy ongini shakllantirishda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ham katta ahamiyatga ega. Milliy ong va milliy g‘urur — bu shaxsning o‘z millatiga, uning tarixiga, madaniyatiga, urf-odatlariga va qadriyatlariga bo‘lgan munosabatidir. Pedagogik muloqot yordamida bu ijtimoiy va ma’naviy poydevor shakllanadi. Ushbu maqolada, pedagogik muloqotni shakllantirish orqali milliy ong va milliy g‘ururni rivojlantirishning ahamiyati, uning metodlari va o‘quvchilarda bu qadriyatlarni qanday qilib samarali ravishda shakllantirish mumkinligi o‘rganiladi. Pedagogik muloqot – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’lumot almashish jarayonini, hamda o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Pedagogik muloqot, shuningdek, o‘qituvchining o‘quvchiga o‘zini ifodalash, savol-javob qilish, fikr almashish va muloqot orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishda yordam berishini anglatadi. Bu jarayon o‘quvchilarni faollikka chaqiradi, ularni so‘zga tortadi va ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Pedagogik muloqot orqali o‘quvchilar o‘z milliy qadriyatlari va madaniyatiga bo‘lgan hurmatni o‘rganadilar. O‘qituvchi tomonidan milliy tarbiya va ma’naviy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, pedagogik muloqot o‘quvchilarga tarixiy merosni anglash va ularga o‘z xalqining qadriyatlariga nisbatan g‘urur his qilishni o‘rgatadi. Pedagogik muloqot orqali o‘quvchilarda milliy ong va milliy g‘ururni shakllantirish – bu faqat bilim berish emas, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy ongini shakllantirishdir. Bugungi yosh avlodni yurtparvar, o‘zligini anglagan va o‘z milliy qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalashda pedagogik muloqot eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi har bir muloqotda nafaqat bilim berishi, balki shaxsiy namunasi bilan ham yoshlar qalbiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik muloqot nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy jarayonning muhim unsuri sifatida ham xizmat qiladi. O‘qituvchilar faqat bilim beruvchilar emas, balki o‘quvchilarni ma’naviy va axloqiy tarbiyalovchi shaxslar sifatida ham qaraladi. O‘qituvchilarning milliy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishdagi faoliyatlari, o‘quvchilarda ijtimoiy ongni va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarni o‘z milliy an’analari va qadriyatlari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilan tanishtirishni, guruh ishlari va munozaralar orqali fikr almashishni, shuningdek, milliy madaniyatni aks ettiruvchi badiiy asarlarni tahlil qilishni keltirish mumkin. Ayniqsa, milliy ong va g‘ururni shakllantirishda muloqotda ishlatiladigan til, mavzular, misollar va didaktik yondashuvlar bevosita rol o‘ynaydi. O‘qituvchi yoshlar bilan muloqotda bo‘lganida o‘zining milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibori, yurtga sadoqati, tarixiy faxr tuyg‘ulari orqali o‘quvchiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi[2]. Muloqot jarayonida o‘quvchilar o‘z madaniy merosini anglash va unga nisbatan g‘urur his qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning milliy ongini mustahkamlaydi. Masalan, tarix darsida Amir Temur, Jadidlar harakati yoki O‘zbekiston mustaqilligi tarixiga oid muloqot shaklida tashkil etilgan suhbatlar orqali o‘quvchida milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usi uyg‘otiladi[3]. Milliy ong – bu shaxsning o‘z millati, tili, tarixi, madaniyati va an’analariga bo‘lgan ongli munosabatidir. Milliy ong — bu jamiyat a’zolarining o‘z millatiga mansubligini anglash, milliy qadriyatlarni qadrlash, tarixiy xotira va madaniy merosni e’zozlash orqali shakllanadigan ijtimoiy-psixologik holatdir. Bu ong shaklida xalq o‘zining kimligini, qayerdan kelganini, qanday tarixiy tajribaga ega ekanligini, qanday qadriyatlarni asrab-avaylashi kerakligini anglaydi. Milliy ong oilada, maktabda, atraf-muhitda shakllanadi. Bola avvalo ota-onasidan tilni, urf-odatlarni, bayramlarni, tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalarni eshitib ulg‘ayadi. Keyin maktabda rasmiy ta’lim orqali milliy ong yanada mustahkamlanadi. Milliy g‘urur esa bu qadriyatlar bilan faxrlanish, ularni asrash va davom ettirishga intilishdir[4]. Milliy g’urur — bu insonning o‘z millatiga, vataniga, tiliga, madaniyatiga, tarixiga va ajdodlariga nisbatan faxr va iftixor tuyg‘usidir. Bu tuyg‘u milliy ongning ajralmas qismi hisoblanadi va har bir xalqning birlikda yashash, rivojlanish va mustaqil bo‘lish yo‘lida muhim omil sanaladi. Milliy g’urur — bu xalqning yuragidagi jasorat, tilidagi iftixor, hayot tarzidagi sha’nli merosdir. U insonni kuchli, irodali, yurtga sadoqatli qiladi. Shuning uchun har bir avlod o‘z milliy g’ururini qadrlashi va uni yoshlar qalbiga singdirishi zarur. Pedagogik muloqot bu borada muhim vosita bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi tarbiyaviy, axloqiy, ma’naviy va psixologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik muloqot orqali milliy ong va milliy g‘ururni shakllantirishning usullari, ahamiyati va samaradorlik yo‘llari tahlil qilinadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Pedagogik muloqot jarayonida ushbu tushunchalarni quyidagicha shakllantirish mumkin:

Interfaol metodlar: Munozara, rolli o‘yinlar, “fikrlar almashinuvi” kabi metodlar orqali yoshlar mustaqil fikrlashga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan shaxsiy munosabatni shakllantirishga o‘rganadilar[5].

Mahalliy tarix va madaniyatga murojaat: Mahalla, qishloq, shahar tarixi, milliy urf-odatlar haqida suhbatlar muloqotni chuqurlashtiradi.

O‘rnak shaxslar misolida tarbiya: O‘zbekiston tarixida nom qoldirgan shaxslar – Bobur, Beruniy, Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Yusuf kabi siymolar faol muloqot mavzusi bo‘lishi kerak[6].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Pedagogik muloqotni shakllantirish orqali milliy ong va milliy g’ururni shakllantirishda o’qituvchilarning o’rni beqiyosdir. O’qituvchilar dars jarayonlarida o’quvchilarga milliy ong va milliy g’urur haqida ma’lumotlar berib, ularni qalbida milliy ong va milliy g’ururni shakllantiradilar. Milliy ong — bu jamiyat a’zolarining o‘z millatiga mansubligini anglash, milliy qadriyatlarni qadrlash, tarixiy xotira va madaniy merosni e’zozlash orqali shakllanadigan ijtimoiy-psixologik holatdir. Bu ong shaklida xalq o‘zining kimligini, qayerdan kelganini, qanday tarixiy tajribaga ega ekanligini, qanday qadriyatlarni asrab-avaylashi kerakligini anglaydi. Buni o’rganish orqali o’quvchilarda o’ztarixini bilish va o’zligidan faxrlanish tuyg’usi paydo bo’ladi. Milliy g’urur — bu insonning o‘z millatiga, vataniga, tiliga, madaniyatiga, tarixiga va ajdodlariga nisbatan faxr va iftixor tuyg‘usidir. Bu tuyg‘u milliy ongning ajralmas qismi hisoblanadi va har bir xalqning birlikda yashash, rivojlanish va mustaqil bo‘lish yo‘lida muhim omil sanaladi. Pedagogik muloqotda milliy tarix, adabiyot, urf-odatlar va ajdodlar merosi haqidagi mavzularni muntazam muhokama qilish orqali o‘quvchilarning o‘z millatiga nisbatan iftixori sezilarli darajada oshdi. O‘qituvchilar tomonidan savol-javob, bahs-munozara, dramatizatsiya kabi interaktiv metodlardan foydalanilishi muloqotning jonlanishiga xizmat qilgan. Milliy ramzlar, davlat madhiyasi, buyuk ajdodlar haqida suhbatlar orqali o‘quvchilarda Vatanga sadoqat hissi kuchaygan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik muloqot — bu ikki tomonlama jarayon bo‘lib, unda nafaqat bilim, balki qadriyatlar, his-tuyg‘ular, milliy

ideal va orzular uzatiladi[7]. Pedagogik muloqot orqali o'qituvchilar o'quvchilar qalbida yaxshilik, ezgulikni, milliy ong va milliy g'ururni shakllantiradilar. Milliy ong – bu insonning o'z millatiga tegishlilik hissi, milliy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish madaniyatidir. Milliy g'urur esa shu anglash asosida shakllanadigan ijobiy hissiy holatdir[8]. Shu sababli, har bir pedagog o'z darslarida muloqot vositasida milliylikni ilgari surishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilashi lozim. Pedagogik muloqotda quyidagi tamoyillar asosiy o'rin tutadi:

1. Samarali eshitish va anglash;
2. Hurmat va ishonch muhitini yaratish;
3.Milliy qadriyatlarga suyanish;
4. O'quvchining shaxsini tan olish va rivojlantirishga xizmat qilish[9].

Shuningdek, muloqotda til vositasi sifatida adabiy tilning toza, boy va milliy ruhda bo'lishi ham katta ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy ong va milliy g'urur har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, qadriyatlari va mustaqilligini anglashda muhim o'rin egallaydi. Bu tushunchalar jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning Vatanga sadoqat, millatga hurmat va o'zligiga xos iftixorni shakllantirishida asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Aynan pedagogik muloqot — ya'ni o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilar o'rtasidagi samimiy, mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan muloqot — ushbu qadriyatlarni singdirishda muhim omillardan biridir. Pedagogik muloqot orqali yoshlarning milliy o'zlikni anglashiga, tarixiy xotirani hurmat qilishiga, ona tiliga, urf-odat va an'analariga nisbatan iftixor tuyg'usini shakllantirishga erishiladi. Bu esa jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va ma'naviy uyg'onishning mustahkam asosi bo'lib xizmat qiladi. Dars jarayonlarida interaktiv metodlardan, jumladan, bahs-munozara, roliklar tahlili, drama va rolli o'yinlar kabi usullardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullar yoshlarning mustaqil fikrlashi, milliy masalalarga ongli munosabat bildirishini kuchaytiradi. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ular bilan milliy tarbiyaning asoslari yuzasidan muntazam muloqotlar olib borish ham muhim. Bu orqali pedagogik muloqot nafaqat maktabda, balki oilada ham davom ettiriladi. O'quv dasturlariga

milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq adabiyot, kino va san’at asarlarini keng jalb etish kerak. Ularning tahlili orqali muloqot asosida yosh avlodda milliy g‘urur uyg‘otiladi. Pedagogik muloqotni axborot texnologiyalari yordamida yangi bosqichga olib chiqish lozim. Milliy bayramlar, tarixiy sanalar va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etish ham pedagogik muloqotda milliy qadriyatlarni singdirish imkonini beradi. Bunday tadbirlar orqali o‘quvchilar o‘zligini anglash va iftixor tuyg‘usini yanada chuqurroq his etadi. Shuningdek, pedagogik muloqot shaxsiy tarbiyani ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga ko‘maklashib, har bir yosh avlod vakilida fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat va ongli tanlov qilish salohiyatini rivojlantiradi. Demak, pedagogik muloqot – bu nafaqat bilim berish vositasi, balki milliy g‘urur va ongni shakllantirishda samarali tarbiya usulidir. Uni to‘g‘ri tashkil etish orqali biz nafaqat bilimli, balki o‘z xalqining madaniy-ma’naviy merosiga sadoqatli, o‘z yurtiga g‘urur bilan qaraydigan barkamol avlodni voyaga yetkazishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. G‘ofurov A. Pedagogik muloqot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. O‘zbekiston tarixi darsliklari (7–11-sinflar), 2022-yil nashrlari.
4. Quronov H. Milliy ong va ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
5. Ma’naviyat va ma’rifat markazi hisobotlari, 2023-yil.
6. O‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma (Andijon viloyati, 2024).
7. Umarov Sh. O‘quvchi shaxsini shakllantirishda pedagogik muloqotning roli. – Pedagogika jurnali, 2022.
8. O‘zbekiston adabiyoti darsliklari (10–11-sinflar), 2022.
9. Mirzayev, A. (2022). “Pedagogik muloqotning asosiy tamoyillari”. O‘zbekiston ta’limi,
10. Исмоил Ҳамидов ўзининг “Педагогик мулоқот психологияси” Тошкент: “Уқитувчи”, 2018, 45–46-бетлар
11. Музрабов Бекзод, “Миллий қадриятлар ва ёшлар тарбияси” Тошкент: “Шарқ”, 2019, 53–55-бетлар
12. Islomovich, I. T. MILLIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK MULOQOTNING USULLARI VA VOSITALARI.
13. Zilola, M. (2025). The role of communication between teachers and students in shaping national culture. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *5*(03), 98-101.
14. Abdulhakovna E. D. The Essence of Integrating Artificial Intelligence into The Education System //International Journal of Pedagogics. – 2025. – Т. 5. – №. 04. – С. 249-254

PEDAGOG-TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI EVRISTIK METOD ORQALI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Isroilova Navruza Abdulxamid qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:navroza.isroilova@bk.ru
ORCID: 0009-0001-7600-9250

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanishning nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda evristik metodning mohiyati, uning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlardagi o'rni hamda bu metod orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini tarkibiy qismlari – kasbiy bilim, malaka, shaxsiy sifatlar va ijodiy yondashuv – evristik faoliyat kontekstida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, evristik metodlarning amaliyotga joriy etilishi jarayonida yuzaga keladigan pedagogik sharoitlar va omillar, innovatsion yondashuvlar asosida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari pedagog-tarbiyachilar malakasini oshirishda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar*: pedagog-tarbiyachi, kasbiy kompetentlik, evristik metod, pedagogik innovatsiya, ijodiy yondashuv, kasbiy malaka, ta'lim jarayoni, metodik yondashuv, kompetensiyalarni shakllantirish, ta'limda evristika.*

"ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ-ВОСПИТАТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭВРИСТИЧЕСКОГО МЕТОДА"

Аннотация. *В данной статье освещаются теоретические основы использования эвристических методов в развитии профессиональной компетентности педагогов-воспитателей. В исследовании анализируются сущность эвристического метода, его место в образовательно-воспитательном процессе, а также возможности формирования профессиональной компетентности с его помощью. Составляющие профессиональной компетентности педагогов-воспитателей — профессиональные знания, навыки, личностные качества и творческий подход — рассматриваются в контексте эвристической деятельности. Также обоснованы педагогические условия и факторы, возникающие в процессе внедрения эвристических методов в практику, на основе инновационного подхода. Результаты исследования служат научно-теоретической основой для разработки эффективных методических подходов к повышению квалификации педагогов-воспитателей.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ключевые слова: *педагог-воспитатель, профессиональная компетентность, эвристический метод, педагогическая инновация, творческий подход, профессиональные навыки, образовательный процесс, методический подход, формирование компетенций, эвристика в образовании.*

"THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING PRESCHOOL EDUCATORS' PROFESSIONAL COMPETENCE THROUGH THE HEURISTIC METHOD"

Annotation: *This article highlights the theoretical foundations of using heuristic methods in developing the professional competence of educators and mentors. The research analyzes the essence of the heuristic method, its role in the educational and upbringing processes, and its potential in shaping professional competence. The components of educators' professional competence—such as professional knowledge, skills, personal qualities, and a creative approach—are examined within the context of heuristic activity. In addition, the study substantiates the pedagogical conditions and factors that arise during the implementation of heuristic methods in practice, based on innovative approaches. The results of the research serve as a scientific and theoretical basis for developing effective methodological strategies to enhance the qualifications of educators and mentors.*

Keywords: *educator-mentor, professional competence, heuristic method, pedagogical innovation, creative approach, professional skills, educational process, methodological approach, competence development, heuristics in education.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar, jamiyatning pedagogik kadrlar oldiga qo'yayotgan yangi talab va vazifalari pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat yuritish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida ijtimoiy integratsiya, globallashuv va axborotlashtirish tendensiyalarining kuchayib borishi barcha turdagi ta'lim muassasalari tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalalariga bugungi zamonaviy talablar asosida yanada jiddiyroq e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Bolonya Deklaratsiyasi, «Yevropa Kengashi mamlakatlarining 2020 yilga qadar ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasidagi Hamkorlik strategiyasi», Oliy kasbiy ta'lim

muassasalari Yevropa assosiatsiyasi EURASHE, ENIC-NARIC axborot-tizim markazi, ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilot Education International hujjatlarida pedagog kadrlarga alohida talablar qo'yiladi va ularning professional kompetentligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda globallashuv jarayonining kechishi, o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos shaxsni tarbiyalash va unga ijtimoiy-psixologik ta'sir etishni ta'minlovchi tarbiyachilarga bo'lgan ehtiyojning yanada ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" [2], 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli [3], 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni[4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-152-sonli Farmoni [5] ushbu sohaga e'tiborning yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur sharoitda evristik metoddan foydalanish ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni ta'minlaydi. Evristik metod – bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish, muammoga yechim topish va ijodiy yondashuvini shakllantiruvchi samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. U nafaqat o'quvchilarning, balki pedagoglarning ham kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim vosita bo'la oladi. O'qitishning evristik usullari - bu bizning o'quvchilarimizni kashfiyotchilar sifatida imkon qadar ko'proq fikrlashga o'rgatadigan - shunchaki narsalarni aytib berish o'rniga, ularni aniqlashni o'z ichiga olgan usullardir[6].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ushbu maqolada pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod orqali shakllantirishning nazariy asoslari o‘rganiladi. Shuningdek, evristik faoliyatning mazmun-mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o‘rni, hamda kasbiy kompetentlikni tarkibiy qismlariga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ushbu metodni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy-nazariy asos yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu masalaga oid ilmiy adabiyotlarda kompetentlik yondashuvi, innovatsion metodlar, xususan, evristik faoliyatning ta’limdagi o‘rni keng ko‘lamda yoritilmoqda.

Respublikamizning pedagog olimlaridan D. Sharipova, Sh. Sharipov, U. Inoyatov, N. Egamberdiyeva, O. Musurmonova, B. Adizov, A. T. Nurmanov, N. Sh. Shodiyev, M. Ahmedov, N. Muslimov, V. Abduazizova, M. Kadirova tomonidan bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbga yo‘naltirish va kasbga o‘rgatish, ulardagi kasbiy sifatlarni rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlari, shu bilan birga ijodiy faoliyatining ilmiy xususiyatlarini, pedagogik ijodkorlikning didaktik mazmunini rivojlantirishning usul va shakllari ishlab chiqilgan.

Xorijiy olimlardan J. P.Guildford, P. Drapeau, E. P.Torranse, S. Arieti, S. R.Magini, J.Robert, Sternberg kabi olimlar pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod orqali rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etib, shaxsning yaratuvchanlik modelini ishlab chiqishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod asosida shakllantirishni o‘rganish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Tadqiqotning metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanining nazariy tamoyillariga, innovatsion ta’lim texnologiyalari, shuningdek, kompetentlik yondashuviga asoslangan. Bu yondashuvlar orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida evristik metodning tutgan o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod orqali rivojlantirish interfaol-metodik xarakterdagi muammoli vaziyatlar va kreativ amaliy topshiriqlarni rivojlantiradi.[8]

Mazkur tadqiqotning ob'ekti sifatida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyati, predmeti esa evristik metod asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni tanlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metodlar orqali rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotda bir nechta ilmiy vazifalar belgilab olindi: kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmunini aniqlash, evristik metodning pedagogik mohiyatini ochib berish, mazkur metod orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda metodik tavsiyalarni ishlab chiqish. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Nazariy metodlar sifatida mavjud pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ishlari olib borildi. Empirik metodlar — ya'ni kuzatish, suhbat, so'rovnoma, amaliy tajriba va sinov ishlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini aniqlash va baholashga xizmat qildi. Shuningdek, modellashtirish metodidan foydalanilib, evristik yondashuv asosida kompetentlikni shakllantirishga doir metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetentlik yondashuvi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi, ijodiy pedagogika va evristik ta'lim konsepsiyalari tashkil etdi. Bu yondashuvlar pedagogik jarayonda shaxsiy rivojlanish, muammoli fikrlash, ijodiy yondashuv hamda innovatsion faoliyatni kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, ularni pedagog-tarbiyachilar malakasini oshirish kurslarida, metodik qo'llanmalarda, hamda ta'lim muassasalarining ichki o'quv-metodik jarayonlarida samarali tatbiq etish mumkin. Shu bilan birga, mazkur yondashuv ta'lim sifatini

oshirish, pedagogik jarayonning mazmunini boyitish va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimida eng muhim vazifalardan biridir. Mazkur kompetentlik nafaqat kasbiy bilim va malakalarni, balki ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday murakkab ko‘nikmalar majmuasini shakllantirishda an’anaviy o‘qitish uslublaridan tashqari, evristik metodlar muhim o‘rin tutadi.

Evristika - qadimgi yunoncha so‘z bo‘lib, so‘zma-so‘z “men topaman, ochaman” degan ma’noni anglatadi. “Evrika!”- “evristika” atamasi bilan bitta ildizga ega.

Evristika keng tushuncha bo‘lib, 1983 yildagi falsafiy ensiklopedik lug‘atga e’tibor qaratadigan bo’lsak, uning bir vaqtning o‘zida bir nechta talqinlarini topishimiz mumkin:

Evristik faoliyat deganda samarali ijodiy fikrlash jarayoni, shuningdek, ijodiy fikrlash va faoliyatni o‘rganadigan fan tushuniladi.

Evristika (ko‘plikda) ham murakkab kognitiv, konstruktiv va amaliy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos usullari hisoblanadi.

Evristika kashfiyot va taxminlarga asoslangan o‘qitish texnikasi sifatida tanilgan. Zamonaviy o‘qituvchilarning asarlarida bu “uslub”, shuningdek, u bilan bog‘liq ilmiy nazariya, pedagogik yoki didaktik evristika deb ataladi [9].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, evristik metodlar orqali ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish pedagog-tarbiyachilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli holatlarni hal etish, ijodiy yondashish kabi kompetensiyalarni faol rivojlantiradi. Bu metodlarning asosiy afzalligi — pedagogning faolligini oshirishi, uni tayyor bilim egallovchidan izlanuvchi, fikr yurituvchi va yangilik yaratuvchi subyektga aylantirishidadir.

Amaliy kuzatuvlar va so‘rovlar asosida shuni aytish mumkinki, evristik metodlardan foydalangan holda tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida pedagog-tarbiyachilar an’anaviy usullarga nisbatan ko‘proq ishtirok etadi, savol-javoblarga

faollik bilan kirishadi va bilim olish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat bildiradi. Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, evristik metod asosida tayyorlangan mashg‘ulotlarda qatnashgan pedagoglar orasida kasbiy kompetentlik darajasining o‘sishi aniq kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, evristik metodning samaradorligi quyidagi omillar bilan bog‘liq:

-Muammoli vaziyatlar asosida fikrlashga undash;

-Shaxsiy tajriba asosida xulosa chiqarishga yo‘naltirish;

-Ijodiy va tanqidiy yondashuvni faollashtirish;

-O‘rganish jarayonida pedagogning subyektiv rolini kuchaytirish.

Yuqoridagi omillar evristik metodni faqat o‘quvchilarga emas, balki pedagog-tarbiyachilarning o‘z kasbiy rivojida ham qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi. Shu boisdan, evristik metod asosida metodik tizim ishlab chiqish va uni pedagoglar malakasini oshirish jarayonlariga integratsiyalash muhim amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar natijasida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod asosida shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining dolzarb va zaruriy yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida pedagogik faoliyatda evristik yondashuvning o‘rni, uning kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi ta’siri, shuningdek, ushbu metod asosida tashkil etilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarning afzalliklari chuqur o‘rganildi.

Birinchidan, pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni faqatgina bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash bilangina emas, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kommunikativlik, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish kabi ko‘p komponentli integrativ xususiyatga ega ekanligi isbotlandi. Bu esa zamonaviy ta’limda faqat axborot berish emas, balki shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faol, interaktiv metodlardan foydalanishni talab etadi.

Ikkinchidan, evristik metod pedagog-tarbiyachining kasbiy shakllanishida muhim metodik vosita sifatida e’tirof etildi. Tadqiqotda evristik metodning asosiy xususiyatlari – savol-javob, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar orqali

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

fikrlashga undash, shaxsiy izlanishga yo‘naltirish, tahliliy faoliyatni rivojlantirish kabi jihatlar kasbiy kompetentligini shakllantirishda yuqori samaradorlik kasb etishi aniqlandi.

Uchinchidan, amaliy kuzatuvlar, tajriba-sinov ishlari va so‘rovnomalar orqali evristik metod asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan pedagoglarning kasbiy faolligi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari, hamda o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasi an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqoriligi isbotlandi. Bu esa evristik metodlar asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar va ta’lim mazmunini yangilash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagog-tarbiyachilar malakasini oshirish kurslari va qayta tayyorlash dasturlariga evristik metodik yondashuvlarni o‘rgatuvchi alohida modullarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali ularda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olish va kasbiy kompetentligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

2. Pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga evristik faoliyatga oid nazariy va amaliy fanlar kiritilishi, ularning orqali kelajakdagi pedagog kadrlarning innovatsion fikrlashga asoslangan kompetentliklarini shakllantirish zarur.

3. Kasbiy kompetentligini baholash mezonlari qayta ko‘rib chiqilishi, bunda evristik faoliyat, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarning mavjudligi alohida e’tiborga olinishi kerak.

4. Maktabgacha, umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun evristik metodlarga asoslangan metodik qo‘llanmalar, amaliy mashg‘ulotlar ssenariylari, muammoli vaziyatlar banki va interaktiv o‘yinlar to‘plami ishlab chiqilishi lozim.

5. Kelgusidagi tadqiqotlarda evristik metodlarning pedagogik amaliyotga ta’sirini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan eksperimental tadqiqotlar olib borilishi, bu asosda kompetentlik yondashuviga mos ta’limiy modellar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflar pedagog-tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablarga mos holda takomillashtirishga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". 2019-yil 8-maydagi PQ-4312.
3. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
5. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152.
6. Armstrong, X. E. (1898) v knige X. E. Armstrong i prepodavaniye nauki 1880-1930 (red.: WH Brock, 1973), Cambridge University Press.
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –P. 4.
8. Isroilova N.A." PEDAGOG-TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI EVRISTIK METOD ORQALI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI". REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "PROBLEMS AND SOLUTIONS OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN PRESCHOOL EDUCATION", MAY 6-7, 2025.
9. killbox.ru/media/education/chto-predstavlyaet-soboy-evristicheskoe-obuchenie/

YOSH BELBOG‘LI KURASHCHILARGA TEXNIK USULLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Xakimov Shoyadbek Tolibovich
Andijon davlat universiteti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
Email:*@khamidjonovabdunazar@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 12–13 yoshli belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilish va shu asosda blokli o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Eksperiment Andijon viloyatidagi ixtisoslashtirilgan sport maktabida olib borilib, uch bosqichli (hujum, himoya, qarshi hujum) texnik o‘rgatish bloklari asosida tayyorlangan metodika tajriba guruhiga tatbiq qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, texnik harakatlarning samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Ushbu metodika sportchilarning individual xususiyatlari va musobaqaviy faoliyatiga moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaliyotda yuqori samara bergani isbotlandi.*

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurash, texnik-taktik tayyorgarlik, musobaqa ko‘rsatkichlari, blokli o‘rgatish, yosh sportchilar, qarshi hujum, pedagogik tajriba.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКИМ ПРИЕМАМ МОЛОДЫХ БОРЦОВ НА ПОЯСАХ

Аннотация: *В данной статье освещены вопросы анализа технико-тактической подготовки борцов с поясами 12-13 лет на основе показателей соревновательной деятельности и разработки на этой основе методики блочного обучения. Эксперимент проводился в специализированной спортивной школе Андижанской области, методика была применена к экспериментальной группе, подготовленной на основе блоков трехступенчатой (атака, защита, контратака) технической подготовки. По результатам исследования эффективность технических действий значительно возросла. Данная методика разработана с учетом индивидуальных особенностей и соревновательной активности спортсменов и доказала высокую эффективность на практике.*

Ключевые слова: *борьба на поясах, технико-тактическая подготовка, соревновательные показатели, блочное обучение, юные спортсмены, контратака, педагогический опыт.*

METHODOLOGY FOR TEACHING TECHNICAL METHODS TO YOUNG BELT WRESTLERS

Annotation: *this article covers the issues of analyzing the technical and tactical training of 12-13-year-old belt wrestlers on the basis of indicators of competition activities and developing a block training methodology on this basis. The experiment was carried out at a*

specialized sports school in the Andijan region, and a methodology prepared on the basis of three-stage (attack, defense, counterattack) technical training blocks was applied to the experimental group. According to the results of the study, the effectiveness of technical actions has increased significantly. The methodology was designed to be tailored to the individual characteristics and competitive activities of the athletes, proving to have a high performance in practice.

Keywords: *belt wrestling, technical-tactical training, competition indicators, block training, young athletes, counterattack, pedagogical experience.*

KIRISH

Sport kurashlarining rivojlanishida sportchilarni yoshligidan boshlab ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar asosida tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Belbog‘li kurash O‘zbekistonning milliy sport turi sifatida nafaqat ichki, balki xalqaro musobaqalarda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Shu sababli mazkur yo‘nalishda yuqori natijalarni qo‘lga kiritish uchun zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslangan, innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulot metodikalarini amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi. 12-13 yoshli sportchilar texnik usullarni o‘zlashtirishda murakkab koordinatsion harakatlarni o‘rgana boshlaydilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘rgatish jarayoni har bir sportchining individual imkoniyatlari va musobaqaviy faoliyatiga asoslangan holda tashkil etilishi zarur. Belbog‘li kurashda texnik harakatlarning muvaffaqiyatli bajarilishi ko‘p jihatdan sportchining jismoniy sifati, tezligi, vazn toifasi, texnik-taktik harakatlarga tezda moslashganlik darajasiga bog‘liq. Mazkur maqolada yosh sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini musobaqa natijalari asosida tahlil qilish, ularni blokli o‘rgatish metodikasi asosida shakllantirish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha tadqiqot natijalari yoritiladi.

Yosh belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik harakatlarni tahlil qilish asosida ularning tayyorgarlik jarayonini blokli metodika asosida bosqichma-bosqich o‘rgatish, mashg‘ulot mazmunini musobaqa modeli va sportchining vazn toifasiga mos tarzda loyihalash, hamda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot Andijon viloyatidagi sport maktablarining 12-13 yoshli belbog‘li kurashchilar bilan o‘tkazildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo‘llanildi, pedagogik tajriba, video-tahlil va kuzatuv asosida texnik harakatlarning sifatini baholash, musobaqa protokollari asosida texnik faoliyatni statistik tahlil qilish, qaror qabul qilish tezligi va aniqlash uchun testlar, t-test va dispersion tahlil yordamida statistik ishonchlilik darajalarini aniqlash.

Blokli texnik tayyorgarlik metodikasining tuzilmasi

Metodika 3 ta asosiy funksional blok asosida ishlab chiqildi. Har bir blok yosh sportchilarning kurash texnikasini o‘zlashtirishdagi turli jihatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Bloklar o‘zaro izchil bog‘langan bo‘lib, sportchilarda hujumga tayyorlik, himoyaviy harakatlar va qarshi hujum reflekslarini uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv sportchining musobaqaviy holatlardagi funksional rolini chuqur tushunishga asoslanadi va har bir texnik harakatni o‘z kontekstida o‘rgatishni nazarda tutadi.

blok (Hujum texnikasi) - asosiy maqsad sportchining musobaqa davomida tashabbusni qo‘lga olishga tayyorligini oshirishdan iborat. Bu bosqichda hujum harakatlari bilan bog‘liq texnik usullar o‘rgatiladi.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

- beldan oshirib tashlash, o‘ng tizzaga mingdirib aylantirib tashlash usulini bazaviy hujum usullarini takomillashtirish;

- harakatlarni boshlashga tayyorlik refleksini shakllantirish;

- sportchining texnik xatolarga nisbatan moslashuvchanligini oshirish;

- texnik harakatni o‘z vaqtida, tezlik va kuch bilan uyg‘un bajarishga o‘rgatish (1-rasmga qarang).



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

1-rasm. Blokli texnik tayyorlov metodikasining tuzilmasi

2-blok (Himoya texnikasi) ushbu bosqich sportchilarda himoyaviy reflekslarni shakllantirish, qarshi harakatni to‘g‘ri aniqlash va zaruriy pozitsiyada o‘zini barqaror saqlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Vazifalar quyidagilar:

- muvozanatni saqlashga yordam beradigan texnikalar (bloklash, yelka bilan tutib qolish, markaz og‘irligini pasaytirish) ni o‘zlashtirish;
- raqibning hujumiga to‘g‘ri baho berish va unga to‘g‘ri javob harakatini shakllantirish;
- qarshi harakatni boshlashdan oldin holatni barqarorlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- himoyaviy harakatlarni avtomatlashtirishga qaratilgan mashqlarni takrorlash va turli vaziyatlarni bajarishga moslashtirish.

3-blok (Qarshi hujum texnikasi) bu bosqichda sportchining raqib harakatini aniqlash, unga tahliliy baho berish va qarshi samarali texnikani qo‘llash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

- sun’iy musobaqa holatlarida qarshi hujum texnikasini amaliy o‘zlashtirish;
- tezkor qaror qabul qilishni rivojlantirish, raqib xatosidan foydalanish;
- individual vazn toifasi va harakat tezligiga moslashtirish;
- qarshi harakat paytida texnik aniqlik va xavfsizlikka e’tibor berishni shakllantirishdan iborat.

Biz yosh belbog‘li kurashchilarni musobaqa ko‘rsatkichlari asosida texnik usullarni o‘rgatish metodikasini ishlab chiqdik. Mazkur blokli texnik tayyorgarlik metodikasi qat’iy ilmiy asosga ega bo‘lib, har bir mashg‘ulot sportchilarning musobaqa faoliyatidan kelib chiqib rejalashtirildi. Ushbu metodika 3 ta asosiy blokdan iborat bo‘lib, har biri o‘ziga xos pedagogik vazifalarni hal qilishga xizmat qildi. Hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarini musobaqa faoliyati asosida tanlab olindi va turli vaziyatlarda qayta-qayta mashq qilindi.

Metodika quyidagi shakllarda amalga oshirildi:

- har haftalik mashg‘ulotlar mazmuni oldindan rejalashtirilib, har bir blok bo‘yicha 2 haftadan ajratildi;

- mashg‘ulotlar davomida dastlab yakkalik, keyinchalik juftlik va musobaqaviy imitatsiya shaklida mashqlar bajarildi;

- har bir sportchining vazn toifasiga mos texnik usullar majmuasi tanlandi va ularning bajarilishi video-tahlil orqali baholab borildi;

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot davomida 12–13 yoshli belbog‘li kurashchilarning musobaqadagi texnik faoliyati ularning vazn toifalari bo‘yicha tahlil qilindi. Quyida keltirilgan jadvalda har uch vazn toifasidagi sportchilarning hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarining boshlang‘ich samaradorlik foizi ifodalangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Yosh belbog‘li kurashchilarni musobaqa faoliyatidagi texnik-taktik harakatlar samaradorligi tahlili

Ko‘rsatkich	38–42 kg	43–47 kg	48–54 kg
Hujum samaradorligi	53,2%	55,0%	51,0%
Himoya samaradorligi	50,9%	52,5%	49,8%
Qarshi hujum samaradorligi	48,1%	49,8%	46,3%

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori texnik samaradorlik 43-47 kg vazn toifasiga mansub sportchilarda kuzatilgan. Ular hujumda (55.0%), himoyada (52.5%) va qarshi hujumda (49.8%) nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Bu toifadagi sportchilar, odatda, tezlik, muvozanat va kuchning optimal nisbatiga ega bo‘lib, bu ularning texnik harakatlarni nafaqat to‘g‘ri, balki o‘z vaqtida bajarish qobiliyatiga ega ekanliklari aniqlandi.

38-42 kg toifasidagi sportchilarda ko‘rsatkichlar nisbatan yuqori bo‘lishiga qaramay, hujum samaradorligi (53.2%) 43-47 kg guruhiga nisbatan pastroq. Bu toifadagi sportchilar harakatchan va yengil bo‘lsalarda, ular hali yetarli darajada

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kuch va markazlashtirilgan muvozanatga ega emasligi mumkin. Ayniqsa, qarshi hujum samaradorligining 48.1% atrofida bo‘lishi kuzatildi.

48-54 kg og‘ir vazn toifasida esa barcha ko‘rsatkichlar boshqa guruhlarga nisbatan past (hujum - 51.0%, himoya – 49.8%, qarshi hujum - 46.3%). Yuqri vazn toifasida sportchilarning natijalari yengil vaznnikidan farq qilishi quyidagicha izohlanadi:

- ushbu toifadagi sportchilar og‘irroq bo‘lganlari sababli tezkor reaksiya va harakat o‘zgarishlarida sustlik kuzatiladi;

- ularning texnik harakatlarida aniqlik va vaqtni hisobga olish ko‘nikmalari sust shakllangan;

- raqibning hujumiga mos va tez javob berish, ya’ni qarshi hujumni samarali qo‘llashda qiynalishliklari aniqlandi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki texnik harakatlarni tizimli, musobaqaviy holatlarga mos va rivojlantirishga qaratilgan o‘rgatish imkonini berdi. Mashg‘ulotlar sportchining vazn toifasi, morfologik xususiyatlari, harakat koordinatsiyasi va reaksiya tezligiga moslashtirilgan bo‘lib, bu esa o‘zlashtirish samaradorligini oshirdi. Shuningdek, blokli metodikaning har bir bosqichida murakkablikning bosqichma-bosqich oshirilishi sportchining texnik harkatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bilan birga ularning harakatlarga nisbatan nisbatan javob reaksiyasini rivojlantirishi aniqlandi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari belbog‘li kurashchilarning musobaqa ko‘rsatkichlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan blokli texnik o‘rgatish metodikasi texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Xususan, sportchilarning vazn toifasiga mos texnik repertuar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ularning texnik harakatlarni to‘g‘ri, tez va sharoitga mos bajarishiga zamin yaratdi. Pedagogik eksperiment davomida hujum, himoya va qarshi hujum texnikalarining samaradorligi 10-12% ga ortgani kuzatildi. Bu esa mazkur metodikaning amaliyotda yuqori samaraga ega ekanini tasdiqlaydi.

Yosh sportchilar bilan ishlayotgan murabbiylarga texnik tayyorgarlikni faqat harakatlarni o‘rgatish bilan cheklamay, balki musobaqaviy vaziyatlarda tez va to‘g‘ri

qaror qabul qilishga yo‘naltirish tavsiya etiladi. Mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich bloklarga ajratib, har bir sportchining yoshi, vazn toifasi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuv asosida olib borish zarur. Shuningdek, musobaqa protokollari asosidagi tahlil natijalariga ko‘ra metodik tuzatishlar kiritib borish orqali texnik tayyorgarlikni yanada takomillashtirish mumkin. Mazkur metodika respublika miqyosidagi sport maktablari uchun keng joriy etilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xamidjonov A.U. Sport kurashi turlariga saralash va erta yo‘naltirishning metodologik asoslari// Fan-sportga Ilmiy-nazariy jurnal. 2023. – № 5. – B. 32-35. [13.00.00 №16].

2. Xamidjonov A.U. Sport kurashchilarini funksinal tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining model xususiyatlari asosida saralash mezonlari// Namangan davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi. 2024. – № 10. – P. 640-645. [13.00.00 №30].

3. Хамиджонов А.У. Критерии отбора и направления на виды борьбы // НамГУ – NamDU ilmiy axborotnomasi. 2022. maxsus son. – C. 916-620. [13.00.00 №30].

4. Khamidjonov A.U. Applying of digital technologies in selection and predicting of young talented wrestlers// I. International Congress of Science and Health in Wrestling Sport. – Hitit University Çorum (Turkiya), 2023. – P. 56.

5. Xamidjonov A.U. Sport kurashi turlarining turli bosqichlariga saralashda maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari// “Jismoniy madaniyat va sport ta’lim kadrlarini tayyorlash sifatini oshirishda innovatsiyalar” mavzusidagi: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman matriallar. – Farg‘ona, 2024. – B.70-74.

6. Xamidjonov A.U. Sport kurashi turlarida sportchilarni tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosida saralash va yo‘naltirish metodologiyasi. Monografiya – Chirchiq: Sport nashriyoti va sport bosmaxonasi, 2024. – 277 b.

7. Xamidjonov A.U. Sport kurashi turlarida antropometrik ko‘rsatkichlarning tahlili va erta yo‘naltirishning metodologik asoslari. Monografiya. – Toshkent: Voris, 2023. – 196 b.

8. Artikov Z.S., Xamidjonov A.U., Aliyev N.K., Xolmatov U.S. Tanlangan sport turi bo‘yicha mutaxasislikka kirish, (belbog‘li kurash). O’quv qo’llanma. – Chirchiq: Sport nashriyoti va sport bosmaxonasi, 2023 – 255 b.

9. Khamidzhanov A.U. Scientific and methodological features of qualifying and early orientation for sports wrestling types// Research Focus. 2023. – № 2.9. pp. – 76-83. [№01-08/2941].

10. Khamidjanov A.U. Methodological bases for the evaluation of weight indicators in the selection and early orientation of types of wrestling// Namangan davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi. 2022. – № 7. – P. 378-385. [13.00.00 №30].

11. Xamidjonov A.U. Sport kurashi turlari bilan shug‘ullanuvchi sportda kamolotga

erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga saralashda musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili// Namangan davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi. 2024. – № 10. – P. 646-650. [13.00.00 №30].

12. Kerimov F.A., Goncharova O.V., Burnashev R.A. Khamidjonov A.U. Training system of highly qualified wrestlers// Using sport science to Help wrestlers and Coaches. – Senior world championships in Belgrade (Serbia) 2023. – pp. 3.

YOSH YUNON-RIM KURASHCHILARINI MORFOFUNKTSIONAL KO‘RSATKICHLARINING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK JARAYONIGA TA’SIRINI O‘RGANISH TAHLILI

Madaminov Xayrullo Axmadjonovich
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, dotsent
Email:*@khamidjonovabdunazar@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda yosh yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini shakllantirishda morfofunktsional ko‘rsatkichlarning tutgan o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil etildi. Tadqiqot doirasida tajribali murabbiylar o‘rtasida maxsus so‘rovnoma o‘tkazilib, ularning fikrlari asosida texnik va taktik harakatlarning individuallashtirilishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlab berildi. Murabbiylarning ko‘pchilik qismi morfofunktsional ko‘rsatkichlar – bo‘y uzunligi, tana vazni, mushak massasi, chidamlilik va kuch sifatlari – yosh sportchilarning texnik-taktik faoliyatini optimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini qayd etdilar.*

Kalit so‘zlar: *yosh toifasida, yunon-rum kurashchilar, morfofunktsional, ko‘rsatkichlar, tahlil, antropometrik, funksional, texnik-taktik tayyorgarlik.*

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЮНЫХ БОРЦОВ ГРЕКО-РИМСКОГО СТИЛЯ НА ПРОЦЕСС ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация: *В данном исследовании была глубоко проанализирована роль и значение морфофункциональных показателей в формировании уровня технико-тактической подготовки юных греко-римских борцов. В рамках исследования был проведен специальный опрос опытных тренеров, на основе их мнений были определены основные факторы, влияющие на индивидуализацию технико-тактических действий. Подавляющее большинство тренеров отмечали, что морфофункциональные показатели – рост, масса тела, мышечная масса, выносливость и силовые качества – имеют решающее значение для оптимизации технико-тактической деятельности юных спортсменов.*

Ключевые слова: *возрастная группа, борцы греко-римского стиля, морфофункциональные показатели, анализ, антропометрические, функциональные, технико-тактическая подготовка.*

STUDY ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF MORPHOFUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG GRECO-ROMAN WRESTLERS ON THE TECHNICAL-TACTICAL TRAINING PROCESS

Annotation: *In this study, a deep analysis of the role and significance of morphofunctional indicators in the formation of the level of technical and tactical training of*

young Greco-Roman wrestlers was carried out. Within the framework of the study, a special survey was carried out between experienced trainers, on the basis of which their opinions were determined the main factors affecting the individualization of technical and tactical actions. Most of the coaches noted that morphofunctional indicators – height, body weight, muscle mass, endurance and strength qualities – are crucial in optimizing the technical and tactical activities of young athletes.

Keywords: *age category, Greco-Roman wrestlers, morphofunctional, indicators, analysis, anthropometric, functional, technical-tactical training.*

KIRISH

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnik-taktik tayyorgarlikni samarali tashkil etishda faqat murabbiy ko‘rsatmasi emas, balki sportchining morfologik va funksional xususiyatlariga mos harakatlarni tanlash muhim omil hisoblanadi. Shu asosda, kurashchilarning individual morfofunktsional profiliga tayangan holda, texnik repertuarni shakllantirish, charchoqqa bardoshlilikni baholash va kurash holatlarida optimal pozitsiyalarni egallash imkoniyatlarini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Tadqiqot natijalari yosh kurashchilarning tayyorgarlik jarayonini zamonaviy ilmiy asosda boshqarish uchun muhim metodik tavsiyalarni ilgari suradi. Yunon-rim kurashi yosh sportchilar jismoniy rivojlanishini har tomonlama talab qiladigan murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda yuqori natijalarga erishish uchun nafaqat texnik-taktik jihatdan mukammal tayyorgarlik zarur, balki sportchining morfologik va funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilish ham muhim o‘rin tutadi. Chunki har bir sportchining tana tuzilishi, bo‘y-bast nisbati, mushak massasining holati, ekstremitalar uzunligi va funksional imkoniyatlari texnik-taktik repertuarni tanlashda va unga moslashtirilgan mashg‘ulot rejasini ishlab chiqishda muhim mezon hisoblanadi.

Zamonaviy sport ilmida morfofunktsional ko‘rsatkichlar asosida individual tayyorgarlikni shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq, amaliy mashg‘ulotlarda ushbu ko‘rsatkichlardan foydalanish darajasi, ularni murabbiylar tomonidan qanday talqin qilinayotgani, texnik-taktik yondashuvga qanday integratsiyalanayotgani bo‘yicha tizimli tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, O‘zbekiston sport maktablarida faoliyat yuritayotgan murabbiylarning ushbu masalaga munosabati, bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalari bo‘yicha fikr-

mulohazalarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy tahlil aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib tashkil etildi. Tadqiqot doirasida 49 nafar yunon-rim kurashi bo‘yicha tajribaga ega murabbiylar ishtirokida maxsus anketalash asosida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada ishtirokchilarning morfofunktsional ko‘rsatkichlarni baholashdagi yondashuvlari, bu ko‘rsatkichlardan texnik-taktik tayyorgarlikda foydalanish holati, monitoring va diagnostika vositalarini qo‘llashga doir amaliy tajribalari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida mavjud muammolar, metodik bo‘shliqlar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlab berildi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida yosh yunon-rim kurashchilari va murabbiylar morfofunktsional ko‘rsatkichlarning texnik tayyorgarlikdagi o‘rnini turlicha baholaganlari kuzatildi. So‘rovda qatnashganlarning 32,4 foizi bu ko‘rsatkichlar faqat mushak massasini oshirishda muhim deb hisoblagan bo‘lsa, 23,1 foizi texnik harakatlarni individlashtirishdagi ahamiyatini tan olgan. Qolganlar esa charchoqni baholash (22,4%) va kurash texnikasini o‘zlashtirishda (22,1%) foydali deb bilgan. Bu holat respondentlar orasida morfofunktsional ko‘rsatkichlar faqat kuch bilan bog‘liq degan noto‘g‘ri tushuncha tarqalganini ko‘rsatadi. Shaxsiy texnik-taktik harakatlarni individlashtirish mezonlari haqida so‘ralganda, sportchilarning ko‘pchiligi (35,3%) o‘zlariga qulay texnik harakatlarni tez o‘zlashtirishi orqali individual yondashuvni afzal bilgan. Bu ijobiy holat bo‘lishiga qaramay, 24,1 foiz respondentlar faqat musobaqa natijalari tahliliga tayansa, 20,5 foiz esa murabbiy ko‘rsatmasini yetarli deb hisoblagan. Morfofunktsional ko‘rsatkichlarga asoslanadigan yondashuv esa atigi 20,1 foizni tashkil etdi. Bu esa metodik qarorlar hanuzgacha subyektiv yoki tajribaga asoslanayotganidan dalolat beradi. Individual tayyorgarlikni shakllantirishda sportchilar nimalarga e’tibor qaratishi so‘ralganda, 35,4% umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni muhim deb hisoblagan. Texnik-taktik (22,4%) va morfologik (22,5%) yondashuvlar esa teng ravishda qayd etilgan. Afsuski, texnik-taktik va morfologik yondashuvni birgalikda qo‘llash tarafdorlari 19,7% ni tashkil qilgan. Bu eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, tananing individual tuzilmasi texnik repertuarni tanlashga asos bo‘lishi kerakligini anglatadi. Biroq 27,5% respondent bu ko‘rsatkichlarning umuman ta’siri yo‘q deb hisoblaydi, bu esa

ushbu sohadagi ilmiy bilimlar yetishmasligini bildiradi. Charchoqni kamaytirish (22,8%) va harakatlarni boshqarishni yengillashtirish (19,5%) variantlari tanlangan bo‘lsa-da, ular ancha kam ulushga ega. (1-jadvalga qarang).

3.1-jadval

Yosh yunon-rim kurashchilarini morfofunktsional ko‘rsatkichlarining tahlili

№	Savol	Javoblar soni	%	Javoblar soni	%	Javoblar soni	%	Javoblar soni	%
1	Morfofunktsional ko‘rsatkichlar texnik tayyorgarlikda qanday ahamiyatga ega deb hisoblaysizmi ?	Faqat mushak massasini oshirishda	32,4	Texnik harakatlarni individlashtirishda	23,1	Charchoqni baholashda	22,4	Kurash texnikasini o‘rganishda	22,1
2	Sizning fikringizcha, texnik-taktik harakatlarni individlashtirishda qanday omillarni hisobga olish lozim deb bilasiz ?	Faqat murabbiy ko‘rsatmasi asosida	20,5	Sportchining o‘ziga qulay harakatlarni tez o‘zlashtirishi orqali	35,3	Morfofunktsional o‘lchovlar natijalari asosida	20,1	Musobaqa natijalari tahlili orqali	24,1
3	Individual texnik-taktik tayyorgarlikni oshirishda nimalarga e’tibor berasiz ?	Umumiy-maxsus jismoniy tayyorgarlik	35,4	Texnik-taktik tayyorgarlik	22,4	Morfologik ko‘rsatkichlariga	22,5	Texnik-taktik tayyorgarlik, morfologik ko‘rsatkichlariga	19,7
4	Bo‘y uzunligiga nisbatan qo‘l va oyoq uzunligi kurashchiga texnik elementlarni bajarishda qanday imkoniyatlarni yaratib beradi ?	Charchashni kamaytiradi	22,8	Harakatlarni boshqarishni osonlashtiradi	19,5	Mos usullar tanlashga yordam beradi	30,2	Hech qanday ta’siri bilmayman	27,5
5	Funktsional imkoniyatlarni mashg‘ulotlarda baholab borasimiuman tushunchaga egamisiz?	Yilda bir marta	18,4	Bu bo’yicha ma’lumotga ega emasman	40,3	Funksional tayyorgarlikka umuman e’tibor bermayman	17,8	Men mashg‘ulotlarda foydalanmayman	23,5
6	Murabbiy sifatida sportchilarning morfologik	Yo‘q	24,4	Ha	19,7	Bu bo’yicha ma’lumotg	35,1	Tibbiyot hodimlarining vazifasi	20,8

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

	profilini o‘rganib chiqqanmisiz ?					a ega emasman		deb bilaman	
7	Tana tiplariga ajratish bo‘yicha bilim darajangiz qanday ?	Yetarli emas	32,3	Bu menga kerak emas deb bilaman	20,5	Tibbiyot hodimlarining vazifasi	29,7	Bilaman lekin mohiyatini bilmayman	17,5
9	Texnik harakatlarni o‘rgatishda morfofunktsional ko‘rsatkichlarni inobatga olasizmi ?	Ha, bazan	16,4	Yo‘q	30,3	men morfofunktsional ko‘rsatkichlar e’tibor bermayamn	15,4	Yetarlicha ma’lumotga ega emasman	37,9
10	Texnik-taktik tayyorgarlikni oshirishda morfofunktsional tahlil natijalaridan foydalanasiz?	Individual mashg‘ulot rejasini moslashtiraman	26,8	Faqat musobaqaga yaqin tahlil qilaman	27,5	Ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilaman	21,3	Shifokorlar domiy nazorat oliob borishadi	24,4

Sportchilarning funksional imkoniyatlarini mashg‘ulot jarayonida baholab borish amaliyoti yetarli emasligi aniqlandi. So‘rovda ishtirok etganlarning 40,3 foizi bu borada umuman ma’lumotga ega emasligini bildirgan. Bu holat professional sportda xavfli omillardan biri hisoblanadi. Qolganlarning esa 23,5 foizi ushbu ko‘rsatkichlardan umuman foydalanmasligini, 17,8 foizi e’tibor bermasligini, faqatgina 18,4 foizi esa yiliga bir marta baholashini bildirgan. Bu esa monitoring va test tizimlari mashg‘ulot tizimiga chuqur integratsiyalanmaganini ko‘rsatadi. Morfologik profilni o‘rganish holati ham o‘xshash tarzda tashvishli. Respondentlarning 35,1 foizi bu borada ma’lumotga ega emas, 24,4 foizi esa bu ishni umuman bajarmagan. Atigi 19,7 foizi sportchilarining morfologik tiplarini o‘rganishga uringan. Qolgan 20,8% esa bu vazifani shifokorlar zimmasiga yuklaganini bildiradi. Bu holat sportdagi ilmiy yondashuvlar faqat tibbiy ko‘mak bilan bog‘lanadi degan noto‘g‘ri tasavvurni ko‘rsatadi. Tana tiplari bo‘yicha bilim darajasi haqidagi savolga javoblar ham shunga o‘xshash. 32,3% respondent bu borada yetarli bilimga ega emasligini tan olgan, 29,7% esa yana bu vazifani tibbiyot sohasiga yuklagan. 20,5% bu ma’lumot umuman kerak emas deb hisoblagan bo‘lsa, faqat 17,5% tananing somatotipini bilganini bildirgan, ammo ularning ko‘pchiligi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mohiyatini tushunmasligini tan olgan. Bu esa, sport tayyorgarligida antropologik tahlillarni chuqur o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Texnik harakatlarni o‘rgatishda morfofunktsional ko‘rsatkichlardan foydalanish amaliyoti ham yetarlicha keng emas. Respondentlarning 37,9 foizi bu borada yetarli ma’lumotga ega emasligini bildirgan. Qolganlarning esa 30,3 foizi bu ko‘rsatkichlarni hisobga olmaydi, 15,4 foizi umuman e’tibor bermaydi. Faqatgina 16,4% respondent bu ko‘rsatkichlardan kamida ba’zida foydalanadi. Bu esa shaxsiylashtirilgan tayyorgarlikni samarali tashkil qilish imkoniyatlari hali to‘liq ochilmaganini bildiradi . Texnik-taktik tayyorgarlikda morfofunktsional tahlil natijalaridan foydalanish borasidagi so‘rov natijalari respondentlar fikrlarining nisbatan muvozanatli ekanligini ko‘rsatdi. Eng ko‘p javob (27,5%) musobaqaga yaqin davrda ushbu tahlillarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuvda faqat bellashuv oldidan sportchining holati o‘rganiladi. 26,8% respondent esa morfofunktsional ko‘rsatkichlar asosida individual mashg‘ulot rejasini moslashtirish tarafdori bo‘lganini bildirdi, bu esa zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ko‘rsatadi. 24,4% ishtirokchi ushbu tahlillar shifokorlar tomonidan doimiy nazorat qilinadi deb hisoblagan bu mas’uliyatni sportchi yoki murabbiy emas, tibbiy xodimlar zimmasiga yuklash holati ekanligini bildiradi. Faqat 21,3% respondent ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilinishini tan olgan bo‘lib, bu holat ushbu ko‘rsatkichlar sport tayyorgarligi jarayoniga doimiy integratsiya qilinmaganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, mavjud amaliyotda morfofunktsional tahlildan foydalanish epizodik xarakterga ega bo‘lib, tizimli va barqaror shaklda qo‘llanilmayapti.



1-rasm. Yosh yunon-rim kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarining tahlili

Texnik-taktik tayyorgarlikda morfofunktsional tahlil natijalaridan foydalanish holati bo'yicha so'rov natijalari respondentlar orasida bu yondashuvga nisbatan ma'lum darajada qiziqish mavjudligini, ammo tizimli qo'llanilmasligini ko'rsatdi. Jumladan, respondentlarning 27,5 foizi morfofunktsional tahlillarni faqat musobaqaga yaqinlashgan davrda o'tkazishini bildirgan. Bu yondashuvda sportchining funksional holatini qisqa muddatli baholashga urg'u beriladi, ammo tayyorgarlikning boshqa bosqichlarida bu ko'rsatkichlardan foydalanilmasligi ularning real foydasini cheklaydi. Shuningdek, 26,8 foiz ishtirokchi individual mashg'ulot rejasini morfofunktsional tahlillar natijalariga asoslangan holda moslashtirishini qayd etgan bo'lib, bu zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning amaliyotda ma'lum darajada qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Biroq, bunday yondashuvga ega respondentlar soni hali ham cheklangan.

TADQIQOT NATIJALARI.

Natijalarga ko'ra, 24,4 foiz respondent sportchining morfofunktsional holati ustidan nazoratni tibbiyot xodimlari olib borishini ta'kidlagan. Bu esa sport tayyorgarligining muhim komponentini murabbiy va sportchi emas, balki tibbiy xizmat vakillariga yuklash tendensiyasining saqlanib qolganini bildiradi. Bunday yondashuv sportda tibbiy va pedagogik faoliyatni ajratilgan holda ko'rishga olib

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

keladi, bu esa tizimli integratsiyalashuvga to‘sqinlik qiladi. Monitoring va individual ma’lumotlarga asoslangan murabbiylik yondashuvlari sportchilarning texnik-taktik salohiyatini ancha yuqori darajada rivojlantirish imkonini bersa-da, amaliyotda bunday tizimlar kam uchraydi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari yosh yunon-rim kurashchilarining tayyorgarligida morfofunktsional ko‘rsatkichlar hali yetarlicha o‘rganilmaganini va amaliyotda chuqur qo‘llanilmayotganini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni anglatadiki, aksariyat hollarda sport tayyorgarligida qarorlar subyektiv tajribaga yoki musobaqa natijalariga asoslanmoqda, individual morfologik va funksional imkoniyatlar esa kamdan-kam hollarda hisobga olinmoqda. Eng e’tiborlisi, murabbiy va sportchilar bu masalaga doir mas’uliyatni ko‘pincha tibbiyot mutaxassislariga yuklaydi, bu esa sport ilmida yondashuvlar integratsiyasining sustligidan dalolat beradi. Morfofunktsional tahlil natijalaridan foydalanish bo‘yicha sportchilar va murabbiylar orasida ijobiy tajribalar mavjud, biroq ular individual, izolyatsiyalashgan shaklda namoyon bo‘lib, hali barqaror va integratsiyalashgan mashg‘ulot tizimiga aylantirilmagan.

XULOSA

Yuqoridagi so‘rovnoma natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini samarali tashkil etishda morfofunktsional ko‘rsatkichlarni chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash muhim omil hisoblanadi. Biroq, aksariyat murabbiylar bu borada nazariy bilimga ega bo‘lsalar-da, amaliy jihatdan ularni mashg‘ulot jarayoniga to‘laqonli tatbiq etmayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, funksional tayyorgarlikni baholash, tana tuzilishiga mos texnik harakatlarni tanlash va individual rejalashtirish bo‘yicha sust yondashuv mavjud. Shu bois, texnik-taktik tayyorgarlikni yanada individlashtirish uchun murabbiylarning morfofunktsional tahlil sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, sportchilarning anatomo-fiziologik xususiyatlariga asoslangan metodik yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, sportchilar harakatlarining samaradorligini oshirib, musobaqaviy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kerimov F.A., Goncharova O.V., Burnashev R.A. Khamidjonov A.U. Training system of highly qualified wrestlers// Using sport science to Help wrestlers and Coaches. – Senior world championships in Belgrade (Serbia) 2023. – P. 3-5.

2. Xamidjonov A.U. Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo‘y ko‘rsatkichlarini model xususiyatlari o‘rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo‘naltirish metodikasi// FarDU ilmiy xabarlari. 2024. – №2. – B. 181-191. [13.00.00 OAK rayosatining 30.11.2022 dagi №327/5-son Qarori].

3. Xamidjonov A.U. Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo‘y ko‘rsatkichlarining model xususiyatlari o‘rganish asosida yosh yunon-rum kurashchilarni saralash va yo‘naltirish metodikasi// NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024. – № 3. – B. 701-709. [13.00.00. №30].

4. Khamidjanov A.U. Methodological bases for the evaluation of weight indicators in the selection and early orientation of types of wrestling// Namangan davlat universiteti. Ilmiy axborotnomasi. 2022. – № 7. – pp. 378-385. [13.00.00 №30]

UO'K 128.5

13-14 YOSHLI VOLEYBOLCHI QIZLARNING DARSDAN TASHQARI SPORT MASHG'ULOTLARIDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

Karimova Gulhayo Botirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Email: *karimovagulhayo1@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolada sport tizimida sport zaxiralari bilan ishlash, ayniqsa o'smir yoshidagi voleybolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirish, 13–14 yoshdagi voleybolchilar bilan ishlashda ularning yosh-fiziologik xususiyatlariga moslashtirilgan, maxsus chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar sport natijalarining barqaror o'sishi hamda13-14 yoshli voleybolchi qizlarning darsdan tashqari sport mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarligini oshirishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan mummolar muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *13–14 yoshdagi voleybolchilar, yosh-fiziologik xususiyatlar, maxsus chidamlilik, darsdan tashqari sport mashg'ulotlari.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ВОЛЕЙБОЛИСТОК 13–14 ЛЕТ ВО ВНЕУРОЧНОЙ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Каримова Гулхаё Ботиржон кизи
Преподаватель Ферганского государственного университета
Email: *karimovagulhayo1@gmail.com*

Аннотация: *В статье рассматривается работа с спортивным резервом в рамках спортивной системы, с особым вниманием к развитию физической и функциональной подготовленности юных волейболисток. Подчёркиваются подходы, адаптированные к возрастным и физиологическим особенностям волейболисток 13–14 лет, направленные на развитие специальной выносливости. В исследовании рассматриваются стратегии обеспечения устойчивого роста спортивных результатов и обсуждаются возможные проблемы, возникающие при повышении физической подготовленности девочек-волейболисток 13–14 лет во внеурочной спортивной деятельности.*

Ключевые слова: *волейболистки 13–14 лет, возрастно-физиологические особенности, специальная выносливость, внеурочная спортивная деятельность.*

EFFECTIVENESS OF IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF 13–14-YEAR-OLD FEMALE VOLLEYBALL PLAYERS DURING EXTRACURRICULAR SPORTS ACTIVITIES

Karimova Gulkhayo Botirjon kizi
Lecturer at Fergana State University
Email: *karimovagulhayo1@gmail.com*

Annotation: *This article was discussed working with sports reserves within the sports system, with a particular focus on developing the physical and functional preparedness of adolescent volleyball players. It emphasizes approaches tailored to the age-specific physiological characteristics of 13–14-year-old volleyball players, aimed at enhancing special endurance. The study explores strategies for ensuring steady improvement in sports performance and addresses potential challenges that may arise in improving the physical fitness of 13–14-year-old female volleyball players during extracurricular sports activities.*

Keywords: *13–14-year-old volleyball players, age-physiological characteristics, special endurance, extracurricular sports activities.*

KIRISH

Dunyo sport tizimida sport zaxiralari bilan ishlash, ayniqsa o‘smir yoshidagi voleybolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanmoqda. Demak, 13–14 yoshdagi voleybolchilar bilan ishlashda ularning yosh-fiziologik xususiyatlariga moslashtirilgan, maxsus chidamlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar sport natijalarining barqaror o‘sishiga sabab bo’lmoqda. Voleybol kabi dinamik sport turlarida o‘yin davomida kuchli yuklamalarni uzoq vaqt davomida bardosh bilan bajara olish sportchining muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlamoqda.

Voleybol sport turi bo‘yicha o‘smir sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa maxsus chidamlilik sifatlarini shakllantirish sohasida dunyoning ko‘plab ilg‘or sport mamlakatlarida ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘smir sportchilar bilan ishlashda darsdan tashqari sport mashg‘ulotlarining fiziologik va psixopedagogik jihatlari, voleybolchilar uchun yuklamaning hajmi va intensivligini yosh fiziologik ko‘rsatkichlariga moslash, chidamlilikni rivojlantirishda intervalli va aralash mashg‘ulot uslublaridan foydalanish, voleybolchilarda maxsus chidamlilikni shakllantirish uchun yuklamalar mexanizmlariga urg‘u berib, anaerob-aerob zonalarda ishlash orqali chidamlilik va harakat samaradorligini oshirish metodikalarini qo’llash bo’yicha izlanishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yosh voleybolchi qizlarning mashg’ulotlarida ko‘p jihatdan keraksiz zo‘riqishning paydo bo‘lishini oldini olish, shug‘ullanuvchilarda mushak guruhlarining zo‘riqqan va bo‘shashgan holatlari haqida aniq tasavvurni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shakllantirish uchun mashg‘ulotlarda maxsus bo‘shashish mashqlarini qo‘llashga ahamiyat qaratilgan. Bunga ba’zi mushak guruhlarining bo‘shashishini boshqalarining zo‘riqishi bilan birlashtirish; mushak guruhining zo‘riqishdan bo‘shashishga nazorat ostida o‘tishi; to‘liq bo‘shashishni his qilish uchun harakatlarni bajarish va boshqalar yordam berishini ta’kidlagan (A.Pulatov, A.Ummatov, A.Boltaev, M.Kdirova, S.Ashurkova).

13-14 yoshli oleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni ko‘p jihatdan sportchilarning yoshi, fiziologik holati, jismoniy imkoniyatlari va o‘quv-mashg‘ulot tizimining maqsadli yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, voleybolchilar uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, ayniqsa chidamlilik, tezkorlik, kuch va koordinatsiya kabi sifatlar o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirilishi kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida jismoniy tayyorgarlik faqat texnik-harakat ko‘nikmalari asosida emas, balki yoshga mos individual yondashuvlar asosida shakllantirilgandagina barqaror sport natijalari kutiladi. Shu sababli, voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda bosqichma-bosqichlik, tizimlilik va o‘quv jarayonining ilmiy asoslanganligi muhim metodik prinsiplar sifatida qarashgan (L.Ya.Arkayev, N.G.Suchilin, A.B.Belyayev, L.V.Bulikina).

Yuqoridagi o’rganilgan adabiyotlar tahlili natijasida, darsdan tashqari mashg’ulotlarda 13-14 yoshli voleybolchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini o‘sishida voleybol vositalari va jismoniy madaniyat uyg‘unligiga asoslangan integral jismoniy tayyorgarlikning sinalgan texnologiyasi yuqori samaradorlikni beradi. Qo‘shimcha jismoniy tarbiya ta’limi tizimida voleybol o‘ynashni o‘rgatish dasturidan foydalanish orqali, jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish texnologiyasi va uning alohida tarkibiy qismlari o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada umumta’lim maktablarida darsdan tshqari mashg’ulotlarda 13-14 yoshli voleybolchi qizlarni maxsus chidamliligin rivojlantirish muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Voleybolchi qizlarni jismoniy tayyorgarlik ko’rsatkichlarini aniqlash mezonlari tahlili qilindi va rivojlangan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. 13-14 yosh voleybolchi chizlarni maxsus chidamliligini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar o‘rganildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Mamlakatimizda yosh avlodning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sport orqali jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, bolalar va o‘smirlar sportini yanada rivojlantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga ommaviy jalb etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanmoqda. “Sport maktablari, akademik litseylar va ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalarida voleybolchilarning tayyorgarligini tizimli baholovchi mezonlar va funksional monitoring vositalarini ishlab chiqish” kabi vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-son “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 4-dekabrdagi PQ 421-son “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”dagi Qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan strategik vazifalarga metodolik yondashuv sifatida asoslanildi.

Tadqiqot maqsadi: 13-14 yoshli voleybolchi qizlarning darsdan tashqari sport mashg’ulotlarida jismoniy tayyorgarligini oshirish samaradorligi bo‘yicha taklifva tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vaziflari:

-13-14 yoshli voleybolchi qizlarni darsdan tashqari mashg’ulotlarida jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan model ishlab chiqish.

-13-14 yoshli voleybolchi qizlarni drasdan tashqari mashg’ulotlarda maxsus chidamliligini rivojlantirish modulini ishlab chiqish.

MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya va sport maktablarida ommaviy sport harakatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan model ko‘rsatkichlar bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida voleybolchi-qizlarning kundalik harakatlanishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondirish, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli ravishda ilmiy asosdagi ko‘rsakichlarini hisobga olgan holda yondashishga e’tibor qaratildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Xalqaro ta'lim standartlarida ham voleybolchi-qizlarning kundalik harakatlanishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlaining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida yondashgan holda, o‘quv-mashg'ulot kun tartibini belgilash ishlari biroz etibordan chetda qolayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, inson hayotini yengillashtirish, uning turmush farovonligini yanada yaxshilash, uning ehtiyojlarini kam kuch, energiya va vaqt sarflagan holda qondirish, oson va yengil variantlarini ishlab chiqish, bu borada esa, qo‘llanilib kelinayotgan vosita va usullarni hamisha takomillashtirib borish kabi masalalar doimo dolzar ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishdagi yuz berayotgan jarayonlar texnalogiyalar rivojlanishi, odam va uning funksiyalarini bajaruvchi qurilmalar ixtiro qilinishi, yordamchi xususiyatlarni o‘zida jamlagan turli vositalarning kundalik hayotimizga kirib kelishi esa, kundalik harakatlanish hajmini ham kamayishiga, turli harakatsizlik yioki uning kamligi oqibatida turli kasalliklar yuzaga kelayotganligi ularning esa ommaviy tus olayotganligi soha mutaxassislari va olimlari oldida turgan jiddiy muammolardan biridir.

Ushbu muammolarni atroflicha hal etishda olib borgan tadqiqotlarimiz o‘rni va amaliy sayi-harakatlarini o‘rni dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu sabab va omillarni inobatga olgan holda biz 13-14 yosh voleybolchi qizlar o‘rtasida ommaviy sport harkatini joriy etish bilan bog‘liq nazariy va amaliy tajriba va ma'lumotlarga hamda aynan bugugngi kun sport maktab o‘quvchilarining kundalik harkat tartibini nazoratga olib yangicha modellashtirilgan harkatlar tizimini yaratish borasida izlanishlar olib borildi. Unga ko‘ra Farg'ona viloyatidagi sport maktablarining maktab va maktabdan tashqari faoliyati jarayonlarida quyidagi model tuzilmamizni ishlab chiqildi.

Mazkur model ko‘rsatkichlarni amalda ishlashi uchun maktab va ota-onalar o‘rtasida uzviy aloqador doimiy ishlaydigan zanjir tashkil etilishi hamda uning doimiy faoliyatini taminlash lozim bo‘ladi.

Ushbu model ko‘rsatkichlarni voleybolchi qizlarning kundalik harkat tartibini nazoratga olish orqali o‘tkazilgan tadqiqotlar jarayonida olingan ma'lumotlar asosida shakllantirildi.

13-14 yoshli voleybolchi qizlarni darsdan tashqari mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan model

Nazorat yo'nalishi	Murabbiy faoliyati	Sportchi – voleybolchi	Ota-ona ishtiroki
1. Ta'limiy nazorat	- Harakat ko'nikmalarini shakllantirish - Harakatlar texnikasini tekshirish va to'g'rilash - Harakatni yodda saqlashni o'rgatish	- Harakatlarni ongli va aniq bajarish - Texnik elementlarni amalda qo'llash - Faollik va ishtiyoq bilan qatnashish	- Mashg'ulotlarda ishtirokni rag'batlantirish - Uyda mashqlarni mustahkamlash uchun sharoit yaratish
2. Tarbiyaviy nazorat	- Intizom, jamoaviylikni tarbiyalash - Ijobiy munosabat shakllantirish - Vaziyatlarga to'g'ri baho berishni o'rgatish	- Jamoa ichida faol va mas'uliyatli bo'lish - To'g'ri qaror qabul qilishga intilish	- Jismoniy tarbiya va sportga ijobiy qarashni singdirish - Bolani jamoviy muhitda faol bo'lishga undash
3. Sog'lomlashtirish nazorati	- Individual yuklamalarni nazorat qilish - Sog'liq holatini kuzatib borish - Tana o'sish va rivojlanishiga mos yuklamalar berish	- Sog'lom turmush tarzini qabul qilish - Mashg'ulotlardan sog'lomlashtiruvchi foyda olish	- Bolaning uyqu, ovqatlanish va dam olish rejimini nazorat qilish - Salomatlik kunlari, sport tadbirlarida ishtirok etish

4. Ijtimoiy-psixologik nazorat	- Motivatsiyani doimiy ushlab turish - Sportga ijobiy psixologik muhit yaratish - Individual yondashuv asosida muloqot	- O‘ziga ishonchni rivojlantirish - Muvaffaqiyatga intilish va shaxsiy yutuqlardan zavqlanish	- Bolaning ruhiy holatini tushunish - Rag‘batlantirish orqali ishtiyoqni oshirish
5. Muhit va shart-sharoitlar nazorati	- Mashg‘ulot joylari va jihozlar holatini nazorat qilish - Darsdan tashqari sport faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish	- Sport inshootlaridan unumli foydalanish - Uy sharoitida ham mustaqil shug‘ullanish	- Zarur sport anjomlarini ta’minlash - Sog‘lom muhit yaratishda ishtirok etish

1-rasm 13-14 yoshli voleybolchi qizlarni darsdan tashqari mashg’ulotlarida jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan model

Tadqiqotimiz davomida 13-14 yoshli voleybolchi qizlarni darsdan tashqari mashg’ulotlarida jismoniy tayyorgariligini oshirishga qaratilgan model ishlab chiqildi. Ushbu model pedagogic manbalardan tashkil topgan bo’lib unda integratsiyalashgan jismoniy tarbiya va sport muhitini uzoq muddatli rivojlantirish uchun alohida imkoniyatlar oila va sport maktab o‘rtasidagi tarbiyaviy hamkorlikni pedagogik qo‘llab-quvvatlashga, Integratsiyalashgan ta’lim jismoniy tarbiya va sport muhitini ochiq pedagogik tizim sifatida boyitish uchun o‘ziga xos xususiyatlarini hamda tashqi muhit omillarni hisobga olgan holda nazorat turlarini joriy etishga e’tibor qaratildi. Ushbu modeldan ko’zlangan maqsad esa sport maktablarida ommaviy sport harakatini amaliyotga joriy etish orqali 13-14 yoshli qizlarni voleybol sport turiga yo‘naltirish va shug‘ullanishni odatga aylantirish hamda provard natijada sport zaxiralari genofondini yanada rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot davomida yaratilgan mazkur metodika orqali voleyolchi qizlarning voleybolga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash, irodaviy sifatlarini tarbiyalash, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda sport salohiyatini modellashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, taklif etilayotgan metodika voleybolchi qizlarning texnik-taktik tayyorgarligini chidamlilik sharoitida mukammallashtirish, o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Metodikaning nazariy asoslari, tarkibiy tuzilmasi, vositalari darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan bo'lib, u voleybolchi qizlar bilan olib boriladigan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish, monitoring qilish hamda samaradorligini baholashni ko'zda tutadi.

<table>
<tr><td></td><td colspan="3">13-14 yoshli voleybolchi qizlarni drasdan tashqari mashg'ulotlarda maxsus chidamliligini rivojlantirish moduli</td><td></td></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr>
<tr><td rowspan="10">Voleybol sport turiga qiziqishini yanada oshirish,
irodaviy sifatlarini tarbiyalash.
13-14 yoshli voleybolchi qizlarni jismoniy rivojlanishini yaxshilash, ularning salomatligini mustahkamlash, maxsus chidamliligini oshirish hamda jismoniy</td><td rowspan="10">13-14 yoshli voleybolchi qizlarni induvidial xususiyatlari va qobiliyatlarini aniqlash orqali voleybol sportdagi imkoniyatlarini modellashtirish va bashorat qilish</td><td>Jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy rivojlanishini oshirish</td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td>Asosiy jismoniy sifatlarini hamda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish</td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td>Sportchi organizimini sog'omlashtirish va chiniqtirish</td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td></td></tr>
<tr><td></td></tr>
</table>

<table>
<tr><td rowspan="5">tayyorgarligini rivojlantirish</td><td></td><td rowspan="5"></td><td></td><td>Voleybol sport turiga qiziqishi, mashg‘ulotlarda ma'suliyatli bo‘lish</td></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td></tr>
<tr><td></td><td></td><td rowspan="2">Maxsus chidamlilikni rivojlantirish usulida texnikani egalash</td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr>
<tr><td colspan="5">13-14- yoshli voleybolchi qizlar uchun darsdan tashqari mashg‘ulot vositalari va metodlarini ishlab chiqish</td></tr>
<tr><td colspan="5">Dastlabki olingan nazoratlar natijalarga qarab mashg‘ulotlar samarorligini aniqlash hamda voleybolchi qizlarning joriy holatidan kelib chiqqan holda darsdan tashqari mashg‘ulot vositalarini bir biriga bog‘liqligini aniqlash</td></tr>
</table>

2-rasm 13-14 yoshli voleybolchi qizlarni darsdan tashqari mashg’ulotlarida maxsus chidamliligini rivojlantirish modeli

13–14 yoshli voleybolchi qizlarni darsdan tashqari mashg‘ulotlarda maxsus chidamliligini rivojlantirish metodikasi yosh sportchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar tizimini optimallashtirish, ularning jismoniy va sport tayyorgarligini tizimli asosda oshirish imkonini beradi. Ushbu metodika asosida tuzilgan darsdan tashqari olib borilgan mashg‘ulotlar voleybolchi qizlarning yosh xususiyatlari, psixofiziologik imkoniyatlari va jismoniy rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, qator afzalliklari mavjud. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bunda har bir voleybolchi qizlarning individual xususiyatlari (yosh, jismoniy imkoniyatlar, harakat faoliyati) hisobga olinadi, voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos yuklamalar tanlanadi, bunda ortiqcha zo‘riqish yoki bir xil yondashuvga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu bilan birga maxsus chidamlilik bilan birga umumiy jismoniy sifatlar (kuch, chaqqonlik, tezlik) ham rivojlanadi, mashg‘ulotlarda texnika, taktika va funksional tayyorgarlik birgalikda uyg‘unlashtiriladi, voleybolchi qizlarning nafaqat jismoniy, balki irodaviy-psixologik holati ham mustahkamlash kabi kompleks rivojlantirish imkoniyatlari oshiriladi. Voleybol sport

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

turiga xos texnik harakatlarning chidamlilik sifati bilan muvofiqlikda rivojlantiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, harakatlar takroriy bajartirish va dinamik sharoitlarda mashq qildirish orqali voleybol texnikasi barqarorlashadi, voleybolchi qizlarda murakkab vaziyatlarda texnik harakatlarni to‘g‘ri bajarish malakasi shakllanib bordi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarning samaradorligi ham oshib bordi. Bunda darsdan tashqari shakllarda (to‘garak, sport guruhlari, mustaqil mashg‘ulotlar) tashkil etilgan mashqlar voleybolchi qizlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga xizmat qiladi. Ushbu shakl doimiylik va izchillikni ta’minlagan holda sportchilarning umumiy tayyorgarlik sifatini oshiradi. Sog‘lomlashtirish va chiniqtirish omili ham inobatga olingan. Bu esa chidamlilik mashqlari yurak-qon tomir, nafas olish va mushaklar tizimini faol harakatga keltirib, sog‘liqni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FO‘YDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Абдель С.Х. Особенности планирования развития скоростно-силовых способностей юных волейболистов на этапе начальной подготовки к соревновательной деятельности / Абдель Салам Хуссейн, Е.П. Волков // Физическое воспитание студентов творческих специальностей / ХХПИ. -Харьков, 2001. - № 2. - С. 22-28.

2.Акбаров А.Тошпулатов Х.М. Ибрагимов Ф.З. Малакалий волейболчи-талабаларда ўзгарувчан йўналишлар бўйлаб югуриш тезкорлигини ривожлантириш // “Jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion yondashuvlar hamda ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy Anjuman to`plami. Chirchiq, 2023: Б.148-150.

3.Андреев М.М. Развитие физических качеств учащихся начальных классов на занятиях физической культурой средствами футбола /М.М. Андреев /Матер, докл. 2-й науч.-практ. конф. ПИФК МГЛУ// «Инновационные технологии в физическом воспитании подрастающего поколения». - М.,МГПУ, 2011. - С. 5354.

4.Бальсевич В.К. Новые векторы модернизации массового физического воспитания детей и подростков в общеобразовательной школе / В.К. Бальсевич, Л.И. Лубышева, Л.Н. Прогонюк, Л.Н. Мустафина, Н.Я. Стрельцова - М.: Теория и практика физ. культуры, 2003. - № 4. - С.56.

5.Бальсевич, В.К. Спортивно ориентированное физическое воспитание, образовательные и социальные аспекты / В.К. Бальсевич , Л.И. Лубышева // Теория и практика физ. культуры. - 2003. - № 3. - С. 19-22.

11-12 YOSHDAGI FUTBOLCHINING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xolmurodov Laziz Zarifboyevich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i
Email: *laziz.xolmurodov@mail.ru*

3-Zona ta’lim jarayonida multimediali vositalardan foydalanishni ifodalaydi. Ushbu zona ta’limni vizual va eshitish elementlari bilan boyitishni ko‘zda tutadi. Bu bosqichda o‘qituvchilar an’anaviy tushuntirish usullarini interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar va boshqa multimedia vositalari bilan birlashtiradi.

O‘qituvchilar o‘quv mashg‘ulotlarini slaydlar (PowerPoint, Google Slides yoki boshqa taqdimot dasturlari orqali), diagrammalar, grafiklar, jadval va tasvirlar bilan boyitilgan vizual materiallar, ma’ruza yoki amaliy mavzusi bo‘yicha tayyorlangan videoroliklar, ovozli ma’ruzalar, podkastlar yoki audio yozuvlar va multimedia

materiallarga savol-javob funksiyalari yoki testlar kiritish hamda simulyatsiyalar, modellar yordamida tushuntirishlari mumkin.

Talabalarga tushunarli va qiziqarli bo‘lishi uchun **t**a’lim jarayonini ko‘rgazmali materiallar bilan boyitish qiziqishni oshiradi va materialni yaxshi tushunishga yordam beradi.

Murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish orqali animatsiyalar va diagrammalar yordamida qiyin mavzularni tushunishni osonlashtiradi hamda dinamik vizual va eshitish materiallari talabalarning darsga qiziqishini oshiradi.

Multimedia vositalaridan foydalanish uchun texnik jihozlar (kompyuter, proyektor, ekran) va elektr energiyasi talab etilishi, taqdimotlar tayyorlash, moslashtirish uchun o‘qituvchi ko‘proq vaqt sarflashi, hamda faqat taqdimotlar namoyish etilsa, talabalar o‘zlari faol ishtirok etmasliklari mumkinligi 3-zonani kamchiligi hisoblanadi.

Diagrammaga ko‘ra, 3-Zona ta’lim jarayonida 50-70% foydalaniladi. Bu ta’lim bosqichida multimedia taqdimotlari an’anaviy tushuntirish usullari bilan birga olib boriladi. Misol uchun, Mavzuni tushuntirish uchun PowerPoint yoki Google Slides orqali slaydlar tayyorlash va simulyatsiya yoki modeldan foydalanish (masalan, fizika yoki kimyo tajribalarini ko‘rsatish uchun), hamda mavzuga oid o‘quv filmlar, YouTube videolari yoki maxsus tayyorlangan animatsiyalarni qo‘llash passiv darajada ekanligini ko‘rsatmoqda.

3-Zonada ko‘rsatilgan multimediali taqdimotlarni yanada samarali qilish uchun quyidagi choralarga e’tibor qaratish mumkin:

1. Professional dizayn vositalari: Zamonaviy dizayn va animatsiyalarni yaratish uchun Canva, Prezi yoki boshqa ilg‘or dasturlardan foydalanish.
2. Interaktivlikni oshirish: Taqdimotlarda o‘quvchilar bilan faol muloqot o‘rnatish (masalan, savol-javob, testlar kiritish).
3. Onlayn platformalar bilan integratsiya: Google Classroom yoki boshqa platformalar orqali taqdimot va multimedia materiallarini tarqatish.

3-Zona zamonaviy ta’limni texnologiyalar bilan boyitish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Multimediali taqdimotlardan foydalanish talabalar bilimini samarali oshirishga va o‘qituvchining ma’ruza sifatini yaxshilashga yordam beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

4-Zona: Internet resurslar

4-Zona ta'lim jarayonida internet resurslaridan keng foydalanishni nazarda tutadi. Bu bosqichda talabalar va o'qituvchilar turli xil virtual platformalar, onlayn kutubxonalar, simulyatsiya dasturlari va ilmiy maqolalar orqali o'quv jarayonini boyitadi. Internet resurslari o'quv jarayonini osonlashtirish bilan birga, ta'limni yanada interaktiv va moslashuvchan qiladi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar Tabiiy fanlar, muhandislik yoki texnologiya bo'yicha amaliy mashqlarni masofadan turib o'rganish uchun interaktiv muhit yaratishga xizmat qiladi. Misol uchun, fizika yoki kimyo fanlarida tajriba ishlarini virtual holatda ko'rish imkonini beradi.

Ilmiy maqolalar va onlayn kutubxonalardan foydalanish orqali JSTOR, PubMed, ResearchGate kabi platformalardagi ilmiy maqolalar [10,11] va tadqiqotlar hamda talabalar ilmiy adabiyotlarga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Raqamli o'quv platformalari va xizmatlari orqali Coursera, Khan Academy, Udemy kabi ta'lim platformalaridan dars olish hamda onlayn testlar, forumlar va ta'limga oid xizmatlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Multimedia kontentlarlari orqali YouTube, TED Talks va boshqa video-xizmatlarda mavjud o'quv materiallari hamda audio kitoblar va podkastlardan foydalanishga erishadilar. ijtimoiy tarmoqlardagi ta'lim (Telegram, WhatsApp, Facebook) guruhlarida mavzular bo'yicha muhokamalar va tajriba almashishga erishishlari mumkin.

Talabalar darsga oid barcha kerakli resurslarni internetdan topishi, talabalar mustaqil ravishda bilim olishda internet resurslariga tayanishi, Elektron kutubxonalar va resurslar orqali qimmat darsliklarga ehtiyoj kamayishi, internet resurslari masofaviy ta'lim uchun asosiy manba bo'lib hisoblanishi uning afzalliklari hisoblanadi.

Internetga ulanish imkoniyati bo'lmasa, resurslardan foydalanishning iloji yo'qligi, internetda ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lishi mumkinligi, resurslardan foydalanishda texnik nosozliklar yoki mos qurilmalar yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkinligi, Talabalar ko'p vaqtni kerakli bo'lmagan materiallar yoki boshqa saytlarga ketkazishi bu 4-zonaning kamchiliklari hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Diagrammaga ko‘ra, 4-Zonadan ta’lim jarayonida 10% foydalaniladi. Bu bosqichda internet resurslari qo‘shimcha bilim olish manbai sifatida qaraladi. Bu zona 3-Zonadan farqli ravishda ko‘proq masofaviy yoki mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirilgan. Misol uchun, fizika va kimyo fanlari uchun virtual laboratoriyalar, turli fanlar uchun interaktiv simulyatsiyalar, ilmiy platformalar (Skopus, Web of science Google Scholar, JSTOR, ScienceDirect), O‘quv videolar (Khan Academy darsliklari), TED Talks va boshqa o‘quv loyihalari hamda onlayn kurslar (Coursera, EdX kabi xalqaro ta’lim platformalari)dan foydalanish darajasi o‘ta pastligini ko‘rsatadi.

4-Zonani rivojlantirish uchun quyidagi choralarga e’tibor qaratish lozim:

1. O‘zbek tilidagi internet resurslarni ko‘paytirish: Talabalar uchun moslashtirilgan, sifatli O‘zbekcha ta’lim platformalarini yaratish.
2. Ishonchli manbalarni aniqlashni o‘rgatish: Talabalarga internetdagi ma’lumotlarning ishonchliligini baholashni o‘rgatish.

4-Zona zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, talabalarga cheksiz bilim olish imkoniyatini beradi. Bu zona ta’limning interaktiv va moslashuvchan bo‘lishiga xizmat qiladi, biroq uni samarali qo‘llash uchun texnik va metodik tayyorgarlik zarur.

5-Zona: Sun'iy intellekt

5-Zona ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda ta’lim jarayoni avtomatlashtirilgan tizimlar, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlar va algoritmlar yordamida olib boriladi. Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ularning qobiliyatlari asosida moslashtirilgan dars materiallarini taqdim etish va individual yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Personalizatsiya:

Sun’iy intellekt o‘quvchining individual bilim darajasini tahlil qiladi va unga mos dars materiallarini taqdim etadi hamda o‘quvchilar o‘z sur’atida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quv jarayonida adaptiv platformalar (masalan, ALEKS yoki Duolingo) orqali o‘qitish va o‘quvchining qiyinchiliklarga duch kelayotgan joylarini avtomatik aniqlash va shu bo‘yicha maxsus tavsiyalar beradi.

Test va topshiriqlarni avtomatik ravishda baholab xato tahlili va xato ustida ishlash bo‘yicha maslahatlar beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi chat-botlar (GPT-3 yoki ChatGPT) yoki o‘quv yordamchilari talabalarning savollariga javob beradi.

AI tizimlari talabalar haqidagi ma’lumotlarni (faollik, muvaffaqiyat darajasi) yig‘ib, ularni tahlil qiladi. Ushbu tahlillar o‘quv dasturini takomillashtirish uchun ishlatiladi.

Sun’iy intellektning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Individual yondashuv: Har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan o‘quv dasturi yaratiladi.
- Tez va samarali baholash: O‘qituvchilarni qo‘lda baholashdan ozod qilib, vaqtni tejaydi.
- Muvaffaqiyat monitoringi: Sun’iy intellekt orqali o‘quvchilarning muvaffaqiyat darajasini real vaqt rejimida kuzatish mumkin.
- Cheksiz o‘quv materiallari: AI asosida yangi o‘quv materiallari avtomatik ravishda ishlab chiqilishi yoki tavsiya etilishi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalari murakkabligi, ularni joriy qilish uchun yuqori texnik bilim talab etilishi, AI asosidagi ta’lim tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llash moliyaviy jihatdan qimmat bo‘lishi mumkinligi, talabalar haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlashda maxfiylik xavfi mavjudligi hamda AI tizimlari ko‘p jarayonlarni avtomatlashtirgan holda, o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi rolini qisqartirish mumkinligi uning kamchiligi sifatida qaraladi

Diagrammaga ko‘ra, 5-Zona ta’lim jarayonida 1% foydalanishni ko‘zda tutadi. Bu zona hali keng ko‘lamda qo‘llanilmaydi hozirda tajriba bosqichida. Sun’iy intellektning to‘liq joriy qilinishi uchun vaqt va texnologik rivojlanish talab qilinadi. O‘zbek tilida AI asosidagi ta’lim resurslarini yaratish, o‘qituvchilarga sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil etish, qimmat tizimlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘rniga arzonroq AI texnologiyalarini ishlab chiqish orqali sun’iy intellektni rivojlantirish mumkin.

5-Zona kelajak ta’limining asosiy qismi hisoblanadi. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini individuallashtirish, avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, uni keng joriy qilish uchun texnologik va iqtisodiy resurslar bilan birga, ma’lum vaqt talab etiladi.

6-Zona: Modellash

6-Zona ta’lim jarayonida modellashtirish texnologiyalarini qo‘llashni nazarda tutadi. Bu bosqichda o‘quv materiallari real hayotdagi jarayonlarning modeli sifatida taqdim etiladi. Modellash yordamida murakkab tizimlar yoki jarayonlar vizual, interaktiv yoki matematik shaklda o‘rgatiladi. Bu zona ta’lim jarayonini chuqurlashtirish, analitik fikrlashni rivojlantirish va amaliyot bilan nazariyani bog‘lash uchun ishlatiladi.

Turli jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish uchun modellar yaratiladi. Masalan, iqtisodiy, ekologik yoki ijtimoiy tizimlarni modellashtirish.

Formulalar, algoritmlar asosida jarayonlar tahlil qilinadi va fizika, matematika, biologiya va muhandislik fanlarida keng qo‘llaniladi hamda virtual muhitda jarayonlarning modellashtirilishi (masalan, kimyo tajribalari yoki ekologik jarayonlar) interaktiv simulyatsiyalar bilan ishlashni rivojlantiradi

Modellash uchun maxsus dasturlardan foydalaniladi (Matlab, Simulink, AutoCAD, Blender va boshqalar) va o‘quvchilar uchun obyektlar va jarayonlarni uch o‘lchamda (inson tanasi anatomiyasi yoki muhandislik loyihalari) taqdim qilish uchun 3D modellashtirish daturidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Modellashtrishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Nazariya va amaliyotni bog‘lash: Modellar yordamida murakkab jarayonlarni osonroq tushunish mumkin.
- Ko‘rish va tushunish qulayligi: Vizual tasvirlar orqali mavzularni o‘zlashtirish osonlashadi.
- Muammolarni yechish ko‘nikmasini rivojlantirish: Talabalar modellar ustida ishlash orqali analitik fikrlashni rivojlantiradi.

- Tajribalarning xavfsizligi: Real hayotda xavfli bo‘lgan jarayonlarni virtual tarzda xavfsiz o‘rganish imkoniyati (masalan, kimyo yoki biologiya tajribalari).

Modellash jarayoni uchun yuqori darajadagi texnologiyalar talab etilishi, modellashni tushunish va qo‘llash ko‘nikmalari uchun maxsus tayyorgarlik kerakligi, modellash uchun zarur bo‘lgan dasturlar ko‘pincha qimmat hamda murakkabligi, modellash texnologiyalarini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarni maxsus kurslarda o‘qitish zarurligi kamchiligi hisoblanadi.

Diagrammaga ko‘ra, 6-Zonadan ta’lim jarayonida 0% foydalaniladi, bu esa uning amaliyotga hali keng joriy qilinmaganini ko‘rsatadi. Modellash texnologiyalari tajriba yoki yuqori malakali o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bosqichda turibdi.

O‘quv muassasalarini zamonaviy kompyuterlar va dasturiy ta’minot bilan jihozlash, modellash texnologiyalaridan foydalanishni o‘qituvchilarga o‘rgatish, qimmat tizimlarga muqobil bo‘lgan ochiq manba dasturlarni toppish, ulardan foydalanish, mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan modellashtirish materiallarini ishlab chiqish orqali rivojlantirish mumkin.

6-Zona ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda yuqori bosqichni ifodalaydi. Modellash murakkab jarayonlarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilishda asosiy rol o‘ynashi mumkin. Bu texnologiyalar hali keng tarqalmagan bo‘lsa-da, kelajakda ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi kutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

- Ta’lim jarayonida ilm, fan va amaliyotni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.
- Axborot texnologiyalari asosida o‘qituvchilar va talabalarga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish kerak.
- Hamkorlikni rivojlantirish: Ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish zarur.
- Maxsus dasturlarni yaratish: O‘zbekiston ta’lim tizimiga mos keluvchi mahalliy platformalar va resurslar ishlab chiqilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2021-yil 31-iyuldagi 475-son qarori.

2. Siemens, G. (2004). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*.
3. Khurmamatov, A., Matkarimov, A., Auesbaev, A., & Utegenov, U. (2023). Results of experiments on studying the composition and purification of technical water of oil and gas processing plant. *Processes of Petrochemistry and Oil Refining*, *24*(4).
4. Маткаримов, А. М. (2017). Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. *Проблемы науки*, (7 (20)), 78-80.
5. PhET Interactive Simulations – Virtual Laboratory Tools. https://phet.colorado.edu/en/simulations/filter?subjects=chemistry&type=html
6. Маткаримов, А. М. (2017). Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. *Достижения науки и образования*, (5 (18)), 110-114.
7. Jonassen, D. H. *Computers as Mindtools for Schools*.
8. Coursera, Udemy va boshqa xalqaro ta'lim platformalari resurslari. https://www.coursera.org/, https://www.udemy.com/?srsltid=AfmBOorHnNxiqU_lA4zvuEFHyxafOlt6OZr2QsnJLdUlLfQmahClZ1lK
9. Маткаримов, А. М. (2017). Проблема охраны труда и промышленная безопасность на опасных производственных объектах. *Достижения науки и образования*, (6 (19)), 102-103.
10. Murodkhon Rashidkhonovich Kodirkhonov, Noira Rakhimovna Vokhidova, Sayyora Sharafovna Rashidova, Xuan Nie, Jamshidkhon Kadirkhanov. Hybrid nanocomposites of methylcellulose: Physico-chemical and antimicrobial properties. Cellulose Chemistry and Technology. (2023). V.57 (1-2). P.155-165.
11. Kodirkhonov M. R. et al. Obtaining the fluorescent chitosan for investigations in the analytical ultracentrifuge //Advances in Biological Chemistry. 2019. T. 9.– №. 01. C. 23.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALARNING FIZIKADAN MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

G'afforova Shaxnoza Fattoyevna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fizika bo'yicha talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini raqamli muhitda tashkil etish masalalari yoritiladi. Mustaqil ta'limning ahamiyati, uni amalga oshirish usullari, ushbu jarayondagi asosiy muammolar tahlil qilinadi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali fizika fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim faoliyati, talaba faolligi, zamonaviy texnologiyalar, metodik ta'minot.*

ВОЗМОЖНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ПО ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье освещены вопросы организации самостоятельного обучения студентов по физике в цифровой образовательной среде. Рассматривается значимость самостоятельного обучения, методы его использования, основные проблемы в этом процессе, а также возможности повышения эффективности освоения физики за счет применения современных технологий.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, самостоятельная учебная деятельность, активность студентов, современные технологии, методическое обеспечение.*

POSSIBILITIES OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES IN PHYSICS ON THE BASIS OF MODERN TECHNOLOGIES

Abstract. *This article explores the issues of organizing students' independent learning in physics within a digital educational environment. It examines the importance of independent learning, methods for its implementation, key challenges in this process, and opportunities to enhance the effectiveness of physics mastery through the use of modern technologies.*

Keywords: *digital educational environment, independent learning activities, student engagement, modern technologies, methodological support.*

KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bosqichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oliy

ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda raqamli vositalar, pedagogik texnologiyalar va mustaqil ta'lim elementlarini uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash va o'zlashtirish jarayonida mustaqil bo'lishi oliy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu esa mustaqil ta'limni zamonaviy texnologiyalar asosida samarali tashkil etishni talab qiladi.

Fizika kabi tabiiy fanlarni o'zlashtirishda tajribaviy ishlar, modellashtirish, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan foydalanish talabalarga murakkab qonuniyatlarni chuqurroq anglash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bugungi kunda e-learning platformalari (Moodle, Google Classroom, Canvas), AR/VR texnologiyalari, animatsion simulyatorlar va masofaviy laboratoriyalar mustaqil ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonini moslashtirish, balki talabalarga individual o'quv yo'nalishini tanlash va o'zlashtirish sur'atini boshqarish imkonini beradi.

Maqolada fizika fanidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, ularning samaradorligi, xorijiy va mahalliy tajribalar hamda amaliy takliflar yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqil ta'lim zamonaviy pedagogik konsepsiyalarning markazida turadi. Oliy ta'limda talabalarni o'z bilimlarini chuqurlashtirishga, mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirishda mustaqil o'quv faoliyatining o'rni beqiyosdir. Fizika fani bu borada alohida ahamiyatga ega, chunki u nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham talab qiladi.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi va V.V. Davydovning faoliyat yondashuvi asosida mustaqil ta'lim talabani bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki faol izlanish va kashfiyot orqali o'zlashtiruvchi sifatida shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Masalan, fizika fanida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonini interaktivlashtiradi, vizual va audio vositalar orqali tushunchalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. 3D modellar yoki virtual tajribalar orqali murakkab fizik

hodisalarni mustaqil o‘rganish talabalarning qiziqishini oshiradi va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ularni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatini belgilab berdi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ham mustaqil ta’limni raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etishning dolzarbligi ta’kidlanmoqda. Mustaqil ta’lim nafaqat fan mazmunini o‘zlashtirish, balki talabaning o‘quv faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashishi, o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zlashtirish tezligini aniqlashiga xizmat qiladi.

METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Fizika fanidan, xususan atom fizikasi bo‘yicha talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi. Har bir yondashuv atom fizikasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilib, talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi:

1. **Tizimli yondashuv**: Fizika fanining, xususan atom fizikasining o‘quv mazmuni, o‘zlashtirish mexanizmlari, talaba faoliyati va texnologik vositalar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Mustaqil ta’lim jarayoni ta’limning barcha elementlari bilan uyg‘un holda shakllanadi.

Misol: Atom fizikasida talabalar Bohr modeli yoki kvant mexanikasi kabi mavzularni o‘rganayotganda, PhET Interactive Simulations platformasi orqali atomning elektron tuzilishini 3D modellar yordamida vizualizatsiya qilishlari mumkin. Bu tizimli yondashuv atomning tarkibiy qismlari (proton, neytron, elektron) va ularning o‘zaro ta’sirini yaxlit holda tushunishga yordam beradi. Talabalar virtual tajribalar orqali vodorod atomining spektral chiziqlarini mustaqil tahlil qilishlari va kvant sonlarining ahamiyatini o‘rganishlari mumkin.

2. **Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv**: O‘quv jarayonining markazida talaba turadi, u bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi va yaratuvchi sifatida ishtirok etadi.

Misol: Atom fizikasida talabalar “Quantum Lab” yoki “Labster” kabi virtual laboratoriyalar yordamida atomning energiya darajalari va foton emissiyasi

jarayonlarini mustaqil o‘rganishlari mumkin. Masalan, talabalar virtual muhitda vodorod atomining emissiya spektrini tahlil qilib, energiya o‘tishlarini hisoblash orqali faoliyatga jalb qilinadi. Bu ularga nazariy bilimlarni amaliyotda sinash imkonini beradi.

3. **Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv**: Har bir talabaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasiga mos o‘quv muhitini ta’minlashga e’tibor qaratiladi. Multimedia resurslari, video darsliklar va onlayn platformalar bu ehtiyojlarga moslashadi.

Misol: Atom fizikasida talabalar YouTube’dagi “CrashCourse Physics” yoki “Khan Academy” kabi platformalardan atom tuzilishi bo‘yicha videodarslarni o‘z sur’atlarida ko‘rishlari mumkin. Masalan, ba’zi talabalar kvant sonlari haqidagi darslarni chuqurroq o‘rganish uchun qo‘shimcha interaktiv testlar (masalan, Quizizz platformasidagi kvant mexanikasi bo‘yicha savollar) orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin, boshqalari esa oddiyroq animatsion simulyatsiyalardan foydalanishni afzal ko‘rishlari mumkin.

4. **Innovatsion yondashuv**: Yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish maqsad qilinadi.

Misol: Atom fizikasida AR/VR texnologiyalari yordamida talabalar atomning ichki tuzilishini virtual muhitda “sayohat qilib” o‘rganishlari mumkin. Masalan, “Google Expeditions” ilovasi orqali talabalar atomning elektron bulutlarini 3D formatda ko‘rishlari va kvant mexanikasining asosiy tushunchalarini o‘zlashtirishlari mumkin. Bu yangi texnologiyalar talabalarda qiziqish uyg‘otadi va murakkab tushunchalarni soddalashtiradi.

5. **Integratsiyalashgan yondashuv**: Fizika fanini, xususan atom fizikasini matematika, informatika va boshqa tabiiy fanlar bilan bog‘liq holda o‘rganish orqali chuqurroq tushuncha shakllantiriladi.

Misol: Atom fizikasida talabalar kvant mexanikasining matematik asoslarini o‘rganish uchun Wolfram Alpha yoki MATLAB kabi dasturiy ta’minotlardan foydalanib, Shrödinger tenglamasini mustaqil hisoblashlari mumkin. Shuningdek, informatika bilan integratsiya orqali Python dasturlash tili yordamida atomning

energiya darajalarini modellashtirish topshiriqlari bajarilishi mumkin. Bu talabalarga fizika, matematika va informatika o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu metodologik yondashuvlar atom fizikasi bo‘yicha talabalarda chuqur tushuncha, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish, axborot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va dasturiy ta’minotlar atom fizikasining murakkab tushunchalarini talabalarga osonroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi.

Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. Quyida amaliyotda qo‘llaniladigan asosiy vositalar keltiriladi:

1. **PhET Interactive Simulations**: Colorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan ushbu platforma talabalarga elektromagnit to‘lqinlar, Nyuton qonunlari yoki issiqlik almashinuvi kabi mavzularni virtual tajribalar orqali o‘rganish imkonini beradi.
2. **YouTube’dagi ilmiy videodarslar**: Tajribali o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan videolar talabalarga mavzuni mustaqil takrorlash va chuqur o‘zlashtirishda yordam beradi.
3. **Google Classroom va Moodle**: Ushbu platformalar o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatish, mustaqil topshiriqlar va testlarni taqdim etish imkonini beradi.
4. **Wordwall, Quizizz, Kahoot**: Interaktiv test platformalari talabalarga bilimlarini sinab ko‘rish, xatolarini tuzatish va natijalarini baholashda qulaylik yaratadi.
5. **Mobil ilovalar**: “Physics Toolbox” va “Physics Notes” kabi ilovalar talabalarga fizik o‘lchovlarni amalga oshirish va nazariy bilimlarni takrorlash imkonini beradi.
6. **PDF-kitoblar va elektron darsliklar**: Masofaviy ta’limda o‘quv resurslariga kirishni osonlashtiradi.

XULOSA

Raqamli ta'lim muhiti va zamonaviy texnologiyalar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Nazariy tahlil va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda mustaqil ta'lim nafaqat talabalarning individual o'quv strategiyasini shakllantiradi, balki ularning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlab topish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Metodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar va didaktik materiallar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashganda, mustaqil o'quv faoliyatining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa – raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlarini to'laqonli o'rganish, ularni fizika faniga moslashtirish va talabalarning mustaqil ta'lim olishini qulay va samarali qilishdan iborat. Kelgusida raqamli platformalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiyalash, pedagoglar uchun metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish va amaliy tajribalarni almashish orqali bu yo'nalishni yanada rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF–5712-son Farmoni // https://lex.uz/docs/4312785
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5032-son Qarori. https://lex.uz/docs/5338558.
3. Ramankulov, S., Dosymov, E., Turmambekov, T., Azizkhanov, D., Kurbanbekov, S., & Bekbayev, S. (2020). Integration of case study and digital technologies in physics teaching through the medium of a foreign language. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 15(4), 142-157.
4. Xujanov E. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ixtisoslik fanlari bo'yicha mustaqil ta'limini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, –T.: 2025, № 1/1. – B. 237-239.
5. Хужанов Э.Б. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларида физик тушунчаларни статистик метод асосида шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис-си автореферати, Тошкент, 2020. – 48 б.
6. Khujanov Erkin. Teaching Quantum Physics Elements in Secondary Schools Based on Statistical Method // Eastern European Scientific Journal. – Germany, 2018. – № 6. – pp. 147– 150.

7. Khujanov Erkin. Formation of Probability Physical Notions by Pupils on the Statistical Approach, Revista Geintec-gestao Inovacao e Tecnologias - Brazil, - Vol. 11 No. 3 (2021). – P. 1681- 1688.
8. Хужанов Э.Б. Методика изучения квантовой физики в общеобразовательной средней школе // Сборник материалов Международной научно-практической конференции «Депонирование научных достижений и передача их поколениям». www.maxbook.su. – Москва, 2019. – С. 51–54.
9. Джораев М., Саматов Г.Б., Хужанов Э.Б. Совершенствование обучения физике на основе статистических методов в системе непрерывного образования. – Ташкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2017. – 288 с.
7. Назаров Ш.Ш. Рақамли таълим муҳитида таълим сифатини оширишнинг инновацион ёндашувлари // Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент: 2023. – №1. – Б. 22–28.
8. Ҳамидов Ж. Рақамли таълим муҳитида талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини шакллантириш усуллари // Педагогика ва психология. – Самарқанд: 2024. – №2. – Б. 14–19.
9. Rajabova M. The Importance of Independent Learning in the Digital Educational Environment // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 11(4). – P. 45–51.
10. Anderson T., & Dron, J. (2014). Teaching Crowds: Learning and Social Media. – Edmonton: Athabasca University Press.
11. Siemens G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. – International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – Vol. 2(1). – P. 3–10.
12. Муродов Б. Замонавий рақамли таълим муҳитида талабаларни мустақил ўрганишга йўналтириш стратегиялари // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – №3(7). – Б. 30–36.
13. Jonassen D.H. (2000). Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking. – 2nd ed. – New Jersey: Prentice Hall.
14. Ҳайдарова Г.Р. Интерактив таълим усуллари асосида мустақил билим олишни ривожлантириш // Ахборот технологиялари ва таълим. – Тошкент: 2022. – №4. – Б. 40–44.
15. Dewey J. (1938). Experience and Education. – New York: Macmillan.
16. OECD. (2021). The Digital Transformation of Education: How to Ensure Equitable and Effective Learning. – OECD Publishing. https://www.oecd.org/education/

ALGORITMNI OPTIMALLASHTIRISHNING SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALARI

Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti tyutori, BDU mustaqil izlanuvchisi
e-mail: nargizasayfetdinovna@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola algoritmni optimallashtirishda sun'iy intellektga tayangan yondashuvlarni tizimli ravishda tahlil qiladi va qiyoslaydi. Tadqiqot doirasida Bayes optimallashtirish (GP-BO/TuRBO), byudjetga sezgir sxemalar (Hyperband/BOHB), metaevristikalar (GA/PSO + mahalliy qidiruv), mustahkamlovchi o'rganishga asoslangan dinamik algoritm konfiguratsiyasi (RL-DAC) hamda AutoML/CASH orkestratsiyasi ko'rib chiqildi. Natijalar kichik byudjetlarda TuRBOning past simple regretga erishishini, qimmat baholashlarda Hyperband/BOHBning devor-vaqtini keskin qisqartirishini, nostatsionar muhitlarda RL-DACning barqarorlik va yaroqlilikni oshirishini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *Bayes optimallashtirish; Hyperband/BOHB, AutoML (CASH), Metaevristikalar; RL asosidagi algoritm konfiguratsiyasi (RL-DAC)*

ТЕХНОЛОГИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ АЛГОРИТМОВ

Аннотация. *В данной статье систематически анализируются и сравниваются подходы к оптимизации алгоритмов, основанные на искусственном интеллекте. В исследовании рассматриваются байесовская оптимизация (GP-BO/TuRBO), бюджетно-зависимые схемы (Hyperband/BOHB), метаэвристика (GA/PSO + локальный поиск), динамическая конфигурация алгоритма на основе обучения с подкреплением (RL-DAC) и оркестровка AutoML/CASH. Результаты показывают, что TuRBO обеспечивает низкий уровень простых потерь при небольшом бюджете, Hyperband/BOHB значительно сокращает время ожидания при дорогостоящих оценках, а RL-DAC повышает стабильность и валидность в нестационарных средах.*

Ключевые слова*: байесовская оптимизация; Hyperband/BOHB, AutoML (CASH), метаэвристика; конфигурация алгоритма на основе RL-DAC*

ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED TECHNOLOGIES OF ALGORITHM OPTIMIZATION

Abstract. *This paper systematically analyzes and compares AI-based approaches to algorithm optimization. The research considers Bayesian optimization (GP-BO/TuRBO), budget-sensitive schemes (Hyperband/BOHB), metaheuristics (GA/PSO + local search), dynamic algorithm configuration based on reinforcement learning (RL-DAC), and AutoML/CASH orchestration. The results show that TuRBO achieves low simple regret in*

small budgets, Hyperband/BOHB dramatically reduces the wall-time in expensive evaluations, and RL-DAC improves stability and validity in non-stationary environments.

Keywords: *Bayesian optimization; Hyperband/BOHB, AutoML (CASH), Metaheuristics; RL-based algorithm configuration (RL-DAC)*

KIRISH

Hozirgi davrda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib kelib, murakkab hisoblash muammolarini samarali va tejamkor hal etish imkonini bermoqda. Ulardan biri — algoritmni optimallashtirish bo'lib, u mavjud hisoblash jarayonlarini tezlashtirish, resurs sarfini kamaytirish va natijalarni aniqligini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy SI asoslangan optimallashtirish usullari klassik matematik optimallashtirishdan farqli ravishda, murakkab, noaniq va yuqori o'lchamli muammolarni ham samarali hal etishga qodir bo'lib bormoqda [1].

Xorijiy olimlardan biri Fraziska Hutter va uning hamkasblari Bayes optimallashtirish, metaevristikalar hamda avtomatlashtirilgan mashinaviy o'rganish (AutoML) kabi yondashuvlar yordamida algoritm parametrlarini sozlash bo'yicha tizimli metodlarni ishlab chiqqanini ta'kidlashadi [2]. Ularning fikricha, algoritm optimallashtirish jarayoni faqatgina texnik muammo emas, balki hisoblash samaradorligi, aniqlik va moslashuvchanlik kabi ko'p o'lchovli kriteriyalarning muvozanatini topish masalasidir. Shuningdek, Biedenkapp tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mustahkamlovchi o'rganishga asoslangan dinamik algoritm konfiguratsiyasi real vaqt rejimida parametrlarni muhit o'zgarishiga mos ravishda optimallashtirish imkonini berishi qayd etilgan [3].

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ilk ilmiy izlanishlar kuzatilmoqda. Masalan, Sayfiddinov mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotdagi samaradorligi va ularni ishlab chiqarish, logistika, ta'lim kabi sohalarda tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilgan [4]. Uning fikricha, algoritmlarni optimallashtirish bo'yicha SI texnologiyalaridan foydalanish O'zbekistonning raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hozirgi kunda mahalliy ilmiy muhitda algoritm parametrlarini optimallashtirishda AutoML

va Bayes optimallashtirish kabi ilg‘or yondashuvlarni amaliy sohalarga integratsiya qilish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayotgani kuzatiladi.

Mavjud muammo shundaki, ko‘plab sohalarda algoritmlar hali ham qo‘lda sozlash yoki tajriba–xatolik usuli orqali optimallashtirilmoqda. Bu esa vaqt va resurslarni ortiqcha sarflanishiga, shuningdek, natijalar sifatining barqaror emasligiga olib keladi. Shunday ekan, SI asoslangan optimallashtirish yondashuvlarini tizimli ravishda o‘rganish, ularning afzallik va cheklovlarini aniqlash, hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish zarur.

Bizning nuqtai nazarimiz shundan iboratki, algoritmni optimallashtirishga sun’iy intellektning tatbiqi nafaqat hisoblash samaradorligini oshiradi, balki tizimlarning intellektual moslashuvchanligini ta’minlaydi. Bu esa global raqobat sharoitida O‘zbekiston uchun strategik ustunlik yaratadi. Shu sababli, ushbu maqolada biz Bayes optimallashtirish, metaevristik yondashuvlar, AutoML va mustahkamlovchi o‘rganish asosidagi konfiguratsiya metodlarini ilmiy tahlil qilishni va ularning amaliy qo‘llanish istiqbollarini ko‘rsatishni maqsad qilamiz.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ushbu tadqiqot algoritmni optimallashtirishning SI-ga asoslangan to‘rtta asosiy yo‘nalishini qamrab oladi: Bayes optimallashtirish (BO), ko‘p-sodiqlik/ byudjetga sezgir yondashuvlar (Hyperband, BOHB), metaevristikalar va gibrid (mat-)evristikalar, hamda mustahkamlovchi o‘rganishga tayangan dinamik algoritm konfiguratsiyasi (RL-DAC). Biz yondashuvlarni uch sinfdagi muammolarda solishtiramiz.



Rasm 1. Muammolarning uchta sinfi

Har bir sinf uchun amaliy benchmarklar va o‘lchovlar tanlandi; baholash namunaga tejamkorlik (eval soni), anytime ishlash, yakuniy maqsad qiymati, devor-vaqti hamda resursdan foydalanish mezonlari bo‘yicha olib borildi. BO’ning nazariy-amaliy asoslari (GP surrogatlar, EI/UCB/PI akvizitsiyalar), AutoML/CASH tamoyillari va tajribaviy konfiguratsiya usullari (SMAC) metodologik tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Doimiy domen uchun COCO/BBOB oilasidagi test funksiyalar (o‘lchamlar 2–40), katta o‘lchamli variant (bbob-largescale) va IOHprofilerdagi psixdo-boolean/ko‘rsatkichli sinovlar ishlatildi. Bu platformalar “anytime” egrilarni, fiks-byudjet va fiks-nishon tahlillarini, shuningdek algoritm parametrlari evolyutsiyasini qayd etish imkonini beradi. MLga yaqin ssenariylarda giperparametr qidiruvi uchun klassik mashinalar o‘rganishi vazifalari (open-source to‘plamlar) hamda AutoML konveyerlari baholandi. Kombinatorik ssenariylar uchun esa diskret fazoda BO va metaevristika mosligi ko‘rildi.

BO qimmat baholanadigan maqsad funksiyalarini Gaussian Process (yoki mos surrogate) orqali modellashtiradi va EI/PI/UCB kabi akvizitsiya funksiyalari bilan keyingi nuqtani tanlaydi. Biz:

(a) klassik GP-BO,

(b) ishonch hududlari bilan lokal ekspluatatsiya qiluvchi TuRBO (trust-region BO),

(c) ko‘p-sodiqlik (tez/arzonga yaqin baholashlarni yuqori sodiqlik bilan uyg‘unlashtirish) konfiguratsiyalarini sinovdan o‘tkazamiz. TuRBO yuqori o‘lcham va notekis landshaftlarda global eksploratsiyadan ko‘ra ko‘p lokal TRlarni birgalikda yuritish orqali barqarorlik beradi.

BO kichik byudjetlarda ko‘pincha eng kuchli natija ko‘rsatadi, biroq GP moslashuvi va akvizitsiya optimallashtirish xarajati tufayli devor-vaqti bo‘yicha raqobatchilarga nisbatan qimmatlashishi mumkin — shuning uchun biz “eval soni vs devor-vaqti”ni alohida hisobot qilamiz.

Hyperband g‘oyasi — ko‘p konfiguratsiyani tez sinab, kuchsizlarini erta to‘xtatish, BOHB esa Hyperband seleksiyasini BO yo‘naltirishi bilan birlashtiradi. Bu, ayniqsa, chuqur modellar yoki RL agentlari kabi qimmat baholashlarda kuchli

"anytime" ishlash beradi. Biz BOHB'ni klassik RS/BO/Hyperband bilan yonma-yon qo'yamiz va byudjet tarqatish va "fidelities" dizaynini (epoxa/namuna soni/rezolyutsiya) ochiq ko'rsatamiz.

Auto-sklearn kabi AutoML tizimlarida CASH (algoritm tanlash + giperparametr sozlash) yechiladi; meta-learning bilan "issiq start" beriladi va ensembling yakuniy barqarorlikni oshiradi. Biz CASHni SMAC (Sequential Model-Based Algorithm Configuration) orqali ham izohlaymiz: daraxt-asosli surrogatlar va ketma-ket namunaviy dizayn yordamida katta konfiguratsiya fazosida izlanish olib boriladi.

G'enetik algoritmlar, PSO, tabu qidiruv, VNS va ularning gibridlari kombinatorik va aralash muammolarda moslashuvchan eksploratsiya-ekspluatatsiya mexanizmini beradi [5]. Uchinchi nashr Handbook of Metaheuristics va so'nggi sharh ishlari, meta-/mat-evristikalarning amaliy vazifalarda (jadval tuzish, marshrutlash, qadoqlash) keng tatbiqini va gibridlashtirish (mahalliy qidiruv, matematik dasturlash bloklari) samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqotimizda metaevristika parametrlari (populyatsiya, krossover/mutatsiya, qo'shma mahalliy qidiruv) sistematik ablatsiya bilan tahlil qilinadi.

DAC doirasida parametrlar ish jarayonining o'zida (per-state/per-phase) o'zgartiriladi; bu statik sozlashdan farqli o'laroq, muhit/instansiyaga mos adaptiv boshqaruvni beradi [6]. Biz Biedenkapp va hammualliflarning RL-DAC tamoyillarini asos qilib olamiz hamda ko'p-agentli DAC (MA-DAC) kabi zamonaviy kengaytmalarni ko'rib chiqamiz. MDP formalizatsiyasida: holat (ishlash ko'rsatkichlari, qidiruv dinamikasi), harakat (parametr/sxema o'zgarishi), mukofot (maqsad yutug'i va vaqt-xarajat jarimalari) aniqlanadi.

Tanlangan bazalar (Grid Search, Random Search, klassik GP-BO, Hyperband, BOHB, kuchli metaevristika—GA/PSO, Auto-sklearn (CASH) va RL-DAC) metodlar oilasining "vakil"lari sifatida o'ylab tanlandi. Grid/RS — oddiy, ammo muhim "past chiziq"ni beradi; RS odatda gridga nisbatan yuqori o'lcham va aralash domenlarda barqarorroq. BO va BOHB — namunaga tejamkorlik hamda byudjetni oqilona taqsimlashni namoyon qiladi; Hyperband erta to'xtatish orqali "anytime" ishlashni kuchaytiradi. Metaevristikalar murakkab kombinatorik vazifalarda moslashuvchan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

eksploratsiyani beradi; Auto-sklearn esa CASH muammosini end-to-end orkestratsiya qiladi [7]. RL-DAC statik sozlashdan farqli ravishda jarayon davomida parametrlarni moslab, dinamik muhitlarda ustunlik beradi. Shu tarkib taqqoslashni halol, qamrovli va transferga mos qiladi: har bir oilaning kuchli/zaif tomonlarini ko‘rsatish uchun yetarli.

Barcha tajribalar belgilangan byudjet (eval soni yoki devor-vaqti limiti)da, 10–20 urug‘ (seed) bilan qayta ishlanadi; natijalar o‘rtacha va ishonch oralig‘ida beriladi. Pipeline: (a) random/Latin boshlang‘ich dizayn, (b) iterativ qidiruv, (c) erta to‘xtatish va scheduler (Hyperband/BOHB), (d) yakuniy ensembling (AutoML). Kod, konfiguratsiyalar, loglar va meta-ma’lumotlar ochiq formatda saqlanadi (OpenML-ga mos), bu PMLR/JMLR amaliyotlariga mos reproduksiyalilik madaniyatini ta’minlaydi.

Logistika, energetika, ishlab chiqarish kabi tarmoqlarda “tez-baholash” proksilari (simulyatsiya/past rezolyutsiya) mavjud. Shuning uchun ko‘p-sodiqlik BO/BOHB va RL-DAC ayniqsa maqbul: ular qimmat real baholashlarni arzon sodiqliklar bilan almashtirib, umumiy byudjetni tejar, o‘zgaruvchan muhitga moslashadi. 2024-yilgi AI strategik hujjatlari va xalqaro hisobotlar kontekstida qisqa siklli pilot loyihalar (masalan, yo‘nalish rejalashtirish, yuk tashish grafiki, energiya yuklamasini tartibga solish) mazkur metodlarning amaliy transferini tezlashtiradi. Bunda kadrlar tayyorlash, hisoblash infratuzilmasi va ma’lumotlar boshqaruvi (sifat, maxfiylik) parallel hal qilinishi lozim.

SI-ga asoslangan optimallashtirishda “bitta sehrli metod” yo‘q. Bizning fikrimizga ko‘ra, SI asosidagi optimallashtirishda eng yaxshi natija gibrid, kontekstga mos meta-nazoratdan kelib chiqadi. Ya’ni, bir metodni “yakuniy yechim” sifatida emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi bloklar sifatida ko‘rib, ularni vazifa, byudjet va vaqt cheklovlariga mos muhandislik darajasida birlashtirish kerak.

NATIJALAR

SI-ga asoslangan optimallashtirish yondashuvlarining uch sinfdagi vazifalar bo‘yicha tajriba natijalari taqdim etildi. Baholash mezonlari sifatida sample-efficiency**,** anytime egrilar, final best/simple regret**,** devor-vaqti va cheklovli ssenariylarda feasible rate qo‘llanildi [8]. Tahlil belgilangan byudjet rejimida o‘rtacha

qiymatlar va ishonch oralig‘lari bilan olib borildi va metodlar guruhining adolatli taqqoslanishi uchun RS/Gird bazalari, BO/BOHB oilasi, kuchli metaevristika (GA/PSO), RL-DAC hamda Auto-sklearn kiritildi.

Quyida uch sinfdagi sinovlar bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar jamlanadi. Baholash sample-efficiency**,** anytime ishlash, yakuniy sifat (simple regret)**,** devor-vaqti va feasible rate (cheklovli vazifalarda yaroqlilik) mezonlari bo‘yicha olib borildi.

$$r_T = f(x^*) - \min_{t \le T} f(x_t)$$

bu yerda x⋆ — global optimal yechim, T — ajratilgan baholashlar soni.

Tezlashuv (speedup) va **sample-efficiency yutug‘i**:

$$S = \frac{T_{baseline}}{T_{method}}, \qquad \Delta E(\%) = \frac{E_{base} - E_{meth}}{E_{base}} \times 100,$$

bu yerda T — devor-vaqti, E — thresholdga yetish uchun talab qilingan baholashlar soni.

Jadval 1

3 ssenariy bo‘yicha o‘rtacha qiyosiy jadval

Metod	Sample-efficiency (↓ eval)	Simple regret (↓)	Devor-vaqti (↓ min)	Feasible rate (↑ %)
Random Search (RS)	520	6.5	92	68
GP-BO	180	2.2	108	84
TuRBO (BO)	**140**	**1.8**	104	**88**
Hyperband	260	2.7	**72**	77
BOHB	**200**	**2.1**	76	82
GA (metaevristika)	330	2.9	83	80

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RL-DAC	190	2.0	99	86

Raqamlar ssenariylar bo‘yicha normallashtirilgan va o‘rtachalashtirilgan ko‘rsatkichlarni ifodalaydi. “↓” — kichik bo‘lsa yaxshi; “↑” — katta bo‘lsa yaxshi.

Ssenariylar kesimidagi asosiy kuzatuvlar

- **Doimiy “qora quti”:** kichik byudjetlarda **TuRBO** eng tejamkor (eval ~140), simple regret eng past; biroq GP hisoblari sabab **devor-vaqti** RS/Hyperbandga nisbatan biroz yuqori.
- **Kombinatorik vazifalar**: **GA** va gibrid metaevristikalar kuchli boshlang‘ich eksploratsiya beradi; ammo **BOHB** bilan bog‘langan selektiv byudjet taqsimoti yakuniy xatoni pasaytiradi.
- **Giperparametr sozlash (CASH/AutoML)**: **BOHB** va **RL-DAC** birinchi soatlarda “anytime” egri chizig‘ida barqaror ustunlik ko‘rsatadi; **AutoML** orkestratsiyasi (meta-learning + ensembling) yakuniy barqarorlikni kuchaytiradi.

BO oilasi (ayniqsa **TuRBO**) **simple regret** bo‘yicha yetakchi; **BOHB** va **Hyperband devor-vaqti** va **anytime** metrikalarida kuchli; **RL-DAC** oqimli muhitlarda ustun; **metaevristikalar** esa kombinatorik strukturalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [8]. Eng barqaror natijalar **kompozitsion yondashuv** (BOHB/Hyperband bilan byudjetni boshqarish, BO/TuRBO bilan nozik eksploratsiya, RL-DAC bilan dinamik sozlash) qo‘llanganda kuzatildi.

Umuman olganda, natijalar kichik byudjetlarda **TuRBO**ning **simple regret** bo‘yicha ustunligini, qimmat baholashlarda **Hyperband/BOHB**ning **anytime** va **devor-vaqti** afzalligini, oqimli/nostatsionar muhitlarda esa **RL-DAC**ning yuqori **feasible rate** va barqarorlikni ta’minlashini ko‘rsatdi; kombinatorik muammolarda metaevristikalar kuchli boshlang‘ich eksploratsiya bersa, ularni byudjetni rejalovchi BOHB bilan gibridlash final sifatni yaxshiladi. AutoML/CASH orkestratsiyasi (meta-learning + ensembling) natijalarni reproduksiyaliligini va yakuniy barqarorlikni oshirdi. Klassik (Friedman/Wilcoxon) va Bayescha tahlillar farqlarning statistik ahamiyatini tasdiqladi, CD-diagramlar esa top-3 sifatida ko‘pincha **TuRBO–BOHB–RL-DAC** kombinatsiyasini ko‘rsatdi. Amaliy nuqtai nazardan, **kompozitsion yondashuv** — BO/TuRBO bilan nozik eksploratsiya, BOHB/Hyperband bilan

byudjetni oqilona taqsimlash, RL-DAC bilan dinamik moslashuv va AutoML bilan orkestratsiya — eng yaxshi **sifat–vaqt–resurs** muvozanatini berdi. Cheklov sifatida sinovlar ayrim domenlarda proksi/ simulyatsiyalarga tayanganini qayd etamiz; kelgusida real sektor pilotlari (logistika, energetika, ishlab chiqarish) va ko‘p-sodiqlik/transfer BO yondashuvlarini kengaytirish rejalashtiriladi.

MUHOKAMA

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, SI-ga asoslangan optimallashtirishda “hamma uchun bitta eng yaxshi” metod yo‘q; ustunlik vazifa sinfi**,** byudjet**,** resurs va muhit dinamikasiga bog‘liq**.** TuRBO/GP-BO kichik baholash byudjetlarida simple regret bo‘yicha yetakchi bo‘ldi — bu, qimmat “qora quti” funksiyalarida namunaga tejamkor strategiya hal qiluvchi ekanini tasdiqlaydi [9]. Hyperband/BOHB esa birinchi davrlardanoq kuchli anytime ko‘rsatkichlarini taqdim etib, devor-vaqtini sezilarli qisqartirdi; bu, ayniqsa, chuqur model yoki RL agentlarini sozlashda amaliy jihatdan muhim. **RL-DAC** oqimli/nostatsionar muhitlarda yuqori feasible rate va barqarorlik berdi — parametrlarni “ish jarayonida” holatga mos qo‘zg‘atish (per-state/per-phase) o‘z samarasini ko‘rsatdi. Metaevristikalar kombinatorik strukturalar uchun kuchli eksploratsiya berdi; byudjetni oqilona taqsimlaydigan **BOHB** bilan gibridlash final sifatni yaxshiladi.

Metod tanlashda **“**baholashlar soni vs devor-vaqti”ni ajratib ko‘rsatish muhim. BO (ayniqsa GP asosida) ko‘pincha kam eval bilan maqsadga yetadi, biroq surrogatni moslashtirish va akvizitsiyani optimallashtirish hisoblash narxini oshiradi. Aksincha, **Hyperband/BOHB** baholashlarni “arzon” fidelitiylarda tanlab, erta to‘xtatish orqali devor-vaqtini tejar ekan, ba’zan yakuniy aniqlik bo‘yicha BO dan biroz ortda qolishi mumkin [10]**. RL-DAC** tayyorlash bosqichida qo‘shimcha o‘qitish narxini talab qiladi, ammo ish vaqtida moslashuv evaziga uzluksiz tizimlarda umumiy foyda keltiradi. Shunday qilib, amaliyotda kompozitsion (gibrid) yondashuv — byudjet, vaqt va sifatni muvozanatlashtirishga eng to‘g‘ri yo‘l.

Mahalliy tarmoqlarda (logistika, energetika, ishlab chiqarish) tezyurar baholash imkonini beruvchi simulyatsiya/proksi qatlamlari mavjud — bu ko‘p-sodiqlik **BO/BOHB** uchun qulay poydevor. Shuningdek, real vaqt va nostatsionarlik kuchli bo‘lgan jarayonlarda **RL-DAC** ustun. Amaliyotda quyidagi ketma-ketlik

maqsadga muvofiq: (1) kichik **POC**lar orqali tez "qiymat ko'rsatish", (2) gibrid pipeline'ni shakllantirish (BOHB + BO/TuRBO + mahalliy qidiruv), (3) **AutoML** orkestratsiyasi va MLOps bilan ishlab chiqarishga integratsiya, (4) monitoring–drift nazorati va xabardorlik mexanizmlari. Bu yo'l-xarita kadrlar tayyorlash va hisoblash infratuzilmasini bosqichma-bosqich kuchaytirish bilan birga yurishi kerak.

Muhokama natijasi sifatida, eng kuchli strategiya — kompozitsion, kontekstga mos gibrid yondashuv. Amaliy qiymatning tez ko'rinishi (anytime), yakuniy sifat (regret), va ekspluatatsion cheklovlar (devor-vaqti, resurs) o'rtasidagi muvozanat shu yo'l bilan ta'minlanadi. Kelgusida ko'p-sodiqlik va transfer mexanizmlarini kuchaytirish, AutoML orkestratsiyasini MLOps bilan chuqur integratsiya qilish va mahalliy pilotlarni kengaytirish asosiy ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda algoritmni optimallashtirishning sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlari — Bayes optimallashtirish (GP-BO/TuRBO), byudjetga sezgir sxemalar (Hyperband/BOHB), metaevristikalar, mustahkamlovchi o'rganishga tayangan dinamik algoritm konfiguratsiyasi (RL-DAC) va AutoML/CASH — bir xil mezonlar bo'yicha qiyoslab ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "hamma vazifa uchun bitta eng yaxshi metod" mavjud emas: ustunlik vazifa sinfi, baholash byudjeti, resurslar va muhit dinamikasiga bog'liq. Kichik byudjetlarda TuRBO nozik eksploratsiya hisobiga past simple regret beradi; baholashi qimmat bo'lgan vaziyatlarda Hyperband/BOHB devor-vaqtni keskin qisqartirib, "anytime" ustunligini ta'minlaydi; kombinatorik strukturalarda gibrid metaevristikalar kuchli natija beradi; oqimli va nostatsionar sharoitlarda RL-DAC parametrlarni ish jarayonida moslab, barqarorlikni oshiradi. AutoML orkestratsiyasi esa butun pipeline'ni boshqarib, reproduksiyalilik va yakuniy barqarorlikni kuchaytiradi.

Metodik nuqtai nazardan, to'g'ri yondashuv — muammo-avval (problem-first) va kompozitsion (gibrid) strategiya bu - BO/TuRBO bilan namunaga tejamkor qidiruv, Hyperband/BOHB bilan byudjetni oqilona taqsimlash, metaevristika bilan strukturaviy eksploratsiya, RL-DAC bilan dinamik moslashuv va bularning barchasini AutoML ostida orkestratsiya qilishdir. Baholashda yakuniy ball bilan

cheklanmay, anytime egri chiziqlari, devor-vaqti, resurs sarfi va cheklovli vazifalarda feasible rate majburiy ko‘rsatkich sifatida qo‘llanishi zarur. Statistik ishonchlilik (klassik va Bayescha testlar) hamda ablatsiya/sezuvchanlik tahlillari muhandislik darajasidagi qarorlarni asoslashga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan, O‘zbekiston sharoitida tez-baholash proksilariga tayanadigan ko‘p-sodiqlik yondashuvlari (BO/BOHB) va oqimli jarayonlar uchun RL-DAC ayniqsa maqsadga muvofiq. Eng samarali yo‘l — kichik POClardan boshlash, gibrid stackni bosqichma-bosqich kengaytirish, AutoML va MLOps bilan ishlab chiqarishga integratsiya qilish, monitoring va audit izlarini yo‘lga qo‘yishdir [11]. Bu bilan vaqt–sifat–resurs o‘rtasidagi muvozanat amalda ta’minlanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot cheklovlari mavjud: proksi/simulyatsiyalarga tayangan ssenariylarda sodiqlik nomuvofiqligi xavfi, GP-BOning yuqori o‘lchamlardagi hisoblash narxi, hamda benchmark natijalarining domen-spetsifik vazifalarga to‘liq ko‘chmaslik ehtimoli. Kelgusida ko‘p-maqsadli va ko‘p-agentli optimallashtirish, resurs-chegarali AutoML orkestratsiyasi, transfer va meta-o‘rganish orqali sovuq startni kamaytirish, shuningdek, inson–AI hamkorligini kuchaytiruvchi izohlanadigan mexanizmlarni tadqiq etish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Umuman, olingan natijalar “meta-nazoratchi” paradigmasini qo‘llab-quvvatlaydi. Turli metodlar bir-birining bo‘shliqlarini to‘ldirgan holda, kontekstga mos orkestratsiya ostida eng yaxshi sifat–vaqt–resurs muvozanatini beradi. Demak, SI asosidagi algoritmik optimallashtirishning eng to‘g‘ri strategiyasi — gibrid, ssenariyga mos va dalillarga tayangan yondashuvdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Benavoli, A., Corani, G., Demšar, J., & Zaffalon, M. (2017). Time for a change: A tutorial for comparing multiple classifiers through Bayesian analysis. Journal of Machine Learning Research, 18(77), 1–36. http://jmlr.org/papers/v18/16-305.html
2. Bergstra, J., & Bengio, Y. (2012). Random search for hyper-parameter optimization. Journal of Machine Learning Research, *13*, 281–305. http://jmlr.org/papers/v13/bergstra12a.html
3. Falkner, S., Klein, A., & Hutter, F. (2018). BOHB: Robust and efficient hyperparameter optimization at scale. Proceedings of the 35th International Conference on Machine Learning, 1436–1445. https://proceedings.mlr.press/v80/falkner18a.html

4. Feurer, M., Klein, A., Eggensperger, K., Springenberg, J., Blum, M., & Hutter, F. (2015). Efficient and robust automated machine learning. Advances in Neural Information Processing Systems, 28, 2962–2970. https://papers.nips.cc/paper/2015/hash/11d0e6287202dbe4f870bad9255f39d4-Abstract.html

5. Jones, D. R., Schonlau, M., & Welch, W. J. (1998). Efficient global optimization of expensive black-box functions. Journal of Global Optimization, *13*(4), 455–492. https://doi.org/10.1023/A:1008306431147

6. Li, L., Jamieson, K., DeSalvo, G., Rostamizadeh, A., & Talwalkar, A. (2018). Hyperband: A novel bandit-based approach to hyperparameter optimization. Journal of Machine Learning Research, 18(185), 1–52. http://jmlr.org/papers/v18/16-558.html

7. Liu, Q., Simonyan, K., Vinyals, O., Fernando, C., & Kavukcuoglu, K. (2019). Learning to learn by reinforcement learning. Nature Machine Intelligence, 1(6), 372–380. https://doi.org/10.1038/s42256-019-0071-0

8. Shahriari, B., Swersky, K., Wang, Z., Adams, R. P., & de Freitas, N. (2016). Taking the human out of the loop: A review of Bayesian optimization. Proceedings of the IEEE, 104(1), 148–175. https://doi.org/10.1109/JPROC.2015.2494218

9. Xudoyberdiyev, A., & Tursunov, B. (2023). Sun'iy intellekt yordamida algoritmlarni optimallashtirishning zamonaviy yondashuvlari. O'zbekiston Axborot Texnologiyalari Jurnali, 27(2), 45–53.

10. Yuldashev, M., & Karimov, S. (2022). Mahalliy sanoat jarayonlarida avtomatlashtirilgan optimallashtirish tizimlarini qo'llash tajribalari. Texnika Fanlari va Innovatsiyalar, 14(3), 112–119.

UDK:796

MALAKALI KIKKIKBOKSCHILARDA KINEMATIK VA KINETIK KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA ZARBA TEXNIKASINI O‘RGANISH

Ismoilov G‘anisher Turobjon o‘g‘li
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: ganisherismoilov928@gmail.com
Tel: +998 93 603 01 01
ORCID: 0009-0007-7786-9678

Annotatsiya*: Mazkur maqolada malakali kikkikbokschilarning zarba berish texnikasini kinematik va kinetik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish natijalari yoritilgan. Tadqiqotda zarba harakati davomida tana qismlarining fazodagi harakati, burchakli tezlik, tezlanish, kuch ta’siri va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Olingan natijalar zarba texnikasini mukammallashtirish, mashg‘ulot jarayonini ilmiy asoslash hamda sportchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.*

Kalit so‘zlar: *zarba texnikasi, kinematik ko‘rsatkichlar, malakali kikkikbokschilar, biomexanika, tahlil, zarba kuchi, harakat koordinatsiyasi, muskul faolligi, sportchining texnik tayyorgarligi.*

ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНИКИ УДАРА У КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КИКБОКСЁРОВ НА ОСНОВЕ КИНЕМАТИЧЕСКИХ И КИНЕТИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ

Аннотация: *В статье представлены результаты исследования ударной техники квалифицированных кикбоксеров на основе кинематических и кинетических показателей. В ходе исследования анализировались пространственное перемещение частей тела при нанесении ударов, угловая скорость, ускорение, силовые воздействия и их взаимосвязь. Полученные результаты имели важное значение для совершенствования ударной техники, научного обоснования тренировочного процесса и разработки системы тренировок, учитывающей индивидуальные особенности спортсменов.*

Ключевые слова: *ударная техника, кинематические показатели, квалифицированные кикбоксеры, биомеханика, анализ, сила удара, координация движений, мышечная активность, техническая подготовка спортсмена.*

STUDYING THE PUNCHING TECHNIQUE OF SKILLED KICKBOXERS BASED ON KINEMATIC AND KINETIC INDICATORS

Abstract: *This article presents the results of a study of the striking technique of qualified kickboxers based on kinematic and kinetic indicators. The study analyzed the spatial*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

movement of body parts during striking, angular velocity, acceleration, force effects, and their interrelationships. The results obtained were of great importance in improving striking technique, scientifically substantiating the training process, and developing a training system tailored to the individual characteristics of athletes.

Keywords: *striking technique, kinematic indicators, qualified kickboxers, biomechanics, analysis, striking force, movement coordination, muscle activity, athlete's technical training.*

KIRISH

Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish, avvalo, sportchining texnik tayyorgarligiga bevosita bog‘liq. Ayniqsa zarba asosidagi sport turlarida (kikboks kikkikboks karate taekvondo va hokazo) har bir zarbaning aniqligi kuchi va tezligi sportchining yutug‘ini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi. Bunday texnik harakatlarning samaradorligini oshirish esa faqatgina klassik yondashuvlar emas, balki ilmiy asoslangan tahlillar orqali amalga oshiriladi. Kinematik va kinetik ko‘rsatkichlar sport harakatlarining chuqur biomexanik tahlilini ta’minlab zarbaning samaradorligini aniqlash harakatdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni kamchiliklar ustida ishlash imkonini beradi. Bu esa murabbiy va sportchi o‘rtasidagi mashg‘ulot jarayonini yanada samarali va individual yondashuvga asoslangan shaklga keltiradi. Shu sababli, malakali kikkikbokschilarda zarba texnikasini kinematik va kinetik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish nafaqat sport nazariyasi balki amaliy tayyorgarlik jarayonida ham dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqot natijalari sportchilarning texnik mahoratini oshirish, ularning salohiyatini to‘liq ochib berish va yuqori sport natijalariga erishishda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zarba texnikasini o‘rganish sohasida bir qator olimlar tomonidan kinematik va kinetik ko‘rsatkichlar asosida turli sport turlarida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S.Lenetsky, N.Harris, M.Brughellilarning ishlarida kikboksda zarba berish texnologiyasining biomexanik tahlili keng yoritilgan bo‘lib u sportchining mushak kuchi, tana muvozanati va zarba trayektoriyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilgan. U o‘z tadqiqotida zarbaning asosiy bosqichlari tayyorgarlik, impuls va yakuniy fazalarni aniqlab bergan. Shuningdek C.Meylan, I.Ouergui, A.Peebles, B.Piorkowski va boshqalar tomonidan olib borilgan 3D model asosidagi

harakat tahlili esa sportchilarda zarba trayektoriyasini to‘g‘ri aniqlash zarbaning boshlanish nuqtasi va maksimal kuchga ega bo‘lgan fazasini aniqlash imkonini beradi. Uning ishlari O‘zbekistonda harakat tahlili texnologiyalarining sportga integratsiyasini boshlagan muhim bosqich sifatida baholangan.

S.Duvelek, S.Schurr, L.Siska, A.Turnerlar esa o‘z tadqiqotida zarba kuchining aniqlanishi uchun kuch platformalarining texnik imkoniyatlarini ko‘rsatgan hamda zarba harakatlarining boshlanishi va tugashida tayanish kuchlari qanday o‘zgarishini eksperimental tarzda tahlil qilgan. Umuman olganda yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki zarba texnikasini o‘rganishda kinematik ko‘rsatkichlar tezlik burchak tezligi trektoriyasi texnikasini tahlil qilishda asosiy omil hisoblanadi. Kinetik ko‘rsatkichlar zarba kuchi impuls tayanish kuchi esa texnikaning samaradorligini miqdoriy baholashda qo‘llaniladi.

Ushbu tadqiqotda malakali kikkikbokschilarning zarba berish texnikasini kinematik va kinetik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda 6 nafar xalqaro darajadagi kikboks bo‘yicha malakali kikkikbokschilar ishtirok etdi. Tadqiqot maxsus jihozlangan laboratoriya sharoitida biomexanika laboratoriyasida amalga oshirildi. Zarba harakatlarini yuqori aniqlikda qayd etish va tahlil qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanildi. Tadqiqotning yakuniy maqsadi zarba texnikasini mukammallashtirish mashg‘ulot jarayonini ilmiy asoslash va sportchilarning individual xususiyatlariga mos samarali tayyorgarlik usullarini ishlab chiqishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu ilmiy tadqiqot ishining asosiy vazifasi kikboksda qo‘l bilan yo’llangan zarbalarining texnikasini mexanik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarba kuchi va zarba tezligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash orqali zarba texnikasining samaradorligini ilmiy asosda baholandi. Kikboks sport turiga xos bo‘lgan zarba texnikasining nazariy va biomexanik asoslari o‘rganiladi.

Kikboksda tanani egish (flexion/extension) nafaqat zarba kuchini oshirish balki himoya tezlik va muvozanatni saqlash imkonyatini beradi. Oldiga va orqa egilishda (5–6°) gradus va yonga egilishda (-3° -2°) gradus ekanligini aniqlandi. (Diapazon=0°) diapazon holati esa 0° gradusni ko‘rsatdi. Bu natijalar tananing statik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

holatda yoki cheklangan egilishda qolayotganini ko‘rsatadi. Zarba vaqtida tananing yetarli egilishi zarba kuchini oshirishga yordam beradi. Bo‘yin harakatlari (fleksiya ekstensiya lateral egilish aylanish) kikbokschilarga asosiy jihatdan strategik ustunlik beradi. Zarbalardan himoya qilish 15-20° yonga egilish ("slip") raqibning to‘g‘ri zarbalarini 0,25-0,4 soniya oralig‘ida neytrallashtiradi. Bo‘yinni aylantirish bilan birgalikda himoya samaradorligi 68% ga oshadi.

Zarba kuchi va aniqlikni oshirish hook zarbasida aylanish bo‘yinni zarba yo‘nalishida 8-12° aylantirish (rotation) qo‘l kuchini 15-20% oshiradi. O‘ng hook uchun chap yelkani orqaga tortish + bo‘yinni o‘ngga burish. Vestibulyar stabilizatsiya charchoqni kamaytirish bo‘yinni 45° gacha aylantirish qobiliyati kikbokschiga ringda 360° nazorat qilish imkonini beradi. Lateral egilishda vestibulyar sistema 0,08 soniyada muvozanatni tiklaydi. **Fleksiya**: 17° **aylanish** - 17° **yonboshga egilish** 4° bo‘yinning oldinga egilishini va aylanish imkoniyatini yatadi. Zarba yo‘nalishini kuzatishda va boshni himoya holatiga olib kelishda bu ko‘rsatkichlar ijobiy baholanadi. Ammo aylanishda faqat bir tomonga o‘ngga harakatlanishi kuzatilgan (chap tomonda max = 0°) bu asimmetriyadan dalolat beradi.

Yelkalar kikboksda asosiy vazifani bajaradi zarba kuchini yetkazish himoya qilish va muvozanatni saqlaydi. Zarba berishda yelkalarning roli yelkalar aylanishi (rotation) orqa oyoqdan boshlangan harakatni qo‘lga uzatishda bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi. O‘ng cross zarbasida chap yelkaning 25-30° orqaga aylanishi zarba kuchini 40% oshiradi. Fleksiya chap (30–45°) o‘ng (-1–20°) harakat diapazoni asimmetrik ko‘rsatadi. (Abduktsiya) chap (3°) o‘ng (0°) o‘ng yelkada harakati cheklangan. Zarba berishda yelka bo‘g‘imlarining simmetrik va keng harakat doirasi muhimdir. O‘ng yelkaning past harakat diapazoni (abduktsiyada 0°) uning yetarlicha ishlamayotganini ko‘rsatadi. Bu texnik yetishmovchilik yoki yelka mushaklarining cheklanganligini bildiradi. Yelkalarni quloq darajasiga ko‘tarish (elevation) + oldinga siljitish (protraction) yuzni himoya qilish maydonini 65% ga oshiradi, chap yelkaning 45° burchakda oldinga chiqarilishi tanani himoya qilish vazifasini o‘taydi. O‘ng yelkaning pastga tushirilishi kikbokschiga zabalardan qochish imkonini beradi.

1-jadval

Kikbokschilarning qo‘l va oyoq harakt natijalarining qiyosiy taxlil natijalari

Bo‘lim	Bo‘g‘imlar	Harakat turlari	Tomonlari	Min (°)	Max (°)	Range (°)
Gavda	Egilish	Old/orqa	—	5	6	0
	Egilish	O‘ng/chap	—	-3	-2	0
Bo‘yin	Egilish	Old/orqa	—	0	17	17
	Egilish	O‘ng/chap	—	4	9	4
	Aylanish	O‘ng/chap	—	16	0	-17
Yelkalar	Egilish	Old/orqa	Oldinga	30	45	14
			Orqaga	-1	20	21
	Ko‘tarilish	Yaqinlashtirish	Chap	78	82	3
			O‘ng	0	0	0
Tirsaklar	Egilish	Fleksiya/kengayish	Chap	130	137	6
			O‘ng	110	146	35
Tos	Egilish	Fleksiya/kengayish	Chap	-7	5	12
			O‘ng	14	27	12
	Yon harakat	Yaqinlashtirish	Chap	0	0	0
			O‘ng	25	34	8
Tizzalar	Egilish	Fleksiya/kengayish	Chap	21	38	16
			O‘ng	26	54	27
To‘piqlar	Egilish	Dorsal/Plantar Flexion	Chap	5	17	11
			O‘ng	-13	0	12

Tirsaklar kikboksda asosiy vazifani bajaradi himoya, hujum va qilish muvozanatni saqlash. Tirsakning hujumdagi vazifasi cross zarbasining 90° bukilgan holatda 25-30 sm optimal masofani ta’minlaydi. To‘g‘ri holatda zarba berganda zarba kuchi 12% oshadi. Appercut uchun 110-120° bukilish burchagi eng samarali energiya berish imkonini beradi. Jeb zarbasining 45-60° bukilish tezlikni saqlab orqaga qaytish vaqtini 0,2 soniyaga qisqartiradi. Hook uchun 75-85° burchakda mahkam tortilgan tirsak harakatlanishni 17% kamaytiradi. **Chap tirsak** 6° diapazon **juda**

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kam o‘ng tirsak 35° zarba berishda faollashadi**.** O‘ng tirsak zarba berish jarayonida katta harakat diapazoniga ega bo‘lsa-da chap tirsakning harakatsizligi himoya pozitsiyasini saqlash uchun ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Har ikki tirsakni tanaga 20-30° burchakda yaqinlashtirish qovurg‘alarni himoya qilish imkonini 40% oshiradi. Yelkalar kikboksda asosiy vazifani bajaradi zarba aniqligi kuchli zarba berish va himoya qilishga imkon yatadi. Yelkalarni 15-20° dorsal fleksiya orqa tomonga bukish holatida ushlab turish jeb zarbasining aniqligi 25% oshadi. Appercutda 25-30° fleksiya ichkariga bukish zarba kuchini to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi. Zarba kuchini maksimal berishda bilaklarni zarba nuqtasida 5-10° kichik barmoq tomonga egilishi kuchni 12-15% oshiradi. Cross zarbasida bilaklarni aylantirish zarba aniqligini 18% oshiradi. **Fleksiya** 12° ikkala tomon (**abduktsiya)** chap 0° o‘ng 8° Son bo‘g‘imi zarba kuchining asosiy manbayi hisoblanadi. Bu yerda abduktsiya yon harakati faqat o‘ng tomonda mavjud va bu asimmetriya sportchining harakat barqarorligi va zarba kuchi bo‘yicha cheklovlarga olib keladi. Himoya qilishdagi ahamiyati bilaklarni 30° bosh barmoq tomonga ichki qismi bilan himoya qilish samaradorligi ortadi. Zarba ta’siri yengil zarba vaqtida bilaklarni 10-12° egib turish qo‘lga tushadigan vibratsiyani 40% kamaytiradi.

Tizzalar kikboksda asosiy vazifani bajaradi harakatlanish zarba berish muvozanatni saqlash va zarbalardan qochishga yordam beradi. Yurish texnikasi (Footwork) tizzalarning 25-30° bukilib turishi tez harakatlanish uchun optimal holatdir. Chap tizzaning 5-10° orqaga tortilishi hujim qilshga tayyorligini bildiradi. Tizzalarning 15-20° aylanishi tanani burish 45° hook zarbasi uchun imkon beradi. Chap tizza 16° o‘ng tizza 27° harakat diapazoni yaxshi ayniqsa o‘ng tizzada. Bu zarba berish va tez harakatlanish uchun ijobiy ko‘rsatkichdir. Chap tizzadagi kichik diapazon esa tayanch vazifasini ko‘proq bajarganligini bildiradi. Zarba kuchini yaratish o‘ng tizza orqa oyoq cross zarbasida 35-40° dan 5-10° gacha to‘g‘rilanishi kinetik zarba kuchining 60% orqa oyoqdan tizza orqali uzatiladi. Chap tizza oldi oyoq jeb zarbasida 25° bukilishdan 15° gacha egilishga va tezlik uchun optimal hookda 30° lateral qo‘shimcha yon tomonga egilish imkoniyatni yaratadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot malakali kikkikbokschilarda, xususan kikbokschilarda zarba texnikasining kinematik va kinetik ko‘rsatkichlar asosida chuqur tahlil qilinishi zarbaning samaradorligini oshirishda qanday muhim rol o‘ynashini ko‘rsatib o‘tilgan. Biomexanik tahlillar asosida sportchilarning tana qismlarining harakatlanishi kuch ta’siri tezlanish va zarba koordinatsiyasi aniq raqamlar bilan baholandi. Zarba samaradorligiga sportchining muvozanati bo‘yin harakati yelka tirsak bilak va pastki tananing (son tizza to‘piq) mos va sinxron ishlashiga bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Har bir bo‘g‘imning harakat diapazoni zarba yo‘nalishidagi egilish va aylanish burchaklari zarba kuchi va tezligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa o‘ng va chap taraflar harakati orasidagi asimmetriyalar sportchining texnik imkoniyatlariga va himoya strategiyalariga ta’sir qilishi aniqlandi. Ushbu natijalar sportchilarning texnik tayyorgarligini individual yondashuv asosida takomillashtirish mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish va samarali zarba usullarini shakllantirishda katta amaliy ahamiyatga egadir. Shuningdek murabbiylar uchun zarba kuchini oshirish ortiqcha harakatlarni kamaytirish va sportchining biomexanik imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishga yo‘naltirilgan metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda mazkur tadqiqot zarba texnikasini chuqur va aniq tahlil qilish orqali zamonaviy sport tayyorgarlik tizimiga ilmiy asoslangan yondashuv kiritish imkonini berdi. Bu yo‘nalishda kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy asoslangan imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lenetsky S., Harris N., & Brughelli M. Assessment and Contributors of Punching Forces in Combat Sports Athletes: Implications for Strength and Conditioning. Strength & Conditioning Journal. – 2013. 35(2), 1-7. doi:10.1519/SSC.0b013e31828b6c12.

2. Meylan C., McMaster T., Cronin J., Mohammad N.I., Rogers C., & Deklerk, M. Single-leg lateral, horizontal, and vertical jump assessment: Reliability, interrelationships, and ability to predict sprint and change-of-direction performance. Journal of Strength and Conditioning Research. – 2009. 23(4), 1140–1147. https://doi.org/10.1519/JSC.0b013e318190f9c2.

3. Ouergui I., Delleli S., Bouassida A., Bouhlel E., Chaabene H., Ardigò L. P., and Franchini E. Technical-tactical analysis of small combat games in male kickboxers. BMC Sports Science, Medicine and Rehabilitation. December – 2021. 13(1). Page 158. DOI:10.1186/s13102-021-00391-0

4. Peebles A.T., Carroll M.M., Socha J.J., Schmitt D., and Queen R.M. Validity of using automated two-dimensional video analysis to measure continuous sagittal plane running kinematics. Annals of biomedical engineering. – 2021. №. 49: 455–468.

5. Piorkowski B, Lees A, Barton G.J. Single Maximal versus Combination Punch Kinematics. Sport Biomechanics 2011; 10(1): 1-11.

6. Samir Duvelek, Dominik Hoelbling, René Baranyi, Roland Breiteneder, Karl Pinter, Thomas Grechenig. Raising Accessibility and Everyday Use of Automatic Motion Analysis in (Combat) Sports via ML Enhanced 2D to 3D Estimation Algorithms. In Proceedings of the 11th International Conference on Sport Sciences Research and Technology Support (icSPORTS 2023). – 2023. pages 128-135.

7. Schurr S.A., Marshall A.N., Resch J.E., and Saliba S.A. Two-dimensional video analysis is comparable to 3d motion capture in lower extremity movement assessment. International journal of sports physical therapy. – 2017. 12(2):163.

8. Siska L., & Brodani J. Point-fight kickboxing match analysis. International Journal of Physical Education, Sports and Health. – 2017. 4(4), 16–19. https://www.researchgate.net/profile/JaroslavBrodani/publication/318461923_Point-fight_kickboxing_match_analysis/links/596c702fa6fdcc18ea793b7a/ Point-fight-kickboxing-match-analysis.pdf.

9. Turner A., Baker E., & Miller S. Increasing the impact force of the rear hand punch. Strength & Conditioning Journal. – 2011. 33(6), 2-9.

UDK: 371.13

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA PEDAGOGLAR METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA MUHIM VAZIFALARI

Tuxtasinov Muxammad G‘ulomjon-o‘g‘li
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha o‘rinbosar, dotsent
e-mail: muhammadjon_toht@mail.ru;
Tel. raqami: 95-000-63-66
ORCID: 0009-0008-5293-934X

Annotatsiya. *Uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichi jamiyatning ijtimoiy talabi, o‘qitishning maqsadi va yo‘nalishiga ko‘ra o‘ziga xos jihatlarni namoyon qiladi. Malaka oshirish tizimi pedagoglarning kasbiy o‘sishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sharoitda malaka oshirish tizimi modernizatsiyalayotgan ta’limga qo‘yilayotgan talablarga muvofiq pedagoglarning zarur kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishlarini ta’minlash, mazkur jarayonni tashkil qilishga metodik rahbarlikni tashkil qilishga yo‘naltirilgan. Shu bois malaka oshirish tizimi jamiyatda, shu bilan birga xalqaro ta’lim tizimida ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlarni kuzatish, ulkan axborot oqimidan foydali, zarur, ahamiyatli ta’limiy xarakterdagi yangiliklardan xabardor bo‘lish, davr talabiga ko‘ra o‘qitish sohadagi innovasion yangilanishlar, o‘zgarishlarga nisbatan mobillikni namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Maqolada globallashuv sharoitida malaka oshirish tizimida pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari va bu jarayonda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *malaka oshirish tizimi, pedagog, kompetentlik, metodik kompetentlik, metodik kompetentlikni rivojlantirish, pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari va muhim vazifalari.*

ОСОБЕННОСТИ И ВАЖНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Тухтасинов Мухаммад Гуломжон-угли
Заместитель по учебной работе центра педагогического мастерства Наманганской области, доцент e-mail: muhammadjon_toht@mail.ru;
Номер телефона: 95-000-63-66
ORCID: 0009-0008-5293-934X

Аннотация. *Каждый этап системы непрерывного образования проявляет свои аспекты в соответствии с социальным запросом общества, целью и направлением образования. Система подготовки кадров играет важную роль в обеспечении*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

профессионального роста педагогов. В современных условиях система подготовки направлена на обеспечение педагогов необходимыми профессиональными компетенциями в соответствии с требованиями модернизации образования и организацию методического руководства по организации этого процесса. Поэтому системе повышения квалификации необходимо отслеживать быстрые изменения, происходящие в обществе, а также в международной системе образования, быть в курсе полезных, нужных и важных новостей образовательного характера из огромного потока информации, чтобы иметь возможность демонстрировать мобильность в отношении изменений и инновационных обновлений в области преподавания в соответствии с потребностями времени. В статье обсуждаются конкретные аспекты и задачи развития методической компетентности педагогов в системе повышения квалификации в условиях глобализации.

Ключевые слова: *система повышения квалификации, педагог, компетентность, методическая компетентность, развитие методической компетентности, особенности развития методической компетентности педагогов, важные задачи развития методической компетентности педагогов.*

SPECIFIC FEATURES AND KEY TASKS OF DEVELOPING TEACHERS' METHODOLOGICAL COMPETENCE WITHIN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT SYSTEM

Tukhtasinov Mukhammad Gulomjon-ogli
Deputy for Academic Affairs at the Center for Pedagogical Excellence of Namangan region, docent
e-mail: muhammadjon_toht@mail.ru;
Phone number: 95-000-63-66
ORCID: 0009-0008-5293-934X

Annotation. *Each stage of the continuous education system reflects its distinct characteristics in response to societal demands, educational goals, and direction. The system for training personnel is pivotal in fostering the professional development of teachers. In today's context, this training system is focused on equipping educators with essential professional competencies that align with the demands of educational modernization, as well as providing the necessary methodological support to facilitate this process. Consequently, the advanced training system must remain vigilant to the rapid societal changes and developments within the international education landscape, sifting through vast amounts of information to stay abreast of critical and relevant educational advancements. This enables the system to remain agile in adapting to changes and integrating innovative practices in teaching that meet contemporary needs. The article explores specific aspects of enhancing teachers' methodological competence within the advanced training system amid globalization, along with the challenges that must be addressed in this process.*

Key words: *professional development training, teacher, competence, methodological competence, development of methodological competence, features of development of*

methodological competence of teachers, important tasks of development of methodological competence of teachers.

KIRISH

Global axborotlashuv barcha jamiyatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ijtimoiy hayotning tezlashuvini sodir qilmoqda. Avvallari muayyan davlatda sodir bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga oid axborotlardan radio, televideniye va matbuotdan iborat ommaviy axborot vositalari yordamida ko‘pi bilan bir-uch oyda xabardor bo‘lingan. Bugungi kunda Internet xalqaro aloqa tizimi, mobil qurilmalarning tobora takomillashib borayotgani, yangi turdagi axborot uzatuvchi tizimlarning yaratilayotgani sababi geografik jihatdan olis hududlarda ham sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar to‘g‘risida qisqa muddatlarda ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Axborot tizimlarining inqilobiy, jiddatli rivoji o‘zida ham salbiy ham ijobiy xususiyatni namoyon qiladi. Salbiy jihati xalqaro maydonda axborot xuruji, kiber jinoyatlar, g‘oyaviy-psixologik manipulyasiyaning kuchayishi, shaxs, ayniqsa, yoshlar ongini turli buzg‘unchi g‘oyalar bilan egallashga urinuvchi kuchlarning faollashuvi bilan bog‘liq. Ijobiy jihati esa ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan xalqaro tajribalarga oid axborotlarni tezkor o‘zlashtirish, kundalik, ayniqsa, kasbiy faoliyatga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ensiklopedik xarakterdagi manbalarda “malaka oshirish” (“kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash”) tushunchasi shunday ta’riflanadi: uzluksiz ta’lim tizimi turlaridan biri, xalq xo‘jaligining barcha sohasida ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish, shuningdek, har bir xodimning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha so‘nggi fan yutuklari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o‘zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilgor ish tajribalarini o‘rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni [11, – 419-b.]; kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini chuqurlashtirish, kengaytirish, yangilash jarayoni [8, – 315-b.].

Tadqiqotchi O.N.Xijnyakova pedagoglarning malakasini oshirish tizimini "u yoki bu kasb sohasida avval o'zlashtirilgan bilim va malakalarni takomillashtirish, chuqurlashtirish hamda yangilashga yo'naltirilgan qo'shimcha kasbiy ta'lim, uzluksiz ta'lim tizimining jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarga mobillik asosida javob beruvchi yanada tez moslashuvchan bo'g'ini" [9, – c. 140] sifatida baholaydi. Darhaqiqat, malaka oshirish, xususan, pedagoglar kasbiy malakasini oshirish tizimi uzluksiz ta'limning kuchli konsepsiya va mexanizmga ega yetakchi tarmog'i bo'lishi zarur. Binobarin, uzluksiz ta'limning quyi bosqichlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy jihatdan faol bo'lishi, ijtimoiy-kasbiy raqobat kun sayin kuchayib borayotgan mavjud sharoitda yuqori talabga ega mutaxassis bo'lib yetishishida malaka oshirish tizimi muhim o'rin tutadi.

Global axborotlashuv "malaka oshirish" tushunchasiga nisbatan yangicha yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Shunga ko'ra mazkur tushunchani quyidagicha talqin etish maqsadga muvofiqdir: ta'limiy o'zgarishlar, zamonaviy bilimlarga tayangan holda jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida faoliyat yurituvchi kadrlar va rahbar xodimlarda innovasion o'zgarishlar hamda raqamli munosabatlarga kasbiy mobil moslashuvni qaror toptirish, kasbiy kompetentlik sifatlari (xususan, kreativlik, tanqidiy fikrlash qobiliyati)ni yanada rivojlantirish jarayoni.

Shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, malaka oshirish tizimi mutaxassis va rahbar xodimlarga boshlang'ich kasbiy bilimlarni berish, ularda dastlabki kasbiy malakalarni shakllantirishga yo'naltirilmaydi. Bu jarayon xodimlarni qayta tayyorlash tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Malaka oshirish tuzilmasi, aksincha, mavjud bilim, malaka va tajribalar negizida ularni yangi tamoyillar, konseptual yondashuvlar bilan boyitish, chuqurlashtirish, takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ta'lim xodimlari malakasini oshirish tizimining tavsifi, o'ziga xos jihatlari to'g'risida so'z yuritilganda "kasbiy malaka" va "pedagogning kasbiy malakasi tushunchalarining talqiniga ham e'tibor qaratiladi.

"Kasbiy malaka" tushunchasi mutaxassisning "professional ma'lumotga egaligi, ichki sifat natijalari" [6, – c. 204], "professional tayyorgarlik (ma'lumotga egalik)ning darajasi va turi; muayyan ishni bajarish uchun talab qilinadigan bilim,

ko‘nikma, malakalarga egalik; muayyan turdagi ishning murakkabligi, aniqligi, mas’uliyatli ekaniga ko‘ra tavsifi; xodimlarning muayyan kasb, mutaxassislik doirasida tegishli mehnat vazifalarini bajarishga bo‘lgan professional tayyorlik darajasi” [2]; “kompetentlik darajasining in’ikosi hamda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalarga asoslangan ma’lumot, shuningdek, tegishli lavozim talbalariga mos kelish darajasi” [7]; “mutaxassislik bo‘yicha mehnat vazifalarini bajarish uchun talab qilinadigan kompetensiyalarga egalikni tavsiflovchi professional tayyorlik darajasi” [4] kabi ma’nolarini ifodalaydi. Garchi keltirilgan ta’riflar “kasbiy malaka” tushunchasi mohiyatini shaklan turlicha ifodalagan bo‘lsa, ularning barchasi yagona nuqta – “mutaxassis – kasbiy faoliyatni tashkil qilishga tayyorlik – tegishli turdagi mutaxassislik bo‘yicha mehnat vazifalarini bajarishga layoqatlilik” mantig‘i doirasida o‘zaro kesishadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, “kasbiy malaka” tushunchasi mutaxassis professional tayyorgarligining qonunchilik me’yorlari hamda kasbiy malaka talablariga mos kelishini tasdiqlovchi rasmiy baho ko‘rsatkichini ifodalashga xizmat qiladi.

“Pedagogning kasbiy malakasi (kvalifikatsiyasi”) tushunchasi “ta’lim xodimlarining professional faoliyatni amalga oshirish qobiliyatlari bo‘lib, shaxsning integral sifatlari va me’yoriy tavsifnomasi” [3, – c. 88]; “xodimning muayyan professional talablarga javob bera olish darajasi” [10]ni yoritadi.

Pedagog va uning professional faoliyati xususida so‘z yuritilganda kasbiy bilim, kasbiy tajriba, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik kabi tushunchalar faol qo‘llanilgani holda “kasbiy malaka (kvalifikatsiya)” atamasining pedagogik-psixologik talqini e’tibordan chetda qolgan. Shu sababli manbalarda ushbu tushuncha deyarli tilga olinmagan.

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda “pedagogning kasbiy malakasi (kvalifikatsiyasi)” atamasini tavsiflashda “kasbiy malaka” tushunchasi mohiyatini yorituvchi ta’riflarga tayanish to‘g‘ri bo‘ladi.

Demak, pedagogning kasbiy malakasi (kvalifikatsiyasi) – tegishli mutaxassislik bo‘yicha belgilangan malaka talablariga muvofiq pedagogik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vazifalarni bajarishga bo‘lgan kasbiy tayyorgarlik, ma’lumot hamda kompetentlik darajasi sanaladi.

Pedagogning kasbiy malakasi (kvalifikatsiyasi) doirasida uning metodik kompetentlikka ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish tizimida ham pedagoglarning global axborotlashuv sharoitida kechayotgan shiddatli ta’limiy o‘zgarishlarga tezkor moslashishi, innovasion yangiliklarni qabul qilishi hamda shaxsan innovasion, kreativ g‘oyalarni asoslay olishi borasidagi ijtimoiy talablarga to‘laqonli javob bera olish metodik kompetentlikka ega bo‘lish muammosini yanada dolzarblashtiradi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra “metodik kompetentlik” tushunchasi “pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlash, ularni samarali, muvaffaqiyatli qo‘llay olish” [5; 1, – c. 76] mazmunini anglatadi. Kasbiy kompetentlikni obrazli tarzda Yerning tuzilishi bilan qiyoslash mumkin. Agarda kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va tajriba Yerning yadrosi (kasbiy bilim – ichki yadro; kasbiy ko‘nikma, malaka va tajriba – tashqi yadro) bo‘lsa, uning mantiyasi (ichki qobig‘i) – kasbiy, xususan, metodik kompetentlik (quyi mantiya – metodik kompetentlik; yuqori mantiya – umumiy holdagi kasbiy kompetentlik) sanaladi. Qachonki, yadro (ichki va tashqi; kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va tajriba) hamda quyi mantiya (metodik kompetentlik) mavjud bo‘lsagina yuqori mantiya (kasbiy kompetentlik) shakllanadi.

Bu esa malaka oshirish tizimi faoliyatini to‘liq holda tegishli soha xodimlarining metodik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilish zarurligini anglatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy malaka oshirish tizimida pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Tadqiqot muammosi mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish malaka oshirish tizimida pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirishning quyidagi o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi:

malaka oshirish jarayoni pedagoglarga kasbiy bilim asoslari to‘g‘risidagi bilimlarni berishga emas, balki qo‘shimcha ta’lim sifatida ularni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida oid davlat siyosati mazmunining yangi talqini, Respublika qonunchiligida ro‘y bergan o‘zgarishlar, professional faoliyatni tashkil qilish, o‘quv-metodik hujjatlarni yuritishning yangi tartibi, tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha jahon va milliy ta’limda ilgari surilayotgan innovasion metodika, ta’limiy dastur va loyihalar mazmunini yorituvchi umumlashma axborotlarning taqdim qilinishiga yo‘naltiriladi;

kasbiy bilim, malaka va kompetentlik sifatlarini izchil boyitib, mustahkamlab, takomillashtirish borish tajribasiga ega pedagoglar malaka oshirish tizimida faollik ko‘rsatadi, ta’limni tashkil qilish borasidagi ehtiyojlarini aniq, ravshan bayon qiladi, qolaversa, o‘quv modullari yordamida mavjud ehtiyojlari qondirilishini tanqidiy baholab borishadi;

pedagoglar ta’lim amaliyotida o‘zlari duch kelayotgan muammolarni malaka oshirish tizimi rahbar-xodimlari, hamkasblar bilan muhokama qilish, samarali yechimlarni topishga intiladi;

malaka oshirish jarayonining afzalliklaridan biri – ta’limga oid xorijiy va mahalliy tajribalarni ommalashtirish imkoniyatiga egalik bo‘lib, pedagoglar o‘z hamkasblari bilan ularning mohiyatini tahliliy, tanqidiy o‘zlashtirish istagida bo‘ladi, hamkasblarning ish tajribalari va professional yutuqlaridan xabardor bo‘lish ularni o‘z ustida ishlashga, kasbiy faoliyatni tashkil qilishga ijodiy, kreativ yondashishga undaydi;

tinglovchi-pedagoglar mavjud vaziyatlarni baholay olish tajribasiga egaliklari sababli ta’lim oshirish jarayoni va uning natijalarini har bir o‘quv moduli bo‘yicha alohida-alohida, shuningdek, umumiy holda izchil baholab borishga harakat qiladi;

talabchanliklari pedagoglarni malaka oshirish tizimi rahbar-xodimlaridan o‘quv jarayonining zamonaviy texnologiya hamda innovatsion yondashuv asosida tashkil etilishini talab qilishga undaydi.

XULOSA

Malaka oshirish tizimida pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari bu borada muayyan vazifalarni hal qilish

zarurligidan dalolat beradi. Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy o‘rganish malaka oshirish tizimida pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi:

1. Malaka oshirish kursi o‘quv modullarini monitoring asosida pedagoglarning mavjud ta’limiy, xususan, metodik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilash.

2. Belgilangan o‘quv modullari bo‘yicha yaratiladigan dasturlardan o‘yin xarakteridagi zamonaviy ta’lim platformalari (Kahoot, Khan Academy, Quizlet, iSpring Learn, tizimlari), onlayn-servislar (Madtest, “Krossvordlar fabrikasi” (“Fabrika krossvordov”), “Konstruktor testov.ru”, IQ.ACADEMY, Online Test Pad, Wordwall, Plickers, Mindomo) va ilovalar (Hot Potatoes, Lucidchart, Google Slides, Google Docs kabilar) bilan yaqindan tanishtirish, ular bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali pedagoglar tomonidan interfaol xarakterga ega metodik ishlanmalarni samarali tayyorlanishini ta’minlash.

3. O‘quv dasturlari, shuningdek, o‘quv modullarining mazmunida “Konseptual jadval”, “Syujetli diagramma”, “Venn diagrammasi”, “Taqqoslovchi diagramma”, “Izchillik diagrammasi”, “Decision path” (“Qarorlar yo‘li”), “Morfologik quti”, “Flowchart” (“Blok-sxema”), “Davriy shkala”, “Dalillar xaritasi” (“Dalillarga asoslangan tuzilma”), “Personajlar xaritasi”, “Chiziqli hikoya qilish”, “Ishonch tuzilmasi”, “Delfi”, “Idrok xaritasi” (“Intellektual xarita”, “Mental xarita”) kabi interfaol metodlar, ular bilan ishlash tartibi, shartlari, didaktik imkoniyatiga oid ma’lumotlarning o‘rin olishiga erishish.

4. Malaka oshirish tizimida pedagoglarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadigan “Aqliy hujum”, “Oltita rangli qalpoqchalar”, “Tugallanmagan rasm” (Torrens testi) kabi metodlar, “Tasodifiy aloqalar”, “Assosiatsiyalar jadvali”, “Qaynoq dalillar” (Nataliya Algeshkina), “Bitta kartinali muzey” (Lidiya Fedorova), “Sinektik hujum”, “Doiradan chiqish”, “Frirayting” (“Erkin so‘z”) kabi mashqlar bilan yaqindan tanishtirish, ular bilan ishlashga oid amaliy malakalarni rivojlantirish.

5. Tinglovchilar tomonidan yuqorida qayd qilingan interfaol metod va innovasion xarakterdagi mashqlar jamlanmasi sifatida “Kreativ generatsiya” nomli metodik bazani shakllantirish.

Shunday qilib, zamonaviy malaka oshirish tizimi modernizatsiyalayotgan ta’limga qo‘yilayotgan talablarga muvofiq pedagoglarning zarur kasbiy, xususan, metodik kompetentlik sifatlarini yanada rivojlantirishga yo‘naltiriltirilishi zarur. Malaka oshirish jarayonini tashkil qilishda tizimning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish orqali pedagoglarning metodik kompetentligini samarali rivojlantirishga qaratilgan faoliyat mazmuni va mexanizmini puxta asoslash imkoniyatini yaratadi. Natijada pedagoglarning metodik kompetentligini samarali rivojlantirishga doir vazifalar muvffaqiyatli hal qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Исақова З.Р., Ибрагимова Ш.Г. Педагогик жараёнда педагогнинг касбий маҳорати ва компетентлиги // Ж. Интернаука. – 2020. - № 12 (141). Часть. 3. – С. 76.
2. Квалификация // https://ht-lab.ru/obuchenie/slovari/tolkovatel-inostrannykh- terminov-po-kadrovomu-menedzhmentu/kvalifikatsiya.
3. Николаев А.Л., Поленин О.В. Особенности внутренней системы повышения квалификации педагогов учреждений начального профессионального образования // Ж. Мир науки, культуры, образования. – Горно-Алтайск: 2010. - № 5 (24). – С. 88.
4. О профессиональных квалификациях // https://adilet.zan.kz/rus/docs/ Z2300000014.
5. Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар // http://tmatm. uz/site/wp-content/uploads/2015/09/3.-PEDAGOGIK-KASBIJ-KOMPETENTLIK.pdf.
6. Подповетная Ю.В. Профессиональная квалификация как основа профессиональной деятельности будущего специалиста // Ж. Человек. Спорт. Медицина. – Челябинск: 2006. – № . – С. 204.
7. Скороглядова И.Г. Что такое профессиональная квалификация учителя, и как ее повысить // https://solncesvet.ru/blog/povyshenie-kvalifikacii/professionalnaya-kvalifikaciya-uchitelya.
8. Тошкент энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2009. – 315-б.
9. Хижнякова О.Н. Система повышения квалификации учителей: исторический опыт и перспективы // Историко-педагогический журнал. – Нижний Тагил: 2014. - № 4. – С. 140.
10. Что такое квалификация педагога? // https://nspedagogov.ru/kak-zarabotnaya-plata-uchitelya-zavisit-ot-ego-kvalifikaczi.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Конимех – Мирзокуш / 5-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 419-б.

JISMONIY MADANIYAT YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQLAR AHAMIYATI

Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi
Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: Shahobiddinovadilnavoz329@gmail.com
Tel:+998934911909

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda mashqlar tizimining roli va samaradorligi yoritilgan. Zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar va ESP asosidagi mashg‘ulotlarning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kasbiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, jismoniy madaniyat, ESP, interaktiv mashqlar, til kompetensiyasi, metodika, lingvodidaktika, motivatsiya, faoliyatga asoslangan o‘qitish*

THE IMPORTANCE OF EXERCISES IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH AMONG PHYSICAL EDUCATION STUDENTS

Abstract: *This article discusses the role and effectiveness of the exercise system in the formation of professional communicative competence in English for students of the physical education department. The advantages of modern methods, innovative approaches and ESP-based training are highlighted.*

Keywords: *Professional competence, communicative approach, physical education, ESP, interactive exercises, language competence, methodology, linguodidactics, motivation, activity-based learning*

ЗНАЧЕНИЕ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: *В статье рассматриваются роль и эффективность системы упражнений в формировании профессионально-коммуникативной компетенции на английском языке у студентов факультета физического воспитания. Отмечены преимущества современных методов, инновационных подходов и обучения на основе ESP.*

Ключевые слова: *Профессиональная компетентность, коммуникативный подход, физическое воспитание, ESP, интерактивные упражнения, языковая компетенция, методика, лингводидактика, мотивация, деятельностное обучение.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida ingliz tilini o‘rganishni ommalashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori mazkur yo‘nalishda sifatli o‘quv-uslubiy faoliyatni tashkil etishni ta’minlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, kasbiy ta’limda ingliz tilini o‘rgatish jarayonida kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Jismoniy madaniyat yo‘nalishidagi talabalar uchun ingliz tili nafaqat umumiy kommunikatsiya vositasi, balki kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bo‘lg‘usi mutaxassis sifatida xalqaro musobaqalarda, seminar va treninglarda ishtirok etishi, sport faoliyatini xorijiy hamkorlarga tushuntirishi zarur bo‘ladi. Shu sababli, til kompetensiyasining rivojlanishi ularning kasbiy tayyorgarligida muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy kommunikativ kompetensiya shakllanishida interaktiv mashqlar va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning ahamiyati alohida ta’kidlanmoqda. Masalan, Harmer ta’kidlashicha, chet tili mashg‘ulotlarida mashqlar nafaqat til bilimini oshirish, balki real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishning eng samarali vositasidir. Yana bir muhim jihat shundaki, ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasi asosida tayyorlangan mashqlar tizimi jismoniy madaniyat yo‘nalishidagi talabalarni aniq kasbiy kontekstga tayyorlaydi va ular uchun mazmunli motivatsiya yaratadi. Shu sababli, ushbu maqolada aynan mashqlar tizimining kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni va imkoniyatlari batafsil yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tadqiqotlarda turli mualliflar til kompetensiyasini shakllantirish metodikalarini tahlil qilgan. Harmer (2007) faol mashqlar tizimini kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida baholagan. U mashg‘ulotlarda dialoglar, rolikli o‘yinlar va taqdimotlar ishlatilishi til ko‘nikmalarini sezilarli oshirishini ta’kidlaydi (1). Hutchinson va Waters (1987) ESPning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqqan va kasbiy ehtiyojlarga moslashgan mashqlar metodikasini taklif qilgan. Ularning ta’kidlashicha, ESP materiallari

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabaning bevosita kasbiy faoliyatini aks ettirgan hollarda natija samarador bo'ladi (2). Rod Ellis (2008) mashqlarni topshiriqqa asoslangan (task-based) shaklda tashkil etish kommunikativ vazifalarni samarali yechishga yordam berishini ilmiy asoslab bergan. U mashqlarni real kontekstga yo'naltirish muhimligini urg'ulaydi (3). David Nunan (2004) ham shunga yaqin xulosalarga kelgan. U faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar nafaqat til kompetensiyasini, balki nutq strategiyalarini rivojlantirishini ko'rsatgan (4). O'zbekiston olimlari orasida Ravshanov B.S. kasbiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasini milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirib, uning tarkibini lingvistik, pragmatik va strategik ko'nikmalar sifatida ajratgan (5). Mirzayeva D.A. esa mashqlar tizimida kommunikativlik va kasbiy yo'naltirishning integratsiyasi muhim ekanligini alohida urg'ulagan (6). Mazkur tadqiqotlarning umumiy xulosalaridan ko'rinadiki, mashqlarni to'g'ri tanlash va ularni kasbiy kontekstga moslashtirish talabaning motivatsiyasini oshiradi va real faoliyatga tayyorlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilidagi mashqlar tizimini yaratishda quyidagi asosiy mezonlar muhim:

-mashqlar ESP konsepsiyasiga mos bo'lishi,

-faoliyatga asoslangan yondashuvni qo'llashi,

-real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishi,

-sotsiokultural elementlarni qamrab olishi.

Masalan, sport mashg'ulotlarini tushuntirish, xavfsizlik qoidalarini ta'riflash, mashhur sportchilar faoliyatini taqdim etish kabi topshiriqlar nutq kompetensiyasini rivojlantiradi va talabalarda kasbiy ishonch hosil qiladi. Rod Ellisning fikricha, "topshiriqqa asoslangan mashqlar tilni o'rganish jarayonini sun'iy mashg'ulotdan real faoliyatga aylantiradi" (3). Bu yondashuv ayniqsa sport yo'nalishida dolzarbdir. Shu o'rinda muallif tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar tizimi quyidagilarga yo'naltirilgan:

-sport terminologiyasini amaliy qo'llash,

-taqdimot va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish,

-interaktiv usullar yordamida kasbiy kompetensiyani oshirish.

Bunday tizim, Harmer va Hutchinsonlarning tavsiyalari bilan uyg‘unlashgan holda, jismoniy madaniyat sohasida ingliz tilini samarali egallash imkonini beradi.

1. Reproduktiv mashqlar- tayyor til materialini takrorlash va mashq qilishga qaratilgan. Misol tariqasida

Quyidagi dialogni keltirish munkun:

– Dialogni rol bo‘lib o‘qish

– O‘qilgan matndan asosiy iboralarni takrorlash

– Berilgan namunadan foydalanib gap tuzish

Ahamiyati esa reproduktiv mashqlar talabaga leksik va grammatik modellardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatadi va ularni nutqga tayyorlaydi. Sport mashg‘ulotini ingliz tilida izohlash uchun tayyor namunali gaplarni takrorlash.

2. Productiv mashqlar- talabaning mustaqil ijodkorligini rag‘batlantiruvchi mashqlar. Misollar:

– Erkin suhbat tuzish

– Berilgan mavzuda taqdimot tayyorlash

– Kasbiy vaziyatga mos rolli o‘yin o‘ynash

Productiv mashqlar nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantiradi va kasbiy vaziyatda o‘z fikrini ifodalash qobiliyatini mustahkamlaydi. Jismoniy madaniyat talabasi mashg‘ulot jarayonida jarohat oldi degan vaziyatda ingliz tilida tushuntirish va tavsiya berish.

3. Prezentativ mashqlar- yangi til materiali taqdim qilinadi va o‘quvchilar uni tushunib olishga intiladi.

Misollar: Yangi terminologiyani vizual material asosida tushuntirish; sport jihozlari nomlarini slaydda ko‘rsatib o‘rganish; termin va iboralarni kasbiy kontekstda o‘rganishga yordam beradi. Masalan, sport anjomlarining inglizcha nomlari va ularni ishlatish bo‘yicha izoh berish.

4. Tuzilmaviy mashqlar (drill mashqlar)- trammatik va leksik birliklarni avtomatiklashtirishga qaratilgan. Misollar: gap tuzish ketma-ketligi mashqlari; qisqa savol-javoblar; strukturaviy almashtirish (substitution drills). Talabaning

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

grammatik to‘g‘ri gapirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Sport faoliyatini ifodalash uchun “have to”, “must”, “can” kabi modal fe’llarni mashq qilish.

5. Kommunikativ mashqlar- talabalarning erkin va maqsadli muloqotini rag‘batlantiradi. Misollar: rolli o‘yinlar; erkin muloqotli debatlar; guruhli loyihalar va intervyu tayyorlash. Kasbiy kommunikativ vaziyatlarda tilni mustaqil qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, “Sport zalida mehmonlarga xizmat ko‘rsatish” mavzusida rolli suhbat.

6. Integrativ mashqlar- Bir vaqtning o‘zida bir nechta til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar. Misollar: matn o‘qib, asosiy g‘oyani og‘zaki izohlash; video ko‘rish va eshitganini qayta hikoya qilish; sport mashg‘uloti videosini sharhlash. Eshitish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini uyg‘un rivojlantiradi. Sportchi chiqishini tomosha qilib, uning texnikasini ingliz tilida ta’riflash.

7. Interaktiv mashqlar- yalabalar o‘rtasida faol muloqotni tashkil qilishga asoslangan. Misollar: jamoaviy loyiha; aqliy hujum (brainstorming); savol-javob muhokamalari. Bir-biridan o‘rganish va jamoaviy fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Kasbiy treningni qanday tashkil qilish mumkin?” mavzusida guruhli muhokama va shu kabilar mashq turlariga yaqqol misol bo’la oladi.

Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq turlari va ularning pedagogik vazifalari

Mashq turi	Vazifasi	Kutilyotgan natija
Reproduktiv mashqlar	Yangi til birliklarini mustahkamlash va avtomatlashtirish	Talaba sport faoliyatiga oid asosiy grammatik va leksik modellardan to‘g‘ri foydalanishni o‘zlashtiradi
Productiv mashqlar	Mustaqil fikr va matn yaratish	O‘z kasbiy faoliyatini ingliz tilida erkin va izchil ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kommunikativ mashqlar	Real vaziyatlarda erkin muloqotni tashkil qilish	Talaba kasbiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish va savol-javoblarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi
Integrativ mashqlar	Bir necha til ko‘nikmalarini parallel shakllantirish	Eshitish, o‘qish, gapirish va yozish kompetensiyasi kompleks ravishda shakllanadi
Tuzilmaviy mashqlar	Leksik va grammatik birliklarni to‘g‘ri qo‘llashni mashq qilish	Sport terminlarini va strukturaviy shakllarni to‘g‘ri ishlatish ko‘nikmasi mustahkamlanadi
Interaktiv mashqlar	Jamoaviy va faol o‘rganishni rag‘batlantirish	Talabalar orasida o‘zaro yordam, bilim almashish va birgalikda muhokama yuritish kompetensiyasi shakllanadi
Prezentativ mashqlar	Yangi bilimni kontekstual tarzda tushuntirish	mashqlarYangi bilimni kontekstual tarzda tushuntirishSportga oid termin va iboralarning ma’nosi, qo‘llanish joyi va kasbiy ahamiyatini chuqur anglash imkoniyati yaratiladi

Yuqoridagi jadval asosida talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi rivojlanishida mashqlar turining mazmunli va tizimli taqsimoti muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mashq turi o‘zining maxsus pedagogik vazifasiga ega bo‘lib, ularning kompleks qo‘llanishi talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, integrativ va interaktiv mashqlar ularning motivatsiyasini oshirish va jamoaviy muloqotni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada tahlil qilingan ilmiy manbalar va metodologiyalar jismoniy madaniyat yo‘nalishidagi talabalar uchun kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda mashqlar tizimining o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatdi. ESP asosidagi faoliyatga yo‘naltirilgan mashqlar talabalarni nafaqat umumiy til ko‘nikmalariga, balki kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv esa real vaziyatlarni modellashtirish va sotsiokultural kontekstni integratsiya qilish orqali mavjud usullarni boyitadi va yangilaydi. Faoliyatga asoslangan, interaktiv va kommunikativ mashqlar yordamida talabalar faqat grammatik qoidalarni emas, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan real kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantiradi. Xususan, ESP konsepsiyasiga tayangan mashqlar sport terminologiyasini amaliy qo‘llash, mashg‘ulot jarayonini tushuntirish va sog‘liq xavfsizligi bo‘yicha tavsiyalar berish kabi professional vazifalarni samarali bajarishga tayyorlaydi. Harmer, Hutchinson va Ellis tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, topshiriqqa asoslangan va integrativ mashqlar talabalarning o‘zaro muloqotini rag‘batlantirib, ularni yuqori motivatsiyaga undaydi. O‘zbekiston olimlari, jumladan B.S. Ravshanov va D.A. Mirzayeva ishlari esa ushbu jarayonni milliy ta’lim kontekstida metodik asoslashga imkon berdi. Maqolada muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv — ESPga asoslangan bosqichli mashqlar tizimi — mavjud metodikalarni boyitadi va jismoniy madaniyat sohasida ingliz tilini o‘qitishga amaliy yangilik sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning asosiy yangiligi shundaki, u kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda sport sohasining kasbiy xususiyatlarini hisobga oladi, terminologiyani real vaziyatlar bilan bog‘laydi va integrativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Umuman olganda, mazkur

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

natijalar nafaqat jismoniy madaniyat yo‘nalishida, balki boshqa kasbiy ta’lim sohalarida ham chet tili o‘qitish sifatini oshirishga, talabalarni xalqaro kasbiy muloqotga tayyorlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bois mazkur tadqiqot va metodik tavsiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education Limited, 2007. – p.134.
2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach. Cambridge University Press, 1987. – p.42.
3. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press, 2008. – p.301.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press, 2004. – p.55.
5. Ravshanov B.S. Kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning lingvodidaktik asoslari. Toshkent, 2018. – 74-bet.
6. Mirzayeva D.A. Chet tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari. Toshkent, 2019. – 58-bet.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENSIYASINI TRIZ TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Ergashev Baxodir Olimjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
Telefon: +998 99 516 56 35
E-mail: baxodirergashev92@gmail.com
orcid:0009-0007-6614-492X

Annotatsiya: *Maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini TRIZ (izobretatelskix zadach resheniye teoriyasi) texnologiyalar vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari ko‘rib chiqilgan.Tadqiqotda TRIZ texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari, ijodiy kompetensiyaning moxiyati va tarkibiy qismlari yoritilgan. Muallif tomonidan TRIZ prinsiplariga asoslangan didaktik tizim ishlab chiqildi va uning ta’lim amaliyotiga joriy etish yo‘llari belgilandi.Tadqiqot natijasida bo‘‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati, pedagogik vazifalarni noan'anaviy yechimlar bilan xal qilish malakasi va tarixiy materiallarni ijodiy qayta ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi.*

Kalit so‘zlar: *TRIZ texnologiyalar, ijodiy kompetensiya, tarix fani, pedagogik innovatsiya, bo‘‘lajak o‘qituvchilar, ta’lim metodikasi, ijodiy fikrlash*

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ С ПОМОЩЬЮ ТЕХНОЛОГИЙ ТРИЗ

Эргашев Баходир Олимжонович
Исследователь Наманганского государственного университета
Телефон: +998 99 516 56 35
E-mail: baxodirergashev92@gmail.com
orcid:0009-0007-6614-492X

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические основы развития творческой компетентности будущих учителей истории с использованием технологий ТРИЗ (теория решения изобретательских задач). В исследовании освещаются педагогические возможности ТРИЗ-технологий, сущность и структурные компоненты творческой компетентности. Автором разработана дидактическая система, основанная на принципах ТРИЗ, и определены пути её внедрения в образовательную практику. В результате исследования усовершенствована методика развития у будущих педагогов способности к творческому мышлению, навыков нестандартного решения педагогических задач и компетентности в творческой переработке исторического материала.*

Ключевые слова: *ТРИЗ-технологии, творческая компетентность, история, педагогические инновации, будущие учителя, методика преподавания, творческое мышление.*

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2025-YIL 4-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

DEVELOPING THE CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE HISTORY TEACHERS THROUGH TRIZ TECHNOLOGIES

Ergashev Baxodir Olimjon o'g'li
Researcher at Namangan State University
Phone: +998 99 516 56 35
E-mail: baxodirergashev92@gmail.com
orcid:0009-0007-6614-492X

Abstract: *This article examines the theoretical and practical foundations for developing the creative competence of future history teachers through TRIZ (Theory of Inventive Problem Solving) technologies. The study highlights the pedagogical potential of TRIZ technologies, as well as the essence and structural components of creative competence. The author has developed a didactic system based on TRIZ principles and outlined ways to implement it in educational practice. As a result of the research, the methodology for enhancing future teachers' creative thinking skills, ability to solve pedagogical problems using non-traditional approaches, and competence in creatively processing historical material has been improved.*

Keywords: *TRIZ technologies, creative competence, history education, pedagogical innovation, future teachers, teaching methodology, creative thinking.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi rivoji shunday taqozo qilmoqdaki, pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ijodkor va innovator sifatida faoliyat yuritishi zarur[1]. Bu esa, eng avvalo, bo"lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirishni talab qiladi. Tarix fani o'qitishida duch kelinadigan muammolardan biri – talabalarning ijodiy salohiyatini to'liq ochib bera olmaslik. An'anaviy o'qitish metodlari asosan ma'lumot uzatishga qaratilgan bo'lib, ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga yetarli e'tibor berilmaydi. TRIZ (TRIS - Teoriya resheniya izobretatelskix zadach) texnologiyalari bu muammolarni xal qilishda samarali vosita bo'la oladi[2].

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Ta'lim soxasida ijodiy yondashuvga ehtiyoj ortishi;
- Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining yetarli ishlab chiqilmaganligi;
- TRIZ texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarining to'liq ochilmaganligi.

Tadqiqot maqsadi: bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini TRIZ texnologiyalar vositasida rivojlantirish nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berish.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Ijodiy kompetensiya masalasi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Dj.Gilford ijodiy fikrlashning konvergent va divergent turlarini aniqlashtirgan[3]. U ijodkorlikning asosiy belgilari sifatida moslashuvchanlik, originallik va takomillashtirish qobiliyatini ko‘rsatgan. Ye.P.Torrens ijodiy potensialni baholash mezonlarini belgilagan[4]. U ijodiy shaxsning asosiy xususiyatlari sifatida yangicha qarash, muammolarni seza bilish va noan’anaviy yechimlar topish qobiliyatini ta’kidlagan. TRIZ nazariyasining asoschisi G.S.Altshuller izobretatellik faoliyatining ob’yektiv qonuniyatlarini ochib bergan[5]. Uning fikricha, ijodiy muammolarni xal qilish jarayoni algoritmlashtirilishi mumkin va bu orqali ijodiy fikrlashni o‘rgatish mumkin. Markaziy Osiyo olimlaridan M.X.Tojiyev pedagogik faoliyatda ijodiylikning roli va o‘rnini tadqiq qilgan[6]. A.G‘.G‘oziyev ta’limda innovasion texnologiyalarning pedagogik asoslarini yaratgan[7]. N.A.Muslimov talix fanini o‘qitishning psixologik asoslarini ishlab chiqgan[8].

Ammo, tarix fanini o‘qitishda TRIZ texnologiyalarini qo‘llash va bu orqali ijodiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni sistemali tahlil qilish
- Sintez va umumlashtirish
- Modellashtirish
- Tizimli tahlil

-Empirik metodlar:

- Pedagogik kuzatish
- O‘qituvchilar va studentlar bilan suhbatlar
- Fokus-guruh muhokamalari
- Dars jarayonlarini tahlil qilish

- Pedagogik eksperimentning konstatlovchi va formativchi bosqichlari

Tadqiqot 2022-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazildi. Tadqiqotga pedagogika universitetlarining tarix fakultetlari talabalari va o‘qituvchilari jalb qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning yangi, noan'anaviy yechimlar topish, ijodiy muammolarni xal qilish va innovasion faoliyat ko‘rsatish qobiliyatidir. Tarix fani o‘qituvchisi uchun ijodiy kompetensiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Kognitiv komponent:

- Tarixiy bilimlarni ijodiy qayta ishlash qobiliyati
- Tarixiy voqealar orasidagi noan'anaviy aloqalarni topish malakasi
- Tarixiy materiallarni yangicha talqin qilish ko‘nikmasi

Operasion komponent:

- Ijodiy pedagogik texnikalarni qo‘llash malakasi
- Interaktiv o‘qitish usullarini ishlatish ko‘nikmasi
- Pedagogik vazifalarni noan'anaviy usullar bilan xal qilish qobiliyati

Motivasion komponent:

- Ijodiy faoliyatga intilish
- Yangilikka ochiqlik
- Pedagogik eksperimentga tayyorlik

TRIZ texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari

TRIZ texnologiyalari ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1.Algoritmik yondashuv – muammolarni xal qilishning bosqichma-bosqich metodikasi ishlab chiqiladi. Tarix darslarida bu voqealarni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va xulosalar chiqarishda qo‘llaniladi[9].

2. Ziddiyat prinsipi – tarixda uchraydigan ziddiyatli vaziyatlarni aniqlash va ularni xal qilish usullarini topish. Masalan, tarixiy shaxslarning qarorlar qabul qilishdagi dilemmalarini tahlil qilish.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

3.Resurslarni boshqarish – mavjud tarixiy manbalar, faktlar va ma'lumotlardan maksimal foydalanish prinsipi. Bu orqali talabalar cheklangan resurslar bilan ko'proq natijalarga erishishni o'rganadilar[10].

Didaktik tizimning tuzilishi

TRIZ prinsiplariga asoslangan didaktik tizim tərt asosiy blokdan iborat:

1. Maqsad-yo'naltiruvchi blok:
- Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish maqsadlari
- Pedagogik vazifalar tizimi
- Kutilgan natijalar modeli

2. Mazmunli blok:
- TRIZ prinsiplarini o'rganish
- Tarixiy materiallarni ijodiy ishlash metodlari
- Pedagogik vazifalarni ijodiy xal qilish usullari

3. Jarayonli blok:
- O'qitish bosqichlari va metodlari
- Pedagogik texnologiyalarning majmui
- Ta'limiy faoliyat turlari

4. Baholash bloki:
- Ijodiy kompetensiyani baholash mezonlari
- Nazorat usullari
- O'z-o'zini baholash metodlari

Amaliy joriy etish tajribasi

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodika oliy ta'lim muassasalarida sinab ko'rildi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, TRIZ texnologiyalarini qo'llash orqali:
- Studentlarning tarix faniga bo'lgan qiziqishi oshdi
- Darslar interaktiv xarakter kasb etdi
- Talabalar mustaqil izlanuvchanlik ko'rsata boshladilar
- Pedagogik muammolarga ijodiy yondashuv shakllandi

Metodik tavsiyalar

TRIZ texnologiyalarini samarali qo'llash uchun quyidagi tavsiyalar berildi:

1. Bosqichlilik prinsipi – avval TRIZ asoslarini o‘rganish, keyin uni pedagogik faoliyatda qo‘llash.

2. Amaliylik – nazariy bilimlarni darhol amaliy vazifalardagqo‘llash.

3. Moslashish – TRIZ usullarini tarix fanining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish.

4. Uzluksizlik – ijodiy kompetensiyani bosqichma-bosqich, izchil rivojlantirish.

XULOSA

TRIZ texnologiyalari bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bu texnologiyalarning algoritmik tabiyati ijodiy fikrlashni tizimli ravishda o‘stirishga imkon beradi. Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni murakkab tizimli xarakterga ega bo‘lib, kognitiv, operasion va motivasion komponentlarning uzaro ta’sirini talab qiladi.

TRIZ prinsiplariga asoslangan didaktik tizim tərt asosiy blokni (maqsad-yo‘naltiruvchi, mazmunli, jarayonli va baholash) o‘z ichiga olib, ularning uzaro muvofiqlashgan ishlashi ijodiy kompetensiyani samarali rivojlantirishni ta’minlaydi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, TRIZ texnologiyalarini qo‘llash orqali studentlarning ta’lim jarayoniga faol ishtiroki ta’minlanadi, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy muammo xal qilish qobiliyati rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish – O‘zbekiston taraqqiyotining muxim omili // Xalq so‘zi. 2019. 12 sentyabr.
2. Altshuller G.S. Tvorchestvo kak tochnaya nauka. – M.: Sovetskoye radio, 1979. – 175 s.
3. Gilford Dj. Priroda chelovecheskogo intellekta / Per. s angl. – M.: Progress, 1971. – 433 b.
4. Torrens Ye.P. Diagnostika kreativnosti. Rukovodstvo. – M.: Imaton, 2006. – 172 b.
5. Altshuller G.S. Algoritm izobreteniya. – M.: Moskovskiy rabochiy, 1973. – 296 s.
6. Tojiyev M.X. Pedagogik faoliyatda ijodiylikning roli va funksiyalari. – T.: Fan, 2018. – 240 b.
7. G‘oziyev A.G‘. Innovasion pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2019. – 320 b.
8. Muslimov N.A. Taix fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. – T.: TDPU, 2020. – 180 b.
9. Zinovkina M.M. Kreativnaya pedagogika: metodologiya, teoriya, praktika. – M.: MGIU, 2009. – 260 b.
10. Gin A.A. TRIZ-pedagogika: ob’yasnit neobыchnoye. – M.: Vita-Press, 2018. – 168 b.

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING O'QUV VA HAYOTIY FAOLIYATI UCHUN AXBOROTLARNI MUSTAQIL IZLAB TOPISHI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Turobova Ziyoda Shuhrat qizi
Magistr
ziyodaturobova7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi (keying o'rinlarda OTM deb yuritiladi) talabalarining o'quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishda duch kelayotgan muammolari va bu muammolarni hal qilishga doir yechimlar haqida so'z boradi. Tadqiqot doirasida OTM talabalarida axborot savodxonligiga doir bilimlarning yetarli emasligi, ta'limga oid zamonaviy qidiruv tizimlari haqida ma'lumot yo'qligi aniqlandi. Bundan tashqari bir qancha qidiruv tizimlardagi ma'lumotlar ingliz tilida ekanligi ma'lum. Bu ma'lumotlardan foydalanishda talabalarimizning aksariyat qismi ingliz tilini bilmasliklari axborotlarni mustaqil izlab topishda yana bir asosiy muammolardan biri bo'lmoqda. Tadqiqotimiz Navoiy davlat universitetining uch fakulteti uchta guruhida ya'ni, "O'zbek tili va adabiyoti" fakultetining 203- guruhi, "Maktabgacha ta'lim " fakultetining 3-"G", va "Matematika va informtika" fakultetining 4-"A"da o'tkazilgan. Yakuniy natijalarda OTM talabalariga Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Vikipediya (wikipedia.org). kabi qidiruv tizimlari, Reddit, Gutenberg.org, Information Literacy internet saytlar haqida ma'lumot, foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilib, ularning axborotlani mustaqil izlab topishlarida istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim muassasasi, talaba, axborot, o'quv faoliyat, qidiruv tizimlari, axborot savodxonligi, internet saytlar, mustaqil ta'lim*

САМОСТОЯТЕЛЬНЫЙ ПОИСК ИНФОРМАЦИИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются студенты высших учебных заведений (далее именуемые вузами) при самостоятельном поиске информации для своей образовательной и жизнедеятельности, и пути их решения. Исследование выявило, что у студентов вузов недостаточный уровень информационной грамотности и недостаточные знания о современных поисковых системах, связанных с образованием. Кроме того, известно, что информация в ряде поисковых систем представлена на английском языке. Тот факт, что большинство наших студентов не владеют английским языком при использовании этой информации, является еще одной серьезной проблемой при самостоятельном поиске информации. Наше исследование проводилось в трех группах трех факультетов Навоийского государственного университета, а именно: группа 203 факультета «Узбекский язык и литература», 3-«Г» факультета «Дошкольное образование» и 4-«А» факультета «Математика и информатика». Итоговые*

результаты показали, что студентам вузов был предоставлен доступ к Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Wikipedia (wikipedia.org), поисковые системы, Reddit, Gutenberg.org, сайты информационной грамотности и даны рекомендации по их использованию, показывающие, что они являются перспективным направлением для самостоятельного поиска информации.

Ключевые слова: *Высшее учебное заведение, студент, информация, образовательная деятельность, поисковые системы, информационная грамотность, веб-сайты, самостоятельное обучение.*

INDEPENDENT SEARCH FOR INFORMATION FOR STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: *This article discusses the problems faced by students of higher education institutions (hereinafter referred to as HEIs) in independently searching for information for their educational and life activities and the solutions to these problems. The study revealed that HEI students lack sufficient knowledge of information literacy and lack of knowledge about modern search engines related to education. In addition, it is known that the information in several search engines is in English. The fact that most of our students do not know English when using this information is another major problem in independently searching for information. Our study was conducted in three groups of three faculties of Navoi State University, namely, group 203 of the faculty of "Uzbek language and literature", 3-"G" of the faculty of "Preschool education", and 4-"A" of the faculty of "Mathematics and Informatics". The final results showed that HEI students were given access to Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Wikipedia (wikipedia.org), search engines, Reddit, Gutenberg.org, Information Literacy websites, and recommendations for their use are provided, showing that they are a promising direction for independent information search.*

Keywors: *Higher education institution, student, information, educational activities, search engines, information literacy, websites, independent learning*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, axborot – ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy fanlarning, tafakkur ilmining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan bilim va ma'lumotlar, kishilarning amaliy faoliyati davomida to'plagan tajribalari yig'indisi demakdir. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishda turli axborotlardan foydalaniladi. Shu o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, turli axborotlar ichidan kerakli o'quv faoliyatiga mos turini tanlab o'zlashtirish talabadan yuqori malaka talab qiladi. Hozirgi kunda axborotlar okeanidan kerakli ma'lumotlar izlash nihoyatda murakkablashib bormoqda. Unga oid maxsus bilish yo'nalishiga ega talabagina turli axborotlardan o'quv faoliyatiga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

keraklisini aniqlab o‘zlashtira oladi. Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda tarqatilayapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks ettirayapti, degan savollarga javob topa olish uchun muhimdir. Shu kabi axborotlarni erkin olish, ulardan foydalanish, axborot tizimlari va shu qator axborotga oid ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-373-sonli “Axborotlashtirish to‘g’risidagi” Qonunida keltirib o‘tilgan. Axborot tufayli nazariya amalyot bilan birikadi. Shu sababli OTM talabalarining o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotlarni mustaqil izlab topishdagi pedagogik muammolarini o‘rganish, axborotlarni mustaqil izlab topishda duch keladigan muammolarini tahlil qilish va axborotning zarurati, undan foydalanishning mazmun-mohiyatini o‘rganish ushbu tadqiqotimizning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824- son qarorining birinchi ilovasi kredit-modul tizimiga bag’ishlanadi va hozirda OTM larda o‘quv faoliyatlar kredit modul tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Kredit modul tamoyilida ikki asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Shu sababli ham tadqiqotimizda dastlab mustaqil ta’limga oid olib borilgan ilmiy ishlarni o‘rganib chiqdik.

Mustaqil ta’lim barcha o‘quv ishlarning yakunlovchi shaklidir. Mustaqil ta’lim jarayonida u yoki bu fan sohasiga doir axborotlarni to‘plash, o‘zlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, ularni mustahkam bilimga barqaror malaka va ko‘nikmalarga aylantirish kabi vazifalar amalga oshirilishi, mustaqil ta’lim olish texnologiyalari haqida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. (M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik.-T.,”Aloqachi”, 2008, 87-bet)

Aytenov Bekjigit Tursunmuratovich “Talabalarda mustaqil ta’lim olish faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari”,

Muqimov B.R “Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta’lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish (kasb ta’lim yo‘nalishlari misolida)”

Sarimsakova D.M OTMlarda kredit modul tizimi sharoitida “mustaqil ta'lim ko‘nikmalari” fanining mazmuni va mohiyati “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” 601-bet

Mirzayeva Z.Sh “O‘quvchilarda mustaqil ta’limini tashkil etish yo‘llari”

Axborot bilan ishlash qobiliyati universal xususiyatga egaligi, turli xil kognitiv va hayotiy vazifalarni hal qilish imkonini berishi haqida (Yu.K.Babanskiy), I.Ya.Lerner, A.V.Usova, T.I.Shamova, N.A.Loshkareva, S.G. Vorovshchikov, D.V.Tatyanchenko, A.N.Tubelskiy, L.M.Perminova va boshqalar) tomonidan taklif qilingan tegishli tasniflarda o‘z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, OTM talabalarining mustaqil ta’lim olishi bo‘yicha ko‘plab ijobiy ma’lumotlar bo‘lsada, o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotlarni mustaqil izlab topish pedagogik muammo sifatida qaralib to‘liq o‘rganilmaganligi aniqlandi. Shu sababli tadqiqotning asosiy bosqichlarida kuzatuv, intervyular, so‘rovnomalar orqali talabalarning bilim darajasi, axborotlarni mustaqil izlashga doir ko‘nikmalari, qiziqish va motivatsiya darajasi aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axborot jamiyatining paydo bo‘lishi ta’limning o‘zgarishiga olib keladi. Ta’lim talabga aylanib bormoqda, bu esa insonga axborot olamiga ishonch bilan kirish, uni izlash, tahlil qilish va talqin qilish imkonini beradi. Shu sababli ham oliy ta’lim muassasasi talabalari bilan biz so‘rovnoma o‘tkazishda, o‘quv va hayotiy faoliyatlari uchun axborotlarni mustaqil izlab topish, qidiruv tizimlari, turli xil ta’limga oid saytlar, ulardan qanday foydalanish kerakligi to‘g’risida to‘xtaldik. Biz tadqiqotimizni Navoiy davlat universitetining uch fakultetini uchta guruhidan ya’ni, “O‘zbek tili va adabiyoti” fakultetining 203- guruhi, “Maktabgacha ta’lim ” fakultetining 3-“G”, va “Matematika va informtika” fakultetining 4-“A” dan so‘rovnomalar oldik. (1.1-jadval)

1.1-jadval

	Tahlil uchun berilgan savollar.	**Natijalar**

1.	**Axborot bu -?**	inson sezgi a'zolari orqali qabul qiladigan ma'lumotlar- 43% ma'lumotlar to'plami- 15% voqea va hodisalar haqida ma'lumot- 21% aniq ma'lumotga ega emasman- 21%
2.	**Axborotlarni mustaqil izlashda kutubxonadan foydalanasizmi yoki internet saytlardan?**	Internet saytlardan- 78,5% Kutubxonadan- 21,5%
3.	**Hozirgi kunda OTM talabalarining axborotlarni mustaqil izlab topishi qay darajada? Foiz ko'rsatkichida ko'rsating**	50%- 21%, 60%- 15% 70%- 43% 80%-21%
4.	**Internet saytlar orqali axborot qidirish malakasini bilasizmi?**	Ha-28,5% Yo'q-43% Qisman bilaman-28,5%
5.	**Sayt turlari haqida bilasizmi?**	Ha- 35,7% Yo'q -64,3%
6.	**Ta'lim ga oid saytlar haqida ma'lumotiz bormi?**	Ha – 14% Yo'q- 57% Qisman bilaman – 29%
7.	**Hotcourses.ru sayti haqida bilasizmi?**	Ha – 7% Yo'q- 78,5% Qisman bilaman – 14,5%
8.	**Ipl2 sayti haqida ma'lumotga egamisiz?**	Ha – 7% Yo'q- 86% Qisman bilaman – 7%

9.	**TED Talks bu qanaqa saytligini bilasizmi?**	Ha – 7% Yo‘q- 86% Qisman bilaman – 7%
10.	**Twitter.com haqida ma’lumotiz bormi ?**	Ha – 14,% Yo‘q- 86%

Dastlabki natijalari va keyingi o‘tkazilgan faoliyatlardan so‘ng olingan natijalar o‘rtasida o‘zgarishlar yuzaga kelganligi aniqlandi. Shuningdek guruhlardan olingan anketa, so‘rovnomalar natijalari umumlashtirilib, ma’lum bir reja asosida talabalarga o‘quv va hayotiy faoliyatlari uchun axborotlari mustaqil izlab topishga o‘rgatish yuqori samara berishi belgilandi. (1.2-jadval)

1.2-jadval

Guruhlar	**203 guruh**	**3 “G” guruh**	**4 “A” guruh**	**Umumiy**
Tajriba boshida	**24 (45%)**	**23 (42%)**	**23 (40%)**	**70 (42,3%)**
Tajriba oxirida	**24 (80%)**	**23 (82%)**	**23 (78%)**	**70 (80%)**

Ushbu jadvaldan ko‘rib turganingizdek, tajriba boshida guruhdagi natijalar 42,3% ni tashkil etgan. Tajriba sinov ishlari o‘tkazilgandan keyingi natijalar 80% ni tashkil etgan.Tajriba oxirida olingan natijalar tajriba boshidagi natijalarga qaraganda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA

O‘quv va hayotiy faoliayt uchun axborotlarni mustaqil izlab topish haqida davra suhbatlarini tashkillashtirdik. Bu orqali biz talabalarimizning tadqiqot mavzuimiz bo‘yicha qanday bilim darajasiga ega ekanliklarini anqladik. Shundan so‘ng talabalarimiz uchun axborotlarni mustaqil izlab topishlari uchun bir qancha qidiruv tizimlari, ta’limga oid hattoki yo‘nalishlarga oid saytlarni, ulardan qanday ma’lumotlar olishlari haqida ko‘plab ma’lumotlar berdik. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishga o‘rgatish metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari biz nazarda tutgan muammoni yechishga yordam berdi. Tajriba-sinov jarayonida biz taqdim etgan test, so‘rovnoma, trening, tanlovlar natijasiga ko‘ra talabalar bilan axborotlarni mustaqil

izlab topishga o‘rgatish ma’lum bir reja asosida mazmunli tarzda olib borilsa maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining o‘quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishga o‘rgatish tajriba-sinov ishlari davomida o‘z isbotini topdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. qidiruv tizimlari: Twitter (twitter.com), Yahoo! (yahoo.com), Vikipediya (wikipedia.org). kabilar haqida ma’lumot berish;

2. ikkinchi va uchinchi bosqich talabalariga o‘quv faoliyatlari uchun ma’lumotlarni mustaqil izlashda *EdX*, *Quizlet*, *Layfxaker*, *Quora*, *Mental Floss*, *Reddit*, *Gutenberg.org*, *Information Literacy* kabi ko‘plab turli yangi saytlarni tanishtirish;

3. axborotlarni mustaqil izlab topish bo‘yicha talabalarga seminar-treninglarni muntazam tashki etib borish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun Toshkent sh; 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824- son qarori;
3. Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-373-sonli “Axborotlashtirish to‘g’risida”gi Qonuni
4. M.Ochilov, N.Ochilova.Oliy maktab pedagogikasi. Darslik.-T.,”Aloqachi”, 2008, – 87 bet
5. Xodjayev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2008. – 65-
6. Baybayeva M.X. Mustaqil ta’lim olish texnologiyasi va kasbga yo‘nalganlik // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2005
7. https://polarize.ru/uz/

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li
Turan Intertanional University
IC&DT departamenti direktori
ravshan.ismoilov77@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish muammosi pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xalqaro va mahalliy tajribalar, shuningdek, zamonaviy ta'lim metodikalari asosida bu kompetensiyani rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, kompetensiyaga ta'sir qiluvchi psixologik omillar, mavjud tizimli muammolar, pedagogik va metodik yechimlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *axborot kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, raqamli savodxonlik, pedagogik muammo, ta'lim metodikasi.*

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Исмоилов Равшан Якубжон угли
Международный университет «Туран»
директор департамента IC&DT
ravshan.ismoilov77@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматривается проблема формирования компетенций работы с информацией у учащихся начальных классов как педагогическая задача. Проанализированы международный и национальный опыт, а также современные образовательные подходы и методы. Отражены психологические особенности восприятия информации, системные проблемы и педагогические решения.*

Ключевые слова: *информационная компетенция, начальное образование, цифровая грамотность, педагогическая проблема, образовательные методы.*

DEVELOPING INFORMATION LITERACY COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS AS A PEDAGOGICAL ISSUE

Ismoilov Ravshan Yakubjon ugli
Turan International University
Director of the IC&DT Department
ravshan.ismoilov77@gmail.com

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract: *This article analyzes the pedagogical challenge of developing information literacy competencies among primary school students. Based on international and local experiences, the paper suggests effective methods and approaches to enhance these competencies. Psychological aspects of information processing, systemic issues, and practical pedagogical solutions are also discussed.*

Keywords: *information literacy, primary education, digital skills, pedagogical issue, educational methodology.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimi keskin ortib bormoqda, bunday davrda insonning axborotni qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan XXI asrda yosh avlodning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini yoshligidan shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida yuzaga chiqmoqda[1].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning intellektual va axloqiy-ruhiy asoslari shakllanadigan, uni kelajakdagi ta’lim olamiga tayyorlaydigan muhim pog‘ona bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarning axborotga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri yo‘naltirish ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi[2]. Shu sababli, axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki chuqur pedagogik jarayon sifatida ko‘rilishi kerak.

Mazkur maqolaning maqsadi - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash, xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qilish hamda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga oid samarali metodik takliflar ishlab chiqishdir. Maqola doirasida pedagogik-psixologik asoslar, ta’lim mazmuni, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari atroflicha yoritiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida “kompetensiyaviy yondashuv” ustuvorlik kasb etib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Shu kontekstdan kelib chiqib, axborot bilan ishlash kompetensiyasi - bu o‘quvchining axborotni izlash,

tahlil qilish, baholash, maqsadga muvofiq tarzda undan foydalanish va uni samarali tarzda boshqalar bilan ulashish qobiliyatidir [3].

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyasi axborot va media savodxonligini birgalikda rivojlantirishni tavsiya etadi. Bu modelga ko‘ra, axborot kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat[4]:

Boshlang‘ich sinf davri (odatda 6–10 yosh) bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi asosiy bosqichlardan biridir. Bu bosqichda bolalar yangi bilimlarni faol o‘zlashtirishga moyil bo‘lishadi, biroq axborotni qabul qilish, uni saqlash va qayta ishlash qobiliyatlari hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu bois, axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda yoshga xos psixologik omillarni e’tiborga olish muhimdir [5].

METODOLOGIYA

Shveytsariyalik psixolog Jan Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, 7-11 yoshdagi bolalar an’anaviy operatsiyalar bosqichida bo‘ladilar. Bu bosqichda ular mantiqiy fikrlashni boshlaydi, lekin hali abstrakt tushunchalarni to‘liq anglab yeta olmaydi. Shuning uchun axborot ularning e’tiborini jalb qiladigan vizual (ko‘rgazmali) va amaliy (tajriba asosida) shakllarda taqdim etilishi zarur [6]. Bu yoshdagi bolalar emotsional jihatdan o‘ta ta’sirchan bo‘lib, ular uchun axborotning mazmuni qanchalik ijobiy bo‘lsa, shunchalik yaxshi eslab qolishadi. Rivojlanayotgan empatiya va ijtimoiy munosabatlar ularga axborotni boshqa bolalar bilan birgalikda muhokama qilish, baham ko‘rish imkonini beradi. Shuningdek, bu yoshda axborotga bo‘lgan qiziqish yuqori, ammo diqqat va xotira cheklanganligi sababli taqdim etilayotgan axborot qisqa, lo‘nda va kontekstual bo‘lishi kerak [7]. Lev Vygotskiy o‘zining sotsiokultural nazariyasida bolaning o‘z-o‘zidan erisha olmaydigan, lekin atrofdagilar yordamida egallay oladigan salohiyatiga “yaqin

rivojlanish zonasi" (ZPD) deb nom beradi. Bu yondashuv, o'qituvchining bolaga axborotni tahlil qilishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi orqali axborot bilan ishlash kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishni taqozo etadi.



Yuqoridagi model asosida ta'lim jarayonida axborotni bosqichma-bosqich berish, har bir bosqichda didaktik vositalardan foydalanish va o'qituvchining faol ishtirokini ta'minlash samarali natija beradi.

NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'limda muhim ustuvorlikka ega bo'lsa-da, bu jarayon qator tizimli, metodik va psixologik muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Quyida asosiy muammolar tahlil qilinadi:

1. O'quv-metodik materiallarning yetishmasligi - O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli savodxonlik va axborot kompetensiyasini boshlang'ich bosqichdan shakllantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar va darsliklar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud o'quv adabiyotlarida axborotni izlash, saralash yoki uni tanqidiy tahlil qilish kabi ko'nikmalar yetarli darajada aks ettirilmagan [8]. Aksariyat hollarda bolalar tayyor axborotni yodlash bilan cheklanmoqda, bu esa ularning mustaqil axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirmaydi.

2. O'qituvchilarning malaka va tayyorgarlik darajasi - Ta'lim sifatini oshirishda asosiy omil bu o'qituvchining bilim va malakasidir. Afsuski, ayrim o'qituvchilar axborot texnologiyalaridan foydalanishda, raqamli resurslarni tahlil qilishda yoki o'quvchilarga mustaqil izlanish vazifalarini to'g'ri yo'naltirishda yetarli tayyorgarlikka ega emas [9]. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning to'laqonli joriy etilishini cheklaydi.

3. Ota-onalarning axborot madaniyati pastligi - Ko'plab o'quvchilarning axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishda oilaning roli ham katta. Biroq

ko‘pchilik ota-onalar, ayniqsa yoshi katta avlod vakillari, raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi borasida yetarli bilimga ega emaslar. Natijada, bolalar ko‘pincha noto‘g‘ri manbalardan axborot oladilar, unga tanqidiy yondasha olmaydilar [10].

4. Raqamli tafakkurning shakllanmaganligi - Boshlang‘ich yoshdagi bolalarda raqamli tafakkur (digital thinking) endi shakllanayotgan bo‘ladi. Ularda texnologiyalarni faqat o‘yin vositasi sifatida qabul qilish holatlari ko‘p uchraydi. Bu esa ularning texnologik vositalarni ilmiy izlanish va axborot tahliliga yo‘naltirish qobiliyatini cheklaydi [11].

5. Internetdagi axborotning haddan tashqari ko‘pligi va sifatsizligi - Zamonaviy bolalar ko‘plab axborot manbalariga ega bo‘lsalar-da, ularning sifati va ishonchliligini aniqlash imkoniyati cheklangan. Google, YouTube kabi ommaviy platformalardan foydalanishda bolalar yolg‘on yoki zararli ma’lumotlarga duch kelishlari mumkin. Bu esa axborot bilan ishlash kompetensiyasi uchun xavfli omil bo‘lib xizmat qiladi [12].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan muammolarni samarali hal etish uchun integrallashgan, tizimli yondashuv zarur. Bu jarayonda o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchilarni zamonaviy malakalar bilan qurollantirish, raqamli vositalarni keng joriy qilish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim standartlariga axborot bilan ishlash kompetensiyalarini alohida blok sifatida integratsiya qilish zarur. Bu bo‘yicha Finlandiya, Singapur va Kanada kabi ilg‘or ta’lim tizimlarining tajribasi o‘rganilishi mumkin. Masalan, Finlandiyada boshlang‘ich ta’limda raqamli savodxonlik maktabning umumiy kurikulumi tarkibida joy olgan va barcha fanlarga integratsiyalashgan [13].

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - XXI asrda muvaffaqiyatli ta’lim olish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu kompetensiyani shakllantirish nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, axloqiy yondashuv va kommunikativ madaniyatni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

XULOSA

Maqolada tahlil qilinganidek, O‘zbekiston ta’lim tizimida bu yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, hali hal qilinmagan muammolar mavjud:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

metodik resurslar yetishmasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, ota-onalarning raqamli madaniyati pastligi va internetdagi sifatsiz axborot oqimi shular jumlasidandir.

Tavsiyalar

1. O‘quv dasturlarini yangilash - boshlang‘ich ta’limda axborot bilan ishlash kompetensiyasini alohida modul sifatida integratsiyalash lozim.
2. O‘qituvchilar malakasini oshirish - raqamli va axborot savodxonligi bo‘yicha muntazam treninglar yo‘lga qo‘yilishi zarur.
3. Interaktiv ta’lim metodlarini joriy etish - muammoli vazifalar, loyihalar va media-savod mashg‘ulotlari asosida o‘qitish samarali bo‘ladi.
4. Raqamli vositalarni mahalliylashtirish - o‘zbek tilidagi bolalarga mo‘ljallangan platformalar, o‘yinlar va test tizimlari ishlab chiqilishi kerak.
5. Ota-onalarni jalb qilish - maxsus seminarlar, qo‘llanmalar va onlayn resurslar orqali oiladagi axborot madaniyatini oshirish.

Ushbu chora-tadbirlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish xalqaro darajadagi zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘unlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. *Media and information literacy curriculum for teachers*. Paris: UNESCO Publishing.
2. OECD. *PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do*. OECD Publishing.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives*. Longman. 2001.
4. Vygotsky, L. S. *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press. 1978.
5. Xalq ta’limi vazirligi. *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma*. Toshkent: Yangi asr nashriyoti. 2021.
6. Zaynutdinova, D. T. Boshlang‘ich ta’limda axborot kompetensiyasining rivojlanish bosqichlari. *Ilm va taraqqiyot*, 4(29), 78–84. 2022.
7. National Research Council. *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School*. Washington, DC: The National Academies Press. 2000.
8. Anderson, T., & Dron, J. Learning technology through three generations of technology enhanced distance education pedagogy. *European Journal of Open, Distance and E-Learning*, 15(2), 67–77. 2012.

9. Yo‘ldashova, L. R. Raqamli kompetensiyalar: O‘qituvchilar uchun xalqaro standartlar asosida baholash. *Axborot texnologiyalari va ta’lim*, 2(5), 33–40. 2021.
10. Livingstone, S., & Helsper, E. Gradations in digital inclusion: Children, young people and the digital divide. *New Media & Society*, 9(4), 671–696. 2007.
11. Azizov, B. B. Raqamli tafakkur va boshlang‘ich ta’limda uning o‘rni. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari*, 1(3), 14–20. 2023.
12. Common Sense Media. (2020). *The Common Sense Census: Media Use by Tweens and Teens, 2019*.
13. Finnish National Agency for Education. *New national core curriculum for basic education: Focus on school culture and integrative approach*. Helsinki: EDUFI. 2016.

INTERAKTIV VIZUAL TA'LIM VOSITALARI ORQALI O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sulaymonova Saodat Usubxonovna
Namangan davlat pedagogika instituti
Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: *Maqolada interaktiv vizual ta'lim vositalarining o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Ekologik tarbiyaning bugungi davrdagi dolzarbligi ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni talab qilayotgani asoslab beriladi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv vizual ta'lim vositalari (multimedia resurslari, raqamli xaritalar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar va infografikalar) orqali ekologik bilimlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asosda o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *interaktiv ta'lim, vizual vositalar, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, ekologik ong, ta'lim texnologiyalari, raqamli didaktika, atrof-muhitni muhofaza qilish, innovatsion ta'lim metodlari, o'quv jarayoni.*

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ВИЗУАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ КАК ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ

Сулаймонова Саодат Усубхоновна
Наманганский государственный педагогический институт
Доцент кафедры креативной педагогики и психологии
Кандидат педагогических наук (PhD)

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические основы формирования экологической культуры учащихся с использованием интерактивных визуальных средств обучения. Обосновывается актуальность экологического воспитания в современных условиях, требующих инновационных подходов в образовательной системе. С этой точки зрения научно обосновываются возможности повышения эффективности экологических знаний через использование интерактивных визуальных средств (мультимедийных ресурсов, цифровых карт, анимаций, виртуальных лабораторий и инфографики).*

Ключевые слова: *интерактивное обучение, визуальные средства, экологическая культура, экологическое воспитание, экологическое сознание, образовательные технологии, цифровая дидактика, охрана окружающей среды, инновационные методы обучения, учебный процесс.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' ECOLOGICAL CULTURE THROUGH INTERACTIVE VISUAL EDUCATIONAL TOOLS

Sulaymonova Saodat Usubkhonovna
Namangan State Pedagogical Institute
Associate Professor, Department of Creative Pedagogy and Psychology
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Abstract*: This article analyzes the theoretical foundations of developing students' ecological culture through interactive visual educational tools. The urgency of ecological education in the modern era is substantiated by the need for innovative approaches in the education system. From this perspective, the scientific potential of using interactive visual educational tools (multimedia resources, digital maps, animations, virtual laboratories, and infographics) is examined for enhancing the effectiveness of ecological knowledge. The study justifies the relevance of integrating such tools to form a deep ecological consciousness and awareness among students within the framework of contemporary didactic models.*

Keywords*: interactive education, visual tools, ecological culture, ecological education, ecological awareness, educational technologies, digital didactics, environmental protection, innovative teaching methods, learning process.*

KIRISH

XXI asr globallashuv jarayonlari, ekologik muammolarning keskinlashuvi va insoniyatning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatining o‘zgarishi fonida ekologik madaniyat masalasini zamonaviy ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishiga aylantirmoqda. Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu ekologik xavfsizlikni ta’minlash, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatda barqarorlikka erishish, ekologik ongni shakllantirish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirishdir. Ayni maqsadga erishishda ta’lim tizimining roli nihoyatda muhimdir, ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv vizual ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarda ekologik qadriyatlar va ongli ekologik xulq-atvorni shakllantirish jarayoni alohida e’tiborga loyiqdir[1]. Bugungi statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yer yuzida har yili 13 million gektar o‘rmon yo‘q qilinadi (BMT Atrof-muhit dasturi, 2024), suv resurslarining 40 foizi ifloslangan (Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti, 2023), dunyo aholisining 90 foizdan ortig‘i ifloslangan havoda nafas olmoqda[2]. O‘zbekiston misolida oladigan bo‘lsak, Davlat statistika

qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda mamlakat hududida 5,2 million tonna maishiy chiqindilar to‘plangan bo‘lib, ularning atigi 24 foizi qayta ishlangan, qolgan qismi esa ochiq poligonlarga tashlangan. Bu holat ekologik ta’lim va tarbiyani yana-da chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “Ekologik ta’lim va tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarorida ekologik ta’limni barcha bosqichlarda mustahkamlash, o‘quv dasturlariga ekologik komponentlarni keng joriy etish, shuningdek, innovatsion pedagogik vositalardan foydalanish zarurligi alohida ta’kidlangan[3]. Mazkur qaror asosida o‘zgarayotgan ta’lim jarayoni interaktiv va vizual texnologiyalar asosida tashkil etilmoqda, bu esa o‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirishda yangi yondashuvlarga ehtiyoj tug‘diradi. Interaktiv vizual ta’lim vositalari deganda, o‘quvchilarning e’tiborini jalb etishga, ularning aqliy, hissiy va estetik qamrovini kengaytirishga xizmat qiluvchi didaktik texnologiyalar nazarda tutiladi. Jumladan, raqamli xaritalar, virtual laboratoriyalar, 3D modellashtirish, infografikalar, animatsion roliklar, interaktiv taqdimotlar, ekologik o‘yinlar kabi vositalar orqali bilim berish o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ekologik mas’uliyat va faollikni ham shakllantirish imkonini beradi. Bu vositalarning ta’limdagi o‘rni nafaqat axborot yetkazish bilan cheklanmay, balki o‘quvchining shaxsiy dunyoqarashi, ijtimoiy va axloqiy qarashlariga ham ta’sir o‘tkazadi[4]. Zamonaviy o‘quvchi axborotga boy, texnologiyaga asoslangan muhitda kamol topmoqda. Shu sababli ham an’anaviy dars usullarining o‘zi bilan ekologik qadriyatlarni singdirish yetarli bo‘lmay qolmoqda. Bu holatda interaktiv vizual vositalar o‘quvchilarni faol ishtirokchi, tajriba qiluvchi, baholovchi, yechim topuvchi sifatida shakllantiradi. Masalan, virtual realitet texnologiyalari yordamida o‘quvchilar Arktika muzliklarining erishini, o‘rmonlar yo‘q qilinishi oqibatlarini yoki atmosfera ifloslanishining ko‘lamini bevosita “his qilish” imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday tajribalar ekologik madaniyatni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Fan va texnologiya taraqqiyoti natijasida pedagogik faoliyatda vizual komponentlar kuchaymoqda. 2022-yilgi "UNESCO Global Education Monitoring Report"da ta’kidlanishicha, interaktiv vizual vositalar bilan boyitilgan darslar o‘quvchilarning mavzuni anglash darajasini 35–40% ga oshirgan[5]. Shu bilan birga, ekologik

mazmundagi interaktiv resurslar yordamida o‘quvchilar o‘rtasida ekologik muammolarga nisbatan befarqlik kamaygan va ekologik mas’uliyat hissi 60% hollarda oshgani kuzatilgan. Bu esa bevosita interaktiv ta’lim usullarining samaradorligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda “Yashil maktab”, “Ekologik dars”, “Yosh ekologlar klubi” kabi tashabbuslar orqali maktab o‘quvchilari o‘rtasida ekologik savodxonlikni oshirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda[6]. Biroq, ushbu tashabbuslarning barqaror ta’limiy tizimga aylanishi uchun nazariy-metodik asoslarni ishlab chiqish, ayniqsa, interaktiv va vizual texnologiyalarni samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Interaktiv vizual ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi bugungi zamonaviy pedagogik ilm-fan doirasida ko‘plab olimlar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida chuqur o‘rganilmoqda. Jumladan, xalqaro miqyosda ushbu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar ichida amerikalik olim **Richard E. Mayer** va finlandiyalik tadqiqotchi **Juha Kettunen**ning ilmiy ishlari alohida ajralib turadi. Ularning tadqiqotlari interaktiv ta’lim texnologiyalarining didaktik mohiyati, vizual vositalarning bilim olish jarayonidagi psixologik samaradorligi va ekologik ongni shakllantirishdagi roli haqida fundamental nazariy va empirik dalillarni taqdim etadi. Mayerning "Multimedia Learning" [7] asari bugungi kunda interaktiv vizual ta’lim vositalarining kognitiv samaradorligini tahlil etuvchi eng muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. U multimedia o‘rganish nazariyasi asosida ta’lim jarayonida grafik va vizual elementlarning mantiqiy integratsiyasi orqali axborotni idrok etish darajasining keskin oshishini ilmiy asoslab bergan. Mayerga ko‘ra, bilimlar faqat matn yoki faqat tasvirlar orqali emas, balki multimodal (ya’ni eshitish, ko‘rish va o‘zaro ta’sirlashuv) vositalar bilan birgalikda taqdim etilgandagina o‘quvchida chuqur tushunish hosil qiladi. Ayniqsa, ekologik ta’lim singari ko‘p qirrali va murakkab kontseptlarni tushuntirishda interaktiv grafikalar, 3D modellar, simulyatsiyalar va animatsiyalarning didaktik roli nihoyatda kuchli ekanligi Mayer tomonidan bir necha laborator tadqiqotlar orqali isbotlangan. Ushbu nuqtai nazardan qaralganda, ekologik madaniyatni shakllantirishda Mayer ilgari surgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yondashuvlar O‘zbekiston maktab tizimida joriy qilinayotgan yangi o‘quv modellariga muvofiq tushadi, chunki ular kognitiv yuklama nazariyasiga tayanadi va o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos ravishda vizual axborot taqdimotini taklif etadi. Boshqa tomondan, fin olimi **Juha Kettunen** o‘zining bir necha tadqiqotlarida [8] raqamli ta’lim muhiti va ekologik savodxonlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil etgan. Uning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, raqamli vositalar bilan boyitilgan ta’lim muhiti – bu ekologik kontseptlarni faqat eshitish va o‘qish orqali emas, balki real hayotiy kontekstda, faol ishtirok va baholash orqali anglashni ta’minlaydi. Ayniqsa, interaktiv o‘quv platformalari, masalan, virtual laboratoriyalar, ekologik muammolarni modellashtiruvchi o‘yinlar, geografik axborot tizimlariga asoslangan xaritalar (GIS), hamda sun’iy intellektga asoslangan muhitlar orqali o‘quvchilar ekologik muammolarni vizual ravishda idrok etish, sabab-oqibat tahlilini o‘rganish va o‘z qarorlarini asoslab bera olish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Kettunen shuningdek, ekologik savodxonlikni shakllantirishda “aktiv ishtirok” va “interaktiv didaktika” prinsiplarini asosiy poydevor sifatida belgilaydi. Uning fikricha, zamonaviy o‘quvchilar faqat passiv ma’lumot qabul qiluvchilar emas, balki raqamli muhitda o‘zining axborot oqimini boshqaruvchi, tanlov qiluvchi va mas’uliyatli subyektlar sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, ekologik muammolar bilan bog‘liq ko‘rgazmali manzaralarni (masalan, o‘rmonlarning kesilishi, iqlim o‘zgarishi, chiqindilar bilan ifloslanish jarayonlari) bevosita ko‘rish orqali o‘quvchida empatik hissiyotlar, ijtimoiy javobgarlik va ekologik qadriyatlar chuqurlashadi. Bu esa ekologik madaniyatni shakllantirishning eng barqaror mexanizmlaridan biridir. Mazkur ikki olimning tadqiqotlari umumiy tarzda shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim jarayonida interaktiv vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat bilim va tushunchalarni shakllantiradi, balki ularni hayotiy muammolarga nisbatan faol munosabatda bo‘lishga, ekologik axloqni namoyon etishga undaydi. Mayerning kognitiv asoslangan multimedia nazariyasi bilan Kettunenning sotsiopedagogik yondashuvi bir-birini to‘ldiradi hamda ekologik ta’limga kompleks yondashuv zarurligini isbotlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolada interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonining nazariy asoslarini aniqlashda zamonaviy pedagogik tadqiqot metodologiyasining kompleks yondashuvi asos qilib olindi, xususan, metodologik asos sifatida sistemali tahlil, komparativ (taqqoslama) tahlil, empirik kuzatuv, pedagogik eksperiment va diagnostik baholash metodlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda qo‘llanildi; sistemali tahlil yordamida ekologik ta'lim va madaniyatga oid ilg‘or xorijiy va mahalliy ilmiy nazariyalar tahlil qilinib, ular asosida ekologik madaniyatni shakllantirishning ko‘p bosqichli va ko‘p komponentli modeli ishlab chiqildi, komparativ tahlil orqali interaktiv vizual vositalarning an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan ustun jihatlari aniqlanib, ularning didaktik samaradorligi asoslab berildi, empirik kuzatuv orqali maktab o‘quvchilarining ekologik ong va xatti-harakatlaridagi mavjud holatlar o‘rganilib, zamonaviy interaktiv vositalar ta'sirini kuzatishga imkon beruvchi faktik materiallar to‘plandi, pedagogik eksperiment metodidan foydalanilib, interaktiv vizual vositalar bilan boyitilgan ta'lim jarayoni o‘quvchilar ekologik madaniyatining rivojlanishiga qanday ta'sir ko‘rsatishi amaliy sinovdan o‘tkazildi, diagnostik baholash metodi orqali esa o‘quvchilarning ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlar darajasi maxsus tuzilgan test, so‘rovnoma va baholovchi jadval vositasida tahlil qilinib, tadqiqot samaradorligi raqamli ko‘rsatkichlar orqali ifodalandi; natijada ushbu metodlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida ekologik madaniyatni rivojlantirishda interaktiv vizual vositalarning ilmiy asoslangan, psixologik-pedagogik jihatdan samarali yondashuv ekanligi isbotlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan nazariy tahlillar, empirik kuzatuvlar va pedagogik eksperimentlar asosida shuni ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, interaktiv vizual ta'lim vositalaridan kompleks va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning ekologik ongini chuqurlashtirish, ekologik tafakkurini rivojlantirish, tabiatga nisbatan axloqiy mas'uliyat hissini shakllantirish hamda ekologik qarorlar qabul qilish layoqatini mustahkamlashda yuqori darajada samarali ekanligi isbotlandi, xususan, virtual laboratoriyalar, ekologik infografikalar, multimedia simulyatsiyalari va interaktiv

xaritalar bilan boyitilgan ta'limiy faoliyat natijasida o'quvchilarning ekologik bilimlari 37 foizga, ekologik xatti-harakatlarining ijobiy ko'rsatkichlari esa 42 foizga oshgani aniqlandi, bundan tashqari, raqamli vizual muhitda amalga oshirilgan ekologik tajriba va modellashtirish mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning ekologik savodxonlik darajasi va ijtimoiy faolligi yuqori motivatsiya bilan uyg'unlashgan holda ortgani qayd etildi, bu esa interaktiv vositalarning nafaqat kognitiv, balki affektiv va aksiologik komponentlar asosida ekologik madaniyatni shakllantirishdagi universal vosita sifatidagi didaktik ahamiyatini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi global ta'lim muhitida keng qamrovli ilmiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Xususan, ushbu masalada amerikalik kognitiv psixolog **Richard E. Mayer** va britaniyalik ta'limshunos **John Hattie** o'rtasidagi metodologik yondashuvlar farqi ilmiy jamoatchilik doirasida polemik va diskursiv munosabatlarni yuzaga keltirmoqda. Mayer [9] o'zining multimedia o'rganish nazariyasida interaktiv vizual vositalarning ta'lim jarayonidagi kognitiv yuklamani kamaytirish, axborotni mantiqiy bloklar asosida qayta ishlash va o'quvchining idrok etish faoliyatini kuchaytirishdagi rolini asoslab bergan. Uning fikricha, ayniqsa ekologik fanlarda murakkab tizimli tushunchalarni tushuntirishda tasviriy modellar, animatsiyalar va raqamli simulyatsiyalar yordamida o'quvchining o'rganish jarayonidagi "ko'rinmas tushunmovchiliklar" aniqlanadi va o'z vaqtida bartaraf etiladi. Mayer nazariyasiga ko'ra, ekologik madaniyatning shakllanishi o'quvchining ichki kognitiv strukturalari orqali sodir bo'ladi va bu jarayonni maksimal darajada samarali tashkil etish uchun multimodal o'quv resurslaridan foydalanish muhimdir. Biroq, John Hattie ushbu yondashuvga nisbatan ehtiyotkorona yondashadi. Uning "Visible Learning" [10] kontseptsiyasida interaktiv vositalarning o'zi emas, balki ularning qanday metodik kontekstda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'riladi. Hattiening fikricha, ta'limda texnologiyalar vosita sifatida taqdim etilganda, ular faqatgina didaktik maqsadlarga muvofiq holda integratsiyalashgan taqdirdagina ijobiy natija beradi. Uning empirik tahlillariga ko'ra, texnologiyalarning izchil qo'llanilishi bo'lmagan

holatlarda o‘quvchilarning e’tiborini chalg‘itish, bilimlarning yuzaki idrok qilinishi va kognitiv segmentatsiyaning sustligi kabi salbiy holatlar kuzatilgan. Hattie, Mayerning nazariy yondashuviga qarshi turib, ekologik madaniyat singari qadriyatga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatida texnologiyalar o‘quvchining refleksiv tafakkuri va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga emas, balki ba’zan passiv vizual qabulga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi.

XULOSA

Maqolada interaktiv vizual ta’lim vositalarining o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdagi nazariy asoslari chuqur tahlil qilinib, ushbu vositalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy asosda asoslab berildi. O‘quvchilarda ekologik ong va mas’uliyatni rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari keng ekanligi ta’kidlandi. Interaktiv vizual materiallar orqali ekologik bilimlarni yanada tushunarli, qiziqarli va samarali tarzda yetkazish mumkinligi aniqlanib, bu uslubning ta’limga innovatsion yondashuv sifatida qaralishi zarurligi asoslab berildi. Shu boisdan, ekologik tarbiya jarayonida vizual interaktiv vositalardan kompleks foydalanish o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Nazarov M. Inson qadriyatlari tizimida ekologik axloq va madaniyat //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – Т. 4. – №. 11. – С. 132-135.
2. O. D. Yunusboy o’g et al. Yoshlar orasida ekologik madaniyatni oshirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ahamiyati //" yurt faxri". – 2025. – т. 1. – №. 1.
3. Абдуназарова З. Х. Tabiiy Fanlarni O ‘Qitishda O ‘Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O ‘ziga Xos Xususiyatlari //Inter education & global study. – 2024. – №. 3. – С. 123-129.
4. Mamaxonova J. BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARDA EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 584-587.
5. Abdumalikov A. JAMIYATDA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING SHAXS EKOLOGIK MADANIYATI YUKSALISHIDAGI ROLI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 2. – С. 54-54.
6. Madrahimova Z. N. et al. INTEGRATSIYALASHGAN DARS O ‘QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Inter education & global study. – 2024. – №. 10 (1). – С. 155-160.

7. Ilyasovna A. S., Tolmasjon Q., Fazliddin S. EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 36-41.
8. N. M.Abduqodirovich Yoshlarda ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari //Eurasian Journal of Academic Research. – 2025. – Т. 5. – №. 4. – С. 112-120.
9. Omonov B. N. O ‘zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari //Философия и право. – 2024. – Т. 28. – №. 2. – С. 41-43.
10. Ергашбаев Ш. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI MUSTAQIL TA'LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH

G'ofurova Ma'mura Rashidovna
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: *maqolada oliy ta'lim tizimi talabalarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni, bu boradagi ilmiy manbalar sharhi, mustaqil ta'lim nafaqat bilim olish vositasi, balki talabalarning ijodiy fikrlashini, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradigan muhim omil ekanligi, o'quv davrining umumiy hajmi va mustaqil ta'lim soatlarining berilishi, mustaqil ishlashning asosiy mezoni, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish masalalari yoritiladi.*

Tayanch so'zlar: *mustaqil ish, mustaqil ishlash kompetensiyasi, mustaqil ta'lim, talabalar ijodiy fikrlashi, o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim soatlarining berilishi, mustaqil ishlashning asosiy mezoni, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ

Ғофурова Маъмура Рашидовна
Самостоятельный исследователь

Аннотация: *в статье освещаются вопросы совершенствования методики развития компетенции самостоятельной работы студентов системы высшего образования, даётся обзор научных источников по данной теме, подчёркивается, что самостоятельное обучение является не только средством получения знаний, но и важным фактором формирования у студентов творческого мышления и навыков самосовершенствования. Также рассматриваются соотношение общего объёма учебного времени и часов, выделяемых на самостоятельное обучение, основные критерии самостоятельной работы и вопросы эффективной организации самостоятельного обучения.*

Ключевие слова: *самостоятельная работа, компетенция самостоятельной работы, самостоятельное обучение, творческое мышление студентов, саморазвитие, распределение часов на самостоятельное обучение, основной критерий самостоятельной работы, эффективная организация самостоятельного обучения*

DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE THROUGH INDEPENDENT LEARNING

Gofurova Mamura Rashidovna
Independent researcher

Annotatsion: *the article highlights the issues of improving the methodology for developing students' independent work competence in the higher education system, provides a review of scientific sources on this topic, and emphasizes that independent learning is not only*

a means of acquiring knowledge but also an important factor in fostering students' creative thinking and self-development skills. It also examines the correlation between the total study load and the number of hours allocated to independent learning, the main criteria of independent work, and the issues of effective organization of independent learning.

Key words: *independent work, competence of independent work, independent learning, students' creative thinking, self-development, allocation of hours for independent learning, main criterion of independent work, effective organization of independent learning*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xalqaro miqyosda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganligi Oliy ta'lim tizimi talabalarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni hamda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali erkin va teran fikrlaydigan yetuk kadrlarni yetishtirishni talab qilmoqda. Oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak kadrlarni yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ham ruhan, ham jismonan, ham aqlan sog'lom muhitni tashkil etish, so'nggi texnologiyalardan samarali foydalanish, mustaqil ishlashni ta'minlash, mustaqil fikr yurita oladigan qilib tarbiyalashga sharoit, imkoniyatlar yetarli darajada islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayonga oid yurtimizda bir qator qarorlar, farmonlar chiqarilib, e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20019-yil 8-oktabrdagi PF-5748-son farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul sharoitiga o'tkazish hamda talabalarga mustaqil fikrlashga undovchi strategiyalarni tadbiq qilish ko'zda tutilgan. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy manbalarda talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud. N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasalarida dars jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning yosh, qiziqish va layoqatini inobatga olish muhimligini ta'kidlagan.[2] Tadqiqotchi M.Y.Sobirova mustaqil ishni quyidagicha ta'riflaydi: "Talabalarning auditoriyada va auditoriyadan tashqarida amalga oshiradigan individual va guruhli kognitiv faoliyatining har xil turlari."[3] Tadqiqotchi T.B.Isakova izlanishlari natijasida olimlarning mustaqil ish haqidagi bildirgan fikrlarini umumlashtirgan holda

quyidagicha tahlil qiladi: [4] "Danilov M.A., Nilson O.A., Usova A.V. va boshqalar mustaqil ishlashni bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatining bir turi deb hisoblashsa; Y.G.Gendler, B.P.Esipov, A.S.Linda va boshqalar mustaqil ishni individual, guruhli va frontal bilish faoliyatini tashkil etish deb tushunadilar; A.M.Lushnikov "mustaqil ishning maqsadi – individual izlanishlar yordamida o'z bilimlarini chuqurlashtirish va konkretlashtirish, o'rganilayotgan muammoga ijodiy yondashish, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini ko'rsatish, o'qiganlarini tahlil qilish, tizimlashtirish qobiliyatidir" deb talqin qilinadi.

Mustaqil ta'lim nafaqat bilim olish vositasi, balki talabalarning ijodiy fikrlashini, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradigan muhim omildir. S.Sharipov o'z ilmiy ishlarida talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda mustaqil ta'limning quyidagi ikki muhim vazifasini ajratib ko'rsatadi:

1. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish: Bu vazifa talabalarning bilim olishga intilishini, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki uni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va yangi g'oyalar yaratishga o'rganadi.

2. Bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish: bu vazifa talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda mustaqil ravishda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan."[5]

Mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishda eng yaqin rivojlanish zona (ZPD) ta'lim psixologiyasidagi tushunchasi ham asosiy rol o'ynaydi. Yasnitskiy talabalar qo'llab-quvvatlanmasdan qila oladigan va hatto qo'llab-quvvatlasa ham, qila olmaydigan narsalar o'rtasidagi bo'shliqni ifodalashi to'liq ishlab chiqilmaganligini ilmiy izlanishlarida yoritgan.[6]

Tadqiqotchi E.N. Payzullayev o'zining izlanishlarida mustaqil ish haqida R.M.Mikelsonning ta'rifini keltirib o'tgan. "Mustaqil ish bu talabalarning hech kimning yordamisiz faqat o'qituvchi nazorati ostida bajaradigan topshiriqlar yig'indisidir hamda qiyinchilik tug'ilganda jamoaviy mashqlarga o'tishi mumkin bo'lgan ish turidir."[7]

Metodist olima M.Y.Sobirova mustaqil ish talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakli ekanligini va uning xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatadi:

1. Maqsadning mavjudligi.
2. Muayyan vazifa.
3. Ish natijasini aniq ifodalash shakli.
4. Natijani tekshirish shaklini aniqlash.
5. Har bir talaba tomonidan ishni majburiy bajarish . [8]

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim turlari tarbiyaviy ishlarning asosiy qismlaridan biridir. Bunda uzluksiz ta'lim olish jarayonini shakllantirishda mustaqil ta'lim faoliyati asos bo'ladi, biroq mustaqil ta'lim jarayonida ishlash, o'qituvchi (uni tashkil etish va natijalari bo'yicha) nazoratining yo'qligini anglatmaydi. "Mustaqil ishlash talabalarning kompetensiyalarini, o'zlashtirishdagi faoliyatini anglatadi, bu pedagogning bevosita rahbarligi ostida bo'lmasa ham amalga oshiriladi." [9] D.Sarimsakova ilmiy izlanishlari natijasida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif bergan: "Mustaqil ish – kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning o'z tashabbusi bilan bajariladigan mustaqil faoliyatdir. Mustaqil ta'lim – talabaning, ya'ni mutaxassisning mustaqil o'qib-o'rganishga nisbatan fan o'qituvchisi tomonidan bir qadar tizimlashtirilgan va izchil tashkil etiladigan harakatlarga asoslanadi."[10] I.A.Zimnyaya tadqiqotida bir qator tushunchalarning birlashtirilishi natijasida: "Mustaqil ta'lim maqsadli, ichki motivlangan, subyektning o'zi tomonidan amalga oshirilish va tuzatish harakatlari sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan natijadir"[11] – deb ta'rif bergan.

Mustaqil ishlash – bu o'quv muassasalaridan tashqarida egallanadigan ta'limot, u o'z xohishi bo'yicha ishlash davomida amalga oshiriladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida mustaqil ishini tashkil etishni takomillashtirishda ajratilgan o'quv soatlarining 40% gacha mustaqil soatlar ajratilgan. A.J.Janaberganovna "Mustaqil ishlash-o'qituvchi yordamisiz ta'lim muassasasidan tashqari jarayonda bilimlarni egallash"[12] deb ta'rif bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada oliy ta'lim tizimi talabalarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni, bu boradagi ilmiy manbalar sharhi, mustaqil ta'lim nafaqat bilim olish vositasi, balki talabalarning ijodiy fikrlashini, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradigan muhim omil ekanligi, o'quv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

davrining umumiy hajmi va mustaqil ta'lim soatlarining berilishi, mustaqil ishlashning asosiy mezoni, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish masalalari yoritiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Avvalo, mustaqil ishlash deganda Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar darsdan tashqaridagi soatlarni mustaqil o'qib, kerakli bilimlarni mustaqil o'rganish jarayoni hisoblanadi. Mustaqil ta'limni turli xil atamalar bilan ingliz tilini o'zida ham nomlar berilgan. Ular "self-access work", "self-directed learning, "autonomous learning", "independent work" and "learner-training" deb nomlanib, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, mustaqil o'rganish, o'z yo'lida mustaqil o'qish, o'rganish mashg'uloti ma'nolarida ham kelishi mumkin.

Hozirgi ta'lim tizimida yosh avlodning ijodiy salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda talabalarning mustaqil ta'lim olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba o'rgangan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olgandagina, ular amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta'limning har bir bosqichida o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini shu jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirishlari zarur. Shuning uchun o'qituvchilardan o'quvchilarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'rganuvchilarda motivatsiya ruhiyatini shakllantirish lozimligini e'tirof etiladi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki, sirtqi, maxsus sirtqi) o'qish shakli uchun kreditlar miqdori kunduzgi o'qish shakli kreditlariga mos qilib olinadi. O'quv davrining umumiy hajmi va mustaqil ta'lim soatlari quyidagicha taqsimlanadi *(1-jadvalga qarang).*

1-jadval. O'quv davrining umumiy xajmi taqsimlangan va mustaqil ta'lim soatining nisbati auditoriya soatiga teng yoki 1,5 barobar ko'proq ajratilishi

O'quv davrlari	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasidan tashqari barcha ta'lim sohalari uchun, %	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi uchun, % hisobida

Nazariy va amaliy ta'lim	40 — 65	50 — 70
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil	40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha	

Attestatsiya	6 — 15	8 — 15
Ta'til	8 — 21	10 — 18
Malaka amaliyoti	6 — 25	6 — 20
Bitiruv malakaviy ishi	2 — 7	2 — 5

Kredit-modul sharoitida "Ifodali o'qish va nutq madaniyati" fanining taqsimoti tahlilini yuqorida berilgan ma'lumotlarni asoslash mazmunida hamda bu fandan berilgan topshiriqlarni bajarishda talabalarda ko'proq mustaqil ishlashga ehtiyoj sezilganligi bois ushbu fan modulini soatlar va kredit taqsimotini amaliyotdagi holati tahlilini quyida berdik. *(2-jadvalga qarang).*

2-jadval "Ifodali o'qish va nutq madaniyati" fanining 2024-2025- o'quv yilidagi ishchi o'quv dasturi

Fan nomi:	Ifodali o'qish va nutq madaniyati
Semestr:	2
Ta'lim shakli:	Kunduzgi

Semestrga ajratilgan soatlar:	120
Ma'ruza mashg'ulotlar	20
Amaliy mashg'ulotlar	20
Seminar mashg'ulotlar	20
Mustaqil ta'lim	60
Haftalik auditoriya soati:	4
Kredit miqdori:	4

Kredit-test (kreditno-zachetnaya sistema) va ta'limning reyting tizimi o'rtasidagi farqni tadqiqotchi Zaripov Lochin o'zining ilmiy ishida tahlil qilgan. Unga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko'ra fanda o'rganishni muvaffaqiyatli tugatgan talabalar shu fan uchun ajratilgan kreditlar sonini oladi. Ular ushbu kreditlardan keyingi o'qish uchun bakalavr yoki magistratura yo'nalishlarida foydalanadilar. Talabalar erishgan yutuqlarini baho bilan belgilanadi va bu kredit o'quv jarayonining tuzilishini ko'rsatadi, lekin talabaning bilim darajasini bildirmaydi.[13] Kredit faqat ma'lum bir fanga sarflangan vaqtni ko'rsatadi va bu shaxsning ushbu fanni tushunishi yoki qiyinligi bilan bog'liq emas. Talaba kursni muvaffaqiyatli topshirgan taqdirdagina tegishli miqdorda kredit oladi. Hujjatlardagi, hemis platformasida ball diplomga qo'shimcha olingan kreditlar miqdori bilan parallel ravishda ko'rsatiladi. Kredit-modul sharoitining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Ta'lim jarayonlarini modul asosida tashkil qilish, bitta kurs, fan (kredit)ning qiymatini aniqlash;

talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;

talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini, mustaqil ta'limni qaysi vaqtda qilishni individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;

o'quv dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish kiritish .

Kredit-modul tizimiga o'tilganda quyidagi muhim tamoyillar orqali ta'lim jarayonida yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. Tadqiqotchi Sh.Xolmatov o'zining ilmiy ishlarida "Talabaga yo'natirilganlik; mustaqil ta'limning ustuvorligi; akademik almashinuvchanlik; modullilik; baholashning shaffofligi" kabi tamoyillarni taqdim etgan."[14] Bu shuni anglatadiki, kredit-modul sharoitida o'qituvchi asosan faqat ta'lim berish bilan shug'ullanadi. "O'qituvchining o'zi o'qitib – o'zi baholash" usuli bugungi kunda oliy ta'limda foydalanilmayapti. Baholashni esa tayinlangan komissiya a'zolari amalga oshiradi. Ya'ni pedagoglar "lektor" va "tyutor"larga ajratiladi. Lektor – nazariy bilim beradi, tyutor – nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi. Tyutor talabalarni imtihonga tayyorlaydi. Imtihonni esa komissiya qabul qiladi. Baholash faqatgina natijalarni aniqlash emas, balki o'rganish, o'sish va takomillashish uchun muhim vositadir.

O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimida ham kredit-modul sharoitiga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Buning natijasida nafaqat talabalar, o'qituvchilar ham mustaqil ravishda platformada internet orqali ishlashlariga olib keladi. Kredit-modul sharoitida talabalarning ishlashidagi muammolardan biri bu, bilimni o'zlashtirish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanmaganligidadir. Buning sabablaridan biri maktabda, litsey, kollejlarda ta'lim olayotgan talabgor ko'proq o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlagan. Buning natijasida mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ko'nikma rivojlanganlik darajasi sustroqdir. Yana boshqa tarafdan, talaba fanga bo'lgan qiziqishining sustligi, motivatsiya y e tishmasligi, mustaqil izlana olmasligi, ya'ni kerakli adabiyotlarni topa olish ko'nikmasi rivojlanmaganligi yoki qaysi berilgan ma'lumot haqiqiy, qaysi birlarida ishonish qiyin bo'lgan informatsiyalarning borligini ajrata olmaslik qobiliyati, vaqtini to'g'ri taqsimlay olmasligidir.

Kredit-modul sharoitida ishlashning asosiy qismlaridan biri bu talabalarning mustaqil ta'limi hisoblanadi. Tadqiqotchi psixolog olim B.Blumning qo'llanmalarida Blum taksonomiyasining har bir bo'limi mustaqil o'qish, mustaqil ta'limni rivojlantirishga qaratilgan o'quv maqsadlarining murakkablik va o'ziga xoslik darajalariga tasniflash uchun foydalaniladigan uchta ierarxik modellar to'plamiligini oydinlashtirgan. Ushbu uchta ro'yxat kognitiv, affektiv va psixomotor sohalardagi o'quv maqsadlarini qamrab oladi. Kognitiv sohada an'anaviy ta'limning asosiy yo'nalishi bo'lib kelgan va ko'pincha o'quv maqsadlari, baholash va o'quv dasturlarini shakllantirish uchun ishlatiladi. Shu o'rinda Blum taksonomiyasini mustaqil ta'lim oluvchilarning oldilariga qo'ygan maqsadlari sari turli xildagi murakkablik darajasida erishishlari uchun asos sifatida olingan materiallarni, bilimlarni ko'rsatish mumkin. G.H.Qo'ysinova o'zining ilmiy ishlarida taksonomiyani mustaqil ta'limga aloqadorligini bayon qilgan va taksonomiya atamasi yunoncha taxis (tartib bo'yicha joylashuv) nomos qonun so'zlaridan olingan bo'lib, ob'ektlarni o'zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish ma'nosini anglatadi deb izohlagan.[15]

Talabalar bilim ko'nikmalarini rivojlantirishlari uchun qanday mustaqil o'rganuvchi bo'lish qobiliyatlarini rivojlantirish, qanday mustaqil ishlash bo'yicha

o'rgangan bilim, orttirgan tajribalar asosida kerakli modellar ishlab chiqildi. Hozirgi baholash tizimida oraliq, yakuniy fanlarga ballar beriladi, lekin mustaqil ta'limda bajargan topshiriqlarga kerakli ball berilmagani bois ko'p talabalar auditoriyadagi mustaqil fanlar bilan cheklanib qolishyapti va bu ta'lim uchun alohida baholash tizimi ishlab chiqilishi zarurligini bildiradi.

Bizning fikrimizcha, mustaqil ish o'quv faoliyatining shunday yo'liki, talabaga o'quv topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq berilganda, mustaqil ish o'qituvchining rahbarligi ostida, lekin uning ishtirokisiz amalga oshiriladi va uni amalga oshirish talabadan ma'lum ma'noda ruhiy stressni talab qiladi. Mustaqil ishlashning asosiy mezoni talabalar tomonidan kognitiv vazifalarni, muammoli vaziyatlarni hal qilishdir. SHuningdek, vazifa talabalarni mustaqil ishlashga undaydi, ularning fikrlash jarayonining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. [16] M.Y.Sobirova "kognitiv vazifani hal qilish jarayoni uning mazmuni, o'quvchining aqliy faoliyati usullari va unga mavjud bo'lgan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Faqat uning alohida bosqichlariga vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quvchilar oldidagi vazifani aniq shakllantirish mustaqil ishni tashkil etishdan muvaffaqiyatga olib keladi" – degan fikrlarni aytib o'tadi.[17] A.I.Zimnyaya ilmiy ishlarida talabaning mustaqil ishi uning darsni to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati natijasi ekanligi, uni bo'sh vaqtlarida mustaqil ravishda kengaytirish, chuqurlashtirish va davom e ttirishga turtki e kanligi qayd etilgan. Ushbu tadqiqotchi mustaqil ishni quyidagicha ta'riflagan: "ob'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilgan va faoliyat jarayoni va natijasiga ko'ra tuzatilgan harakatlar yig'indisida tuzilgan maqsadli, ichki motivatsiyadir. Uni amalga oshirish yetarli darajada yuqori darajadagi o'z-o'zini anglash, reflekslik, o'z-o'zini tarbiyalash, shaxsiy mas'uliyatni talab qiladi, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi bilish jarayoni sifatida talabaga qoniqish beradi."

O'qituvchining vazifasi nafaqat o'zining tarbiyaviy harakatlar natijasini, balki uni talabalari orasida yangi o'quv vazifalarini hal qilish jarayonida o'quv fanini o'zlashtirishning ma'lum bir sxemasi sifatida ongli ravishda shakllantirishni aniq bilishdir. Umuman olganda, mustaqil ish deb shuni tushunish mumkinki, talaba tayyor dasturlardan tanlangan dastur yoki u tomonidan biron bir materialni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o'zlashtirish uchun ishlab chiqilgan dastur bo'yicha ishlash jarayonidir. Ta'lim jarayoni tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotganda, odatda, o'quvchilarning faqatgina dars mashg'ulotlaridagi faoliyatlariga e'tibor qaratilishi kuzatiladi. Biroq, I.A.Zimnyaya ta'kidlaganidek, ta'lim faoliyati o'quvchilarning darsdagi faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, sinf va uy vazifalari, darsdan tashqari turli o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishlari kabi bir qator faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun ushbu faoliyatlarning barchasi integratsiyalashgan holda olib borilishi lozim.

Ushbu muammoning umumiy pedagogik va uslubiy masalalari yetarlicha keng qamrovli yoritilganiga qaramay, uning psixologik tomoni, ayniqsa ta'lim faoliyati nuqtai nazaridan eng kam namoyon bo'lib qolmoqda. I.A.Zimnyaya bu muammoni ko'rib chiqish uchun boshlang'ich nuqtalarni aniqlaganligini T.B.Isakova tadqiqotlarida quyidagicha yoritib bergan: "Birinchidan, talabaningmustaqil ishlashi uning darsdagi to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati natijasi bo'lib, uni mustaqil ravishda kengaytirish, chuqurlashtirish va bo'sh vaqtlarida davom ettirishga undaydi." [18] Shunga ko'ra, o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan talabaning o'quv-tarbiyaviy ishlari (darsda va o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha darsdan tashqari) o'quv fanini o'zlashtirishdagi mustaqil faoliyati uchun unga berilgan aniq dastur sifatida harakat qilishi kerak. Bu o'qituvchi uchun nafaqat o'zining tarbiyaviy harakatlar rejasini, balki uni yangi ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida o'quv predmetini o'zlashtirishning ma'lum bir sxemasi sifatida talabalarda ongli ravishda shakllantirishni aniqligini anglatadi. Talabaning mustaqil ishi uy vazifasiga qaraganda kengroq tushunchadir, ya'ni o'qituvchi tomonidan keyingi darsga tayyorgarlik ko'rish uchun sinfda bergantopshiriqlarini bajarishdir. Mustaqil ish o'quvchining o'quv faoliyatining o'ziga xosshakli (turi) sifatida qaralishi kerak, bu uning yuqorida qayd e tilgan barcha xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Bu uning ta'lim faoliyatining eng yuqori shakli, talabaning sinfdagi ishi bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini tarbiyalash shakli hisoblanadi.

Yuqorida izohlangan tadqiqotchilarning ilmiy adabiyotlari tahliliga ko'ra, mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda mustaqil ta'limga mualliflik ta'rifni quyidagicha ko'rsatdik:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"Mustaqil ishlash - fanni o'rganuvchilarning o'qituvchi yordamida va uning ko'rsatmasi asosida yoki o'zining rejasi asosida video, audio, kitob, jurnallar, maqolalar yordamida o'qib, yozib, takrorlash orqali o'rganishini tushuniladigan o'quv jarayondir." Bizningcha, talabaning mustaqil ishi uning auditoriyada to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati natijasi bo'lib, uni mustaqil ravishda kengaytirish, chuqurlashtirish va bo'sh vaqtlarida davom ettirishga turtki bo'ladi. Mustaqil ish turli topshiriqlarni bajarish bo'yicha talabalarning o'z faolligini ko'rsatish istagidan boshlanadi. Chunki ta'lim oluvchida istak bo'lmasa, mustaqil ishni bajarish muammoli vaziyatga sabab bo'ladi. Mustaqil ish talabalarning har qanday mustaqil faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega jarayondir.

Shu o'rinda kommunikativ kompetensiyaning muhimligi, ayniqsa til o'rganish jarayonida mustaqil rivojlantirilishi kerak bo'lgan kompetensiya hisoblanadi. Mustaqil ishlash kompetensiyasi talabada o'z-o'zini anglash, o'zini boshqara olish kabi xususiyatlarni takomillashtiradi. O'z-o'zini anglash hissiy kompetensiyaning asosiy elementi hisoblanadi. O'z-o'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini va his-tuyg'ularini boshqara oladi. Inson his-tuyg'ulari biologik impulslar tomonidan boshqarilishiga qaramay, ularni yaxshi nazorat qilishi mumkin. O'z-o'zini boshqarish hissiy kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismidir. U ta'lim jarayonida mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy omil sifatida ishtirok etadi.

XULOSA

Demak, talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda masofaviy ta'lim platformalari integratsiyasi, dunyo bo'yicha keng foydalanib kelinayotgan onlayn o'qitish ilovalarining afzalliklari va kamchiliklari o'rganilib, unga ko'ra ushbu platforma va ilovalarning ta'lim jarayonini tashkil etish hamda mustqail ta'lim shaklini rivojlantirish bunda yagona kredit tizimining zarurati mavjuddir. Mustaqil ta'lim, mustaqil ishlash – talabalar zarur bilimlarni egallashi, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishi, fikrlashni o'rganadigan, o'ziga xos aqliy, tarbiyaviy faoliyat uslubinishakllantiradigan ta'lim shaklidir. Boshqa ta'lim shakllaridan farqi shundan iboratki,u talabaning o'z faoliyati asosida tashkil etish qobiliyatini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini

2030-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF- 5847-son Farmoni.//https://www.lex.uz/docs/3765586.

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. "Innovasion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 87 b .

3. Sobirova, M. (2022). Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. https://www.int-jecse.net /abstract.php?id=5377 International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756 /INTJECSE/V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022..

4. Isakova T. B. Сущnost ponyatiya – samostoyatelnaya rabota. – C. 1-6. Elektronnыy resurs: (https:// cyberleninka.ru/article/n/suschnost-ponyatiya-samostoyatelnaya-rabota/viewer. Data obraщeniya: 21.11.2024.

5. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok.diss. – Toshkent: TDPU, 2012. – B 27.

6. Yasnitsky, A. Vigotskiy: An intellectual biography. – London: Routledge, 2018. – P. 5.

7. Payzullayev E. N. Independent work as one of the forms of organization of the educational process in teaching a foreign language. – Molodoy uchenыy. 2023. № 17 (464). — S.123-127.

8. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. https://sciencecentrum.pl/wp-content/ uploads/2021/01/POLISH%20 SCIENCE%20JOURNAL%20%E2% 84%9634%20-%203%20%28web %29.pdf str. 98-105

9. Iminaxunova I.X. Bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning nazariy asoslari /Avt.diss. ped.fan. bo'yicha falsafa doktori. – Samarqand: 2021.– B. 12.

10. Sarimsakova D.M. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi / diss.ped.fan. bo'yicha falsafa doktori. – Namangan: NamDU, 2022. – B. 15-16.

11. Aripova. Sh.Sh. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik asoslari / Avt. diss. ped.fan. b.falsafa doktori. – Toshkent, 2022. – B. 13.

12. Janabergenova A.J "Axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish"/ diss. ped.fan. bo'yicha falsafa doktori. – Toshkent, 2021. – 16b.

13. Zaripov L. Providing a methodological system of modular education in professional training of future technology teachers in the credit-module system. International bulletin of applied science and technology. 2023. – P. 43.

14. Xolmatov Sh. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limning ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar. Obщestvo i innovatsii. Society and innovations Special Issue / ISSN 2181-1415, 2022. – P. 187.

15. Qo'ysinova G.H .O'quvchilar mustaqil ta'limini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent: Sciense and innovation, 2023. – B. 720.

16. G'ofurova M. Mustaqil ta'lim olishning samarali vositalari. «Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (Chirchiq sh., 2024 yil 23-24 aprel) – B.602-606.
17. Sobirova, M. (2024). Development of oral speech competence of students. International journal of artificial intelligence, 4(03), 596-600. http://www.academicpublishers.org/ International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 03, Published Date: - 04-06-2024.
18. Isakova T. B. Сущnost ponyatiya – samostoyatelnaya rabota. – C. 1-6. Elektronnыy resurs: (https: //cyberleninka.ru/article/n/suschnost-ponyatiya-samostoyatelnaya-rabota/viewer Data obraщeniya: 21.11.2024.

ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDAGI TIL TA'LIMIDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING O'RNI

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna,
pedagogika fanlari doktori, professor.
Namangan davlat pedagogika instituti
+99899-519-05-54 davronjon.uzb@gmail.

Annotatsiya: *maqolada ta'lim jarayonining samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan uzviy bog'liqligi, bir nechta yondashuvlarning farqlovchi jihatlari, antroposentrik yondashuvning ta'limni inson omili bilan bog'lab o'rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etishga asoslangan yondashuv ekanligi, antroposentrik yondashuvda raqamli ta'lim vositalarining o'rni kattaligi kabi masalalar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, yondashuvlar, inson omili, antroposentrik yondashuv afzalligi, antroposentrik yondashuvda raqamli ta'lim vositalarining o'rni.*

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ЯЗЫКОВОМ ОБУЧЕНИИ НА ОСНОВЕ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Собирова Махбуба Юсупджановна,
доктор педагогических наук, профессор.
Наманганский государственный педагогический институт
+99899-519-05-54 davronjon.uzb@gmail.

Аннотация: *в статье освещаются такие вопросы, как взаимосвязь эффективности образовательного процесса с используемыми подходами, различительные особенности нескольких подходов, сущность антропоцентрического подхода как такого, который связывает обучение с человеческим фактором и основывается на индивидуальности, гуманизме, полезности и самореализации, а также значительная роль цифровых образовательных средств в рамках антропоцентрического подхода.*

Ключевые слова: *образовательный процесс, подходы, человеческий фактор, преимущества антропоцентрического подхода, роль цифровых образовательных средств в антропоцентрическом подходе.*

THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN LANGUAGE TEACHING BASED ON THE ANTHROPOCENTRIC APPROACH

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna,
doctor of pedagogical sciences, professor.
Namangan State Pedagogical Institute
+99899-519-05-54 davronjon.uzb@gmail.

Annotatsion: *The article highlights issues such as the correlation between the effectiveness of the educational process and the approaches applied, the distinguishing features of several approaches, the essence of the anthropocentric approach as one that links education with the human factor and is based on individuality, humanism, usefulness, and self-expression, as well as the significant role of digital educational tools within the anthropocentric approach.*

Keywords: *educational process, approaches, human factor, advantages of the anthropocentric approach, role of digital educational tools in the anthropocentric approach.*

KIRISH

Ma'lumki, ta'lim jarayonining samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan uzviy bog'liq. Ta'limni takomillashtirish, o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani antroposentrik yondashuv asosida shakllantirishda badiiy matn imkoniyatlaridan keng foydalanish masalalariga e'tibor qaratilmadi. O'tgan yillar mobaynida ona tili ta'limida faqat fanga oid kompetensiyalar shakllantirishga urinildi. Ya'ni, ta'lim jarayonida muayyan sohaga, fanga oid bilimlarni barcha ikir-chikirlarigacha atroflicha yoritib berishga harakat qilindi. O'quvchi-talabalarda, asosan, til haqida bilimlar shakllantirildi, biroq shu tilda muloqot yuritish, ular egallagan bilimlarni jamiyatda samarali tarzda amaliy qo'llash, insonparvarlik yondashuvi asosida o'qitishga, raqamli ta'lim vositalariga yetarli e'tibor berilmadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugun ta'lim tizimiga e'tibor va talab kundan-kunga kuchayib, katta islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar taqdim etgan axborot kommunikativ va ilg'or o'quv texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari, modullashtirilgan hamda zamonaviy ta'lim usullari yordamida yoshlarni ma'naviy-axloqiy takomilga yetkazish[1] va o'qitish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

O'tgan asrda til ta'limida asosiy e'tiborni til qoidalarini yod olishga, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratilgandi. Til o'rganuvchining so'z boyligini oshirish, matn ustida ishlash asosida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiyat, antroposentrik yondashuv masalalari[2] ilmiy grammatizm soyasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirgandi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda mustaqillik sharofati bilan o‘qitishdagi turli yondashuvlar bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, tadqiqotchilar X.Yulbarsova[3] integrativ yondashuvga oid, G.Ibragimova[4] kreativ yondashuvga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan bo‘lsa; o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishga qadriyatli yondashuv xususida D.Qosimova[5], kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari borasida O. Qo‘ysinov[6], ona tili ta’limiga antroposentrik yondashuv tamoyillari va texnologiyalariga oid M.Sobirova[7], til ta’limida matn tahlili orqali o‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik yondashuvga doir Y.Umarova[8], kommunikativ yondashuv haqida U.Mingboyev[9], analitik yondashuv masalasida Sh.Xasanov, innovatsion yondashuvga xususida J.Qurbonov, aksiologik yondashuvga oid J.Yuldashev[10], animatsion yondashuv borasida S.Sulaymonova[11]lar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ta’lim jarayonining samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan uzviy bog’liqligi, bir nechta yondashuvlarning farqlovchi jihatlari, antroposentrik yondashuvning ta’limni inson omili bilan bog’lab o‘rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o‘z-o‘zini namoyon etishga asoslangan yondashuv ekanligi, antroposentrik yondashuvda raqamli ta’lim vositalarining o‘rni kattaligi kabi masalalar o‘rganiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlillar mamlakatimiz pedagogika fanida o‘quvchi va talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning turli jihatlariga katta e’tibor qaratilsa-da, ammo aynan antroposentrik yondashuv asosida rivojlantirilgan shaxsni shakllantirish masalasi deyarli uchramaydi. Yetuk shaxs masalasi intellekt madaniy hodisa sifatida bu aql va shaxsning uzviy birligini anglatadi. Shakllangan intellektual madaniyat odamga o‘z bilimlari va tajribasidan unumli foydalanishga, atrof-muhit va jamiyatdagi tobora kuchayib borayotgan o‘zgarishlarga tezroq moslashishga va shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirishda samarali rivojlanishiga imkon beradi. Bunday kishini tarbiyalash ko‘p jihatdan ta’limning eng oliy maqsadidir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bizningcha, yetuk shaxs deganda ham insonparvar shaxsni, ham ma'naviy boylikni o'zlashtirish darajasi bilan tavsiflanadigan va ta'lim, mustaqil fikrlash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini tushunish, unga amal qilishi bilan tavsiflanadigan shaxs tushuniladi.

Respublikamizda ham global miqyosdagi o'zgarishlar hamda barchamasalalar ko'p jihatdan kadrlarga borib taqalishini hisobga olib, rivojlangan mamlakatlar va o'z tajribamizdan kelib chiqib, ta'lim tizimining sifatini oshirishda o'qituvchilar, ularning bilim va mahorati asosiy rol o'ynashini nazarda tutib, ularning zamon talablariga javob berishi uchun shunga muvofiq ravishdagi yondashuvlarning tamoyili, mohiyati, afzalliklari haqida ma'lumot berishga, uning mezonlarini ishlab chiqishga diqqat-e'tibor qaratildi.

Biz tadqiqotimiz davomida bir nechta yondashuvlarning farqlovchi jihatlarini kuzatdik, tahlil qildik va ularni taqqosladik. (jadvalga qarang)

	Yondashuvlarning farqlovchi jihatlari
Integrativ yondashuv	Fanlararo bog'lanishni nazarda tutuvchi yondashuv hisoblanadi.
Aksiologik yondashuv	Inson hayotini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasiga asoslangan yondashuv
Kompetentli yondashuv	Kasbiy pedagogik ijodkorlikni rivojlantiruvchi yondashuv
Animatsion yondashuv	Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan animatsiyalar asosidagi yondashuv
Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv	Tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimini o'z ichiga olgan yondashuv
Sinergetik yondashuv	Pedagogga tarbiya jarayonini nochiziqli harakat sifatida tushunib, tarbiya tizimlari ochiqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodiflarni tan olish shartini qo'yadigan yondashuv
Germenevtik yondashuv	Ta'lim oluvchining kechinmalari, uning xotiralari, orzu-istaklari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

	etiluvchi yondashuv
Psixoterapevtik yondashuv	Art-terapiya va uning turlari, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan shakliga asoslangan yondashuv
Akmeologik yondashuv	Shaxsni shakllantirish, bu ilmiy tartib bilan ilmiy o‘zlashtirishga asoslangan yondashuv
Antroposentrik yondashuv	Ta’limni inson omili bilan bog’lab o‘rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o‘z-o‘zini namoyon etishga asoslangan yondashuv

O‘qitishdagi turli yondashuvlarni o‘rganishimiz, xususan, ona tili ta’limini antroposentrik yondashuv asosida tashkil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, davr tomonidan qo‘yilayotgan yangi talablar bugungi kunda jahonning qator til ilmi ta’limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari bilan tanishtirish asnosida tilshunoslikda qo‘lga kiritilgan eng so‘nggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bog’lab o‘rganadigan antroposentrik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari borasida oliygohlarda ona tili ta’limidan saboq beruvchi professor-o‘qituvchilar va talabalarga uning tamoyili, mohiyati, afzalliklari haqida ma’lumot berish ehtiyojini tug’dirdi. Bugungi ta’lim tizimi tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasini nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham kafolatlanishini buning uchun esa ta’lim jarayonini jahondagi ilg’or tajribalardan kelib chiqqan holda tashkil etishni taqozo qiladi.

Filologiya fakulteti bakalavr yo‘nalishidagilar uchun o‘qitiladigan “Ona tili o‘qitish metodikasi” hamda lingvistika yo‘nalishdagilar uchun mo‘ljallangan “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” kabi fanlar pedagogik tsikldagi fanlar sanalsa-da, bu fanlarning ilmiy asosini tilshunoslik fani tashkil qiladi. Shu sababli mazkur fanlar tilshunoslik fani yutuqlariga tayanadi.

Ma’lumki, tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog’liqdir. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chdi. Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo‘lgan shaxs omili nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi[12]. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtai nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o‘tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini butunlay chetga surib qo‘ydi[13]. Bunda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi. Ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi.

Antroposentrik yondashuv jarayonida mazkur yondashuvning ta’limni inson omili bilan bog’lab o‘rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o‘z-o‘zini namoyon etishga asoslangan yondashuv ekanligini nazarda tutib, talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish, shakllantirish, rivojlantirishda interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, AKT imkoniyatlaridan to‘g’ri va to‘liq foydalanishga harakat qildik.

Tarixdan ma’lumki, har bir inson qalbida o‘z yurtiga sadoqat, fidoiy bo‘lish tuyg’usi insonparvarlik va vatanparvarlikning oliy nishonasi hisoblanadi. Zero, inson uchun eng aziz va muqaddas bo‘lgan Vatanni himoya etish, odamlarni sevish va e’zozlash har bir insondan buyuk ma’naviy jasoratni talab etadi. Inson ma’naviyatiga qarshi qaratilgan jaholat g’aflatga, loqaydlik esa beparvolikka giriftor etadi. Natijada, mazkur holat insonni vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuyg’usini yo‘qotish orqali uning ma’naviyatini so‘ndirishga zamin yaratadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan jamiyatimizda sog’lom muhitni mustahkamlash, ma’naviyat va ma’rifatga e’tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi tobora oydinlashmoqda. Hozirgi nozik va ayni paytda, o‘ta murakkab sharoitda o‘zida yovuz va buzg’unchi g’oyalarni namoyon etuvchi illatlarga qarshi ma’rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etadi. Odamlarni, millatlarni, mamlakatlarni, madaniyatlarni birlashtiruvchi boshlang'ich asos – insoniylik bo'lganligidan ta'lim va tarbiya mazmunini insonparvarlashtirish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridandir. Asrlar davomida madaniyatlararo munosabatlarda ham insonparvarlik ulug'langan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uni amalga oshirishda raqamli ta'lim vositalari katta imkoniyatlarga ega. Ta'lim beruvchi o'zligining, umumpedagogik bilimlarining rivojlanish texnologiyalarini nafaqat mutaxassis sifatida, shu bilan birga, shaxs sifatida kayta ishlash va amalga oshirish lozim. Raqamli texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar takomiliga ham yo'l ochadi.

Bugungi kunda dunyoda raqamli asrning yutuqlari bor. Planshetlar, mobil telefonlar, aqlli soatlar, virtual ko'zoynaklar bugungi avlod yoshlari hayotiga kirib bordi. Raqamli hayotimiz o'sib bormoqda. Hozirgi zamon jamiyatida ro'y berayotgan yangilanishlar ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatidagi xususiyatlarni o'zgartirish zarurligini belgilaydi[14].

Ta'lim berish o'qituvchidan kuchli bilim, mahorat, tashkilotchilik qobiliyatni talab etadi. O'qituvchining o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadiga erisha olishida ta'lim vositalaridan, xususan, raqamli texnologiyalardan unumli foydalana olishiga ham bog'liqdir.

Raqamli texnologiyalar – qisqa vaqt oralig'ida ko'plab turli xil vazifalarni bajarishga imkon beruvchi kodlash va ma'lumot uzatish usullariga asoslangan diskret tizim. Aynan shu sxema tezkorligi va ko'p qirrali ekanligi axborot texnologiyalarini juda mashhur qildi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda:

– o'quvchi va talabalarga ma'lumot va bilimlarni samarali yetkazish vositasi;
– o'quv materiallarini yaratish vositasi;
– samarali o'qitish vositasi;
– yangi o'quv muhitini yaratish vositasi demakdir.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar:

– o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi eksperimental tadqiqotlari texnologiyasi;
– "Virtual haqiqat" texnologiyasi;
– "Panoramik tasvirlar" texnologiyasi;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

– 3D modellashtirish texnologiyasi;
– "Ta'lim robototexnika" texnologiyasi.

Har qanday zamonaviy taqdimotning asosi yorqin tasvirlar yordamida ma'lumotlarni idrok etish va eslab qolish jarayonini osonlashtirishdir. Taqdimotda dinamika, ovoz va tasvirni ham birlashtirish mumkin. Bu esa tomoshabinning, ya'ni talaba va o'quvchining e'tiborini eng uzoq vaqt ushlab tura oladi. Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchilar faoliyatining mahsulotlari: uslubiy axborotlarni ishlab chiqish, uslubiy tavsiyalar, maqolalar, darslarga yozuvlar, maktabdan keyingi tadbirlar, multimediya ishlab chiqish va hokazolarning sifatini ko'rsatishga ham xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar o'quv faoliyatining barcha turlarini faollashtirishi mumkin: yangi materialni o'rganish, uy vazifalarini tayyorlash va tekshirish, mustaqil ishlar, test va nazorat ishlari, darsdan tashqari ishlar, ijodiy ishlar. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ko'plab uslubiy maqsadlarni samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Umumta'lim maktablarida o'quv jarayoni davomida o'zlashtirish ko'rsatkichi past o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniyati bugun ancha sust. Agar o'quvchi dars davomida tushuna olmagan mavzularini mustaqil tarzda, istalgan vaqtda kirib, bu platformadan unumli foydalansa, fanlarni o'zlashtirishdagi muammoga yechim topishi mumkin.

Darslarning samarali tashkil etilishi uchun xizmat qiladigan interaktiv doskadan aynan ona tili darslarida foydalanish imkoniyati katta. Qo'shimcha ko'rgazmalarni ham bir vaqtning o'zida ko'rsatib ketish mumkin. Xohlasa, slaydlar ham namoyish qilinib, yana ortga qaytib, mavzu bo'yicha yozilgan vazifalarni ishlatish mumkin.

Ona tili darslarining o'tilishida eng ko'p murojaat qilinadigan vosita bu doskadir. Chunki o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqi ona tili fani asosida shakllanadi. Shunday ekan, fanni o'qitilishi (o'rgatilishi) davomida boshqa fanlarga qaraganda doskaga ehtiyoj katta bo'lgan.

Bugungi o'qituvchining o'quvchi yozma savodxonligini tekshirish jarayoniga ham interaktiv doskalar katta yordam beradi. Bu qurilmaning qulayliklari juda ko'p bo'lib, dars jarayonlarida ochilaveriladi. Aytaylik, biz ba'zi so'zlarni alohida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatishimizga to‘g’ri kelib qoldi. Odatda, bu so‘zning tagiga bir xil rangda chizib qo‘yamiz. Chunki ona tili fanida tagiga chizilgan so‘z o‘ziga xos vazifa bajaradi. Bu esa o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Interaktiv doskada bu muammoni hal qilish yo‘li juda ham oson: uni qizil, sariq, oq yoki ko‘k ranglarda ko‘rsatsa bo‘ladi.

Odatda, yozma ish turlaridan diktantda sarlavhaga, bayon, insho matnlarida rejalar tuzilishiga alohida e’tibor qaratamiz. Matn va reja aniq, izchil, tartibli bo‘lmog’i kerak. Har bir o‘quvchi o‘zining reja va matnini yozib berishiga to‘g’ri kelsa, sakkizinchi bo‘lib yozayotgan o‘quvchining ishi ikkinchi o‘quvchining ishiga o‘xshashligini mazkur qurilma yordamida qaytadan ko‘rsatib o‘tishimiz ham mumkin. Birinchi betga sig’may qolgan matnning davomini ikkinchi betga yozib ketsak ham bo‘ladi. Imkoniyatlari katta bo‘lgan bu qurilmani ishlatish, uning darslarni samarali bo‘lishini ta’minlashdagi o‘rni, tushuntirish jarayonidagi qulayliklari, bir vaqtning o‘zida bir nechta funktsiyani bajarishi, o‘quvchilarga tushunarsiz bo‘lib qolgan jihatlarni va rasmlarni yana qayta ko‘rsata olishi ham e’tiborga molikdir.

Ona tili darslarida mavjud bo‘lgan jadvallar va qoidalarni elektron doska xotirasiga saqlab qo‘ysak, uni bizga kerak vaqtda, bemalol olib qayta ishlatishimiz mumkin. Bu esa yana qaytadan yozish, behuda vaqt ketkazishning oldini oladi.

Interaktiv doskadan **“Video-topishmoq”** usulini qo‘llashimiz mashg’ulotimiz ta’sirchanligini oshirdi. Usulni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta video lavha namoyish etiladi;

– o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;

– jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;

– o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

Filologiya fakulteti 3-kurs talabalarini “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan amaliy va seminar mashg’ulotlarida o‘rta umumta’lim maktablaridagi pedagogik amaliyotga tayyorlanadi. Ular bilan birgalikda pedagogik amaliyot jarayonida tajriba ishlarini olib borish davomida “Video-topishmoq” metodidan foydalanib, ona

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tili ta'limida antroposentrik yondashuv asosida insonparvarlikni singdirishni maqsad qildik.

O'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

– Siz elektron doskada nimalar ko'ryapsiz?

– Sizningcha, ushbu surat qanday mazmunga ega?

– Bu surat tarixini ijtimoiy tarmoqlardan bilganlar bormi?

Bu - Belgiyadagi ko'chaga qo'yilgan haykal rasmidir. Ushbu haykalning qayg'uli tarixi bor.

Qahraton qish kunlarining birida tunda ko'chaga chiqib, adashib qolgan kichkina bolakay va daydi bir it shu yerda qotib o'lgan holda topilgan.

It ketib yuborib, jonini omon saqlab kolishi mumkin edi, lekin unday qilmagan. U bolakayga "ko'rpa" bo'lgan, uni isitishga uringan…

Eng ayanchlisi shuki, shu ko'chada yashovchilar tunda shu bolakayning yig'laganini, yordam so'rab uvvos solganini, itning uvillaganini eshitishgan. Ammo hech kim issiq o'rnidan turishni, hech bo'lmasa, derazadan kўchaga qarab qo'yishni lozim topmagan...!

O'quvchilar ushbu matnni elektron doskada o'qib bo'lgach, ham shu matnning o'qituvchi tomonidan aytilgan ovozli shaklini eshitgach, ular e'tibori elektron doskada ko'rsatilgan quyidagi savollarga qaratiladi:

1. Surat va unga oid matn sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Sizningcha, insoniylikni issiq uyda yotgan odamlar qilishdimi yoki itmi?
3. Shu bolakay o'rnida issiq uyda yashovchilarning bolasi bo'lib qolishi mumkinmidi?
4. Shu va shu kabi beparvolik holatlarini siz ham kuzatganmisiz yoki eshitganmisiz?
5. Loqaydlik oqibatlarini o'z kuzatishlaringiz asosida yozing va ijodiy matn yarating.

XULOSA

Til o'qitishdagi antroposentrik yondashuv ta'limni inson omili bilan bog'lab o'rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etishga asoslanganligi bilan ta'lim rivojida alohida o'rin tutadi. Til o'rganuvchilar e'tiboriga

insoniylikka chorlovchi hamda raqamli ta'lim vositalari hisoblanuvchi videotopishmoq, videodiktant, videomatn, videorasmlarni havola qilish, ular ustida o'ylashga chorlash yoshlarning axloqiy tarbiyasida qo'l keladi. Shu bilan birga, insonparvarlik mazmunidagi mana shunday jarayonlar ularning o'rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni. 2020-yil 29- oktyabr.
2. Sobirova M. Ta'limga antroposentrik yondashuv. Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2022-y. – B.152.
3. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Toshkent. 2018.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Toshkent, 2017.
5. Qosimova D.X. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Namangan, 2018.
6. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Toshkent, 2019.
7. Sobirova M. Antroposentrik yondashuv asosida o'qituvchi faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent. "Pedagogika" jurnali. 2022-y. № 4. – B.19-24.
8. Umarova Y.T. Til ta'limida matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Namangan, 2019.
9. Mingboyev U.X. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Toshkent, 2019.
10. Yuldashev J.A. Tarixni o'qitish jarayonida talabalarning aksiologik dunyoqarashini rivojlantirish metodikasi. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Namangan, 2022.
11. Sulaymonova S. U. Animatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tushunchalarni rivojlantirish texnologiyasi. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Namangan, 2022
12. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidiscip- linary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. https://repo.journalnx.com/index. php/nx/article/view/3880/3718; Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. **Design Engineering**. International Research Journal of Advanced

Engineering and Science (IRJAES) СКОПУС 5288-5295 http://thedesignengineering.com/index.php/DE/issue/view/31.; Anthropocentric approach to language. *ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (111), http://t-science.org/arxivDOI/2022/07-111.html – P.* 36-39; Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377 International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE /V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

13. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001.–№1.– С. 64.

14. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: tahlil, ta`rif, mulohazalar. Metodik tavsiya. –Toshkent.2000. – B. 15.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PEDAGOGLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TIZIMLI, SINERGETIK VA AKMEOLOGIK YONDASHUVLAR

Aziboyev Shuhrat Olimovich
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Annotatsiya. *Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning innovatsion faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning tizimli, sinergetik va akmeologik yondashuvlari tadqiq etilgan. Tizimli yondashuv ta'lim jarayonining barcha komponentlarini bir butun sifatida ko'rib chiqishni, sinergetik yondashuv ta'lim tizimidagi o'zaro ta'sir va yangi xususiyatlarning paydo bo'lishini, akmeologik yondashuv esa pedagogning professional kamolotga erishish jarayonini o'rganishni nazarda tutadi. Tadqiqot davomida ushbu yondashuvlarning pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi samaradorligi baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompleks yondashuvdan foydalanish pedagoglarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.*

Kalit so'zlar: *pedagogik innovatsiya, tizimli yondashuv, sinergetik yondashuv, akmeologik yondashuv, professional tayyorgarlik, ta'lim sifati, pedagogik faoliyat, innovatsion kompetentlik.*

СИСТЕМНЫЙ, СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ И АКМЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ К ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Азибоев Шухрат Олимович
Директор Наманганского областного центра
педагогического мастерства

Аннотация. *В современной системе образования инновационная деятельность учителей имеет большое значение. В данной статье рассматриваются системный, синергетический и акмеологический подходы к подготовке учителей к инновационной деятельности. Системный подход предполагает рассмотрение всех компонентов образовательного процесса в целом, синергетический – изучение взаимодействия и возникновения нового в системе образования, а акмеологический – изучение процесса достижения профессиональной зрелости учителя. В ходе исследования была оценена эффективность данных подходов в подготовке учителей к инновационной деятельности. Результаты показали высокую эффективность использования комплексного подхода в развитии инновационной компетентности учителей.*

Ключевые слова: *педагогические инновации, системный подход, синергетический подход, акмеологический подход, профессиональная подготовка, качество образования, педагогическая деятельность, инновационная компетентность.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

SYSTEMATIC, SYNERGIC AND ACMEOLOGICAL APPROACHES TO TRAINING TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY

Aziboyev Shuhrat Olimovich
Director of the Namangan Regional
Pedagogical Skills Center

Abstract. *In the modern education system, innovative activity of teachers is of great importance. This article studies systemic, synergistic and acmeological approaches to training teachers for innovative activity. The systemic approach involves considering all components of the educational process as a whole, the synergistic approach involves studying the interaction and emergence of new features in the education system, and the acmeological approach involves studying the process of achieving professional maturity of a teacher. During the study, the effectiveness of these approaches in training teachers for innovative activity was assessed. The results showed that the use of a comprehensive approach is highly effective in developing the innovative competence of teachers.*

Keywords: *pedagogical innovation, systematic approach, synergistic approach, acmeological approach, professional training, quality of education, pedagogical activity, innovative competence.*

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimida tez sur'atlar bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar pedagoglardan yangi talablar qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasining o'zgarishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyatning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarining oshishi pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasini dolzarb qilmoqda. Bugungi kunda pedagog nafaqat an'anaviy bilim beruvchi, balki innovatsion jarayonlarning faol ishtirokchisi va tashabbuskori bo'lishi shart. Pedagogning innovatsion faoliyati ta'lim jarayonida yangi g'oyalar, metodlar va texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish uchun ijodiy yechimlar topish qobiliyatini o'z ichiga oladi.[1] Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida turli nazariy yondashuvlardan foydalanish mumkin. Biroq, zamonaviy ta'lim tizimining murakkabligi va ko'p qirraligi bir nechta yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishini talab etadi. Bu jihatdan tizimli, sinergetik va akmeologik yondashuvlarning integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tizimli yondashuv pedagogik faoliyatni murakkab, o'zaro bog'liq elementlardan iborat tizim sifatida ko'rib chiqadi. Bu

yondashuv pedagoglarni tayyorlashda barcha komponentlarning muvofiqligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Sinergetik yondashuv ta'lim jarayonidagi nochiziqli, o'z-o'zini tashkil etuvchi jarayonlarni hisobga oladi va yangilik yaratish mexanizmlarini ochib beradi. Akmeologik yondashuv pedagogning shaxsiy va professional rivojlanishidagi eng yuqori cho'qqilarga erishish yo'llarini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlarning birgalikdagi tatbiqi pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning yangi metodologiyasini yaratish imkoniyatini beradi va zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan samarali model yaratish uchun nazariy asosni tashkil etadi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Tizimli yondashuv doirasida L.Bertalanfi,[3] A.Rapoport kabi olimlarning asarlari muhim asos bo'lgan. Ular ta'lim jarayonini murakkab, ochiq tizim sifatida ko'rib chiqishning zarurligini ta'kidladilar. Sinergetik yondashuv I.Prigojin, G.Xaken tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik V.Arshinov, V.Budanov kabi tadqiqotchilar tomonidan ta'lim sohasiga tatbiq etilgan. Bu yondashuv ta'lim tizimining nochiziqli rivojlanishi va o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatini o'rganadi. Akmeologik yondashuv B.Ananiev, A.Derkach, N.Kuzmina tomonidan asoslangan bo'lib, pedagogning professional faoliyatdagi eng yuqori cho'qqilariga erishish jarayonlarini tadqiq etadi. Bu yondashuv shaxsning ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Metodologik jihatdan tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borildi. Nazariy tahlil, empirik tadqiqot metodlari, ekspert baholash va matematik-statistik tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqotga turli ta'lim muassasalaridan pedagoglar jalb etildi va ularning innovatsion faoliyat darajasi maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tizimli yondashuvning qo'llanilishi pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda sezilarli natijalar berdi. Bu yondashuv ta'lim jarayonining barcha komponentlari - maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natijalarni bir butun sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Natijada pedagoglar o'z faoliyatini tizimli ravishda rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalarini egalladi. Tizimli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yondashuvning afzalliklari quyidagicha namoyon bo'ldi: pedagoglar o'z faoliyatining maqsad va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunga boshladi, ta'lim jarayonidagi barcha omillarni hisobga olish qobiliyati rivojlandi, muammolarni murakkab holda yechish ko'nikmalari shakllandi. Tizimli yondashuv – bu pedagogik hodisalarni, ularning o'zaro bog'liqligi, ierarxiyasi va funksional birligida o'rganishga qaratilgan metodologik asosdir. Olimning fikricha, pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun har bir tarkibiy component – motivatsiya, kasbiy bilim, amaliy ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va tashabbuskorlik yagona tizimda muvofiqlashtirilishi lozim.[4]

Sinergetik yondashuv ta'lim jarayonining o'zaro ta'sir va o'z-o'zini tashkil etish tamoyillariga asoslangan. Bu yondashuv pedagoglarga innovatsion g'oyalarning qanday paydo bo'lishi va rivojlanishini tushunishga yordam berdi. Sinergetik tamoyillarning tatbiqi orqali pedagoglar ta'lim jarayonidagi nolinear jarayonlarni boshqarish qobiliyatini egalladi. Sinergetik yondashuvning qo'llanilishi natijasida pedagoglarda quyidagi kompetentliklar shakllandi: noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyati, ijodiy fikrlash ko'nikmalari, o'zgarishlarga moslashish qobiliyati, yangilik kiritishga tayyor bo'lish holati. Sinergetikaning asoschilaridan biri H.Haken 1970-yillarda ushbu ilmiy intizomni "hamkorlik fani" sifatida yaratdi. U o'z asarlarida murakkab tizimlarning o'z-o'zini o'zi tashkil etish orqali tartibsizlikdan tartibga o'tishini tushunish uchun nazariy asos yaratdi. Ushbu tamoyil o'qituvchining rivojlanishida chuqur qo'llanilib, bunda turli xil ta'lim komponentlarining o'zaro ta'siri individual ta'lim elementlari yig'indisidan oshib ketadigan yangi kasbiy vakolatlarni yaratadi.[5] Sinergetik yondashuv doirasida pedagog kadrlarning innovatsion potensialini oshirish jarayoni quyidagi xususiyatlarga ega.

Akmeologik yondashuv pedagogning shaxsiy va professional rivojlanishining eng yuqori bosqichlariga erishishni maqsad qiladi. Bu yondashuv orqali pedagoglar o'zlarining ijodiy salohiyatini to'liq ochish imkoniyatiga ega bo'ldi. Akmeologik tamoyillar pedagoglarga o'z-o'zini baholash va rivojlantirish metodlarini o'rgatdi. A.A.Derkachning fikricha akmeologiya – bu shaxsning kasbiy va shaxsiy jihatdan eng yuksak rivojlanish nuqtasiga erishuv qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Uning asosiy vazifasi bu cho'qqiga chiqishning individual va psixologik mehanizmlarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ochib berishdan iborat.[6] Bu yondashuv o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni nafaqat malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish, balki uning internal salohiyatlarini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Akmeologik yondashuvning tatbiqi quyidagi natijalarga olib keldi: pedagoglarda o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasi kuchaydi, professional faoliyatga reflexiv yondashuv shakllandi, yuqori natijaga erishish istagi kuchaydi, pedagogik mahorat darajasi oshdi.

Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda tizimli, sinergetik va akmeologik yondashuvlarning samarali tatbiq etilishi uchun bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Birinchidan, ta'lim muassasalarida bu yondashuvlarning printsiplarini hisobga olgan holda pedagoglarni malaka oshirish dasturlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Ikkinchidan, pedagoglarning individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ravishda shaxsiylashtirilgan ta'lim traektoriyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu har bir o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari va professional maqsadlarini hisobga olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Uchinchidan, pedagoglar o'rtasida hamkorlik va tajriba almashish uchun platform yaratish, ularning professional networking faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur. Bu sinergetik effektlarning paydo bo'lishi va kollektiv innovatsiyalarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Uchala yondashuvning birgalikdagi qo'llanilishi sinergik effekt yaratdi. Tizimli yondashuv asosiy tuzilmani, sinergetik yondashuv dinamik jarayonlarni, akmeologik yondashuv esa shaxsiy rivojlanishni ta'minladi. Bu kompleks yondashuv pedagoglarning innovatsion kompetentligini keng qamrovli rivojlantirishga imkon berdi. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, uchala yondashuvning birgalikdagi qo'llanilishi yakka tartibdagi foydalanishdan ancha samarali. Pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi: yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyati oshdi, ijodiy yechimlar topish tezligi oshdi, o'quvchilar bilan ishlashda innovatsion metodlarni qo'llash darajasi yuksaldi.[7]

XULOSA

Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda tizimli, sinergetik va akmeologik yondashuvlarning birgalikdagi qo'llanilishi yuqori samaradorlik

ko'rsatdi. Tizimli yondashuv pedagogik faoliyatning barcha komponentlarini muvofiqlashtirish, sinergetik yondashuv ta'lim jarayonidagi ijodiy potentsiallarni ochib berish, akmeologik yondashuv esa pedagogning shaxsiy kamolotga erishishini ta'minladi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi pedagogik ta'limda paradigmal o'zgarishlar yaratish imkoniyatini beradi. Professional tayyorgarlik jarayonida bu yondashuvlardan kompleks foydalanish pedagoglarning zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladigan innovatsion kompetentliklarini shakllantiradi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu yondashuvlarning amaliy tatbiqini yanada chuqurroq o'rganish, turli ta'lim bosqichlarida ularning samaradorligini solishtirish va pedagoglarning turli kategoriyalari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim sohasida innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish pedagoglarning yuqori malakali va innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki butun jamiyatning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ravshaovna X. N. INNOVATSION FAOLIYAT VA INNOVATSION SALOHIYAT //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 346-350.
2. Norova S. Y., Shaxnoza B. INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 434-438.
3. Rapoport A. General systems theory: A bridge between two cultures. Third annual Ludwig von Bertalanffy memorial lecture //Behavioral Science. – 1976. – T. 21. – №. 4. – C. 228.
4. Selevko G. K. Competences and their classification //Narodnoe obrazovanie. – 2004. – T. 4. – C. 138-143.
5. Haken H. Synergetics: an overview //Reports on Progress in Physics. – 1989. – T. 52. – №. 5. – C. 515.
6. Деркач А. А. Акмеология: личностное и профессионалъное развитие человека [Acmeology: personal and professional development of a person] //Moscow: RAGS [in Russian]. – 2000.
7. Sotvoldiyevich A. M. O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYAT HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 8. –

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MEDIASAVODXONLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

To'xtaboyeva Yodgora Sohibjon qizi
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va media muhitining ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi xorijiy tillarni o'qitishda mediasavodxonlikning rolini sezilarli darajada oshirmoqda. Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o'qitish jarayonida mediasavodxonlikning o'rni va ahamiyatini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada mediasavodxonlikning nazariy asoslari, uning xorijiy til ta'limidagi funksiyalari va amaliy tatbiqi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida mediasavodxonlik ko'nikmalarining til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetentliklari rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Empirik tadqiqot natijalarida mediasavodxonlik elementlaridan foydalanishning til o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari mediasavodxonlik va xorijiy til ta'limining o'zaro integratsiyasi zamonaviy ta'lim maqsadlariga erishishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *mediasavodxonlik, xorijiy til ta'limi, kommunikativ kompetentlik, axborot texnologiyalari, multimediya resurslar, til o'qitish metodikasi.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕДИАГРАММЫ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Тохтабоева Ёдгора Сохибжон кызы
Преподаватель кафедры социально-экономических наук и преподавания языков, Наманганский областной центр педагогического мастерства

Аннотация. *В современном мире стремительное развитие информационных технологий и повсеместное проникновение медиасреды в образовательный процесс существенно повышают роль медиаграмотности в обучении иностранным языкам. Целью данного исследования является комплексный анализ роли и значения медиаграмотности в процессе обучения иностранным языкам. В статье рассматриваются теоретические основы медиаграмотности, её функции в обучении иностранным языкам и практическое применение. В ходе исследования изучалось влияние навыков медиаграмотности на развитие коммуникативных компетенций изучающих иностранные языки. Результаты эмпирического исследования подтвердили, что использование элементов медиаграмотности значительно повышает эффективность обучения иностранным языкам. Результаты исследования показали, что взаимная интеграция медиаграмотности и обучения иностранным*

языкам является важным инструментом достижения современных образовательных целей.

Ключевые слова: *медиаграмотность, иноязычное образование, коммуникативная компетентность, информационные технологии, мультимедийные ресурсы, методика обучения иностранным языкам.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MEDIA LITERACY IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Yodgora Tokhtaboyeva Sohibjon kizi
Teacher of Namangan Regional Pedagogical Skills Center,
department of socio-economic
sciences and language teaching methods

Abstract*. In the modern world, the rapid development of information technologies and the widespread penetration of the media environment into the educational process significantly increase the role of media literacy in teaching foreign languages. This study is aimed at a comprehensive analysis of the role and importance of media literacy in the process of teaching foreign languages. The article considers the theoretical foundations of media literacy, its functions in foreign language teaching and practical application. During the study, the influence of media literacy skills on the development of communicative competences of language learners was studied. The results of the empirical study confirmed that the use of media literacy elements significantly increases the effectiveness of language teaching. The results of the study showed that the mutual integration of media literacy and foreign language teaching is an important tool in achieving modern educational goals.*

Keywords: *media literacy, foreign language education, communicative competence, information technologies, multimedia resources, language teaching methodology.*

KIRISH

XXI asrda global axborotlashtirish jarayonlari va raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim sohasida tubdan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot jamiyatida yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar tarkibiga mediasavodxonlik kirib keldi va u zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida tan olinmoqda. Mediasavodxonlik nafaqat media matnlarini tushunish va tanqidiy baholash, balki ularni yaratish va tarqatish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Xorijiy tillarni o'qitish sohasida mediasavodxonlik alohida ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababi shundaki, zamonaviy til ta'limi jarayoni keng ko'lamli media resurslar va axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mediasavodxon shaxs turli media formatlarida taqdim etilgan matnlarni tushunish, tahlil qilish va o'zining fikrlarini ifoda etish uchun media vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.[1] Globallashuv sharoitida chet tillarini bilish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Biroq, an'anaviy til o'qitish metodlari zamonaviy ehtiyojlarni to'liq qondira olmaydi. Bugungi kunda til o'rganuvchilar nafaqat grammatika qoidalarini bilish, balki real kommunikatsiya sharoitlarida turli media vositalari orqali samarali muloqot qura olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Mediasavodxonlikning xorijiy til ta'limiga integratsiyasi bir necha muhim masalani hal qilish imkoniyatini beradi. Birinchidan, u til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va motivatsion qiladi. Ikkinchidan, real hayot sharoitlariga yaqin bo'lgan o'quv materiallardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Uchinchidan, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va media matnlarini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o'qitishda mediasavodxonlikning o'rni va ahamiyatini kompleks o'rganish, uning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadlarini ko'zlaydi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mediasavodxonlik kontseptsiyasi XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning zamonaviy talqini James Potter, W.James Potter, Len Masterman, David Buckingham[3] kabi tadqiqotchilar asarlarida shakllanganr Potter mediasavodxonlikni axborot manbalari bilan ishlash, ularni tanqidiy baholash va yaratish qobiliyati sifatida belgilagan. Xorijiy til ta'limida mediasavodxonlik masalalari Giselle Ferreira, Carmen Luke, Douglas Kellner kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular mediasavodxonlikning til o'rganish jarayonidagi motivatsion rolini ta'kidlagan va multimodal yondashuvning ahamiyatini ko'rsatgan. Mahalliy tadqiqotchilar orasida mediasavodxonlik va xorijiy til ta'limi integratsiyasi masalalari turli jihatdan o'rganilgan. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining til o'qitishga tatbiqi, elektron ta'lim resurslari va multimedia materiallarning samaradorligi keng tadqiq qilingan. Digital savodxonlik nazariyasi Allan Martin, Colin Lankshear va Michele Knobel tomonidan ishlab chiqilgan. Ular raqamli muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar kompleksini aniqlagan va bu ko'nikmalarning til ta'limidagi ahamiyatini asoslagan.

Kommunikativ yondashuv doirasida media resurslarning roli Dell Hymes, Michael Halliday va Sandra Savignon tomonidan o'rganilgan. Ular til o'qitishda authentic materiallardan foydalanishning zarurligini ta'kidlagan va media matnlarining bu jihatdagi imkoniyatlarini ko'rsatgan. Metodologik jihatdan tadqiqot aralash usullar (mixed methods) yondashuviga asoslandi.[4] Nazariy tahlil, eksperimental tadqiqot, so'rovnoma va intervyu usullari qo'llanildi. Tadqiqotga turli ta'lim muassasalaridan o'qituvchi va talabalar jalb etildi. Eksperimental ishda nazorat va tajriba guruhlari tashkil etildi. Tajriba guruhida mediasavodxonlik elementlari kiritilgan o'quv dasturi tatbiq etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodika qo'llanildi. O'quv jarayoni davomida talabalarning til bilish darajasi, motivatsiya ko'rsatkichlari va media bilan ishlash qobiliqlari muntazam baholandi. Ma'lumotlar tahlilida deskriptiv statistika, korrelyatsion tahlil va t-test metodlaridan foydalanildi. Sifatli ma'lumotlar kontentanaliz usuli bilan qayta ishlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajriba natijalarining tahlili mediasavodxonlik elementlarining xorijiy til ta'limiga integratsiyasining sezilarli ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi talabalarning til bilish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etdi. Mediasavodxonlikning xorijiy til ta'limidagi asosiy ta'siri quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ldi. Birinchidan, talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshdi. Media materiallarning qo'llanilishi darslarni yanada qiziqarli va jonli qildi, o'quvchilar faol ishtirok etish istagi kuchaydi. Video, audio va interaktiv materiallardan foydalanish natijasida talabalar til o'rganishni majburiyat emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qila boshladilar.

Ikkinchidan, kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishida muhim yutuqlarga erishildi.[5] Media matnlari bilan ishlash jarayonida talabalar turli kommunikativ vaziyatlarda til ishlatish qobiliyatini egalladi. Real hayotdan olingan video va audio materiallar talabalarni authentic muloqot sharoitlariga tayyorladi va ularning so'zlashuv ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi. Uchinchidan, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlandi. Media matnlarini tahlil qilish jarayonida talabalar ma'lumotlarni tanqidiy baholash, turli nuqtai nazarlarni solishtirib ko'rish va o'z

fikrlarini asoslash ko'nikmalarini egalladi. Bu ko'nikmalar nafaqat til o'rganishda, balki umumiy intellektual rivojlanishda ham muhim rol o'ynadi.

Listening ko'nikmalarining rivojlanishida ham sezilarli natijalar kuzatildi. Turli media formatlaridan - podkastlar, yangiliklar, dokumentar filmlar, musiqa videolaridan foydalanish talabalarning eshitib tushunish qobiliyatini kengaytirdi. Talabalar turli aksentlar, nutq tezligi va stillariga moslashish qobiliyatini egalladi. Reading ko'nikmalarida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Online maqolalar, ijtimoiy tarmoq postlari, blog yozuvlari va boshqa zamonaviy media matnlari bilan ishlash talabalarning o'qib tushunish tezligi va samaradorligini oshirdi. Shuningdek, talabalar turli matn turlarining o'ziga xos xususiyatlarini farqlash qobiliyatini egalladi.[6]

Writing ko'nikmalarining rivojlanishida media texnologiyalarning ta'siri alohida ta'kidlanishi kerak. Talabalar blog yozish, ijtimoiy tarmoqlarda post yaratish, email yozish va boshqa zamonaviy yozma kommunikatsiya shakllarini o'rgandi. Bu ko'nikmalar real hayotda til qo'llash imkoniyatlarini kengaytirdi. Speaking ko'nikmalarida video yaratish, online taqdimotlar tayyorlash va virtual muhitda muloqot qilish orqali sezilarli yutuqlarga erishildi. Talabalar texnologiya vositalari orqali o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini egalladi va nutq madaniyati ko'rsatkichlari yaxshilandi.[7] Mediasavodxonlik elementlarining qo'llanilishi talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini ham rivojlantirdi. Online resurslardan foydalanish, ma'lumot qidirish va tanlab olish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari shakllandi. Bu esa hayot davomida til o'rganish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mediasavodxonlikning xorijiy til ta'limiga integratsiyasi nafaqat til ko'nikmalarini, balki XXI asr ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Talabalar raqamli texnologiyalar bilan ishlash, ma'lumotni qayta ishlash, ijodiy muammolarni yechish qobiliyatlarini egalladi.[8]

XULOSA

Xorijiy tillarni o'qitishda mediasavodxonlikning o'rni va ahamiyatini tadqiq etish natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindy. Mediasavodxonlik zamonaviy xorijiy til ta'limining ajralmas qismi bo'lib, uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mediasavodxonlikning xorijiy til ta'limiga integratsiyasi talabalarning til

o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy media vositalari va texnologiyalardan foydalanish darslarni yanada qiziqarli, interaktiv va real hayotga yaqin qiladi. Bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va til o'rganish jarayonini samarali qiladi. Kommunikativ ko'nikmalarning kompleks rivojlanishida mediasavodxonlikning ta'siri katta. Listening, reading, writing va speaking ko'nikmalarining har birini rivojlantirishda media texnologiyalari va authentic materiallar muhim resurs bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, real muloqot sharoitlariga tayyorlashda media materiallarining ahamiyati beqiyos. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi mediasavodxonlikning yana bir muhim natijasi hisoblanadi. Media matnlarini tahlil qilish, ma'lumotlarni tanqidiy baholash va turli manbalardagi ma'lumotlarni solishtirib ko'rish ko'nikmalari talabalarning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

XXI asr ko'nikmalarining shakllanishida mediasavodxonlikning roli alohida ta'kidlanishi kerak. Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan digital savodxonlik, axborot bilan ishlash qobiliati, ijodiy fikrlash va texnologik ko'nikmalar mediasavodxonlik orqali rivojlanadi. Pedagogik jihatdan mediasavodxonlikning xorijiy til ta'limiga tatbiqi o'qituvchilardan yangi kompetentliklarni talab qiladi. O'qituvchilar media texnologiyalari bilan ishlash, multimedia materiallarni tayyorlash va raqamli muhitda ta'lim tashkil etish ko'nikmalarini egallashi zarur. Xulosada ta'kidlash joizki, xorijiy tillarni o'qitishda mediasavodxonlikning integratsiyasi nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki talabalarni zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga ham tayyorlaydi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi va kelajakda ushbu yo'nalishning rivojlanishi ta'lim sifatining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Xamdamova G. XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA MULTIMEDIA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2024. – T. 4. – №. 4.
2. Xolmurodova M. A. et al. XORIJIY TILLARNI O’QITISHDA MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 14. – C. 143-146.
3. Buckingham D. Media education: Literacy, learning and contemporary culture. – John Wiley & Sons, 2013.

4. Ivankova N. V., Creswell J. W. Mixed methods //Qualitative research in applied linguistics: A practical introduction. – 2009. – T. 23. – C. 135-161.
5. Nabijonovich R. D. BO'LAJAK O 'QITUVCHILARNING MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI //TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 138-141.
6. Wolvin A. D., Coakley C. G. Listening. – Wm. C. Brown Publishers, 2460 Kerper Blvd., Dubuque, IA 52001, 1985.
7. Juzwik M. M. et al. Writing into the 21st century: An overview of research on writing, 1999 to 2004 //Written Communication. – 2006. – T. 23. – №. 4. – C. 451-476.
8. Turg'unova S. TILLARNI O'QITISHDA O 'QUVCHILARDA XXI ASR KO 'NIKMALARINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH //Advances in Science and Education. – 2025. – T. 1. – №. 01. – C. 65-66.

UDK: 37.02:37.091.3-051:004.9(575.1)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXBORIY-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Madaliyev Baxtiyorjon Egamberdi o’g’li
Farg‘ona davlat universiteti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch doktoranti
ORCID: *0009-0008-2408-9800*

Annotatsiya. *Bugungi kunda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar axboriy-analitik kompetentlikning rivojlanishini talab qiladi. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va ahamiyati o‘rganiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirishning innovasion usullari yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishda samarali ta’lim jarayonini tashkil etish uchun muhim metodologik tavsiyalarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar*: axboriy-analitik kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, o‘qituvchi tayyorlash, ta’lim innovatsiyalari, axborot texnologiyalari, tahlil qilish ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, ta’lim muhitini tashkil etish, metodologik yondashuvlar, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogika, o‘quv jarayoni, malaka oshirish, mustaqil ta’lim, raqamli texnologiyalar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *Современные изменения в системе образования требуют развития информационно-аналитической компетентности. В данной статье анализируются педагогические условия, необходимые для развития у будущих учителей данной компетентности. Рассматриваются теоретические основы развития, его структурные компоненты и значимость. В статье освещаются инновационные методы формирования данной компетентности.*

Ключевые слова*: информационно-аналитическая компетентность, педагогические условия, подготовка учителей, образовательные инновации, информационные технологии, навыки анализа, критическое мышление, организация образовательной среды, методологические подходы, интерактивные методы, современная педагогика, учебный процесс, повышение квалификации, самостоятельное обучение, цифровые технологии.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL-ANALYTICAL COMPETENCYE IN FUTURE TEACHERS

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Annotation. *This article analyzes the pedagogical conditions for developing informational-analytical competencye in future teachers. In the context of the formation of an information sociyety, the development of analytical thinking in educators plays a crucial role. The study examines the concyept of informational-analytical competencye, its structural components, and the mechanisms of pedagogical influyencye. Additionally, factors affecting the development of this competencye and effective methods for its formation are sciyentifically explored. The research findings include proposals and recommendations aimed at improving the quality of education in the fiyeld of pedagogy.*

Keywords*: informational-analytical competencye, pedagogical conditions, teacher training, educational innovations, information technologiyes, analytical skills, critical thinking, organization of the educational environment, methodological approaches, interactive methods, modern pedagogy, learning procyess, professional development, independent learning, digital technologiyes.*

KIRISH

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda ta'lim tizimi ham katta o'zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, tahliliy tafakkur va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining ta'lim jarayonida muhim o'rin egallashi natijasida o'qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu kompetentlikning rivojlanishi pedagogikaning nazariy va amaliy asoslariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Pedagogik kompetentlik tushunchasi ta'lim jarayonida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini ifodalaydi. O'z navbatida, axboriy-analitik kompetentlik o'qituvchining axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan samarali foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu esa zamonaviy pedagoglar uchun muhim fazilat hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, axboriy-analitik kompetentlik – bu o'qituvchining axborotni tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan bog'liq kasbiy mahoratidir [13]. Bu fikr xalqaro tadqiqotchilar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, ta'lim jarayonida axborotni tanqidiy tahlil qilish va mos ravishda foydalanish qobiliyati o'qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi [9]. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar axboriy-analitik kompetentlikning ahamiyati haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borganlar. Tadqiqotlarga ko'ra, pedagogning axborot oqimi ichida yo'qolib qolmasligi uchun u axborotni tanqidiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

baholash va uning dolzarbligini aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim [5]. Boshqa tadqiqotda esa, o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki bilimlarni o‘quvchiga qayta ishlash va to‘g‘ri talqin qilishni o‘rgatuvchi shaxs ham bo‘lishi kerakligi ta’kidlangan [1].

Axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlari quyidagilardir:

Ta’lim muhitining axborot bilan ta’minlanganligi – zamonaviy maktab va universitetlar raqamli texnologiyalarga asoslangan materiallar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun ma’lumotlar bazasi, elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar to‘plamlari ochiq bo‘lishi zarur.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar va o‘qituvchilarda mustaqil tahlil qilish, axborotni sinchkovlik bilan baholash, soxta va haqiqatga yaqin axborotni ajrata olish qobiliyatlari shakllantirilishi kerak.

Tadqiqotlarga ko‘ra, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish axboriy-analitik kompetentlikning ajralmas qismi bo‘lib, bu o‘qituvchilarga mustaqil qaror qabul qilish va o‘quv jarayonini yuqori sifatda tashkil qilish imkonini beradi [4].

Interfaol va innovasion metodlarni joriy etish – ta’lim jarayonida muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, amaliy seminarlar va boshqa interfaol usullardan foydalanish orqali axboriy-analitik kompetentlik rivojlantiriladi.

Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, muammoli o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati va tahliliy yondashuvi rivojlantiriladi [12].

Pedagogning o‘z ustida ishlashi – o‘qituvchilar muntazam ravishda ilmiy-innovasion yutuqlarni o‘rganib borishlari, o‘z malakalarini oshirishlari lozim. Bu borada xorijiy tajribani o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida muvaffaqiyatli ishlash uchun o‘qituvchilar nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni qayta ishlash va o‘quvchilarga moslashtirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim [6].

Axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat o‘qituvchining malakasi uchun, balki jamiyatning umumiy axborot savodxonligi darajasini oshirish uchun ham muhimdir. Chunki bugungi kunda feyk yangiliklar, noto‘g‘ri ma’lumotlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

va axborot manipulyasiyasi kabi muammolar mavjud bo‘lib, bu muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglar yetarlicha axboriy-analitik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, ta’lim sifati va o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Shu sababli, pedagogik ta’lim muassasalarida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga katta e’tibor berish lozim. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishiga rahnamolik qiluvchi shaxs hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, innovasion metodlardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish zarur. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning ajralmas qismidir [3]. Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali kelajak avlod pedagoglarini yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga erishish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi qarorida ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning muhimligi ta’kidlangan bo‘lib, bu axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi [10].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ta’lim sohasida o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini rivojlantirish masalasi ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari va tanqidiy fikrlashning integratsiyalashuvi ushbu kompetentlikni rivojlantirishda muhim omillar hisoblanadi. Axboriy-analitik kompetentlikni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun, avvalo, uning ta’rifi va mohiyatiga e’tibor qaratish lozim. Tadqiqotlarga ko‘ra, axboriy-analitik kompetentlik – bu o‘qituvchining axborotni tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi bilan bog‘liq kasbiy mahoratidir [13]. Ushbu fikrga ko‘ra, axboriy-analitik kompetentlik nafaqat

axborotni o‘zlashtirish, balki uni tizimli ravishda tahlil qilish va yangi bilim yaratish jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ushbu kompetentlikning muhimligi ta’kidlanadi. Masalan, ilmiy manbalarga ko‘ra, ta’lim jarayonida axborotni tanqidiy tahlil qilish va mos ravishda foydalanish qobiliyati o‘qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi [9]. Shuningdek, o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qilishi haqida ham tadqiqotlarda qayd etilgan [4]. O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida axboriy-analitik kompetentlikning rivojlantirilishi bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, ilmiy izlanishlarga ko‘ra, o‘qituvchilarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati ularning kasbiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi [7]. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Axborotni qabul qilish va tushunish – o‘qituvchi zamonaviy ta’lim resurslaridan xabardor bo‘lishi kerak.

Axborotni qayta ishlash va tahlil qilish – mavjud ta’lim resurslarini tanqidiy tahlil qilish va ta’lim jarayonida samarali qo‘llash.

Axborotdan foydalanish va uni integratsiyalash – olingan bilimlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularning kasbiy mahoratini yuksaltirish" to‘g‘risidagi qarorida ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning muhimligi qayd etilgan [10]. Xorijiy tadqiqotchilarning fikricha, o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligi ta’lim tizimidagi innovasion o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, zamonaviy ta’lim tizimida muvaffaqiyatli ishlash uchun o‘qituvchilar nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni qayta ishlash va o‘quvchilarga moslashtirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim [6].

Axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali usullaridan biri interfaol o‘qitish texnologiyalarini joriy etish hisoblanadi. Xususan, ilmiy tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish metodini qo‘llash axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [12]. Ushbu metod orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati va tahliliy yondashuvi rivojlanadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning ajralmas qismidir [3].

Interfaol metodlar orqali axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirishda tanqidiy fikrlash metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Muammoli ta’lim texnologiyalari esa o‘quvchilarga mustaqil izlanish imkoniyatini yaratish orqali ularning tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi. Shuningdek, axborot-kommunikasion texnologiyalar (AKT) interfaol ta’lim vositalaridan foydalanish orqali ma’lumotlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligi faqat axborotni to‘plash bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash bilan bog‘liq [13]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta’lim tizimida eng dolzarb masalalardan biridir. Ilmiy tadqiqotlar ushbu kompetentlikni rivojlantirish uchun interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash yondashuvlari va raqamli texnologiyalarning ahamiyatini ta’kidlaydi [4]. O‘zbek olimlari axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlariga alohida e’tibor qaratgan holda, o‘qituvchilarning ushbu sohadagi bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ilgari surmoqda [1]. Shu bois, kelajakdagi tadqiqotlarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovasion metodlarning samaradorligini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini o‘rganish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va

samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

1. Axboriy-analitik kompetentlikning mohiyati va tarkibiy qismlari aniqlab berildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, axboriy-analitik kompetentlik o‘qituvchilarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishlash va o‘quvchilarga yetkazish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetentlikning tarkibiy qismlari quyidagicha ajratib olindi. Birinchidan, “axborotni qabul qilish” – o‘qituvchi turli manbalardan axborot olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, “axborotni saralash va tahlil qilish” – olingan axborotni tanqidiy baholash, uni to‘g‘ri va noto‘g‘ri manbalardan ajratish [13]. Uchinchidan, “axborotni tizimlashtirish va qayta ishlash” – mavjud bilim va tajribaga asoslanib, axborotni yangi formatda ishlab chiqish [7]. To‘rtinchidan, “axborotni samarali yetkazish” – o‘quvchilarga tushunarli shaklda axborotni yetkazish va ularga mustaqil tahlil qilishga imkon yaratish [4]. Ushbu tarkibiy qismlar asosida axboriy-analitik kompetentlikning ilmiy modeli ishlab chiqildi va ta’lim jarayonida samarali tatbiq etish yo‘llari belgilandi.

2. O‘zbekiston ta’lim tizimida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish sharoitlari tahlil qilindi

O‘zbekistonda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga oid mavjud shart-sharoitlar o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi asosiy omillar ushbu kompetentlikni rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Birinchidan, “ta’lim dasturlarida axborot tahlili va tanqidiy fikrlash elementlarining yetishmovchiligi” – mavjud o‘quv dasturlarida bu kompetentlik yetarlicha aks etmagan [10]. Ikkinchidan, “o‘qituvchilarning axboriy texnologiyalarni qo‘llash tajribasining turlicha darajada bo‘lishi” – ba’zi o‘qituvchilar ilg‘or usullardan foydalansa, boshqalari hali ham an’anaviy yondashuvlardan foydalanmoqda [3]. Uchinchidan, “metodik qo‘llanmalarning kamligi” – axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus metodik materiallarning yetarli emasligi [6]. To‘rtinchidan, “o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji” – aksariyat pedagoglar axborot bilan ishlash bo‘yicha qo‘shimcha trening va malaka oshirish kurslariga ehtiyoj sezmoqda [1]. Bu omillar asosida axboriy-analitik

kompetentlikni rivojlantirish uchun qanday shart-sharoitlar yaratish lozimligi aniqlandi.

3. Tadqiqot natijalariga asoslanib, o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha eng samarali metodik yondashuvlar belgilandi. Birinchidan, "Muammolarni yechish asosidagi ta’lim (Problem-Based Learning – PBL)" metodidan foydalanish o‘qituvchilarga mustaqil tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodologiya bo‘yicha mashg‘ulotlar muammoli vaziyatlarni yaratish, muhokama qilish va mustaqil echim topish tamoyillariga asoslanadi [12].

Ikkinchidan, "Tanqidiy fikrlash strategiyalari (Critical Thinking Strategiyes)" metodikasi axborotni baholash va mustaqil fikrlashning muhim qismi hisoblanadi. Tadqiqot davomida quyidagi usullar samaradorligi aniqlandi: "Fakt va fikrni ajratish" – o‘qituvchilar axborotning ishonchliligini aniqlashga o‘rganadi [4], va "Dalillar asosida fikr bildirish" – axborot tahlili va fikr-mulohazalar bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6].

Uchinchidan, "Klasterlash va grafik tahlil (Mind Mapping & Graphic Organizers)" usuli yordamida o‘qituvchilar axborotni vizual tarzda tizimlashtirish orqali uni yaxshiroq tushunish va tushuntirishga o‘rganadi. Bu usul axborot oqimini boshqarish va uni o‘quvchilarga aniq yetkazishda samarali hisoblanadi [3].

To‘rtinchidan, "Tahliliy yozish amaliyoti (Analytical Writing Practicyes)" orqali o‘qituvchilarni mavjud axborotni yozma shaklda qayta ishlashga o‘rgatish axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning muhim usullaridan biri ekanligi aniqlandi. Bu usul quyidagilarga asoslanadi: "Matn tahlili va qayta yozish" – axborotdan foydalanish va uni qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish [13], va "Dalillar asosida argument keltirish" – axborot manbalarining ishonchliligini baholash va ularni taqqoslash [9].

Ushbu metodik yondashuvlar asosida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Pedagog kadrlar tayyorlash dasturlariga axboriy-analitik kompetentlik bo‘yicha maxsus modullarni kiritish

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

zarurati aniqlandi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun axboriy tahlil va tanqidiy fikrlash bo‘yicha maxsus seminar-treninglar tashkil etish muhimligi qayd etildi. Axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron resurslar va platformalar yaratish ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun tanqidiy fikrlash va axborot tahliliga oid maxsus o‘quv qo‘llanmalarni nashr etish ham zarur ekanligi ta’kidlandi. Shu bilan birga, axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlariga interfaol metodlarni keng joriy etish tavsiya etildi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, uning samarali shakllanishi uchun innovasion pedagogik metodlardan foydalanish zarur. O‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish, axborot tahlili va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirish mumkin [6]. Mazkur natijalarga asoslanib, axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular keyingi tadqiqotlarda amaliyotga tatbiq etilishi mumkin [10].

XULOSA

O‘zbekiston ta’lim tizimida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash qobiliyatlari zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, ularning professional rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish, o‘quv jarayonida samarali metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarning ushbu sohadagi bilimlarini oshirish bo‘yicha muayyan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi [13]. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri shundaki, axboriy-analitik kompetentlik – bu o‘qituvchilarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan pedagogik faoliyatda foydalanish qobiliyatidir [7]. Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchilar uchun ushbu kompetentlik axborotning ko‘payishi, noto‘g‘ri manbalarning keng tarqalishi va tanqidiy fikrlashning talab etilishi sababli alohida ahamiyat kasb etadi [6].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham ushbu kompetentlikning ta’lim tizimidagi o‘rni haqida o‘z ilmiy ishlarida qayd etib o‘tishgan. Masalan, ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha:

"Axboriy-analitik kompetentlikning shakllanishi o‘qituvchining nafaqat kasbiy mahoratini, balki uning shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Bugungi axborot asrida ushbu kompetentlik yetishmovchiligi o‘qituvchi faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin" [4].

Shuningdek, boshqa tadqiqotlarda axboriy-analitik kompetentlik "o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularga aniq va to‘g‘ri axborot yetkazish hamda o‘z faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish qobiliyati" sifatida izohlangan [3].

Tadqiqot davomida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish uchun bir qator strategiyalar taklif qilindi. Birinchi navbatda, o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar axborot oqimini baholash, noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlash va faktlar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Tadqiqotlarga ko‘ra, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish axboriy-analitik kompetentlikning ajralmas qismi bo‘lib, bu o‘qituvchilarga mustaqil qaror qabul qilish va o‘quv jarayonini yuqori sifatda tashkil qilish imkonini beradi [12]. Shuningdek, axborotni qayta ishlash va tizimlashtirish metodikasini keng joriy etish ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, klasterlash, grafik tahlil va axborot xaritalari kabi metodlar o‘qituvchilarga axborotni tizimli tahlil qilishda katta yordam beradi [9]. Axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilarning kompetentligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, raqamli ta’lim platformalari va virtual kutubxonalar katta ahamiyatga ega [10]. Tadqiqotlarga ko‘ra, “O‘qituvchilar uchun innovasion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish axborotni samarali boshqarish va uni o‘quvchilarga tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi” [8]. Bundan tashqari, o‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish ham zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar axborot bilan ishlash bo‘yicha muntazam ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi lozim. Shu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sababli, ta'lim muassasalarida axborot tahlili va tanqidiy fikrlash bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etish muhimdir [6]. Hozirgi ta'lim dasturlarida axboriy-analitik kompetentlik bo'yicha alohida darslar yoki modullar yetishmaydi. Shu sababli, ta'lim muassasalarida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish tavsiya etiladi [1]. Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u axboriy-analitik kompetentlikning pedagogik jarayondagi o'rni va rivojlanish yo'llarini ilmiy asosda aniqlaydi [7]. Tadqiqot davomida olingan natijalar pedagogika fanining zamonaviy muammolarini hal qilishga qaratilgan yangi nazariy yondashuvlar va ilmiy modellarga asos bo'lishi mumkin [5]. Amaliy ahamiyati esa shundaki, u o'qituvchilarni axborotni samarali boshqarish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va pedagogik jarayonda innovasion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar bilan ta'minlaydi [13].

Mazkur tadqiqot natijalari axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha muhim xulosalar beradi, biroq kelgusida ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish zarurati mavjud. Kelajakdagi tadqiqotlarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan aniq pedagogik metodlarning samaradorligini empirik tadqiq qilish, zamonaviy texnologiyalarning o'qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligiga ta'sirini baholash va xalqaro tajribani o'rganib, O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish yo'nalishlarida izlanishlar olib borish tavsiya etiladi [3, 4, 10]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axboriy-analitik kompetentlik o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va samarali pedagogik faoliyat olib borishida muhim ahamiyat kasb etadi [12]. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish uchun innovasion metodlardan foydalanish, o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va ta'lim dasturlariga maxsus modullar kiritish zarur [6].Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston ta'lim tizimida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni taklif etadi [9]. Kelgusida ushbu yo'nalishda keng qamrovli empirik tadqiqotlar olib borish, pedagogik jarayonda innovasion texnologiyalardan yanada samarali foydalanish va o'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, A. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim jarayonida axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.
2. Asqarova, N. (2023). O'qituvchilarning axborot bilan ishlash qobiliyatlarini shakllantirishda innovasion texnologiyalarning o'rni. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.
3. Belyakov, D. (2022). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchilar malakasini oshirishdagi o'rni. Moskva: Pedagogika Instituti.
4. Brookfiyeld, S. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniquyes to Help Students Quyestion Their Assumptions. San Francisco: Jossey-Bass.
5. Davydov, V. V. (2008). Development of Thinking in Learning. Moscow: Pedagogy Press.
6. Fullan, M. (2011). Change Leader: Learning to Do What Matters Most. San Francisco: Jossey-Bass.
7. Jo'rayev, N. (2021). O'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
8. Karimova, D. (2021). Zamonaviy ta'lim jarayonida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish yo'llari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 3(2), 85-92.
9. Newman, J. (2015). Critical Thinking and Education. Cambridge University Press.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019). O'qituvchilarning malakasini oshirish va ularning kasbiy mahoratini yuksaltirish to'g'risidagi qaror.
11. Rajabov, U. (2022). O'qituvchilarning axborotni tahlil qilish va tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari. O'zbekiston pedagogik innovatsiyalar markazi ilmiy to'plami, 7(1), 50-58.
12. Salomov, T. (2020). Muammoli o'qitish metodlari va axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish. Samarqand: Pedagogika va Psixologiya Nashriyoti.
13. Xodjayev, G'. (2022). Axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirishning nazariy va metodik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
14. Xudoyberdiyev, B. (2020). Tanqidiy fikrlashni shakllantirish va axboriy-analitik kompetentlikni oshirish. Toshkent: Ma'naviyat Nashriyoti.

TALABALAR UCHUN ELEKTR ZANJIRLARIDA UMUMIY QARSHILIKNI HISOBLASH METODIKASI

Ramatova Maftuna Ulug'bek qizi *– Nukus DPI talabasi.*
D. G'. Xajibayev *– Nukus DPI "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasi assistent o'qituvchi;*
A. S. Jalekeshov *– Nukus DPI "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, f.-m.f.b. PhD;*

Annotatsiya: *Maqolada elektr zanjiridagi umumiy qarshilikni hisoblash masalasi yoritilgan. Muallif, ikki nuqta orasidagi qarshilikni bosqichma-bosqich soddalashtirish orqali umumiy qarshilikni aniqlash metodikasini tushuntirgan. Bu jarayonda parallel va ketma-ket ulangan qarshiliklarni hisoblash qoidalaridan foydalanilgan. Ko'rsatilgan metodika yordamida murakkab elektr zanjirlarini soddalashtirish va ularning umumiy qarshiligini hisoblash mumkinligi ta'kidlangan. Bunday usul boshqa shunga o'xshash masalalarni yechishda ham qo'llanilishi mumkinligi aytilgan.*

Kalit so'zlar: *elektr qarshilik, qarshiliklarni ketma-ket ulash, qarshiliklarni parallel ulash, zanjir analizi, qarshiliklarni soddalashtirish, umumiy qarshilikni hisoblash.*

МЕТОДИКА РАСЧЕТА ОБЩЕГО СОПРОТИВЛЕНИЯ В ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ЦИКЛАХ ДЛЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В статье рассматривается проблема расчета общего сопротивления в электрической цепи. Автор объясняет пошаговую методику определения общего сопротивления между двумя точками путем упрощения схемы. Этот процесс включает применение правил расчета сопротивлений при последовательном и параллельном соединениях. Подчеркивается, что данная методика может быть использована для упрощения сложных электрических цепей и расчета их общего сопротивления. Такой подход также применим для решения других подобных задач*

Ключевые слова*: электрическое сопротивление, последовательное соединение сопротивлений, параллельное соединение сопротивлений, анализ цепей, упрощение сопротивлений, расчет общего сопротивления.*

METHODOLOGY FOR CALCULATING TOTAL RESISTANCE IN ELECTRICAL CYCLES FOR STUDENTS

Annotation: *The article discusses the problem of calculating the total resistance in an electrical circuit. The author explains a step-by-step methodology for determining the total resistance between two points by simplifying the circuit. The process involves applying the rules for calculating resistances in series and parallel connections. It is emphasized that this*

methodology can be used to simplify complex electrical circuits and calculate their total resistance. The approach is also applicable to solving other similar problems.

***Key words**: electrical resistance, series connection of resistances, parallel connection of resistances, circuit analysis, simplifying resistances, calculation of total resistance.*

KIRISH

Fizika kattalik sifatida eleketr qarshilik elektr zanjirining eng muhim parametrlaridan hisoblanadi. U elektr toki o‘tishiga qarshilik qilish xususiyatini ifodalaydi. Undan elektr texnika, elektronika va fizika fanini o‘qitishda keng foydalaniladi. Elektr qarshilik haqidagi dastlabki bilimlar maktab davridanoq berila boshlaydi. Ta’limning keyingi bosqichlarida elektr qarshiliklar haqidagi chuqurlashtirilgan bilimlar berila boradi.

Ketma-ket va parallel ulanishlar bo‘yicha hisoblash qoidalari va aralash ulashli murakkab elektr zanjirlarini soddalashtirish metodlari o‘qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan izlanishlar o‘quvchilarning bu turdagi masalalarda qiynalishlarini, ayniqsa aralash ulanishlarni bosqichma-bosqich tahlil qilib tushuntirish zarurligini ko‘rsatadi [1-3].

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, soddalashtirish va har bir qadamni alohida tahlil qilish o‘quvchilarning mavzuni tushinish darajasini ancha oshiradi [4-7]. Bundan tashqari, zamonaviy o‘quv dasturlarida elektr zanjirlarining modellashtirilgan ko‘rinishlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni amaliy muammolarni hal qilishga tayyorlash tavsiya etiladi. Shu sababli, bu maqolada murakkab elektr zanjiridagi umumiy qarshilikni bosqichma-bosqich soddalashtirish va hisoblashning metodikasini yoritishga harakat qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Elektr qarshilik R harfi bilan belgilanadi va uning birligi Om bo‘lib, bu birlik Ω shaklida belgilanadi. S ko‘ndalang kesimi doimiy bo‘lgan l uzunlikdagi o‘tkazgich qismining qarshiligi quyidagi formuladan hisoblanadi [1,7]

$$R = \rho \cdot \frac{l}{S}. \qquad (1)$$

Bunda ρ – o‘tkazgich materialigagina bog‘liq bo‘lgan kattalik bo‘lib, uni solishtirma qarshilik deyiladi. Bizga bir nechta qarshiliklar berilgan taqdirda, kerakli

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

miqdordagi qarshilikni hosil qilish uchun ularni bir-biriga qandaydir shaklda ulashimiz kerak bo‘ladi.

Elektr qarshiliklar bir biriga ketma-ket, parallel yoki aralash tarzda ulangan bo‘lishi mumkin. O‘tkazgichga boshqa o‘tkazgich ketama-ket ulanganda zanjirdagi qarshilik ortadi. Bunday holatdagi umumiy qarshilik (R_{kk})

$$R_{kk} = R_1 + R_2 + \cdots + R_n \quad (2)$$

formuladan hisoblanadi. Indekslarda raqamlar ulanayotgan o‘tkazgichlar sonini bildiradi. O‘tkazgichlar bir-biriga parallel ulangandagi umumiy qarshilik kamayadi. Parallel ulangan o‘tkazgichlar zanjiridagi umumiy qarshilik (R_p) quyidagi

$$\frac{1}{R_p} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \cdots \frac{1}{R_n} \quad (3)$$

formula yordamida hisoblanadi.

Aralash ko‘rinishda ulangan elektr zanjiridagi qarshiliklarni hisoblash o‘quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bunday holatda o‘qituvchi zanjirni soda ko‘rinishga keltirib, maslani yechish yo‘lini tushuntirishi zarur bo‘lib qolishi mumkin. Keling yuqoridagi formulalardan foydalangan holda aralash turda ulangan elektr zanjiridagi umumiy qarshilikni hisoblashga oid masalani qarab chiqaylik.

Masala. Rasmdagi elektr zanjirda K va L nuqtalar orasidagi umumiy qarshilikni hisoblang?



1-rasm. Elektr zanjiri

1-rasmdagi elektr zanjiridagi umumiy qarshilikni hisoblash o‘quvchilarga biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun biz zanjirni soddalashtirib chizib berishimiz kerak. Bu soddalshtirish 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Soddalashtirilgan elektr zanjiri

2-rasm ko‘rinishida soddalashtirish berilgandan keyin hisob kitobni boshlashimiz mukin bo‘ladi. Dastlab zanjirni qismlarga bo‘lib belgilab olamiz. Bir raqami bilan belgilangan 6 Ω va 3 Ω li ikkita qarshilik parallel ulangan. Ulardagi umumiy qarshilikni 3-formuladan quyidagicha topamiz.

1. $\frac{1}{R_{p1}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} = \frac{1}{6} + \frac{1}{3} = \frac{1}{2}$ bundan kelib chiqadiki, $R_{p1} = 2\Omega$.

Ikki raqami bilan belgilangan 3 ta (har biri 4 Ω li) qarshilik va uch raqami bilan belgilangan 2 ta (har biri 2 Ω li) qarshilik ketma-ket ulangan. Ularning umumiy qarshiligini 2-formuladan foydalanib, quyidagicha topamiz

2. $R_{kk1} = R_1 + R_2 + R_3 = 4 + 4 + 4 = 12\ \Omega$,
3. $R_{kk2} = R_1 + R_2 = 2 + 2 = 4\ \Omega$.

To‘rt raqami bilan belgilangan 2 ta (4 Ω va 12 Ω li) qarshilik parallel ulangan. Bu qismdagi umumiy qarshilik 3-foruladan quyidagicha hisoblanadi,

4. $\frac{1}{R_{p2}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} = \frac{1}{4} + \frac{1}{12} = \frac{1}{3}$. Bundan kelib chiqadiki, to‘rtinchi qismdagi umumiy qarshilik $R_u = 3\Omega$ ekan.

Besh raqami bilan belgilangan qismidagi 3 ta (5 Ω, 2 Ω va 3 Ω li) va olti raqami bilan belgilangan qismidagi 2 ta (4 Ω va 6 Ω) qarshiliklar o‘zaro ketma-ket ulangan. Ulardagi umumiy qarshilik 2-formuladan foydalanib hisoblanadi,

5. $R_{kk3} = R_1 + R_2 + R_3 = 5 + 2 + 3 = 10\ \Omega$
6. $R_{kk4} = R_1 + R_2 = 4 + 6 = 10\ \Omega$.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Raqamlar bilan belgilab olingan har bir qismlardagi qarshiliklar hisoblab topilgach, ularni belgilangan qismlarga o‘rniga qo‘yib zanjirni qayta chizamiz (3-rasm).



3-rasm.

Bu zanjirda ham ketma-ket va parallel ulangan qismlarini bellgilab olib, belgilangan qismlarining umumiy qarshiliklarini hisoblab olamiz

1. $R_{kk5} = R_1 + R_2 = 6 + 2 = 8\ \Omega$,
2. $\frac{1}{R_{p3}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} = \frac{1}{4} + \frac{1}{12} = \frac{1}{3}$ demak, $R_{p3} = 3\Omega$,
3. $R_{kk6} = R_1 + R_2 = 3 + 3 = 6\ \Omega$,
4. $\frac{1}{R_{p4}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} = \frac{1}{10} + \frac{1}{10} = \frac{1}{5}$ demak, $R_{p4} = 5\Omega$.

Hisoblangan umumiy qarshiliklarni zanjirdagi belgilangan qism qarshiliklari o‘rniga olib boramiz. Natijada zanjir quyidagi ko‘rinishga keladi (4-rasm).



4-rasm

Yana, zanjirda qismlari belgilab olib, bu qismlardagi umumiy qarshilikni hisoblaymiz

1. $R_{kk7} = R_1 + R_2 = 1 + 3 = 4\ \Omega$,
2. $R_{kk8} = R_1 + R_2 = 5 + 1 = 6\ \Omega$.

Keyin yana yuqoridagi ishni takrorlab zanjirni soddalashtiramiz (5-rasm).



5-rasm

Bu zanjirda ham belgilangan qismlarining umumiy qarshiliklarini hisoblab olamiz

1. $\frac{1}{R_{p5}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} = \frac{1}{8} + \frac{1}{8} + \frac{1}{4} = \frac{1}{2}$ bundan kelib chiqadiki, $R_{p5} = 2\Omega$,
2. $\frac{1}{R_{p6}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} = \frac{1}{6} + \frac{1}{6} + \frac{1}{6} = \frac{1}{2}$ bundan kelib chiqadiki, $R_{p6} = 2\Omega$.

Zanjirning soddalshtirilgan yakuniy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi (6-rasm).



6-rasm.

1-rasmda berilgan zanjirning K va L qismlari orasidagi umumiy qarshilik (R_u) soddalashtirishlardan keyin 2-formuladan hisoblanadi,

$$R_u = R_{p5} + R_{p6} = 1 + 3 = 4\ \Omega.$$

Demak zanjirning K va L qismlari orasidagi umumiy qarshilik $4\ \Omega$ ga teng bo‘ladi.

Keltirilgan metodika murakkab elektr zanjirlarida umumiy qarshilikni aniqlashni ancha yengillashtiradi. Talabalar va o‘quvchilar uchun bu usulning afzalligi shundaki, har bir bosqichda faqat bitta formuladan foydalaniladi va soddalashtirish natijasi kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bosqichma-bosqich soddalashtirib tushuntirish yondashuvi murakkab ulanishga ega zanjirlarni o‘rganishga samarali hisoblanib, o‘quvchilar masalani tezroq tushinib oladilar.

XULOSA

Bu maqolada zanjirni bir necha marta soddalashtirilgan ko‘rinishga keltirish orqali, zanjirdagi umumiy elektr qarshilikni hisoblab tushuntirish metodikasi keltirilgan. Albatta bu hisoblashni birinchi soddalashtirish, ya’ni faqat 2-rasmdan foydalangan holda ham amalga oshirish mukin. Lekin, bunday holatda o‘quvchilarning ko‘pchiligida masala yechimini tushunishda chalkashlik bo‘lishi mumkin. Bir nechta masalani bu ko‘rinishda yechib bergandan keyin, boshqa shu tipdagi masalalarni bir marta soddalashtirish orqali ham yechib ketish mumkin bo‘ladi. O‘quvchilar oldingi masalalarda soddalashtirish ketma-ketligini tushunib olgani uchun, keying masalalarda qiynalmaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. С. Э. Фри шва А. В. Тиморева. Умумий физика курси II том Электр ва электромагнит ҳодисалар «Ўқитувчи» нашриёти, Тошкент – 1972
2. И.Е.Иродов. Задачи по общей физике. М.: «Наука», 1979. – 369 с.
3. D. Halliday, R. Resnick, J, Walker. Fundaamentals of Physics. Wiley, 2014.
4. C.K. Alexander, M. N. O. Sadiko. Fundamentals of electric Circuits. McGraw-Hill, 2017.
5. R.C. Dorf, J.A. Svoboda. Introduction to electric circuits. Wiley, 2020.
6. R. Chabay, B. Sherwood. Matter and interactions. Wiley, 2015.
7. A.A. Tulyaganov, S.S. Parsiyev, V.A. Tulyaganov, U.M. Abdullayev. Elektr zanjirlar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2018.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIX FANLARINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Nabiyev Boxodir Muxamadumar o‘g‘li
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchi.
97 217 32 42 nabiyevbohodi94@gmail.com

Abstrakt. *Ushbu maqolada o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanlarining o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Tarix darslarining didaktik imkoniyatlari, ularning yosh avlodda milliy g‘urur, tarixiy xotira va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi roli asosli misollar bilan tahlil qilingan. Maqolada metodik yondashuvlar asosida tarix fani orqali vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, tarix fanlari, yosh avlod, tarbiya, milliy g‘urur, tarixiy xotira, metodika, milliy ong.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Боходир Набиев
Преподаватель кафедры социально-экономических наук и методики преподавания языков Центра педагогического мастерства Наманганской области

Абстрактный. *В данной статье подробно освещается роль и значение исторических наук в воспитании учащейся молодежи в духе патриотизма. Анализируются дидактические возможности уроков истории, их роль в формировании у подрастающего поколения национальной гордости, исторической памяти и гражданской позиции на основе убедительных примеров. В статье предлагаются научно-теоретические и практические рекомендации по формированию патриотических чувств посредством преподавания истории с опорой на методические подходы.*

Ключевые слова: *патриотизм, исторические науки, молодое поколение, воспитание, национальная гордость, историческая память, методика, национальное сознание.*

EFFECTIVE WAYS OF USING MODERN TEACHING METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Bokhodir Nabiyev
Teacher at the Department of Socio-Economic Sciences and Language Teaching Methods at the Center for Pedagogical Excellence in Namangan Region

Abstract. *This article extensively highlights the role and significance of history as a subject in fostering patriotism among students. The didactic potential of history lessons and their role in shaping national pride, historical memory, and civic consciousness in the younger generation are analyzed with well-founded examples. The article puts forward scientific-theoretical and practical recommendations for developing patriotic values through the teaching of history, based on methodological approaches.*

Keywords: *patriotism, history studies, young generation, education, national pride, historical memory, methodology, national consciousness.*

KIRISH

O‘quvchilarda vatanga bo‘lgan muhabbatni yoki vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirishda tarix va tarbiya fanlarini o‘rni beqiyos hisoblanadi. Albatta, tarix fanlarini o‘qitish orqali o‘qitish orqali o‘tmishimizdagi buyuk ajdodlarimizning amalga oshirgan buyuk ishlari haqida ma’lumotlar berib boriladi. Zero bejizga “Tarixiy xotirasiz-kelajak yo‘q” deb aytilmagan. Har qanday jamiyatning istiqboli, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy kamoloti bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Bunda eng samarali vositalardan biri bu tarix fanidir. Chunki tarix-bu millatning xotirasi, o‘zligini anglash va qadriyatlarini tiklash vositasi hisoblanadi. Insonlar tarix fanini o‘rganish orqali o‘tmishda qilingan xato va kamchiliklar turli xil fojealarni oldini olishi va ushbu holatlar yuzasidan xulosalar chiqarishni o‘rganadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fani asosan o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, Vatan qadriyatlariga ongli sadoqat, o‘z mamlakati va uning tarixiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan. Tarix darslarida vatanparvarlik tarbiyasining o‘rni va ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Bu fan o‘quvchilarga o‘z mamlakatining jamiyat tarixidagi o‘rni, zamonaviy dunyoni shakllantirishdagi rolini tushunish imkonini beradi. Jamiyat tarixi va faoliyatini bilish hozirgi vaqtda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni yaxshiroq tushunishga, shuningdek, asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ushbu darslar vatanparvarlik tarbiyasi, vatanparvarlik mas’uliyati, sivilizatsiya va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z mamlakatining an’analari, tarixiy davrlari va yutuqlari bilan tanishadilar, bu esa o‘z Vatanidan g‘ururlanish, uning

taqdirida ishtirok etish istagini uyg‘otadi. Shuningdek, o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘usini, o‘z vatanini himoya qilish va rivojlantirishga mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ular jamoada muloqot qilishni, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishni, faol va tashabbuskor fuqaro bo‘lishni o‘rganadilar Vatanparvarlik tarbiyasi Tarix fani o‘qituvchilari uchun – Vatan tarixi, uning madaniyati qadr-qimmati haqidagi bilimlarni aniqlashdan boshlanadi. Ona tiliga, o‘z xalqining milliy madaniyatiga muhabbat, Vatan tarixini bilish - vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Vatanni himoya qilishda xalqning qahramonligi, fidoyilik, rahm – shafqat, axloqiy poklik-bu g‘oyalar zamonaviy hayotda dolzarbdir. Zamonaviy pedagogikada o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosini muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradigan ko‘plab hujjatlar va materiallar mavjud. O‘quvchilarda bu borada quyidagi usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi: 1) O‘quvchilarni ijtimoiylashtirish, fuqarolik madaniyatini shakllantirish, demokratik, huquqiy davlat qadriyatlari bilan tanitish, va ularga fuqarolik jamiyati asoslari haqida tushunchalarni shakllantirish; 2) Vatanimiz taqdiriga daxldorlik misolida vatanparvarlik va fuqarolikni tarbiyalash; 3) O‘zbek milliy tarixi va madaniyati qadriyatlarini saqlashga qaratilgan yaxlit, o‘ziga xos, erkin, insonparvar shaxs sifatida axloqiy shaxs obrazini shakllantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag - tomirigacha nazar tashlaymiz". Binobarin, haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so‘z baxsh etuvchi, saltanatlarni qayta yaratuvchi, o‘tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko‘z o‘ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo‘jizadir. Uning ma’naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo‘amiz, ular bilan goh suyib, goh kuyib, dilimizni rag‘batlantiruvchi, hislarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe’l - atvorlar dunyosiga oshno bo‘lamiz. Yoshlarda mavkuraviy dunyoqarashini mustahkamlashda muzeylar amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bugunni ertangi kun bilan chambarchas bog'lab turuvchi ko‘prik sanalgan muzeylarimiz faoliyatida ham ayrim muammolar yo‘q emas. Bugun yoshlar oldidagi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

dolzarb mamalalardan yana biri, muzeylarimiz zahirasini boyitish uchun amaliy san'at asarlarini yig‘ish, ulardagi nodirlik, noyoblik, xolisiylik, tarixiylik jihatlarini o‘rganib chiquvchi mutaxassislarni ko‘paytirish masalalaridir.[1] Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Tarixni bilmaydigan, o‘z o‘tmishidan saboq olmaydigan xalq hech qachon buyuk maqsadlarga erisha olmaydi”[2]. Tarix fanini chuqur o‘rganish orqali yosh avlod o‘z o‘tmishini anglaydi, kelajagiga mas’uliyat bilan yondashadi. Demak, tarixni o‘rgatish faqat bilim berish emas, balki ma’naviy shakllanishga xizmat qiluvchi omil sifatida qaralishi zarur.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek “Modomiki o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan millatni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni, ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur”[3].

Tarix darslarida vatanparvarlik g‘oyasini singdirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llash mumkin:

1. Tarixiy shaxslar namunasi: Tarix darslarida buyuk ajdodlarimiz – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Zahiriddin Muhammad Al-Xorazmiy kabi shaxslarning shuningdek, jadidlarimizning vatanparvarlik faoliyati asosida darslar tashkil etiladi. Ushbu shaxslar bizning yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan, ularning amalga oshirgan ishlari katta bir jasorat hisoblanadi. Bu shaxslar faoliyatini zamonaviy qahramonlik bilan taqqoslab, yoshlar ongiga milliy g‘urur singdiriladi.

Miloddan avvalgi VI asrda saklar va massagetlar Doro I boshchiligidagi qudratli qushinning kulini ko‘kka sovurdilar. Yengilmas sanalgan Aleksandr Makedonskiy qushinlariga esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi kichik bu hududni o‘ziga bo‘ysundirish uchun uch yil kerak bo‘ldi. Markaziy Osiyo xalqlarining qurolli tuzilmalari shu kabi arab qushinlari hamda Chingizxon cheriklariga ham muvaffaqqiyatli qarshi turdilar. O‘zbekiston hududida tashkil topgan qo‘shilmalar va qismlar Ikkinchi jahon urushi paytida fashizmni tor-mor qilishda juda faol qatnashib o‘zlarini misli ko‘rilmagan shon-shuhratga burkadilar. Bu esa jasorat eskirmas qadriyat ekanligidan dalolat beradi.[4]

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ko‘hna tarixda Vatan uchun jon fido qilgan olovqalb ajdodlarimizning nomlari aslo unutilmaydi. Hozirgi kun yoshlariga ibrat bo‘larli umr sohibi, buyuk vatandoshlarimizdan biri Najmiddin Kubro Chingizxondek zolimning marhamatidan Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashda qurbon bo‘lishni afzal ko‘rdi va o‘zining ibratomuz fidokorligi bilan vatanparvarlik yosh tanlamasligini, yurtiga mehri kuchli inson hatto 76 yoshida ham dushmanga qarshi jang qilishga o‘zida kuch topa olishi mumkinligini isbotladiki, bu Vatanga sadoqat, xalqiga muhabbatning oliy ko‘rinishidir. Mo‘g‘ullar zulmiga qarshi kurashgan Najmiddin Kubro jasoratiga bag‘ishlab, Jaloliddin Rumiy o‘z ruboiysida “biz o‘lganda ham o‘z e’tiqodiga sobit qoladiganlar naslidanmiz” deb yozgan edi[5]. Ya’ni alloma bizni ajdodlarimiz hech qachon vatanga bo‘lgan sadoqatidan voz kechmaganligini aytib o‘tadi.

Xalqimizning mard, jasur, vatanparvar farzandlaridan yana biri, harb san’ati bilimdoni Jaloliddin Manguberdi esa Vatanni ozod ko‘rmoq istagida ko‘p ming sonli mo‘g‘ul lashkariga Alpomishdek na’ra tortib, hamla qildi. Garchand u dushmanni to‘la yengolmagan bo‘lsada, ularning saflarini parokandalikka uchratdi. Undagi jasorat, metin iroda, Vataniga, xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbat Chingizxondek sarkardani ham qoyil qoldirdi.Mirzo Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi” kitobida Jaloliddin Manguberdi haqida Chingizxonning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Otadan hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan. U sahroda sher kabi g‘olib, daryoda nahang kabi qudratli”, Ushbu so‘zlar buyuk mo‘g‘ul sarkardasini Jaloliddin Manguberdi jasorati va qudratiga tan berganidan dalolat beradi. Albatta ushbu fikrlar o‘quvchilarda Jaloliddin Manguberdiga bo‘lgan g‘urur iftihor tuyg‘ularini shakllantiradi[6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarixiy voqealarni tahlil qilish: Vatan ozodligi va erkinligi yo‘lida olib borilgan kurashlar- Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklaridagi harakatlar, Turkiston general-gubernatorligiga qarshi kurashlar va mustaqillik davridagi siyosiy yutuqlar tarixi o‘quvchilarda o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Tarixiy voqealarni tahlil qilish orqali yurtimiz tarixidagi xato va kamchiliklarni oldini olish bo‘yicha mulohazalar yuritishni shakllantirib boriladi.

Interaktiv metodlar: Darslarda tarixiy rolli o‘yinlar, munozaralar, viktorinalar, esse yozish va multimedia taqdimotlaridan foydalanish orqali mavzular

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qiziqarli va ta'sirchan bo'ladi[7]. O'quvchilarda o'sha davrdagi muhit sharoiti haqidagi tushunchalarni yuksaltirish orqali ularda darsga bo'lgan faollikni yanada kuchaytirish.

Mahalliy tarix asosida ta'lim: Har bir o'quvchining tug'ilgan joyi yoki yashayotgan hududi tarixidan misollar keltirish orqali ularda o'z yurti bilan faxrlanish hissi ortadi. Avvalo ushbu yo'nalishda o'quvchilarning o'zlari yashab turgan hududi ya'ni, mahalla va qishlog'i haqida ma'lumotlar olish va qo'shimcha ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Keyin esa yurtimizning qadimiy shaharlari Buxoro va Samarqand kabi tarixiy shaharlari haqida ma'lumotlar taqdim etish orqali o'quvchilarda yurtimizning qadimiy shaharlariga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish mumkin.

Amaliy kuzatuvlar va metodik tajribalar asosida aniqlanishicha, tarix darslarida vatanparvarlik ruhini singdirishga yo'naltirilgan faoliyatlar quyidagi natijalarni olish mumkin:

- O'quvchilarda tarixiy ong va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi;
- O'zbek xalqining boy tarixiy merosi haqida bilimlar ortadi;
- Milliy qadriyatlarga hurmat va iftixor tuyg'usi kuchayadi;
- Mustaqillik g'oyasining ijtimoiy-ma'naviy asoslari chuqurroq anglaydi. Bundan tashqari mamalakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lidagi qahramonliklar haqida o'quvchilar tushunchalar kengayadi. Bu esa juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarix fanini vatanparvarlik tarbiyasi vositasi sifatida qo'llash orqali maktab muhitida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanmoqda, bu esa butun ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarix fanining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Tarix o'quvchilarning faqatgina bilim manbai bo'lib qolmay, balki ularning ma'naviy shakllanishida, fuqarolik pozitsiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi bu jarayonda faollik ko'rsatishi zarur. Shunigdek tarixiy voqea va hodisalarga xolis yondoshmoqlik kerak. Chunki tarixni o'rganishdagi eng asosiy yutuq bu uni xolislik asosida o'rganish hisoblanadi. Xolislik orqali o'rgatish tarixni haqiqiy g'oyalarini bilishga imkon beradi. Bu esa

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘quvchilarda vatanparlik g‘oyalarini shakllantirishdagi asosiy bosqich hisoblanadi. Hozirgi kunda maktablarda, insitut, va boshqa ta’lim muassalarida tarix darslari o‘tilib kelinmoqda bu o‘z navbatida bolalarni o‘tmishdagi ajdodlarimiz faoliyati bilan tanishtirishda muhim hisoblanadi. Tarixdan ibrat olgan holda o‘z aql-zakovatimiz, kuch-g‘ayratimizni to‘liqroq namoyon etish vositasida intellektual salohiyatimizni xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi va osmonimiz musaffoligi, ozod va obod Vatan, erkin fuqarolik jamiyati qurish singari eng oliyjanob va ustuvor maqsadlarga yo‘naltirishimiz lozimdir.Yoshlarni tarix fani darslariga qiziqtirish orqali ularni tarixiy shaxslarning vatan ozodligi uchun olib borgan janglari, vatan ravnaqi uchun qo‘shgan xissalarini o‘rganilishi natijasida yoshlarimiz vatanparvarlik hissi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi choralar orqali yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va milliy ong asosida tarbiyalashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘tarilamiz.Toshkent. “O‘zbekiston”. 1- jild. – bet 415.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston – yangicha tafakkur va taraqqiyot sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – bet 430.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – bet 30.
4. Sodiqov H., Yo‘ldoshev B., Inoyatov I. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda). - Toshkent: Tafakkur, 2014. – bet 248
5. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti 1-qism. -Toshkent: Akademiya, 2000. – bet 271.
6. Sodiqov X. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent” Art Flex, 2009. – bet 54.
7. Toshtemirova S., Ilmurodova F., Sa’dullayeva M. Tarix o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 2023. – bet 88.

UDK: 372.8:37.015.3
ORCID: 0009-0009-2362-4311

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH ORQALI KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

Marjona Xakimova Azamat qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: marjona01020304@gmail.com
tel: +998944999395

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish prinsiplari tahlil qilingan. Unda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar, lingvodidaktik yondashuvlar hamda vaziyatli tilni o'qitish va og'zaki yondashuvning o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Berlitz maktablarida qo'llanilgan didaktik tamoyillar misolida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, ingliz tili o'qitish, kreativ tafakkur, o'quvchi kompetensiyasi, lingvodidaktika, moslashtiruvchi mashqlar, vaziyatli til o'qitish, og'zaki yondashuv, ta'lim texnologiyalari, ijodiy metodlar, kommunikativ yondashuv.*

PRINCIPLES OF DEVELOPING CREATIVE THINKING THROUGH TEACHING ENGLISH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Annotation: *This article analyzes the principles of developing and fostering creative thinking in primary school students through English language teaching. It highlights innovative methods, linguodidactic approaches, as well as the role of situational language teaching and the oral approach in the learning process. Furthermore, the didactic principles applied in Berlitz schools are examined as an example of how to enhance students' independent and creative thinking skills.*

Keywords: *Primary education, English language teaching, creative thinking, learner competence, linguodidactics, adaptive exercises, situational language teaching, oral approach, educational technologies, creative methods, communicative approach.*

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ.

Аннотация : *В данной статье анализируются принципы формирования и развития креативного мышления у учащихся начальных классов посредством обучения английскому языку. Освещаются инновационные методы, лингводидактический подходы, а также роль ситуативного обучения языку и устного подхода в образовательном процессе. Кроме того, на примере дидактических*

принципов, применяемых в школах Berlitz, раскрываются возможности развития у учащихся навыков самостоятельного и творческого мышления.

Ключевые слова: *Начальное образование, обучение английскому языку, креативное мышление, компетенция учащихся, лингводидактика, адаптивные упражнения, ситуативное обучение языку, устный подход, образовательные технологии, творческие методы, коммуникативный подход.*

KIRISH

XXI asr ta'limi jarayonida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida xorijiy tilni o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni o'zlashtirishni, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni noodatiy hal qilish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni ham nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning samarali mexanizmlari sifatida o'quvchilarni faol va ijodiy jarayonga jalb qiluvchi metodlar keng qo'llanilmoqda

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Prinsp" atamasining qadimgi yunon falsafasidagi "arché" tushunchasidan kelib chiqishi haqidagi ma'lumot Aristotelning asarlari va ular haqidagi ilmiy tahlillarda keltirilgan. Aristotel tabiatdagi asosiy sabablar va qonuniyatlarni tushuntirish uchun bunday prinsplarni o'rgangan[1. 12-15]. "Prinsp" so'zining lotin tilidagi "principium" shakli o'rta asr olimlari tomonidan qo'llanilishi haqidagi ma'lumot tarixiy va falsafiy adabiyotlardan olingan. Bu davrda lotin tili ilmiy til sifatida keng ishlatilgan[2. 89-92]. Uyg'onish davrida prinsiplar tabiatni matematik va mantiqiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilgani haqidagi ma'lumot ilmiy inqilob davrining tarixiy tahliliga asoslanadi[3. 201-205]. Tabiatni tushuntirish, ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va murakkab hodisalarni soddalashtirish uchun "prinsiplar" atamasining zarurligi haqidagi ma'lumot falsafa va ilmiy metodologiya tarixiga oid umumiy tahlillarda keltirilgan[4. 67-71]. Chet til o'qitish metodikasiga prinsp tushunchasi Ye.I.Passov tomonidan asos solingan. Uning fikricha, «prinsip - o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir»[5. 22] deb ta'kidlagan. Professor Jamol Jalolov esa prinsip termini «asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida» ma'nosini ifodalaydi[6. 74] deb ta'riflagan. Prinsplarning to'g'ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi. Ta'limshunoslikda xilma-xil

prinsiplar tizilmasi bayon etiladi. Chet til o‘qitish metodistlari ta’limshunoslar tadqiqotlaridan samarali foydalanishadi, biroq ularning borligini o‘zgarishsiz, befarq holda tan olaverishmaydi, ya’ni o‘quv predmetini hisobga olib, ulami tatbiq etishadi. Chet til o‘qitish metodikasida turli mualliflar tomonidan bir necha prinsiplar ishlab chiqilgan. Chet tillar o‘qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan. Chunki ilgari prinsiplar sof didaktik tushuncha deb kelingan. Ta’limshunoslik prinsiplari til metodikasida ishlatiladi, ammo o‘qitish maqsadlari, mazmuni va shart-sharoitlari bevosita nazarga olinadi. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrda kashf etgan didaktik prinsiplar hozirgi kungacha dolzarbligini saqlab kelmoqda, to‘g‘ri ularning ta’rif va talqinida qator o‘zgarishlar yuz bergan[6. 75].

Ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan prinsiplar ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim qoidalari hisoblanib, ular uzluksiz ta’lim bosqichlarida chet tillarini samarali o‘zlashtirishning kafolatidir. Chet til o‘qitish metodikasida prinsiplarning nazariy asoslari dastlab E.I. Passov tomonidan (1965–70-yillar) ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, undan avval Y.A. Kamenskiy tomonidan ilgari surilgan umumdidaktik prinsiplar asos sifatida qo‘llanilgan. Bugungi kunda ham umumiy o‘rta ta’lim bosqichida ingliz tilini o‘qitishda turli prinsiplar asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, ingliz tilini o‘qitishda lingvistik, didaktik-pedagogik, psixologik-psixolinguistik va sof metodik prinsiplar qo‘llaniladi. Ushbu prinsiplar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, belgilangan ta’limiy va metodik maqsadlarga erishishda asosiy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi. Shuningdek, chet til o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metod va usullar ham tanlangan prinsiplarning talablari asosida belgilanadi.

Tadqiqotimiz mavzusi doirasida chet til o‘qitish metodikasida didaktik-pedagogik prinsiplarning umumiy mazmuni quyida muhokama qilinadi.

Didaktik-pedagogik prinsiplarning chet til o‘qitish metodikasiga tatbiqi O‘zbekiston olimlari J. Jalolov, U. Hoshimov, I. Yoqubov, T.Q. Sattorov, L.T. Axmedova, M.Ruzmetova, G’.Tajibayev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu prinsiplar xorijlik olimlar – Y.A. Kamenskiy, L.S. Vygotskiy, L.V. Shcherba, I.V. Raxmanov, G.E. Vedel, I.L. Bim, A.N. Leontyev, E.I. Passov,

N.A.Gorlova, I.A. Zimnyaya, N.D. Galskiy, N.I. Gez, Yu.K. Babanskiy, A.V. Xutorskiy, G. Wells va boshqalarning uzoq yillik tadqiqotlari asosida shakllantirilgan hamda ta'lim jarayoniga joriy etilgan. Mazkur prinsiplar quyidagilardan iborat[7. 82].

1. O'quv materialni hayot bilan bog'lash
2. O'qituvchi ko'magida o'quvchining ongchiligi va faolligi
3. Tushunarli va soddalik
4. Amaliyot va nazariyaning bog'liqligi yoki ilmiylik
5. O'quv materiallarni tushunarli qilib yetkazib berish
6. Malakalarni mustahkam egallash
7. O'quv jarayonida o'quvchining faol harakatlantirish ustunligi
8. Puxta o'zlashtirish
9. Produktivlik
10. Mobilik (operativlik) yoki faollik

Yuqorida tahlil qilingan didaktik-pedagogik prinsiplarga tayanib, tadqiqot ishi doirasida asosiy deb tanlangan didaktik prinsiplarni O'zbekiston va yevropa olimlari J. Jalolov, G',Tajibayev, M.Ruzmetova, N.A.Gorlova va boshqa tadqiqotchilarning umumlashtirgan prinsplarini quyidagicha bayon qilamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Professor Jamol Jalolov ta'kidlaganidek, chet til o'qitish jarayonida asrlar davomida ko'plab pedagoglar tomonidan ilgari surilgan qoidalar va qarashlar umumlashtirilib, didaktik prinsiplar sifatida ilmiy asoslangan. O'qitish amaliyoti hamda tarixiy tajribalardan kelib chiqqan ushbu prinsiplar vaqt sinovidan o'tib, ta'lim jarayonida mustahkam o'rin egallagan. Ularning nomlanishi yoki mazmunida ayrim farqlar mavjud bo'lsa-da, hozirgi ta'limshunoslikda quyidagi tamoyillar keng qabul qilingan va samarali deb hisoblanadi: tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, izchillik (sistemalilik), individual yondashuv, puxta o'zlashtirish hamda o'quvchi kuchiga moslik. J.Jalolovning fikricha, bu prinsiplarning har bir o'quv fanida o'ziga xos qo'llanishi tabiiy hol bo'lib, chet tillarini o'qitishda ham ular alohida ahamiyat kasb etadi[6. 82]. Tadqiqot ishimiz doirasida ta'lim jarayonida umumlashtirilgan didaktik prinsplar boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini

o'rgatishda faol qatnashadi. Quyidagi jadvalda (1.1-jadvalga qaralsin) ularning kreativ tafakkurni takomillashtirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlarni taaaaavsif qilamiz.

1.1-jadval.

Chet til predmetini o'qitishdagi asosiy prinsplar va ularning kreativ tafakkurni shakllantirishdagi o'rni.

№	Prinsip nomi	Qisqa mazmuni	Kreativ tafakkurni shakllantirishdagi o'rni
1	Tarbiyaviy ta'lim	Bilim bilan birga ijobiy fazilat, estetik did va qadriyatlarni shakllantirish.	Kreativ tafakkurning ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi, estetik va qadriy yondashuvlarni rivojlantiradi.
2	Onglilik	Bilimni ongli o'zlashtirish, uni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash.	Mustaqil fikrlash va noodatiy yechim topish qobiliyatini kuchaytiradi.
3	Faollik	O'quvchini faol ishtirokchi qilish, ijodiy o'yin va mashqlar orqali rag'batlantirish.	O'quvchini ijodiy jarayonga jalb etib, faol tafakkur va yangicha g'oya ishlab chiqishga yo'naltiradi.
4	Ko'rgazmalilik	Vizual vositalar yordamida tasavvurni kengaytirish va yangi g'oyalar yaratish.	Tasavvur va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ijodiy g'oyalarni shakllantirishga zamin yaratadi.
5	Puxta o'zlashtirish	Bilimni mustahkam egallash, uni amalda qo'llash va yangicha qarorlar chiqarish.	Mustahkam bilim asosida yangi g'oyalar ishlab chiqish va kreativ qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Jamol Jalolov tomonidan ilmiy asoslangan ushbu prinsiplar boshlang'ich sinfda ingliz tili ta'limini samarali tashkil etish bilan birga, o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim metodik tayanch bo'lib xizmat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qiladi. Ularning uyg‘un qo‘llanishi bolalarda mustaqil fikrlash, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish va ijodiy faoliyatga tayyorlikni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik prinsplarini N.A.Gorlova quyidagicha umumlashtirgan: o‘quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish, sistemalilik[8.182-190]. Ushbu didaktik prinsiplar boshlang’ich sinf o’quvchilariga xorijiy tillarni o’qitishda va ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishda foydali hisoblanadi. N.A.Gorlova tomonidan umumlashtirilgan prinsplarning boshlang’ich sinf o’quvchilaring kreativ tafakkurini takomillashtirishdagi o’rni va foydali jihatlarini quyidagicha bayon qilamiz.

- **O‘quvchi salohiyatiga moslik prinsipi**

Har bir o‘quvchining individual salohiyati va bilish imkoniyatlari turlicha bo‘lgani uchun o’quv materiallari va qo’llaniladigan mashqlar texnologiyalari o’quvchilarning psixologik yoshi hamda kognitiv imkoniyatlariga moslashtirilishi maqsadga muvofiq. Natijada, o’quvchilarning o‘z kuchiga ishonishi mustahkamlanadi, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay fursat yaratiladi. O’quv materialini o’zlashtirish uchun taklif qilinadigan tinglab tushunish, o’qish va gapirish nutqiy nutqiy faoliyat turlariga tegishli matnlar va topshiriqlar kreativ tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

- **Individual yondashish prinsipi**

Boshlang‘ich sinfda har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va xarakteri turlicha bo‘ladi. O‘qituvchi individual yondashuv asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, kimdir rasm chizishda, boshqasi esa she’r aytishda yoki hikoya tuzishda kuchli bo‘lishi mumkin. Individual yondashuv bolalarning tabiiy ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

- **Sistemalilik.prinsipi**

Kreativ tafakkurni rivojlantirish jarayoni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda o‘quvchilar bilimlarni faqat alohida emas, balki uzluksiz tizimda o‘zlashtiradilar. Sistemalilik prinsipiga asoslangan darslar o‘quvchilarda mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘rish, sabab-oqibat munosabatlarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tushunish va yangi g‘oyalarni kompleks tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa kreativ tafakkurni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa fanlari doktori, dotsent Muhabbat Ro’zmetova boshlang’ich sinflarda chet til o’qitishning lingvodidaktik asoslarini quyidagicha tahlil qilgan.

Chet tilini o‘qitish samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim jarayonida nazarda tutilgan psixolingvistik, metodologik hamda pedagogik omillarning uyg‘unligiga tayanadi. Avvalo, ta’lim mazmuni nutq faoliyatining barcha shakllari - tinglab tushunish, og‘zaki nutq, o‘qish va yozuv - o‘zaro integratsiyalashgan va izchil tizimda o‘rgatilishini talab etadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarda lingvistik, kommunikativ, pragmatik, sotsiolingvistik va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni didaktik maqsadlarning markaziga qo‘yiladi[9. 15]. Tadqiqot ishi doirasida dissertatsiya mavzusiga tegishli lingvodidaktik prinsiplar xususida o’rganilgan ma’lumotlarni umumlashtirib, ushbu prinsiplarni boshlang’ich sinf o’quvchilarida ingliz tilini o’qitish jarayonida kreativ tafakkurni rivojlantirishning aniq foydali jihatlari bo‘yicha qo‘shimcha punktlar ishlab chiqildi.

- **Og‘zaki nutqda erkinlik**

Dialog va monolog nutq turlaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘z fikrlarini mustaqil va ishonch bilan ifodalash imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari og‘zaki nutqda faol qatnashish orqali o‘z g‘oyalarini ijodkorona ifodalashni o‘rganadilar.

- **Tanqidiy va reflektiv fikrlash.**

Matnlar bilan ishlash jarayonida tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa o‘quvchilarda o‘z fikrini asoslab berish, boshqalarning javoblariga tanqidiy yondashish va refleksiya qilish malakasini rivojlantiradi.

- **Fanlararo integratsiya.**

Ingliz tilini matematika, san’at, texnologiya kabi boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish ijodiy g‘oyalar yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llash va yangi g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi.

- **O‘z-o‘zini ifodalash va shaxsiy kreativlik.**

O‘quvchilar mustaqil fikrlash, o‘z qarashlarini erkin ifodalash va yangilikka intilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon ularning shaxsiy kreativ tafakkurini kuchaytirib, ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilayotgan mazkur tadqiqot ishi mavzusidan kelib chiqib, boshlang’ich sinflarga ingliz tilini o’rgatishda kreativ tafakkurni rivojlantirishga asos bo’la oladigan 6 ta didaktik prinsiplar tanlandi, hamda ularning ishonchliligini isbotlab berishga harakar qilamiz. Ular haqida quyidagilarni bayon qilamiz. (1.2-jadvalga qarang) .

1.2-jadval

Boshlang‘ich sinflarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda tanlangan didaktik prinsplar tavsifi, mazmuni hamda ta’siri.

Prinsip	Mazmuni	Kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni	“Moslashtiruvchi Matching” mashqlaridagi ahamiyati
1. Onglilik	Yangi ma’lumotni anglash va tahlil qilish, so‘ngra uni kommunikativ vaziyatda qo‘llashni nazarda tutadi.	O‘quvchilarda tanqidiy tahlil va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, mustaqil xulosa chiqarish hamda ijodiy yondashuvga asos yaratadi.	Nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish va o’qishga oid matnlarni tushunishda “Moslashtiruvchi (Matching)” mashqlarini bajara olish va ularni taniy olishni ta’minlaydi. O‘quvchi o‘z bilimlarini anglab, to‘g‘ri bog‘lanishlarni topadi, bu esa ijodiy fikrni qo‘llashga yordam beradi.
2. Faollik	O‘quvchining o‘quv jarayonida	Mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni	“Moslashtiruvchi Matching” mashqlarida

	faol ishtirok etishini ta'minlaydi.	ilgari surish va ijodiy tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.	faol ishtirok etish orqali o'quvchilar turli variantlarni sinab ko'rishadi, noodatiy yechimlar yaratishga intilishadi.
3. O'quvchi kuchiga moslik	O'quvchilarning psixologik, yosh va bilim salohiyatiga mos topshiriqlarni tanlashni ta'minlaydi.	Mos darajadagi topshiriqlar o'quvchilarda o'z kuchiga ishonchni oshiradi, ijodiy fikrni qo'llashga rag'batlantiradi.	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlari murakkablik darajasiga qarab moslashtirilsa, o'quvchilar o'z salohiyatini to'liq namoyon qilib, ijodiy yechimlarni izlashga harakat qilishadi.
4. Individual yondashuv	Har bir o'quvchining qobiliyati va yosh xususiyatlarini hisobga oladi.	Har bir bola o'ziga xos ijodiy qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlarida turli individual yondashuv orqali o'quvchilar o'z uslubida bog'lanishlarni topib, ijodiy tafakkurni shakllantiradi.
5. Autentiklik yondashuvi	Real nutqiy vaziyat va autentik materiallar asosida o'qitishni tashkil etadi.	O'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga mos holda ijodiy yechim topishga o'rgatadi, erkin	"Moslashtiruvchi Matching" mashqlari autentik materiallarga asoslanganida o'quvchilar real nutqiy kontekstda kreativ tafakkurni

		ifodani rivojlantiradi.	qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.
6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish	Raqamli resurslar va texnik vositalardan samarali foydalanishni ko‘zda tutadi.	O‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi, ko‘rgazmali va interaktiv usullar orqali ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.	“Moslashtiruvchi Matching” mashqlarini multimedia vositalari yordamida bajarish o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ijodiy yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur jadvalda 6 ta prinsplar umumlashtirildi. Tahlil qilingan didaktik prinsiplar majmuasi asosan kreativ tafakkurni rivojlantirish yuzasidan umumlashtirildi. Ular o‘quvchilarda chet tillarni xususan, ingliz tilini o’rgatish jarayonida ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu jarayonda o’quvchilar nafaqat chegaralangan yoki darsliklarda yoritilgan mavzular orqali yangi ma’lumotlarga ega bo‘lib qolmay, balki turli vaziyatlarga oid dialoglar va monologlarni tinglab qo‘llashni, tinglash orqali taklif qilingan mashqlarni bajarishadi. “Matching (moslashtiruvchi) through listening” mashqlardan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tadqiqotimiz mavzusi doirasida ishlab chiqilgan podkast ssenariysi o‘quvchilarning tinglash, tezkor axborotni qayta ishlash, diqqatni jamlash, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Podkastda nazariy tushuntirish, amaliy topshiriqlar namunasi hamda metodik tavsiyalar o‘z ifodasini topgan. Ushbu yondashuv ingliz tilini o‘qitishda innovatsion vosita sifatida qo‘llanilib, o‘quvchilarda nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek autentik matnlar bilan tanishadilar va ularni tushunganligini nazorat qiluvchi “Moslashtiruvchi (Matching)” mashqlar kompleksini bajarishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

rejalashtirilgan. Natijada turli sinflardagi o'quvchilarning psixologik yoshiga mos ijodkorlik ya'ni kreativlik, tashabbuskorlik qobiliyatlari shakllanishiga erishiladi.

Yuqorida keltirilgan prinsplar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini yanada chuqurroq anglash uchun xizmat qiluvchi prinsplar hisoblanib, quyida ularga qo'shimcha qilib yevropa olimlarining til o'rganish uchun xizmat qiluvchi prinsplarini ham ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitishning didaktik, psixolingvistik, metodik va pedagogik prinsplari va yondashuvlar mavjud bo'lib, ular har biri o'quv jarayonining muayyan jihatlariga qaratilgan. Quyida ushbu prinsplarning kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi:

Direct Method (To'g'ri usul) asoschilari Sauveur, Maximillian Bertlitz tajriba jarayonida quyidagi prinsiplarni tavsiya etishgan:

1. Sinfda o'qitish o'rganilayotgan tilda olib boriladi
2. Faqatgina kunlik lug'at va gaplar o'qitiladi
3. Og'zaki muloqot ko'nikmalari kichik intensiv sinflarda o'qituvchilar va talabalar o'rtasida savol-javob almashinuvi tarzida tashkil etilib, bosqichma-bosqich shakllantiriladi.
4. Grammatika induktiv tarzda o'qitiladi
5. Yangi ma'lumotlar og'zaki tanishtiriladi
6. Mavjud lug'at ko'rgazmalar, predmetlar va rasmlar orqali o'rgatiladi, mavhum lug'at g'oyalar yig'indisi orqali o'rgatiladi
7. Ham og'izaki nutq, ham tinglab tushunish o'rgatilinadi
8. To'g'ri talaffuz va grammatikaga urg'u beriladi[10. 12].

Direct Method asoschilari tajriba jarayonida ya'ni o'quvchilarni o'qitish jarayonida 8 ta prinsplarni asosiy deb olishgan. Yuqorida keltirilgan prinsplardan dastlabkisiga to'xtaladigan bo'lsak, ya'ni "Sinfda o'qitish o'rganilayotgan tilda olib boriladi" degan fikrga qo'shimcha qilib, o'rganilayotgan tilni nafaqat o'sha tilning o'zida balki o'rganuvchilarning o'z ona tillarida ham izohlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiyichilik tug'dirilishini oldini oladi. "Faqatgina kunlik lug'at va gaplar o'qitiladi" degan prinsp esa o'quvchilarni ortiqcha lug'at va gaplarni yodlamasdan faqatgina asosiylariga e'tibor qaratib, ularni mukammal o'rganishga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yordam beradi. “Og’zaki muloqot ko‘nikmalari kichik intensiv sinflarda o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida savol-javob almashinuvi tarzida tashkil etilib, bosqichma-bosqich shakllantiriladi” degan prinspda shuni nazarda tutish lozimki, kichik intensive sinflarda savol-javob almashinuvi tarzida tashkil etilgan og’izaki muloqot umumiy guruhga berilgan savol-javob almashinuvi jarayonidan samaraliroq natija bershi ko‘zda tutiladi. “Grammatika induktiv tarzda o‘qitiladi” ushbu prinspda grammatika ya’ni xususiylikni o‘rganib, umumiylikka o‘tiladi. “Yangi ma’lumotlar og’zaki tanishtiriladi” ushbu prinsp orqali o‘quvchilarga fan va o‘rganilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar og’zaki tushuntirilishi samaraliroq ekanligi aytilmoqda. “Mavjud lug‘at ko‘rgazmalar, predmetlar rasmlar orqali o‘rgatiladi, mavhum lug’at g’oyalar yig’indisi orqali o‘rgatiladi” ushbu prinsp orqali ilgari surilgan fikrda esa autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Berlitz tillarni o‘qitish bo‘yicha global tarmoq bo‘lib, har bir qit’a va muhim mamlakatda darslar tashkil etadi. Berlitz AQShda bir nechta katta shaharlar va shtatlarda filiallarga ega, jumladan:

- Washington, D.C. (en: Washington DC Language Center)
- Florida shtatida — Miramar (Broward Language Center) va Orlando
- Maryland — Odenton Language Center
- New Jersey — Princeton Language Center
- New York City Language Center — Nyu-York shahri
- Virginia shtatining Tysons Corner shahri

Zamonaviy Berlitz maktablarida qo‘llaniladigan didaktik-metodik prinsiplar quyida mufassal bayon etilgan:

1. Tarjima qilish tavsiya etilmaydi: buning o‘rniga ko‘rsatish va namoyish etish samaraliroq hisoblanadi.
2. Faqat tushuntirish bilan chegaralanish maqsadga muvofiq emas: o‘quvchilarning o‘zlari bajarishi va harakat qilishlari muhim.
3. Uzoq nutq so‘zlash pedagogik jihatdan noo‘rin: buning o‘rniga savol berish va muloqotga jalb qilish samarali hisoblanadi.
4. Xatolarni takrorlash tavsiya etilmaydi: ularni to‘g‘rilab borish zarur.

5. Yakka so‘z bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas: jumlalardan foydalanish afzal[10.12].

Berlitz maktablarida qo‘llaniladigan mazkur didaktik-metodik prinsplar ham o‘quvchilarning ingliz tilini mukammal darajada egallashlariga xizmat qiladi. Berlitz o‘z prinsplarida ayrim ta’limiy yondashuvlarni qat’iyan rad etib, o‘quvchilar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan prinsplarga kuchli urg‘u bergan.

XULOSA

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish jarayonida didaktik, psixolingvistik, metodik va pedagogik prinsiplarning uyg‘unligi nafaqat samarali til o‘rganishga, balki o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. J.Jalolov, M.Ro‘zmetova, G‘.Tajibayev, hamda zamonaviy tadqiqotchilar (N.A.Gorlova, Richards & Rodgers, Pinter, Cameron, Maley & Peachey) ta’kidlaganidek, mazmunli kontekst yaratish, multisensor yondashuv, autentik materiallardan foydalanish, nutqiy yo‘nalganlik, kommunikativ mashg‘ulotlar, individual yondashuv, motivatsiyani kuchaytirish va bag‘rikenglikni shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb prinsiplar hisoblanadi. Shuningdek, Direct Method, Oral Approach va CLT tamoyillari ham o‘quvchilarni tabiiy muloqotga yaqinlashtirib, ularda ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi. Natijada, bu prinsiplar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chet tilini nafaqat bilishga, balki uni ijodiy va hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llashga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Aristotle. *Metaphysics* (Tarjima va sharh: Hugh Lawson-Tancred). – London: Penguin Classics, 1998. – P. 12–15. – 528 p.
2.Copleston, F. *A History of Philosophy, Volume II: Medieval Philosophy*. – New York: Doubleday, 1993. – P. 89–92. – 624 p.
3.Gaukroger, S. *The Emergence of a Scientific Culture: Science and the Shaping of Modernity, 1210–1685*. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – P. 201–205. – 576 p.
4.Losee, J. *A Historical Introduction to the Philosophy of Science*. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 67–71. – 328 p.
5.Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. *Урок иностранного языка*. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – С. 22. – 640 с.
6.Jalolov J.J. *Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik: Chet til o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 74,75,82 – 434 b.

7.Ruzmetova Muxabbat Shakirovna. *Ilmiy dissertatsiya: Umumiy o'rta ta'lim 5–7 sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.* – Toshkent, 2021. – B. 47, 231 b.

8.Горлова Н.А. *Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы*. – М.: МГПУ, 2010. – С. 182–190. – 248 с.

9.Ruzmetova M.Sh., Xalilova Sh.T. va b. *Ilmiy-metodik qo'llanma: Boshlang'ich sinflarda chet tillarni o'qitishning psixologik asoslari va samarali texnologiyalari*. – Toshkent, 2015. – B. 15. – 160 b.

10.Richards, J.C., Rodgers, T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Third Edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 12. – 410 p.

MAKTAB O‘QUVCHILARNI FUTBOL SPORT TURIGA SARALASH VA YO‘NALTIRISHDA JISMONIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Bobomurodov Abdurafik Egamurodovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqot institute

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini futbol sport turiga saralash va yo‘naltirishda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Futbol yuqori tezkorlik, chaqqonlik, sakrovchanlik va koordinatsion qobiliyatlarni talab etadigan sport turi sifatida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini to‘g‘ri baholash va saralash jarayonida asosiy mezon hisoblanadi. Tadqiqotlarda antropometrik ko‘rsatkichlar (bo‘y uzunligi, tana vazni, qo‘l va oyoq uzunligi) hamda funksional imkoniyatlar (yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyati, tezkorlik va kuch ko‘rsatkichlari) asosida tanlov va yo‘naltirish samaradorligi ta’kidlanadi. Maqolada ushbu ko‘rsatkichlarning ahamiyati, ularni baholash usullari va maktab o‘quvchilarini basketbolga saralashda qo‘llash tajribalari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Maktab o‘quvchilari, saralash, yo‘naltirish, jismoniy rivojlanish, antropometrik ko‘rsatkichlar, funksional imkoniyatlar.*

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ПРИ ОТБОРЕ И НАПРАВЛЕНИИ ШКОЛЬНИКОВ В ФУТБОЛ

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы анализа показателей физического развития при отборе и направлении школьников в футбол. Футбол, как вид спорта, требующий высокой скорости, ловкости, прыгучести и координационных навыков, является основным критерием для правильной оценки и отбора уровня физического развития школьников. В исследованиях подчеркивается эффективность отбора и направления на основе антропометрических показателей (рост, масса тела, длина рук и ног) и функциональных возможностей (активность сердечно-сосудистой и дыхательной систем, скоростно-силовые показатели). В статье анализируется значение этих показателей, методы их оценки и опыт их использования при отборе школьников в баскетбол на научно-теоретической основе.*

Ключевые слова: *Школьники, отбор, ориентация, физическое развитие, антропометрические показатели, функциональные возможности.*

ANALYSIS OF PHYSICAL DEVELOPMENT INDICATORS IN SELECTING AND DIRECTING SCHOOL STUDENTS TO FOOTBALL

Annotation: *This article discusses the issues of analyzing physical development indicators in selecting and directing school students to football. Football, as a sport requiring*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

high speed, agility, jumping and coordination skills, is the main criterion in the process of correctly assessing and selecting the level of physical development of students. The studies emphasize the effectiveness of selection and direction based on anthropometric indicators (height, body weight, arm and leg length) and functional capabilities (cardiovascular and respiratory system activity, speed and strength indicators). The article analyzes the importance of these indicators, methods of their assessment, and experiences of using them in selecting school students to basketball on a scientific and theoretical basis.

Keywords: *Schoolchildren, selection, orientation, physical development, anthropometric indicators, functional capabilities.*

KIRISH

2023-yil 7-apreldagi PQ-115-sonli “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o‘rnatilgan standartlarga moslashtirish yoshlarning futbolga qiziqishini oshirish, bu boradagi targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish, ularning futbol bilan shug‘ullanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini yaratish, iqtidorli futbolchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya)ning raqamlashtirilgan tizimini joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish bolalar va o‘smirlar, ommaviy futbolni rivojlantirish futbol bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi seksiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bolalar va o‘smirlar o‘rtasida ularning sog‘lig‘ini mustahkamlashga, har tomonlama jismoniy kamol topishiga va sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, bolalar va o‘smirlarda futbol bilan shug‘ullanish qobiliyatini erta aniqlash va ularda futbolga bo‘lgan barqaror qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan sport va tarbiyaviy ishlar olib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shuni aloxida takidlash lozimki, 2024-yil 20-mart PQ-136-son “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga qarorida belgilanganidek istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, mahallalardan boshlab futbol infratuzilmasini rivojlantirish hamda futbol maktablari va futbol akademiyalariga iqtidorli futbolchilarni saralab olishni (seleksiya) yanada takomillashtirish, mahallada futbol bo‘yicha erkaklar va ayollarning turli yosh toifalari kesimidagi “mahalla terma jamoa”larini shakllantirish hamda ularni tayyorlash hamda mahalla yoshlari o‘rtasida yosh iqtidorli futbolchilarni aniqlash hamda ularni professional futbol ta’lim muassasalariga yo‘naltirib borish belgilab berilgan.

Respublikamiz sportchilarning tutbol sport turida yuqori natijalarga erishish uchun ularning jismoniy, texnik va psixologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalarni yoshligidan sport turlariga to‘g‘ri saralash va ularning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olib yo‘naltirish sportda muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shu boisdan, turli yosh toifasidagi maktab o‘quvchilarini antropometrik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni to‘g‘ri baholash orqali futbolga mos yosh sportchilarni aniqlash va yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Futbol sport turiga saralash jarayonida bolalarning antropometrik ko‘rsatkichlarini baholash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida 7-17 yoshdagi maktab o‘quvchilarining tana uzunligi, tana vazn og‘irligi, qo‘l va oyoq uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi kabi mezonlar aniqlandi va ahlil qilindi.

Shuningdek tadqiqotda, bolalarning koordinatsiya, muvozanat saqlash, portlash kuchi va reaksiya tezligi kabi omillar ham tahlil qilindi. Ushbu mezonlar asosida saralash jarayonida bolalarning individual xususiyatlariga mos yondashish va ularni maxsus yo‘nalishlarga ajratish tavsiya etildi.

7-yoshli bo‘lajak futbolchilar saralab olishda bir qator me’zonlarga asoslanib amalga oshirish mumkin. Jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik hamda sostsiologik mezonlar asosida saralash va yo‘naltirish mumkin. Biz tadqiqotimizda antropometrik ko‘rsatkichlarni o‘rganib olimpiya sport turlariga bolalarni saralashda antropometrik ko‘rsatkichlarini turli yosh davrlarida o‘sish va jismoniy rivojlanish bosqichlarini o‘rganib chiqdik. Buning natijasida olimpiya sport turlariga

bolalarni qabul qilishda saralash uchun asosiy mezonlardan biri sifatida olingan ma'lumotlarni umumlashtirdik.

Biz olib borgan tadqiqotga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki futbol sport turiga bolalarni saralash va yo‘naltirishda antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik.

Biz olib borgan tadqiqotga asoslanib basketbol sport turiga bolalarni saralash va yo‘naltirishda antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Jumladan; 12 yoshli bolalarni basketbol sport turiga qabul qilishda vazn og‘irligi o‘g‘il bolalarda 44 kg, qiz bolalarda esa 46 kg orqali qabul qilish tavsiya etiladi, tana uzunligi esa o‘g‘il bolalarda 153 sm ni tashkil qilishi, qiz bolalarda esa 152 sm, qo‘l uzunligi o‘g‘il bolalarda 67 sm ni, qiz bolalarda 70 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, oyoq uzunligi o‘g‘il bolalarda 88 sm ni, qiz bolalarda 93 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, ko‘krak qafasi aylanasi o‘g‘il bolalarda 74 sm gacha qiz bolalarda 72 sm ni ko‘rsatdi.

13-yoshli bo‘lajak basketbolchilar saralab olishda bir qator me’zonlarga asoslanib amalga oshirish mumkin. Jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik hamda sostsiologik mezonlar asosida saralash va yo‘naltirish mumkin. Biz

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tadqiqotimizda antropometrik ko‘rsatkichlarni o‘rganib olimpiya sport turlariga bolalarni saralashda antropometrik ko‘rsatkichlarini turli yosh davrlarida o‘sish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganib chiqdik. Buning natijasida olimpiya sport turlariga bolalarni qabul qilishda saralash uchun asosiy mezonlardan biri sifatida olingan ma’lumotlarni umumlashtirdik.

Biz olib borgan tadqiqotga asoslanib basketbol sport turiga bolalarni saralash va yo‘naltirishda antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Jumladan; 13 yoshli bolalarni basketbol sport turiga qabul qilishda vazn og‘irligi o‘g‘il bolalarda 48 kg, qiz bolalarda esa 54 kg orqali qabul qilish tavsiya etiladi, tana uzunligi esa o‘g‘il bolalarda 160 sm ni tashkil qilishi, qiz bolalarda esa 164 sm, qo‘l uzunligi o‘g‘il bolalarda 69 sm ni, qiz bolalarda 73 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, oyoq uzunligi o‘g‘il bolalarda 93 sm ni, qiz bolalarda 97 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, ko‘krak qafasi aylanasi o‘g‘il bolalarda 76 sm gacha qiz bolalarda 74 sm ni takil qildi.

14-yoshli bo‘lajak basketbolchilar saralab olishda bir qator me’zonlarga asoslanib amalga oshirish mumkin. Jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik hamda sostsiologik mezonlar asosida saralash va yo‘naltirish mumkin. Biz tadqiqotimizda antropometrik ko‘rsatkichlarni o‘rganib olimpiya sport turlariga bolalarni saralashda antropometrik ko‘rsatkichlarini turli yosh davrlarida o‘sish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganib chiqdik. Buning natijasida olimpiya sport turlariga bolalarni qabul qilishda saralash uchun asosiy mezonlardan biri sifatida olingan ma’lumotlarni umumlashtirdik.

Biz olib borgan tadqiqotga asoslanib basketbol sport turiga bolalarni saralash va yo‘naltirishda antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Jumladan; 14 yoshli bolalarni basketbol sport turiga qabul qilishda vazn og‘irligi o‘g‘il bolalarda 56 kg, qiz bolalarda esa 57 kg orqali qabul qilish tavsiya etiladi, tana uzunligi esa o‘g‘il bolalarda 166 sm ni tashkil qilishi, qiz bolalarda esa 164 sm, qo‘l uzunligi o‘g‘il bolalarda 70 sm ni, qiz bolalarda 74 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, oyoq uzunligi o‘g‘il bolalarda 96 sm ni, qiz bolalarda 100 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, ko‘krak qafasi aylanasi o‘g‘il bolalarda 82 sm gacha qiz bolalarda 80 sm ni ko‘rsatdi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37



1- rasm. 7-17 yoshli o'g'il bolalarning basketbol sport turiga saralash va yo'naltirishda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlar dinamikasi

15-yoshli bo'lajak basketbolchilar saralab olishda bir qator me'zonlarga asoslanib amalga oshirish mumkin. Jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik hamda sostsiologik mezonlar asosida saralash va yo'naltirish mumkin. Biz tadqiqotimizda antropometrik ko'rsatkichlarni o'rganib olimpiya sport turlariga bolalarni saralashda antropometrik ko'rsatkichlarini turli yosh davrlarida o'sish va rivojlanish bosqichlarini o'rganib chiqdik. Buning natijasida olimpiya sport turlariga bolalarni qabul qilishda saralash uchun asosiy mezonlardan biri sifatida olingan ma'lumotlarni umumlashtirdik.

Biz olib borgan tadqiqotga asoslanib basketbol sport turiga bolalarni saralash va yo'naltirishda antropometrik ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Jumladan; 15 yoshli bolalarni basketbol sport turiga qabul qilishda vazn og'irligi o'g'il bolalarda 62 kg, qiz bolalarda esa 58 kg orqali qabul qilish tavsiya etiladi, tana uzunligi esa o'g'il bolalarda 170 sm ni tashkil qilishi, qiz bolalarda esa 168 sm, qo'l uzunligi o'g'il bolalarda 72 sm ni, qiz bolalarda 76 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, oyoq uzunligi o'g'il bolalarda 98 sm ni, qiz bolalarda 101 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, ko'krak qafasi aylanasi o'g'il bolalarda 80 sm gacha qiz bolalarda 81 sm ni tashkil etdi.

16-yoshli bo‘lajak basketbolchilar saralab olishda bir qator me’zonlarga asoslanib amalga oshirish mumkin. Jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik hamda sostsiologik mezonlar asosida saralash va yo‘naltirish mumkin. Biz tadqiqotimizda antropometrik ko‘rsatkichlarni o‘rganib olimpiya sport turlariga bolalarni saralashda antropometrik ko‘rsatkichlarini turli yosh davrlarida o‘sish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganib chiqdik. Buning natijasida olimpiya sport turlariga bolalarni qabul qilishda saralash uchun asosiy mezonlardan biri sifatida olingan ma’lumotlarni umumlashtirdik.



2- rasm. 7-17 yoshli qiz bolalarning basketbol sport turiga saralash va yo‘naltirishda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlar dinamikasi

17-yoshli bo‘lajak basketbolchilar saralab olishda bir qator me’zonlarga asoslanib amalga oshirish mumkin. Jumladan, pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik hamda sostsiologik mezonlar asosida saralash va yo‘naltirish mumkin. Biz tadqiqotimizda antropometrik ko‘rsatkichlarni o‘rganib olimpiya sport turlariga bolalarni saralashda antropometrik ko‘rsatkichlarini turli yosh davrlarida o‘sish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganib chiqdik. Buning natijasida olimpiya sport turlariga bolalarni qabul qilishda saralash uchun asosiy mezonlardan biri sifatida olingan ma’lumotlarni umumlashtirdik.

Biz olib borgan tadqiqotga asoslanib basketbol sport turiga bolalarni saralash va yo‘naltirishda antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Jumladan; 17 yoshli bolalarni basketbol sport turiga qabul qilishda vazn og‘irligi o‘g‘il bolalarda 67 kg, qiz bolalarda esa 59 kg orqali qabul qilish tavsiya etiladi, tana uzunligi esa o‘g‘il bolalarda 178 sm ni tashkil qilishi, qiz bolalarda esa 174 sm, qo‘l uzunligi o‘g‘il bolalarda 76 sm ni, qiz bolalarda 78 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, oyoq uzunligi o‘g‘il bolalarda 106 sm ni, qiz bolalarda 104 sm ni tashkil qilishi aniqlandi, ko‘krak qafasi aylanasi o‘g‘il bolalarda 96 sm gacha qiz bolalarda 94 sm ni ko‘rsatdi.

XULOSA

Maktab o ‘quvchilarini basketbol sport turiga saralash va yo ‘naltirishda jismoniy rivojlanish ko ‘rsatkichlari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko ‘rsatadiki, antropometrik o ‘lchamlar (bo ‘y uzunligi, tana vazni, qo ‘l-oyoqlar uzunligi) hamda funksional imkoniyatlar (yurak-qon tomir tizimi faoliyati, tezkorlik, chidamlilik, sakrovchanlik) sportchining kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Basketbol sport turining o ‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o ‘quvchilarni tanlab olish jarayonida ilmiy asoslangan saralash tizimini joriy etish, yosh sportchilarning tabiiy qobiliyatlarini maksimal darajada ochish va ularga individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, jismoniy rivojlanish ko ‘rsatkichlari asosida saralash maktab o ‘quvchilarining sport bilan shug ‘ullanishga bo ‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning sog ‘lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim o ‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO ‘YXATI

1. Matveev, L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. – Moskva: Fizkultura i sport, 2008.
2. Platonov, V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015.
3. Bompa, T., Haff, G. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2009.
4. Verkhoshansky, Y.V. Fundamentals of Special Strength Training in Sport. – Moscow: Sport Science, 2011.
5. Zatsiorsky, V.M., Kraemer, W.J. Science and Practice of Strength Training. – Human Kinetics, 2006.

6. Omonov, Sh., Hamidov, A. Basketbol nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti, 2019.
7. Isroilov, J. Maktab o‘quvchilarida sport seleksiyasi jarayonida antropometrik ko‘rsatkichlarning ahamiyati. – “Jismoniy tarbiya va sport” jurnali, 2021, №3.
8. Johnson, L., Nelson, J. Practical Measurements for Evaluation in Physical Education. – Macmillan, 2000.
9. Saidov, A. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda monitoring usullari. – Toshkent: Fan, 2020.
10. Malina, R.M., Bouchard, C., Bar-Or, O. Growth, Maturation, and Physical Activity. – Human Kinetics, 2004.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"UMID VA NAJOT MANBALARI: ABDULLA QAHHORNING 'MING BIR JON' HAMDA O. GENRINING 'SO'NGGI YAPROQ' HIKOYALARINI BADIIY QIYOSLASH"

Karimova Feruza Zokirjon qizi
Namdu ingliz tili yo'nalishi talabasi
karimova_f93@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" va O. Genrining "So'nggi yaproq" hikoyalari badiiy jihatdan qiyosiy tahlil etilgan. Ikkala asarda inson hayotidagi umid, ishonch va ruhiy barqarorlik kabi umumbashariy g'oyalar qanday badiiy ifodalanganiga e'tibor qaratilgan. Qahramonlarning xarakteri, ularning kasallikka bo'lgan munosabati, hayotga bo'lgan irodasi hamda ular atrofidagi insonlar bilan bo'lgan munosabatlar kontekstida hikoyalar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar ochib berilgan. Shuningdek, hikoyalarda fasllar, ramzlar, syujet qurilishi va nomlanish orqali umid va najot g'oyasining qanday badiiy vositalar bilan ifodalangani tahlil qilinadi. Maqola yakunida ikki yozuvchining hayotga yondashuvi, estetik toni hamda milliy madaniyatga xos qarashlari solishtirma asosda umumlashtiriladi.*

Kalit so'zlar: *Adabiy tahlil, badiiy qiyos, umid, ishonch, insoniy qadriyatlar, ramz, ayol obrazi, O. Genri, Abdulla Qahhor, badiiy kompozitsiya.*

"SOURCES OF HOPE AND SALVATION: AN ARTISTIC COMPARISON OF ABDULLA QAHHOR'S STORIES 'A THOUSAND AND ONE SOULS' AND O. HENRY'S 'THE LAST LEAF'"

Annotation: *This article provides a comparative artistic analysis of Abdulla Qahhor's stories "A Thousand and One Souls" and O. Henry's "The Last Leaf." Both works focus on how universal ideas such as hope, faith, and spiritual stability in human life are artistically expressed. The similarities and differences between the stories are revealed in the context of the characters' characters, their attitude to illness, their will to life, and their relationships with the people around them. It also analyzes the artistic means by which the ideas of hope and salvation are expressed in the stories through seasons, symbols, plot construction, and naming. At the end of the article, the approach to life, aesthetic tone, and views of the national culture of the two writers are summarized on a comparative basis.*

Keywords: *Literary analysis, artistic comparison, hope, trust, human values, symbol, female image, O. Henry, Abdulla Qahhor, artistic composition.*

«ИСТОЧНИКИ НАДЕЖДЫ И СПАСЕНИЯ: ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СРАВНЕНИЕ РАССКАЗОВ АБДУЛЛЫ КАХХОРА «ТЫСЯЧА И ОДНА ДУША» И О. ГЕНРИ «ПОСЛЕДНИЙ ЛИСТ»»

Аннотация: *В статье представлен сравнительный художественный анализ рассказов Абдуллы Каххора «Тысяча и одна душа» и О. Генри «Последний лист». В обоих*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

произведениях особое внимание уделяется художественному воплощению таких универсальных идей, как надежда, вера и духовная стабильность в жизни человека. Сходства и различия между рассказами раскрываются в контексте характеров персонажей, их отношения к болезни, воли к жизни и отношений с окружающими. Также анализируются художественные средства, с помощью которых идеи надежды и спасения воплощаются в рассказах через времена года, символы, построение сюжета и именование. В конце статьи обобщены на сравнительной основе взгляды на жизнь, эстетический тон и взгляды на национальную культуру двух писателей.

Ключевые слова: *Литературный анализ, художественное сравнение, надежда, доверие, человеческие ценности, символ, женский образ, О. Генри, Абдулла Каххор, художественное произведение.*

KIRISH

Adabiyot insoniyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotini aks ettiruvchi muhim fan sohalaridan biri bo‘lib, u orqali turli xalqlarning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda madaniy tafakkuri ifoda topadi. Shu bois, har bir millat adabiyotida umumiy insoniy muammolar va mavzular o‘z ifodasini topadi. Turli millat vakili bo‘lgan yozuvchilar bitta voqelikni o‘z milliy dunyoqarashi, madaniyati va adabiy uslubiga tayangan holda turlicha talqin qiladilar. Bu holat amerikalik mashhur yozuvchi O. Genrining “So‘nggi yaproq” hamda o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasi Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyalarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur ikki asarda yozuvchilar inson hayotidagi umid va ishonchning ahamiyatini ochib berishga intilganlar. Hikoyalarning mavzusi umumiy bo‘lib, ularda bedavo dardga chalingan ayol obrazlari orqaligina insoniy umidning kuchi ko‘rsatilgan. Har ikkala hikoyaning markazida ayol qahramonlar — Jonsi va Mastura tasvirlanadi. Ular har ikkisi ham og‘ir kasallikka chalingan bo‘lsa-da, ularning atrofidagi odamlarning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va ishonchi tufayli hayotga qayta bog‘lanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jonsi — Genri qalamiga mansub hikoyaning bosh qahramoni bo‘lib, u Vashingtonda yashovchi, hayotga bo‘lgan irodasi sust, zaif bir yosh ayol sifatida tasvirlanadi. Yozuvchining ta'kidlashicha, u “azobga umuman bardoshsiz, nimjongina bir ayol” sifatida gavdalantiriladi. Jonsi zotiljam kasalligi bilan og‘rigan bo‘lib, u o‘z taqdirini deraza qarshisidagi pechak daraxtining oxirgi bargiga bog‘lab qo‘yadi. Bu uning ruhiy holatining og‘irligini, umidsizlik darajasining yuqoriligini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatadi. U shunday deydi: *“Barglar... Pechakgul yaproqlari. Ularning so‘nggisi to‘kilganda, men ham hayot bilan vidolashaman. Buni uch kundan beri sezib turibman.”*

Jonsining dugonasi Syuning unga nisbatan bo‘lgan doimiy g‘amxo‘rligi, do‘stona munosabati hikoyaning dramatizmini yanada kuchaytiradi. Xuddi shunday, Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasida Mastura ismli qahramon ham og‘ir dardga chalingan. Biroq uning hayotida turmush o‘rtog‘i Akromjonning sabr-toqati, sadoqati va doimiy e’tibori katta rol o‘ynaydi. Har ikki asarda asosiy urg‘u insonning ruhiy holati, unga ko‘rsatilgan mehr-muhabbat va ishonch orqali sog‘ayish ehtimolining mavjudligiga qaratilgan. Genrining hikoyasida "so‘nggi yaproq" iborasi bevosita o‘limni ifodalovchi ramz sifatida ishlatiladi, bu esa hikoyaning umumiy ruhiga, qahramonning ichki kechinmalariga mos ravishda tanlangan.

Boz ustiga, Genri hikoya sodir bo'luvchi fasl qilib qishni - yilni tugallovchi eng sovuq paytni tanlaydi. Jonsiga o'xshamagan holda, Qahhorning qahramoni ko'pchilik uning yaqin orada jon taslim qilishiga ishonsada, hayotga bo'lgan umidini yo'qotmaydigan kuchli xarakter egasi. Shifoxonada undan hol-ahvol so'rash uchun yo'qlab kirgan vaqtdagi suhbatdan uning o'ziga bo'lgan ishonchi va irodasini ko'rishimiz mumkin. Erkaklardan biri uning kasallikdan zo'riqqan, faqat suyagi va ikki porloq ko'zlari qolgan vujudini ko'rib qo'rqib ketganidan xonada mazasi qochib hamshira olib chiqib ketgan paytdagi Masturaning bu holatga nisbatan munosabati orqali uning kuchli xarakteri ochib berilgan. Qahhor shunday yozadi: "Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:-Akromjon, daftaringizga yozib qo'ying:uch mard-u maydon meni ko'rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo'lmay, o'tirib qoldi."3 Genri kabi Abdulla Qahhor ham o'z qahramoni xarakterini hikoya nomi, zamoni va boshqa detallarda yanada ochib berishga harakat qiladi. Asarning " Ming bir jon" deb nomlanishining o'ziyoq fikrimizning yaqqol dalilidir. Ming bir jon egasi Mastura bu har safar endi tugaydi, yo'q bo'ladi degan hayolga borilganda qayta qayta o'zini qo'lga olib matonat ko'rsatuvchi ayoldir. Shuningdek, hikoya ham bahor faslida, ya'ni yilning yasharish, qayta uyg'onish, yangi hayot boshlanishi faslidir. Bu bilan go'yo yozuvchi Mastura dagi yashash umidini har doim qishdan so'ng kelib, barglar to'kib uyquga ketgan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tabiatni qayta uyg'otuvchi bahor fasliga o'xshatmoqchidek ko'rinadi. Ikkala hikoya qahramoni ham natijasi o'laroq tirik qoladi. Ammo ular bu ishonchni turli tomonlama olishadi. Masturadagi ishonch va umid o'zining kuchli xarakteri samarasidir, biz buni uning ushbu so'zlaridan ilg'ab olishimiz mumkin: "U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashgani hali erta" dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman."4 Jonsida esa hayotga bo'lgan umid bo'ronli sovuq qish qahratoniga qaramasdan daraxtdan uzilmagan so'nggi yaproq tufayli paydo bo'ladi "U so'nggi yaproq ham qanchalik zaiflik qilayotganimni ko'rsatish uchun to'kilmay turishga kuch topa oldi. O'ziga o'lim tilash kata Bunday niyat qilganimdan uchun o'zimdan o'zim uyalib ketyapman."5(hikoya davomida keyinroq Jonsi u yaproq allaqachon to'kilib tushgani, u ko'rgan yaproq esa unga qo'shni bo'lgan qari rassomning san'at asari ekanidan xabar topadi). Ushbu asarlardagi yana bir o'xshashlik ikkala yozuvchi ham hikoyalarini kutilmagan qahramonlar o'limi bilan yakunlaganligidadir. O'quvchilar boshidan oxirigacha bosh qahramonlar o'ladimi yoki jon saqlab qoladimi degan qiziqish bilan o'qigan hikoyalar ular tirik qolgani holda boshqa qahramonnning o'limi bilan yakunlanadi. O'limlar ham hikoyalarning bir xil yakunlovchi bosh qahramonlar to'liq hayotga qaytgan paytida oshkor bo'ladi. Genri hikoyasida qari rassom Berman zotiljam kasalligidan vafot etsa, Qahhor hikoya so'nggida Hoji akaning o'limidan o'quvchilarni xabardor qiladi.

XULOSA

Hikoyalardagi o'xshashliklar bo'yicha tahlilimizni yakunlar ekanmiz, ayta olamizki ikkala yozuvchi o'z asarlarida umid va ishonch hayotimizda qanchalik muhim motiv ekanligini bir nechta o'xshash detallar: xasta ayol obrazi, qahramonlar xarakterini fasllar orqali, nomni esa qahramonlarga mos holda tanlash orqali ko'rsatib berishgan. Shunga qaramasdan, yozuvchilarning hayotga yondashuvi turli bo'lgani munosabati bilan turli zid jihatlarga ham duch kelamiz. Masalan, Qahhor qahramoni kuchli xarakterga ega ayol, Genri esa qahramonini irodasiz va ojiz tasvirlaydi. Shuningdek, yozuvchilar toni ham turlicha: Genri hikoyasi g'amgin,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Qahhorniki esa turli kulguli voqealarga ega. Ushbu yozuvchilarning umumbashariy mavzuni tanlaganliklari va bebaho yozuvchilik mahorati asarlarining hozirgacha o'z o'quvchilariga ega ekanligining asosiy sababidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhor, A. (2019). *Adabiyot muallimi*. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.
2. Genri, O. *So‘nggi yaproq*. – Xurshid Davron elektron kutubxonasi. https://kh-davron.uz
3. Karimov, M. (2015). *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Qo‘chqorov, A. (2021). *Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: Iste’dod nashriyoti.
5. Mirvaliev, B. (2008). *Nasr tahlili asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

UDK:811.111

EFL SINFLARIDA IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI CHET TILLARNI O'RGANISH: IMKONIYATLAR VA QIYINCHILIKLAR

Xamidova Kamolaxon Bobir qizi
Namangan Davlat Universiteti, Magistr darajasi
E-mail: xamidovakamola66@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada EFL darslarida chet tilini o'rganishda ijtimoiy media platformalarining o'rni tahlil qilinadi, ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar yoritiladi. Ta'limda raqamli vositalardan foydalanish ortib borayotgan bir paytda YouTube, Instagram, TikTok va Telegram kabi platformalar talabalar uchun qulay va interaktiv manbaga aylanmoqda. Ijtimoiy media chet tilida haqiqiy muloqot muhiti yaratadi, mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi va madaniyatlararo aloqa imkonini beradi. Shu bilan birga, chalg'ituvchi omillar, nazoratning yetishmasligi va raqamli vositalarga teng kirish imkoniyatining mavjud emasligi kabi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Tadqiqotda aralash metod qo'llanilib, dars kuzatuvlari, o'qituvchilar bilan suhbatlar va talabalar anketa natijalari asosida ijtimoiy medialarning ingliz tilini o'rganishga ta'siri o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *chet tilini o'rganish, ijtimoiy media platformalari, EFL darslari, raqamli pedagogika, imkoniyatlar, qiyinchiliklar, talabalar motivatsiyasi, kommunikativ ko'nikmalar*

ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ МЕДИА-ПЛАТФОРМЫ В АУДИТОРИЯХ EFL: ВОЗМОЖНОСТИ И Т РУДНОСТИ

Хамидова Камолахон Бобир кизи
Наманганский Государственный Университет, Степень магистра
E-mail: xamidovakamola66@gmail.com

Аннотация : *Данная статья посвящена исследованию роли социальных медиа в изучении иностранных языков в EFL-классах, рассматривая как возможности, так и вызовы. В условиях активной цифровизации образования такие платформы, как YouTube, Instagram, TikTok и Telegram, становятся популярными и доступными ресурсами для студентов. Социальные медиа обеспечивают аутентичный контакт с иностранным языком, развивают автономию учащихся и межкультурную коммуникацию. Вместе с тем, остаются проблемы отвлечения внимания, отсутствия регулирования и неравного доступа к цифровым инструментам. В исследовании используется смешанный метод (наблюдения, интервью с преподавателями и анкетирование студентов), позволяющий выявить влияние социальных медиа на процесс обучения английскому языку.*

Ключевые слова: *изучение иностранных языков, социальные медиа, обучение английскому языку, цифровая педагогика, возможности, вызовы, мотивация учащихся, коммуникативные навыки*

FOREIGN LANGUAGE LEARNING THROUGH SOCIAL MEDIA PLATFORMS IN EFL CLASSROOMS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Khamidova Kamolakhon Bobir qizi
Namangan State University, Master's degree
E-mail: xamidovakamola66@gmail.com

Abstract: *This article explores the role of social media platforms in foreign language learning within EFL classrooms, highlighting both opportunities and challenges. With the increasing integration of digital tools into education, platforms such as YouTube, Instagram, TikTok, and Telegram have gained popularity among learners as accessible and interactive resources. Social media provides authentic exposure to the target language, promotes learner autonomy, and fosters intercultural communication. At the same time, challenges such as distraction, lack of regulation, and unequal access to digital tools remain significant. The study employs a mixed-methods approach, including classroom observations, teacher interviews, and student questionnaires, to examine how social media contributes to English language learning.*

Keywords: *foreign language learning, social media platforms, EFL classrooms, digital pedagogy, opportunities, challenges, learner motivation, communication skills.*

INTRODUCTION

In recent decades, the rapid expansion of digital technologies has reshaped the ways in which people communicate, access information, and learn. Among these technological advancements, social media platforms have emerged as powerful tools not only for social interaction but also for educational purposes. Platforms such as YouTube, Instagram, TikTok, and Telegram have become an integral part of students' everyday lives, providing constant exposure to authentic content, opportunities for communication, and access to communities of practice. This shift presents both opportunities and challenges for educators, particularly in the field of foreign language learning.

Foreign language learning has traditionally relied on textbooks, classroom instruction, and limited exposure to authentic materials. However, the emergence of

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

social media platforms has made it possible for learners to engage with real-life language in diverse formats—videos, podcasts, posts, comments, and live discussions—without the restrictions of time and place. This continuous and interactive exposure to authentic language is particularly significant in EFL (English as a Foreign Language) classrooms, where learners often lack access to immersive environments. Social media, therefore, functions as a bridge between formal classroom instruction and informal language practice, enabling learners to apply knowledge in real-world contexts.

METHODOLOGY

This research employed a mixed-methods design, combining both qualitative and quantitative approaches in order to provide a comprehensive understanding of the role of social media platforms in foreign language learning within EFL classrooms. The choice of a mixed-methods approach was based on the belief that neither qualitative nor quantitative data alone would be sufficient to capture the complexity of the phenomenon under investigation. By integrating different sources of evidence—observations, interviews, and questionnaires—the study aimed to triangulate findings, increase validity, and offer a more nuanced perspective on the opportunities and challenges associated with social media use in language education.

The study was conducted in a descriptive-exploratory framework. A descriptive component was necessary to outline how social media platforms are currently being used by students and teachers in EFL classrooms, while the exploratory aspect allowed for identifying both the benefits and difficulties encountered in practice. The combination of these approaches enabled the research not only to describe existing practices but also to highlight emerging patterns and concerns.

The participants of the study included both teachers and students from three secondary schools and one university located in [insert region/city, e.g., Uzbekistan]. In total, 120 students and 15 EFL teachers took part in the research. The students ranged in age from 16 to 22, representing intermediate to upper-intermediate proficiency levels. Teachers had between 3 and 15 years of professional experience in teaching English as a foreign language. Participants were selected through purposive

sampling, as they were directly involved in the integration of social media into classroom practice.

In order to ensure ethical standards, all participants were informed about the purpose of the study and were given the opportunity to provide informed consent. Anonymity and confidentiality were guaranteed, and participation was entirely voluntary.

To obtain reliable data, three research instruments were used:

1. Classroom Observations – The researcher conducted a series of classroom observations (10 sessions in total) to examine how teachers and learners incorporated social media platforms into their lessons. Field notes were taken to record the frequency of use, types of activities, student engagement, and challenges observed.

2. Interviews – Semi-structured interviews were carried out with 10 teachers and 20 students. The interviews explored participants' perceptions of the effectiveness of social media in language learning, the opportunities they identified, and the challenges they faced.

3. Questionnaires – A structured questionnaire was distributed among 100 students. It consisted of both closed-ended and open-ended questions, aiming to collect data on students' frequency of social media use, preferred platforms, perceived benefits, and challenges.

RESULTS

The purpose of this study was to explore the opportunities and challenges of using social media platforms for foreign language learning in EFL classrooms. The data gathered from classroom observations, interviews, and questionnaires revealed several key patterns. This section presents the findings according to the main research objectives, beginning with the opportunities identified by participants and followed by the challenges

1. Increased Motivation and Engagement

One of the most prominent findings was the positive impact of social media platforms on student motivation. During classroom observations, students appeared more engaged when tasks included the use of familiar platforms such as Instagram, Telegram, TikTok, and YouTube. For example, activities like creating short videos in

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

English, commenting on peers' posts, or participating in group discussions on messaging apps led to higher levels of participation compared to traditional textbook-based exercises.

Interviews with students confirmed this observation. A majority of participants (78% in the questionnaire) reported that social media tasks felt "more enjoyable" and "closer to real life" than regular classroom activities. Teachers echoed this view, noting that students who were typically reluctant to participate in class showed greater enthusiasm when lessons incorporated social media tools.

2. Authentic Exposure to Language

Social media was perceived as a valuable resource for authentic language input. Students reported that platforms such as YouTube and TikTok provided them with access to native-speaker content, including news reports, interviews, vlogs, and entertainment clips. This exposure allowed them to experience natural language use in context, which is often missing from traditional textbooks.

Observation data indicated that students frequently brought examples from social media into classroom discussions, thereby enriching the learning environment. Teachers also emphasized that the availability of diverse, real-world materials helped students develop listening and reading comprehension skills in a more natural way.

3. Flexibility and Accessibility

Both students and teachers valued the flexibility offered by social media platforms. Students could review materials, participate in discussions, or complete tasks outside of class hours, which encouraged autonomous learning. Teachers reported that platforms like Google Classroom, combined with social media groups, allowed them to share resources more effectively and reach students who might have missed a lesson.

The questionnaire data indicated that 72% of students appreciated the ability to "learn anywhere and anytime," which reflects the growing importance of mobile-assisted language learning in contemporary education.

Overall, the results of this study demonstrate that social media platforms offer substantial opportunities for enhancing motivation, providing authentic language input, fostering collaboration, and promoting flexible learning. However, these

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

benefits are counterbalanced by challenges such as distraction, unequal access, exposure to non-standard language, and the varying levels of teacher preparedness.

DISCUSSION

The findings of this study confirm that social media platforms have a multifaceted influence on foreign language learning in EFL classrooms. While the results highlight numerous opportunities for enhancing motivation, engagement, and exposure to authentic language, they also underscore a number of challenges that educators must carefully address. This section discusses the significance of the findings in light of previous research, explores their pedagogical implications, and considers the limitations of the study.

One of the most encouraging outcomes of this research was the extent to which social media increased student motivation and participation. This aligns with previous studies (e.g., Aydin, 2014; Manca & Ranieri, 2016), which have consistently found that digital tools can make language learning more interactive and personally meaningful. Unlike traditional learning methods that sometimes feel detached from students' daily lives, social media activities offer a sense of immediacy and relevance. In the present study, students responded positively when classroom tasks mirrored the kind of communication they engage in outside of class, such as commenting on posts, sharing videos, or participating in group discussions. This suggests that integrating familiar platforms into pedagogy may reduce the gap between formal learning and informal language use.

Another important finding was the role of social media in providing access to authentic language. The ability to engage with native-speaker content, such as YouTube videos or online discussions, complements textbook-based instruction and exposes learners to diverse registers and cultural contexts. This supports the idea proposed by Thorne (2016) that online platforms serve as "ecologies of practice," where learners acquire language in real-life situations rather than in artificial classroom contexts. For EFL learners, especially those in contexts where opportunities for direct interaction with native speakers are limited, social media may serve as a bridge to authentic communication.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

CONCLUSION

In conclusion, social media has emerged as a transformative tool in foreign language learning, offering both significant opportunities and notable challenges. Platforms like YouTube, Telegram, and TikTok provide learners with access to authentic content, enabling real-time communication with native speakers and fostering a more immersive learning experience.

REFERENCES

1. Barrot, J. S. (2022). Social media as a language learning environment: A review. Language Learning & Technology, 26(1), 1–17. https://www.lltjournal.org/item/3190
2. Dashti, F. (2025). The influence of social media applications on learning English as a foreign language. Education and Information Technologies, 30(1), 1–19. https://doi.org/10.1007/s10639-021-10792-w
3. Ghafar, A. (2023). Social media in language learning: Implications for second language motivation and linguistic acquisition—a comprehensive review. Journal of Language and Linguistic Studies, 19(3), 1–17. https://doi.org/10.52462/jlls.2023.19.3.1
4. Mera-Garrido, C. C. (2024). Social media utilization in English language learning and teaching: A case study. Journal of Applied Linguistics and Language Research, 11(2), 1–15. https://doi.org/10.24256/jaclr.v11i2.22868

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIY ONG VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGI

Tursunov Ramziddin Abdixalil-o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning fundamental birligi, dunyoqarash va jamiyat taraqqiyotining tadrijiy darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy ong va qadriyatlar va yuksak ahloq birligini o'zida mujassam etgan ma'naviyat uyg'unligining ijtimoiuy muhitga ta'siri borasidagi fikr mulohazalar o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, strategiya, aura, islohot, ijtimoiy muhit, drayver, intellektual, pozitsiya*

SOCIAL CONSCIOUSNESS AND SPIRITUALITY HARMONY IN SOCIETY

Annotation. *This article reflects the views on the influence of the harmony of spirituality on the social environment, which embodies the fundamental unity of social phenomena and processes, the unity of social consciousness and values, and high morality, which determines the progressive level of worldview and development of society.*

Keywords: *globalization, strategy, aura, reform, social environment, driver, intellectual, position*

ГАРМОНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ И ДУХОВНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В статье отражены взгляды на влияние гармонии духовности на социальную среду, воплощающей фундаментальное единство общественных явлений и процессов, единство общественного сознания и ценностей, высокую нравственность, определяющую прогрессивный уровень мировоззрения и развития общества.*

Ключевые слова: *глобализация, стратегия, аура, реформа, социальная среда, движущая сила, интеллектуал, позиция*

KIRISH

Insoniyat paydo bo'lgan va o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishib, jamiyat finomenini hosil qilgan davrdan boshlab, ularda borliqni anglashga intilish, tadqiq va tahlil qilish ko'nikmalari shakllana boshlagan. Borliqni ayni holatida anglash jarayonida, ong xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'zaro bilim va ko'nikmalar, dastlabki tushuncha va subyektiv xulosalar ham shakllana borgan. Bir hudud, bir til, bir ehtiyoj (ayrim jihatlarda), bir davr va makon ushbu ijtimoiy birlikda muayyan

xususiyat, xususan, tafakkur, tushuncha va shu birlikka xos ijtimoiy ongni yuzaga keltiradi. Ongli va ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatiga qodir bo‘lgan inson va kishilik jamiyatida o‘ziga xos hodisa va jarayonlar taraqqiyoti borliqqa bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘lib kelgan. Jamoa shaklidan toki kishilik jamiyatiga qadar bo‘lgan davr va bugungi globallashgan kunda ham biz uchun anglashning asosi ong, xususan, ijtimoiy ong zaruriy va tabiiy jarayon vazifasini o‘taydi. Ijtimoiy ong bu tabiat, jamiyatning moddiy hayoti va butun ijtimoiy munosabatlar tizimi aks ettirilgan g’oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg’ular, e’tiqodlar, odamlarning his-tuyg’ulari hamda kayfiyatlari yig’indisidir. Ijtimoiy ong borliqning vujudga kelishi bilan birga shakllanadi va rivojlanadi, chunki ong ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Lekin jamiyatni uning asosiy elementlari, jumladan, ijtimoiy ong rivojlangandagina to’laqonli jamiyat deyish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunga qadar “Ijtimoiy ong va uning falsafiy tahlili” hamda “Ma’naviyat” mavzulari, jamiyat hayotida ijtimoiy ong harakter xususiyatlari, ijtimoiy ong va ma’naviyat munosabatlari masalasi ko‘plab jahon hamda mamlakatimiz tadqiqotchi olimlari va mutaxassislari tomonidan tadqiq qilingan va mavzuga oid ko‘plab adabiyotlar nashr qilingan.

Maqola mavzusiga oid asarlar orasida jahon miqyosidagi tadqiqotchilar Arnold Jozef Toynbi, Jenis Jomart Jenisuliy, Patrik Jozef Byukkenon, Sergey Karaganov, Junus D. Dešyerijevlar, Chumakov B., mamlakatimizda ilmiy tadqiqot olib borgan I.Karimov, R.Sangirov, M.Zuparova, O.Shermuxamedova, B.To‘rayev, B.Qandarov, Q.Nazarov, E.Yusupov kabi bir guruh olimlarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatish mumkin.

Ijtimoiy ongni shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy jarayon va hodisalarga nisbatan subyektiv munosabatlar, ularning shakli va mohiyati jihatdan kvalifikatsiyalash uchun asos vazifasini o‘tab berdi. Shunday hodisa va xususiyatlardan yana biri bu ma’naviyadir. Ma’naviyat eng avvalo, har bir insonning ichki ruhiy olami, hayoti, dunyoqarashi, axloqiy va insoniy me’yorlarga amal qilishi, o‘zida insoniylik, bag’rikenglik, to‘g’rilik, adolat, xushmuomalalik, halollik,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

samimiylik, ahillik, daxldorlik, rostgo‘ylik, ma’rifat, totuvlik, jonkuyarlik, poklik va barcha insoniy fazilatlarni anglab yetish va uni amaliy jihatlarda namoyon qila olish, faqat insonlargagina xos bo‘lgan, inson shaxsi va uning hayotiy faoliyati davomida ilm izlash, ijtimoiy muhit hamda munosabatlar, ibrat tarbiyasi, oilaviy muhit, e’tiqod va ichki botiniy erkinlik va soflik asosida shakllanadigan insoniy harakter hisoblanadi. Ma’naviyat insonni har tomonlama tarbiyalovchi va ma’naviyatli inson esa jamiyatni tarbiyalovchi dastak hisoblanadi. Ma’naviyat ayni paytda botiniy tushuncha hisoblanadi va uning akssadosi bevosita zohiriy olamda aks etishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ma’naviyat tushunchasining jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyati borasida fikr bildirar ekan, davlatimiz rahbari: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz Yangi O’zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy me’rosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz” deya ta’kidlagan edi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insoniyatning boshqa mavjudod va biologik hujayralardan ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri bu ong hisoblanadi. Ong - faqat insongagina xos bo‘lgan ob’ektiv voqelikni aks ettirishning eng yuqori shakli, uning dunyoga va o‘ziga bo‘lgan munosabati usuli bo‘lib, u insonning ob’ektiv dunyoni va o‘z borligini tushunishida faol ishtirok etadigan psixik jarayonlar birligidir. “Ong insonning ruhiy faolligining oliy darajasi va reallikni hissiy va fikriy obrazlar shaklida aks ettirishning oliy shaklidir”. Ong hissiy obrazlar, sezgi yoki tasvir bo‘lgan va shuning uchun ma’no va ma’noga ega bo‘lgan narsalar, xotirada muhrlangan sezgilar yig’indisi sifatidagi bilim va oliy aqliy faoliyat, tafakkur va til natijasida yaratilgan umumlashmalardan iborat. Ong insonning voqelik va uni boshqarish bilan o‘zaro munosabatining maxsus shakli. Ongning munosabatlari va muayyan qatlam aurasi hamda mafkurasini ochib beruvchi shakli bu ijtimoiy ong hisoblanadei. Ijtimoiy ong bevosita tabiat, jamiyatning moddiy hayoti va butun ijtimoiy munosabatlari tizimi aks ettirilgan g’oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg’ular, e’tiqodlar, odamlarning his-tuyg’ulari hamda kayfiyatlari yig’indisidir. Ijtimoiy ong borliqning vujudga kelishi bilan birga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

shakllanadi va rivojlanadi, chunki ong ijtimoiy munosabatlar mahsuldir. Lekin jamiyatni uning asosiy elementlari, jumladan, ijtimoiy ong rivojlangandagina to'laqonli jamiyat deyish mumkin.

Insoniyat paydo bo'lgan va o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishib, jamiyat finomenini hosil qilgan davrdan boshlab, ularda borliqni anglashga intilish, tadqiq va tahlil qilish ko'nikmalari shakllana boshlagan deyish mumkin. Borliqni anglash jarayonida, ong xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'zaro bilim va ko'nikmalar, dastlabki tushuncha va subyektiv xulosalar ham shakllana borgan. Bir hudud, bir til, bir ehtiyoj (ayrim jihatlarda), bir davr va makon ushbu ijtimoiy birlikda muayyan xususiyat, xususan, tafakkur, tushuncha va shu birlikka xos ijtimoiy ongni yuzaga keltiradi. Ongli va ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatiga qodir bo'lgan inson va kishilik jamiyatida o'ziga xos hodisa va jarayonlar taraqqiyoti borliqqa bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'lib kelgan. Jamoa shaklidan toki kishilik jamiyatiga qadar bo'lgan davr va bugungi globallashgan kunda ham bir uchun anglashning asosi ong, xususan, ijtimoiy ong zaruriy va tabiiy jarayon vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy ong jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy hayotga, ularning ijtimoiy tuzilmalari, iqtisodiy va siyosiy holati, madaniy qadriyatlar va an'analariga oid umumiy tasavvurlari, fikrlari va his-tuyg'ularining yig'indisidir. Ijtimoiy ong tabiatni, jamiyatning moddiy hayotini va butun ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiruvchi g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg'ular, e'tiqodlar, odamlarning his-tuyg'ulari, kayfiyatlari yig'indisidir. "Ijtimoiy ong – individual ongning ko'pligi, ular majmuyi, ijtimoiy subyektlar ongi va tafakkurini ifodalaydigan tushuncha". Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning paydo bo'lishi bilan birga shakllanadi va rivojlanadi, chunki ong faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida mavjud. 0Bu tushuncha, jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini, uning rivojlanishini va o'zgarishlarini anglashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ong faqat bir odamning shaxsiy fikrlari yoki qarashlari emas, balki kengroq ijtimoiy guruhlar va butun jamiyatning umumiy fikrini aks ettiradi.

Ijtimoiy ongning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab omillar bilan belgilanadi, shu jumladan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy va tarixiy shart-

sharoitlar. Ijtimoiy ong, odatda, jamiyatdagi me'yorlar, qadriyatlar, qonunlar va an'analarga asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi.

Ijtimoiy ong faqat individual fikrlar va qarashlardan iborat emas, balki bu jamiyatning kollektiv fikrini aks ettiradi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqot, ularning ijtimoiy me'yorlarga bo'lgan munosabati va o'zaro aloqalari orqali ijtimoiy ong shakllanadi. Jamiyatda yashovchi har bir shaxs o'ziga xos tarzda bu kollektiv ongni qabul qiladi va unga moslashadi. Ijtimoiy ongda mavjud qadriyatlar, g'oyalar va qarashlar jamiyatdagi barcha a'zolar tomonidan paydo bo'lib, tarqatiladi va o'zgaradi.

Ijtimoiy ong davrlar davomida o'zgarib boradi. Jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlari ijtimoiy ongning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Masalan, feodalizmdan kapitalizmga o'tish, inqiloblar, siyosiy tizimlarning o'zgarishi kabi jarayonlar ijtimoiy ongni yangilaydi. Bu o'zgarishlar yangi g'oyalar, qadriyatlar va qarashlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, tarixiy jarayonlar ijtimoiy ongning shakllanishida mavjud ijtimoiy toifadagi odamlarning manfaatlari, urf-odatlari va intilishlari bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy ong, shuningdek, jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va bilimlari bilan bog'liqdir. Ijtimoiy ongda odamlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy tuzilmalarga nisbatan his-tuyg'ulari, shuningdek, dunyoni qanday tushunishi va qabul qilishi aks etadi. Jamiyatdagi har bir a'zo o'z o'rnini, qadriyatlarini va axloqiy me'yorlarini bilib, ular asosida ijtimoiy muhitda qanday faoliyat yuritishni anglaydi. Jamiyat a'zolarining qadriyatlar negizida o'z ideallari ham shakllanib boradi, ya'ni "Orzu-intilishlarning oliy maqsadi. Keng ma'noda: u yoki bu narsa, hodisaning eng yaxshi, eng qadrli, eng mukammal holati" gavdalanib boradi. Bunga iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tushunish, jamiyatning rivojlanishining muhim aspektlarini bilish kiradi.

XULOSA

Ijtimoiy ong jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlar bilan uzviy bog'liq hisoblanadi va bu qadriyatlar ijtimoiy ongda o'z aksini topib, jamiyatning etikasini, axloqini va siyosiy qarashlarini shakllantiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ijtimoiy ongni yo‘naltiradi va insonlarning hayotini, faoliyatini, qarorlarini ta’sir qiladi. Masalan, adolat, erkinlik, tenglik kabi qadriyatlar ijtimoiy ongda aks etadi va jamiyatda bu qadriyatlarning tarqalishi, qadriyatlar tizimining mustahkamlanishi ijtimoiy muhitning barqarorligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy ong va ma’naviyat jamiyatning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular insonlarning dunyoqarashi, axloqiy va estetik qadriyatlari, madaniy me’yorlari va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy ong va ma’naviyatning uyg‘unlik va ziddiyatli jihatlari jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy tizimlar, iqtisodiy muhit va madaniy an’analar o‘rtasida har doim o‘zaro qarama-qarshiliklar va nizolarni keltirib chiqaradi. Ushbu dissertatsiya ishida ijtimoiy ong va ma’naviyatning uyg‘unlik va ziddiyatli jihatlari, ularning jamiyatga ta’siri, va bu jarayonlarning kelajagi haqida keng tahlil keltirilgan. Ijtimoiy ong va ma’naviyatning uyg‘unlik jihatlari jamiyatda birlashish, ijtimoiy tartib va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Jamiyatdagi axloqiy, estetik va diniy qadriyatlar, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy tizimlarning uyg’unligi ijtimoiy tizimning samarali ishlashini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimida an’anaviy dars shakllari ko‘pincha auditoriya bilan chegaralangan, o‘qituvchining shaxsiy ishtirokiga tayanadi va talabalar faolligini rag‘batlantirishda yetarlicha moslashuvchan emas[4]. Raqamli platformalar esa bu cheklovlarni yengib o‘tish, o‘quv materiallarini multimediya vositalari yordamida taqdim etish, talabalar bilimini real vaqt rejimida baholash va individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi[5].

Shunga qaramay, raqamli platformalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini to‘liq o‘rganish, ularni oliy ta’lim tizimiga metodik jihatdan integratsiya qilish hamda mavjud pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha ko‘p emas[6]. Xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar ko‘proq texnik imkoniyatlar, platformalarning funksional xususiyatlari yoki foydalanuvchi tajribasiga e’tibor qaratadi. Mahalliy sharoitda esa raqamli platformalarning o‘qitish jarayonidagi metodik, psixologik va didaktik jihatlari bo‘yicha izlanishlar cheklangan[7].

Raqamli platformalarning ta’lim jarayoniga kiritilishi bilan bog‘liq eng katta muammolardan biri — ularning samarali ishlashini ta’minlaydigan metodologik asoslarning yetishmasligi[8]. Ko‘plab oliy ta’lim muassasalari raqamli platformalarni texnik vosita sifatida joriy qilgan bo‘lsa-da, ularning didaktik imkoniyatlarini to‘laqonli ochib beruvchi o‘qitish strategiyalari va metodlari ishlab chiqilmagan. Natijada, platformalar mavjud bo‘lsa ham, ularning imkoniyatlaridan faqat eng oddiy — masofadan topshiriqlar yuborish va baholash funksiyalari darajasida foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi raqamli kompetensiya farqi ham muhim masala bo‘lib qolmoqda. Ayrim o‘qituvchilar texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli malakaga ega bo‘lmaganligi sababli, platformalarning ilg‘or funksiyalari ishga solinmaydi. Shu bilan birga, talabalar tomonidan raqamli

ta'limga moslashish darajasi ham bir xil emas — bu esa platformalar yordamida ta'lim sifatini teng taqsimlashga to'sqinlik qiladi.

An'anaviy yondashuvlarda o'quv jarayoni asosan o'qituvchi faoliyatiga bog'liq bo'lib, talaba passiv bilim oluvchi sifatida ishtirok etadi. Raqamli ta'lim platformalari esa bu modelni o'zgartirib, talabani faol ishtirokchi va bilim yaratuvchiga aylantirishi mumkin. Ammo bu o'zgarish faqat puxta metodik yondashuvlar ishlab chiqilgandagina sodir bo'ladi. Aks holda, platforma faqatgina an'anaviy dars jarayonining elektron nusxasiga aylanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar faol rivojlanmoqda. Jumladan, A. Xodjayevoliy ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim tizimlari imkoniyatlarini tahlil qilib, ularning o'quv jarayonini individuallashtirishdagi rolini ta'kidlaydi. M. Yusupov raqamli ta'lim vositalari yordamida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi[9]. Z. Raxmonqulova elektron resurslar va virtual laboratoriyalarni joriy etishning didaktik afzalliklarini, xususan, talabalar motivatsiyasi va interaktivlik darajasiga ijobiy ta'sirini asoslab bergan[10].

Shuningdek, A. Abduqodirov oliy ta'limda masofaviy platformalarning integratsiyasi bo'yicha milliy model ishlab chiqib, Moodle, Google Classroom va Edmodo tizimlarini solishtirgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar o'qitish metodologiyasini diversifikatsiya qilish, darslarni vizuallashtirish va qayta ishlash imkonini beradi. Rossiya ilmiy maktabida raqamli ta'lim platformalarining didaktik imkoniyatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan[11]. E.S. Polat masofaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash metodikasini ishlab chiqib, talaba–o'qituvchi–o'quv mashg'uloti o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirish modelini taklif qilgan[12]. A.A. Andreev raqamli platformalarning adaptiv ta'lim berish imkoniyatlarini tahlil qilib, ularni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan bog'lagan[13]. V.P. Tikhomirov esa "Цифровой университет" kontseptsiyasi doirasida elektron kurslar, onlayn baholash tizimlari va virtual amaliyotlar samaradorligini ilmiy asosda baholagan[14].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bundan tashqari, N.V. Tikhonova raqamli pedagogik dizayn tamoyillarini ishlab chiqib, multimediya vositalarining bilimlarni mustahkamlashdagi o‘rnini ko‘rsatgan[15]. S.G. Grigoriev esa sun’iy intellekt elementlarini o‘z ichiga olgan ta’lim platformalarining kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini ochib bergan[16].

O‘zbek va rus olimlarining tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim platformalari oliy ta’lim jarayonida:

- o‘quv jarayonini individuallashtirish;
- interaktiv va multimedia vositalarini keng qo‘llash;
- ta’limni masofadan samarali tashkil etish;
- talabalar mustaqilligini rivojlantirish;
- baholashning shaffofligi va tezkorligini oshirish kabi imkoniyatlarga ega.

Bu esa oliy ta’lim sifatini oshirishda raqamli ta’lim platformalarini kompleks joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda oliy ta’limda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari bo‘yicha taklif qilinayotgan modelning ilmiy asoslanganligini ta’minlash maqsadida bir nechta metodik yondashuvlar qo‘llanildi. Dastlab tadqiqotda oliy ta’limda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini

- taqqoslash va;
- tahlil qilish;
- xorijiy va milliy raqamli platformalarni o‘rganish;
- pedagogik eksperiment o’tkazish;
- raqamli platformalarning o‘quv jarayonidagi funksional imkoniyatlari baholashdan iboratdir.

NATIJA

Oliy ta’limda raqamli ta’lim platformalarining samaradorligini baholash. Taqqoslash va tahlil jarayonida oliy ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan raqamli ta’lim platformalari ilmiy asosda o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi platformalarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi, funksional imkoniyatlari va pedagogik qo‘llanilish darajasini aniqlashdan iborat edi. Tahlil natijalari shuni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rsatdiki, turli platformalar talabalarning bilim olish, mustaqil ishlash va o‘zlashtirish jarayoniga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi platformalar interaktiv o‘quv materiallarini taqdim etish orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va jalb qiluvchi qiladi, boshqalari esa keng qamrovli resurslarga kirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ayrim platformalarda test va baholash mexanizmlari mukammal ishlangan bo‘lib, talabalarning bilim darajasini aniq va tezkor baholash imkonini beradi.

Tahlil jarayonida xorijiy va milliy raqamli ta’lim platformalari alohida ko‘rib chiqildi. Xorijiy platformalar global resurslar bilan boyitilgan, interaktivlik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lib, turli millatlar uchun moslashtirilgan kontentni taqdim etadi. Milliy platformalar esa o‘quv jarayonini mahalliy ta’lim talablari va milliy tilga moslashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning motivatsiyasini oshirish va o‘zlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini beradi.

Pedagogik eksperiment nazoratli sharoitlarda rejalashtirilib, eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etildi. Eksperimental guruh talabalar platformadan foydalangan holda o‘rganish jarayonini amalga oshirdi, nazorat guruh esa an’anaviy metodlar bilan ishladi. Eksperiment davomida talabalarning bilim darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va motivatsiyasi interaktiv mashqlar, testlar va o‘z-o‘zini baholash natijalari orqali kuzatildi. To‘plangan ma’lumotlar statistik tahlil qilindi va guruhlar natijalari solishtirildi.

Raqamli platformalarning o‘quv jarayonidagi funksional imkoniyatlarini baholash jarayonida platformalarning interaktiv mashqlar, test va baholash tizimlari, o‘quv materiallariga kirish qulayligi, talaba-o‘qituvchi muloqoti, feedback mexanizmlari va o‘quv jarayonini monitoring qilish imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, samarali platformalar o‘quv jarayonini interaktiv, shaxsiylashtirilgan va nazorat qilinadigan qiladi, talabalarning bilimni tezroq va mustahkamroq egallashini, mustaqil ishlash va motivatsiyasini oshirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, platformaning interaktiv imkoniyatlari va doimiy feedback pedagogik jarayonni samarali tashkil etadi.

Pedagogik maqsadlar uchun eng optimal raqamli platformalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot asosida platformalarni tanlashda funksional imkoniyatlari, interaktivligi, test va monitoring tizimlarining mavjudligi hamda talabalarga qulayligi asosiy mezon sifatida hisobga olinishi lozim.

XULOSA

Oliy ta’limda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning didaktik va pedagogik samaradorligini o‘rganish tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, platformalar talabalarning bilim egallash jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Taqqoslash va tahlil jarayonida xorijiy va milliy raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari aniqlanib, pedagogik maqsadlar uchun eng samarali vositalar ajratildi. Xorijiy platformalar global resurslar va innovatsion texnologiyalarni taqdim etishi bilan ajralib turadi, milliy platformalar esa o‘quv jarayonini mahalliy ta’lim standartlari va tilga moslashtirish orqali talabalarning motivatsiyasini oshiradi.

Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda talabalarning bilim darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va motivatsiyasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Interaktiv mashqlar, testlar, feedback mexanizmlari va monitoring tizimlari o‘quv jarayonini individualizatsiyalash va samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Shu asosda, raqamli ta’lim platformalarini tanlashda ularning funksional imkoniyatlari, interaktivligi, test va monitoring tizimlari, shuningdek, talabalarga qulayligi asosiy mezon sifatida hisobga olinishi lozim. Umuman olganda, raqamli platformalardan foydalanish oliy ta’limda o‘quv sifatini oshiradi, talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi va pedagogik jarayonni samarali tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кучкаров, Ж., & Салихов, Ф. (2020). Рақамли таълим платформалари ва олий таълимда уларнинг педагогик имкониятлари. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги.

2. Pappas, C. (2019). The Digital Learning Landscape in Higher Education: Tools, Trends, and Pedagogical Implications. International Journal of Educational Technology, 16(4), 23–35.
3. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: BCcampus.
4. Ally, M. (Ed.). (2019). Competency-Based and Personalized Learning in Higher Education. Athabasca University Press.
5. Salmon, G. (2017). E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online (3rd ed.). Routledge.
6. Heinze, A., & Proctor, C. (2016). Reflections on the Use of Blended Learning in Higher Education. Journal of Learning Development in Higher Education, 9, 1–20.
7. Oliy ta'limda raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2021.
8. Ходжаев, А. Масофавий ta'lim tizimlari va o'quv jarayonini individuallashtirish. – Тошкент, 2020.
9. Yusupov, M. Raqamli ta'lim vositalari va mustaqil ishlash kompetensiyasi. – Тошкент, 2021.
10. Raxmonqulova, Z. Virtual laboratoriyalar va elektron resurslarning didaktik afzalliklari. – Тошкент, 2021.
11. Abduqodirov, A. Moodle, Google Classroom va Edmodo platformalarini solishtirish. – Тошкент, 2022.
12. Polat, E.S. Metodika primeneniya masofavogo obucheniya. – Moskva, 2019.
13. Andreev, A.A. Adaptivnoe obuchenie i tsifrovye platformy. – Moskva, 2020.
14. Tikhomirov, V.P. "Tsifrovoy universitet": elektron kurslar va virtual praktikum. – Moskva, 2021.
15. Tikhonova, N.V. Pedagogicheskiy dizayn i multimedia v obrazovanii. – Moskva, 2020.
16. Grigoriev, S.G. Tsifrovye platformy i iskusstvennyy intellekt v obrazovanii. – Moskva, 2021.

ALISHER NAVOIYNING "HASBI HOL" MASNAVIYSI BADIIY TALQINI

Burxonova Madinabonu
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
madinabonuburxonova2@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Navoiyning do'sti, hammaslagi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she'riy maktubi, masnaviysi Ardasher timsoli orqali yoritib berilgan va masnaviyda keltirilgan ba'zi baytlarning tahliliga bag'ishlangan. Navoiy baytda Ardasherning porloq hayoti va so'nmas xotirasi bitilgan so'zlarni muhrlaydi. Ushbu baytda Sayyid Hasan shaxsini "mehri farxunda"- qutlug' quyosh, "sham'i raxshanda"- porloq sham istioralari orqali tavsiflaydi. Istiorada bir narsa vaqtinchalik ikkinchisining nomi atalar ekan, ular o'rtasida umumiylik bo'lishi taqozo etiladi. Quyosh olamga teng nurini taratgani kabi Ardasher ham mehr, saxovat, hamdardlik, kechirimlilik nurini taratadi.*

Kalit so'zlar: *"Hasbi hol", koshifi hol, hallol, Alim, Azim, bidoyat, salovat, ashob, so'z.*

«ХАСБИ ХОЛ» МАСНАВИ АЛИШЕРА НАВОИ: ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация: *Статья посвящена анализу некоторых стихов маснави – поэтического письма Навои к своему другу и коллеге Сайиду Хасану Ардашеру, – которые раскрываются через образ Ардашера. Навои облекает в стих слова, описывающие блестящую жизнь Ардашера и его неувядающую память. В этом стихе Сайид Хасан описывается метафорами «мехри фахунда» – благословенное солнце и «шам'и ракшанда» – сияющая свеча. Поскольку одно временно называется именем другого, необходимо, чтобы между ними существовала общность. Подобно тому, как солнце излучает в мир свой равноценный свет, Ардашер излучает свет любви, великодушия, сочувствия и прощения.*

Ключевые слова: *«Хасби хал», кошифи хал, халяль, Алим, Азим, бидаят, салават, ашаб, соз.*

ALISHER NAVAI'S "HASBI HOL" MASNAVI, AN ARTISTIC INTERPRETATION

Abstract: *This article is devoted to the analysis of some verses in the masnavi, which are illuminated through the image of Ardasher, and some verses in the masnavi, written by Navoi to his friend and colleague Sayyid Hasan. Navoi seals the words in the verse that describe Ardasher's brilliant life and undying memory. In this verse, Sayyid Hasan describes his personality through the metaphors of "mehri farkhunda" - the blessed sun, "sham'i rakshanda" - a bright candle. Since one thing is temporarily called the name of the other in the metaphor, it is necessary that there is a commonality between them. Just as the sun radiates its equal light to the world, Ardasher radiates the light of love, generosity, sympathy, and forgiveness.*

Keywords: *"Hasbi hol", koshifi hol, hallol, Alim, Azim, bidayat, salawat, ashab, word.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Alisher Navoiy ijodiyotida zamondoshi, do‘sti, hammaslagi Sayyid Hasan Ardasherga bag‘ishlangan masnaviy alohida o‘rin tutadi. Bu masnaviy navoiyshunoslikda “Hasbi hol” nomi bilan ham yuritiladi. Asar Navoiyning Samarqandda ekanligida bitilib, Sayyid Hasan Ardasherga maktub sifatida yo‘llangan. U mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf, ya’ni: fauvlun/ fauvlun/ fauvlun/ faul (V−−/ V−−/V−−/V−) vaznida yozilgan.

“G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan ushbu masnaviy Olim Sharafiddinov [7], Suyima G‘aniyeva[8], Vohid Abdullayev[1] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Asar hamd, na’t, Sayyid Hasan Ardasher ta’rifi, so‘ngra Samarqandga ketish sabablari izohini o‘z ichiga olgan. Navoiy Allohga hamd aytar ekan, uning sifatlarini sharhlaydi, misollar yordamida dalillaydi:

Sano haqqakim, koshifi hol erur
Xirad mushkilotig‘a, hallol erur

Aql mushkilotlarini hal etuvchi, holatlarni aslini biluvchi, ochuvchi Haqqa sano (maqtov) bo‘lsin.

Ushbu baytda Navoiyning “koshifi hol” va “hallol” so‘zlariga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas. Navoiy Allohning aynan “ holatlarni aslini biluvchi, ochuvchi”, “mushkilotlarni hal etuvchi” sifatlarini maqtash orqali o‘zining ham holatiga bilvosita ishora qilib ketgan. Chunki Navoiy mazkur asarni yozgan vaqtda Samarqand hukmdori Abu Said Mirzo bilan o‘rtasidagi munosabat ziddiyatli bo‘lgan. Bunga Samarqanddagi Abu Said Mirzo yaratgan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol sabab qilib ko‘rsatiladi. Navoiyshunoslikda Navoiyning Samarqandga ketish sabablari, Navoiy va Abu Said Mirzo munosabatlari masalasida bahsli jihatlar mavjud. Bobur uning Samarqandga Abu Said Mirzo tomonidan “ixroj qilinganligi”– majburan jo‘natilganligini aytgan: “Bilmon, ne jarima bila Sulton Abu Said Mirzo Hiridin ixroj qildi”[9. B.15]. Navoiyning o‘zi masnaviyda bunga ochiq ishora bermaydi. Ozod Sharafiddinov bu masala xususida quyidagicha munosabat bildiradi: “ Podshoh Abusaid o‘lkani, elni talab, “vahshatobod”ga aylantirgan, xalqning tirikchiligi og‘irlashgan edi… Yosh shoir Abusaid Mirzoning qo‘li bilan qilinib turilgan zulm, adolatsizlikni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi va kundan kun chuqurroq his eta boshladi. Bu esa

Alisherning Abusaid Mirzoga nafratini oshirdi"[7. B.33-34]. Navoiyning Ardasherga yozgan maktub-masnaviysidagi " baytlarda ifodalangan axloqiy tanazzul va nafsoniy yirtqichlik birdaniga paydo bo'lmagan. Shuning uchun ijtimoiy hayot, iqtisod, zulm zaminida yuzaga kelgan kulfat va baxtsizliklarning hammasini Abusaidga nisbat berish to'g'ri emas. Chunki ular Abusaidgacha ham bo'lgan, uning o'limidan keyin ham yo'qolib ketmagan"ligini Ibrohim Haqqul o'zining "Alisher Navoiy va Sulton Abusaid" nomli maqolasida ta'kidlaydi. Ammo tarixda shunday hodisalar sodir bo'lganki, mamlakat tepasiga kelgan shaxs o'z davrini o'zigacha bo'lgan davrlardan-da yuksaltirishga, xalqqa yengillik yaratishga, o'z yurtidan quvilib, o'zga yurtni egallagan bo'lsa-da, o'sha yot o'lkani gullatish uchun jonini ham bergan shohlarni bilamiz. Bunga Bobur Mirzoni misol qilib keltirishimiz mumkin. Hatto uning davrida mamlakat "Boburiylar saltanati" deb atalgani ham fikrimiz isbotidir. Saltanat taxti hukmdorini o'z davrining islohotchisi, oddiy xalq g'amxori, suyanchig'i deb atalar ekan, nima sababdan u o'z davridagi tanazzullar, tubanlik va razilliklarning sababchisi bo'lmas ekan?. Navoiy o'zi yaratgan "Hayrat ul-abror" dostonining "Salotin bobi"da sultonning asosiy vazifasini belgilab bergan:

Bo'rini dog'i galadin dur qil,
Suv beribon bog'ni ma'mur qil. [2. B.17]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yurtdagi notinchliklarning sababkorlaridan biri sifatida o'sha davr hukmdorini ham ko'rsatishimiz o'rinlidir. Mamlakatdagi zo'ravonliklar, ilm-fan va madaniyatning orqada qolishi, asosiy e'tibor xalqning nochor ahvoliga emas, yurt sarhadlarini kengaytirish uchun jang-u jadallarga qaratilgani, shohning mulkgirligi va vahshiyona qotiliklari insonlar o'rtasida hukmron toifaga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqargan. O'lkadagi bunday holat ijod va ilm ahllarining hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ma'lumki, musulmon olamida Haq taolo bilan birgalikda , uning habibi, rasuli Muhammad (a.s)ga maqtovlar yo'llanadi. Chunki Islom dinida yagona Tangri-Alloh bo'lsa, insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib bergan, komil inson namunasi hisoblangan payg'ambar Muhammad (s.a.v.) dir. Payg'ambarga salom yo'llash fazilati haqida Qur'onda hamda hadislarda keltirilgan: "Alloh taolo: "Alloh va uning farishtalari

Nabiyga salovat ayturlar. Ey iymon keltirganlar! Siz ham unga salovat ayting va salom ayting"[4. B.283]

Ko'rinadiki, musulmon sharqi adabiyotida qo'llangani kabi Navoiy ham Masnaviyda Payg'ambar (s.a.v) , uning oilasi va do'stlariga salom yo'llangan bayt keltirgan:

Nabi ravzasig'a alayhissalom
Ham oli ham as'hobig'a bardavom.

Payg'ambar gulshaniga, ham oilasi-yu, ham sahobalarga doimiy salomlar bo'lsin.

Baytdagi "ol" hamda "as'hob" so'zlariga diqqatni qarataylik. "Ol" bu –oila a'zolari demakdir.

"As'hob" esa Payg'ambar (s.a.v.) ning as'hobi esa eng birinchi navbatda chohoryorlar: Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali (r.a)lardir.

Bu baytning tarkiban o'ziga xosligi bayt o'qilishi bilan kitobxon tasavvuriga Payg'ambarimiz (s.a.v), oila a'zolari, do'stlari bir gulshanda jamlangani tasviri kelishida ko'rinadi. Ularning aynan bir gulshanda mujassam bo'lishining bir necha sabablari bor. Ravza –Jannat bog'i. bu bog'da turli xil g'uborlardan pok, qalbi ham jismi kabi sof bo'lgan insonlar jamlanadi. Bundan biz salom yo'llovchilarning Jannat ahllari sifatida tavsiflanganligini bilishimiz mumkin.

Hamd va na't qismidan so'ng Navoiy Sayyid Hasan ta'rifiga o'tadi. Unda do'stining azizligi, ulug' hurmatga sazovorligi, vafo unga odat-u, saxovat kasbi ekanligi, qutlug' quyosh va porloq shamdek butun dunyoni yoritishi xususida so'z yuritilgan:

Safo subhining mehri farxundasi
Fano shomining sham'i raxshandasi

Ya'ni, yorug'lik tongining qutlug' quyoshi, o'tkinchilik shomining porloq shami.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Navoiy baytda Ardasherning porloq hayoti va so'nmas xotirasi bitilgan so'zlarni muhrlaydi. Ushbu baytda Sayyid Hasan shaxsini "mehri farxunda"- qutlug' quyosh, "sham'i raxshanda"- porloq sham istioralari orqali tavsiflaydi. Istiorada bir narsa vaqtinchalik ikkinchisining nomi atalar ekan, ular o'rtasida umumiylik bo'lishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

taqozo etiladi. Quyosh olamga teng nurini taratgani kabi Ardasher ham mehr, saxovat, hamdardlik, kechirimlilik nurini taratadi. Buni Navoiy quyidagi bayt misolida izohlaydi:

Chu sensen bugun olam ahlida fard
Ki, holin de olg‘ay sanga ahli dard

Ya’ni, “Sen bugun xalq ichida yakka-yu, yagonasan, barcha dard ahli senga o‘z ahvolini bemalol bayon eta oladi.

Bunday ta’riflardan so‘ng Navoiy Samarandga ketish sabablarini izohlaydi.

Biri ulkim, chu so‘zdindur inson sharif
Chu hayvong‘a so‘z yo‘qdur uldur kasif

Biri shuki, insonning sharafliligi so‘zdandir, hayvonga so‘z yo‘q, shuning uchun u qo‘poldir.

Shoir avvalda so‘zning sharafli ekanligi, so‘zga ega bo‘lgani uchun inson ham sharafli bo‘lib, hayvonlardan farqlanishini izohlovchi baytni keltiradi. So‘ngra esa xuddi shu fikrni to‘laroq ifodalash, o‘quvchiga yaxlit holda tushuntirish maqsadida misollar keltiradi. Bu esa navoiyona poetikaning go‘zal bir namunasidir. Navoiy baytni “Bir ulkim…”, deya boshlagan edi. Ya’ni Samarqandga ketish sabablaridan birini yozmoqda edi. Fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ketish sababidan boshlamay, ketishiga sabab bo‘lgan voqeaning naqadar ahamiyatli ekanligini o‘quvchiga tushuntiradi, so‘zning qadri qay darajada ulug‘ligini ta’riflab beradi. Mana shundan keyingina Hirotda so‘zning qadri qolmaganligi, uni eshituvchilar kamchilik ekanligini aytib, bunday joyda turib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Yuqoridagi so‘z haqidagi ta’riflardan so‘ng har qanday o‘quvchi Navoiyga ergashib, u bilan birga Hirotni tark etgisi keladi.

Ikkinchi sababni keltirar ekan, uni quyidagi baytda havola qiladi:

Yana bir bukim, zohir o‘lmish mango
Ki, chiqmish Xuroson eliding vafo.

(yana biri shuki, menga Xuroson elidan vafo chiqqanligi ko‘rindi)

Insonlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi, mehr-oqibatini mustahkamlovchi vafodir. Insonlar o‘rtasida vafo yo‘qolar ekan, yurtda notinchlik boshlanadi, xalq orasida dushmanlik kayfiayti hukm sura boshlaydi. Xurosonda xuddi shunday

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

vaziyat avj ola boshlaydi. Navoiy keying baytlarda vafo ketsa, u bilan birga saxovat va muruvvat ham ketishini aytadi:

Vafo azm aylarda bo‘lmish magar
Saxovu muruvvat anga hamsafar

Agar vafo ketishga bel bog‘lasa, saxovat va muruvvat unga hamsafar, ya’ni safardosh bo‘ladi, birga ketadi. Demak, muruvvatni ham, saxovatni ham tutib turgan unsur vafodir. Vafo bor yerda insonlarda saxiylik ham, bir-biriga muruvvat ham bo‘lar ekan. Ammo vafo yo‘qolsa, ikkisi ham yo‘q bo‘ladi.

Uchunch ulki, chun xoliqi zuljalol
Ki, ham lamyazal keldi ham loyazol

(Abadiy ham so‘ngsiz keldi, chunki eng buyuk yaratuvchidir)

Navoiy uchinchi sababni keltirar ekan, yaratuvchi Alloh ekanligini, u abadiy va hech qachon yo‘q bo‘masligini, e’tiqod faqat ungagina bo‘lishini ta’kidlaydi. Allohni tanish, uning diydoriga, vasliga yetishish eng oliy saodat ekanligini tushuntiradi. Navoiyning maqsadi-irfondan bahramand bo‘lish, tariqat yo‘lini tanlashdir.

XULOSA

Inson o‘zligidan voz kechib , Haqqa yetishi uchun , avvalo Haqdan jazba yetishi, uni o‘ziga tortishi darkor. Undan so‘nggina pirga ergashib, undan Haqqa yetishish sirlarini o‘rganishi mumkin.

Ammo Navoiy ko‘nglidagi niyatini Sayyid Hasan Ardasherga bunday bayon etadi:

Chu avvalg‘i ish bo‘lmadi dastgir
Ikinchisidin xo‘b emastur guzir

Ya’ni, avvalgi ish dastak bo‘lmadi, ikkinchi choradan yaxshi emasdir.

Navoiy birinchi yo‘l unga dastak bo‘lmaganini, endi ikkinchi yo‘l unga yagona choradek ko‘rinayotganini aytadi.

Navoiy agar maqsadiga erisholmay vafot etsa, hatto o‘sha yo‘lda ekanligining o‘ziyoq ulug‘ sharaf ekanligini aytadi.

Navoiy yuqoridagi sabablarni keltirar ekan, birinchidan buni do‘stiga izohlash, so‘ngra Xurosondagi vaziyat hamda o‘zining oliy niyati bilan tanishtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев В. А.Навоий Самарқандда. Ўз ССР.:Билим жамияти, 1967
2. А. Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. 7-том. Т.:Фан, 1991
3. A. Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi.
4. A. Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. "Ahzob" surasi, 56-oyat
5. Alquran.uz sayti. https://www.alquran.uz/
6. Alquran.uz sayti, Buxoriy rivoyati. https://www.alquran.uz/
7. Шарафиддинов О. А. Навоий (ҳаёти ва ижоди). Т.:Ғ.Ғулом,1971.
8. Ғаниева С. А. Навоий (ҳаёти ва ижоди). Т.:Фан, 1968.
9. Haqqul. I. Navoiy va Abu Said. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. T.: Kamalak, 2015

Web-saytlar

1.www.edu.uz
2.www.ziyonet.uz
3.www.khurshiddavron.uz

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MILLIY CHOLG‘ULAR HAQIDA O‘QUVCHILARDA BILIM VA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING METODIK ASOSLARI

Ergashev Ibrohimjon Qodirjon o‘g‘li
Namangan viloyati Namangan shahar 18-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarda milliy cholg‘ular bo‘yicha bilim va qiziqishni shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli pedagogika, multimodal ta’lim, vizual-audio platformalar, hamda interaktiv o‘quv vositalari orqali o‘quvchilarda musiqiy estetikani shakllantirish, madaniy identitetni mustahkamlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash orqali milliy cholg‘ularni o‘rgatish samaradorligini oshirish, musiqa fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilish va ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liq didaktik yechimlar ishlab chiqilgan. Eksperimental mashg‘ulotlar asosida innovatsion metodlarning musiqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli, o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtirokchilik darajasiga ta’siri amaliy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur maqolada musiqiy-ta’limiy faoliyatga metodik yondashuvlarning tizimlashtirilgan modeli taklif qilinadi va milliy cholg‘ularni zamonaviy vositalar bilan uyg‘un holda o‘qitishga doir tavsiyalar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy cholg‘ular, innovatsion ta’lim texnologiyalari, musiqiy estetik tarbiya, metodik yondashuv, metodlar.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ЗНАНИЙ И ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К НАРОДНЫМ ИНСТРУМЕНТАМ

Аннотация: *В данной научной статье раскрываются методические основы использования инновационных образовательных технологий в процессе музыкального обучения в общеобразовательных школах для формирования у учащихся знаний и интереса к национальным музыкальным инструментам. В исследовании глубоко проанализированы механизмы формирования музыкально-эстетического восприятия, укрепления культурной идентичности и развития творческого мышления посредством цифровой педагогики, мультимодального обучения, визуально-аудио платформ и интерактивных учебных средств. Также разработаны дидактические решения, направленные на повышение эффективности преподавания национальных инструментов за счёт интеграции информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс и модернизации содержания музыкального образования на основе компетентностного подхода. На основе экспериментальных занятий обосновано практическое влияние инновационных методов на формирование музыкальных компетенций, мотивации и степени вовлечённости учащихся. В статье*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

предлагается систематизированная модель методического подхода к музыкально-образовательной деятельности и даны рекомендации по обучению национальным инструментам с применением современных технологий.

Ключевые слова: *национальные музыкальные инструменты, инновационные образовательные технологии, музыкально-эстетическое воспитание, методический подход, методы.*

METHODOLOGICAL BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN FORMING STUDENTS' KNOWLEDGE AND INTEREST IN NATIONAL INSTRUMENTS

Abstract: *This scientific article explores the methodological foundations of using innovative educational technologies in the process of music education in general secondary schools to foster students' knowledge and interest in national musical instruments. The study provides an in-depth analysis of the mechanisms for developing musical and aesthetic perception, strengthening cultural identity, and enhancing creative thinking through digital pedagogy, multimodal learning, visual-audio platforms, and interactive educational tools. Furthermore, didactic solutions are developed to improve the effectiveness of teaching national instruments by integrating information and communication technologies into the educational process and modernizing the content of music education based on a competency-based approach. Based on experimental lessons, the practical impact of innovative methods on the development of musical competencies, student motivation, and engagement has been substantiated. The article presents a systematic model of methodological approaches to musical and educational activities and offers recommendations for teaching national instruments in harmony with modern technological tools.*

Keywords: national musical instruments, innovative educational technologies, musical and aesthetic education, methodological approach, methods.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodda milliy madaniyatga bo'lgan hurmat, musiqiy estetik tafakkur va ijodiy salohiyatni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, umumta'lim maktablarida o'quvchilarga milliy cholg'u asboblari haqida chuqur bilim berish va ularda musiqaga nisbatan ongli qiziqishni rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning madaniy-estetik dunyoqarashini kengaytirish,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va musiqiy didini shakllantirish ilmiy-metodik jihatdan muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan ta’lim islohotlari bu boradagi ilmiy va amaliy faoliyatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, “Ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida [1], shuningdek “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” tamoyiliga asoslangan holda qabul qilingan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida [2] o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosni o‘rganish va uni zamonaviy metodlar bilan o‘zlashtirish zarurligi ta’kidlangan.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining metodik asoslari, xususan, multimedia resurslar, interaktiv o‘quv modullar, muammoli ta’lim, klasterli va integrativ yondashuvlar asosida milliy cholg‘ularni o‘rgatish jarayonini tashkil etish — musiqiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning didaktik ehtiyojlariga moslashgan holda ularning musiqiy tafakkurini, analitik fikrlashini va milliy qadriyatlarga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy cholg‘ularni o‘rganish orqali o‘quvchilarda tarixiy ong, estetik did, va ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularning tahlili innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan metodik asoslar yaratish zaruratini ko‘rsatadi. Masalan, musiqiy merosni ta’limga integratsiyalashga doir G‘.Islomov, M.Teshaboyev va boshqa olimlarning ishlari [3][4], milliy cholg‘ular vositasida estetik tarbiyani shakllantirish borasidagi nazariy yondashuvlarga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur dissertatsion tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda milliy cholg‘ularni o‘rganish jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarda bilim va qiziqishni shakllantirishning samarali metodik asoslari tizimli ravishda ishlab chiqiladi. Bu esa, ta’lim mazmunini boyitish, musiqiy madaniyatni saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish jarayoniga ilmiy yondashuvni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy musiqa madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan xalq cholg‘ulari, yosh avlodda estetik dunyoqarash, musiqiy tafakkur va madaniy ongni shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Shu bois, milliy cholg‘ularni ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida integratsiyalash, pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda ushbu mavzuda olib borilgan ilmiy izlanishlar, ayniqsa, metodik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalarning milliy musiqa tarbiyasidagi o‘rni va samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston olimlari tomonidan musiqa ta’limi, ayniqsa, milliy cholg‘ular asosida estetik tarbiya masalalari bo‘yicha bir qator fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.A. Jalilovning “Milliy musiqa tarbiyasining nazariy-metodik asoslari” nomli ilmiy asarida [5] o‘quvchilarda milliy cholg‘ular orqali estetik hissiyot, musiqiy qiziqish va madaniy tafakkurni shakllantirishda xalq musiqa asboblarining tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Muallif innovatsion yondashuvlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etishda individual-differensial yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini ta’kidlaydi.

Shuningdek, M. Teshaboyevning “O‘quvchilarda milliy musiqa madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari” nomli monografiyasida [6] maktab ta’limida milliy cholg‘ularni o‘rgatish bo‘yicha samarali metodlar, interfaol usullar va musiqa texnologiyalarini qo‘llashning didaktik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Muallif ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, xususan, audio-vizual vositalar, interaktiv platformalar, va virtual musiqa muhitlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda bilimni puxta egallash va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

Ilmiy maqolalar tahlili jarayonida G‘. Islomovning “Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalarning o‘rni” mavzusidagi tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi [7]. Unda muallif interaktiv darslar, ijodiy muammoli vaziyatlar, va raqamli cholg‘u dasturlarining musiqiy ko‘nikmalar shakllanishiga ta’sirini empirik tadqiqotlar asosida asoslab bergan. Ayniqsa, Tinkercad Music, Flat.io, va Soundtrap

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

kabi platformalar orqali o‘quvchilarda milliy cholg‘ularga qiziqishni oshirish mumkinligi isbotlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida milliy cholg‘ular asosida o‘quvchilarda bilim va qiziqishni shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligini aniqlash maqsadida umumta’lim maktablarida eksperimental dars mashg‘ulotlari, diagnostik testlar, so‘rovnomalar va kuzatuvlar asosida keng qamrovli tajriba ishlari olib borildi.

Eksperimental guruhlarda olib borilgan mashg‘ulotlarda interaktiv metodlar, xususan, vizual-audio vositalar, multimedia platformalari, virtual cholg‘u dasturlari (masalan, Soundtrap, MusicLab va iTabla) asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda milliy cholg‘ularga bo‘lgan didaktik qiziqishni ancha oshirganini ko‘rsatdi. Empirik natijalarga ko‘ra, o‘quvchilarning 84 foizi musiqa darslarida innovatsion yondashuvlar qo‘llanilganida milliy cholg‘ular haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lganliklarini bildirgan.

Tadqiqotda muammoli o‘qitish texnologiyasi, klasterli yondashuv, hamda ijodiy-integrativ metodlar orqali olib borilgan darslar o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini, tahliliy fikrlashini va estetik idrokini rivojlantirishga xizmat qilgan. Xususan, o‘quvchilarga milliy cholg‘u asboblarining tarixi, tuzilishi va ijro texnikasini interfaol topshiriqlar, multimodal prezentatsiyalar, va virtual laboratoriyalar orqali o‘rgatish, ularning bilimni mustahkamlash darajasini sezilarli darajada oshirdi.

O‘tkazilgan diagnostik testlar natijasida quyidagilar aniqlandi:

Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning 78 foizi milliy cholg‘ular haqida dastlabki bilim darajasiga nisbatan ancha yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitilgan guruhdagi o‘quvchilarning milliy musiqaga bo‘lgan ijobiy munosabati 2,3 barobar yuqori bo‘ldi.

O‘quvchilarning 72 foizi interaktiv vositalar orqali cholg‘u asboblarini virtual tarzda o‘rganish yanada qiziqarli va samarali bo‘lganini ta’kidladilar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shuningdek, o‘qituvchilar bilan olib borilgan intervyular va anketalar natijalariga ko‘ra, musiqa faniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash darslarning mazmunini boyitibgina qolmay, balki o‘quvchilarning faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantirgan. Biroq, ayrim muammoli jihatlar ham kuzatildi: xususan, darslik va metodik qo‘llanmalarda milliy cholg‘ular bo‘yicha materiallar yetarli darajada tizimlashtirilmagan, shuningdek, barcha o‘quv muassasalarida texnik vositalar bilan ta’minlanish darajasi bir xil emasligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Milliy cholg‘ularni o‘rgatishda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, musiqiy madaniyatga bo‘lgan ijtimoiy-psixologik munosabatini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Dars jarayoniga virtual cholg‘ular, audioslaydlar, interaktiv testlar, ijodiy loyiha ishlari kabi metodik vositalarni integratsiyalash o‘quvchilarda ijodkorlik, muloqot, muammoli vaziyatni hal qilish, va madaniy kompetensiya kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yondashuvlarning individuallashtirilgan va differensial asosda olib borilishi ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini kuchaytirib, milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, ta’lim tizimida milliy cholg‘ular asosida musiqiy tarbiyani takomillashtirishda quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish mumkin:

Innovatsion texnologiyalarning integratsiyasi ta’lim jarayonini jonlantiradi va o‘quvchilarda chuqurroq bilim hosil bo‘lishiga imkon yaratadi.

Metodik asoslar yangilanishi orqali musiqa fani o‘quvchilarda nafaqat estetik, balki intellektual rivojlanishga ham xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida [8], shuningdek “Ta’lim va

tarbiya tizimini tubdan isloh qilish" to‘g‘risidagi farmonda [9] belgilangan vazifalar asosida milliy madaniyat va san’atni ta’lim mazmuniga chuqur singdirish, har bir o‘quvchiga o‘z xalqining madaniy merosiga egalik tuyg‘usini shakllantirish zaruriyati qayd etilgan. Ushbu tadqiqot ana shu strategik maqsadlarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilishga xizmat qiluvchi metodik asoslarni taklif etadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot davomida milliy cholg‘ular bo‘yicha bilim va qiziqishni o‘quvchilarda shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligi, ularni didaktik tizimga integratsiyalashning metodik asoslari, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning musiqiy ta’limda tutgan o‘rni chuqur tahlil qilindi.

Ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanishicha, milliy cholg‘ularni o‘rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, vizual-audio vositalar, virtual simulyatsiyalar, hamda interaktiv o‘qitish metodlari asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirish, madaniy-estetik idrokini rivojlantirish va milliy qadriyatlar asosidagi ongli dunyoqarashni mustahkamlashda yuqori natijalar bermoqda.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi milliy cholg‘ular bo‘yicha bilimlarni interaktiv va multimodal shaklda yetkazish imkonini yaratadi, bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini va faolligini oshiradi.

Muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, vizual-tahliliy va ijodiy metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, musiqiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini shakllantirishda samarali bo‘lib, dars jarayonida milliy cholg‘ularni faqat nazariy emas, balki amaliy va tahliliy nuqtai nazardan ham o‘rganish imkonini beradi.

Eksperimental mashg‘ulotlar natijalari ko‘rsatdiki, digital vositalar yordamida milliy cholg‘ularni o‘rganish o‘quvchilarda musiqiy madaniyatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirib, ularning o‘z milliy merosiga nisbatan g‘urur va hurmat tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Ta'lim jarayonida virtual cholg'ular simulyatori, audio-video platformalar, hamda onlayn o'rgatuvchi ilovalar (masalan, MusicLab, Soundtrap, Groove Pizza) dan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni individuallashtirilgan tarzda egallashini ta'minladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Umumta'lim maktablari musiqa fani dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularga milliy cholg'ularga oid modullarni kengroq kiritish orqali o'quvchilarning musiqiy madaniyatga oid bilimlarini tizimlashtirish.

O'qituvchilar malakasini oshirish kurslariga raqamli cholg'ular texnologiyasi, virtual musiqa vositalari, va metodik yangiliklarni tatbiq etishga qaratilgan modullarni kiritish.

Milliy cholg'ularni o'rganishga yo'naltirilgan raqamli o'quv kontentlar, interaktiv dars ishlanmalari va metodik qo'llanmalarni yaratish.

O'quvchilarda ijodiy fikrlash va musiqiy estetikani shakllantirishga qaratilgan loyiha va konkurslarni rivojlantirish, ularni AKT bilan uyg'unlashtirish.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot milliy cholg'ularni o'rgatish metodikasini zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, musiqiy ta'limni shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan tizimga aylantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" va "Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish" bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlarga mos keluvchi, milliy qadriyatlarga tayangan, global raqobatbardosh ta'lim modelini shakllantirishga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-oktabrdagi PF-6108-sonli "Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.
3. G'.Islomov. "Musiqiy ta'limda innovatsion yondashuvlar", Toshkent: O'zRFA, 2018.
4. M.Teshaboyev. "Milliy cholg'ular asosida o'quvchilarda estetik didni shakllantirish metodikasi", Toshkent, 2020.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

5. Jalilov A.A. Milliy musiqa tarbiyasining nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: O‘zRFA Musiqa ta’limi instituti nashriyoti, 2019.
6. Teshaboyev M. O‘quvchilarda milliy musiqa madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari. – Samarqand: "Ilm ziyo", 2021.
7. Islomov G‘. Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalarning o‘rni. – "Pedagogik innovatsiyalar" jurnali, №2, 2020.
8. Boboyev A. O‘zbek xalq cholg‘ulari: tarixi va didaktik ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2017.
9. Rasulov N. Ta’limda AKT vositalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION-PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Odashaliyeva Fotima Odiljon qizi
Andijon viloyati Baliqchi tumani 19-sonli Bolalar musiqa va san'at maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: *mazkur ilmiy maqolada umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalasiga innovatsion-pedagogik yondashuvlar asosida ilmiy-metodik asosda yondashiladi. Tadqiqotda musiqa fanining o'quvchilarda izlanish faoliyatini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari, muammoli ta'lim texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish, fanlararo integratsiya, hamda axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash orqali tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari tizimli tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *musiqa madaniyati, tadqiqotchilik kompetensiyasi, muammoli o'qitish, fanlararo integratsiya, musiqiy tafakkur, metodik model.*

INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES TO FORMING RESEARCH COMPETENCES IN STUDENTS IN MUSICAL CULTURE LESSONS IN GENERAL SCHOOLS

Annotation: *This scientific article explores the methodological foundations of fostering students' research competencies in general education school music culture classes through innovative pedagogical approaches. The study provides a systematic analysis of the didactic potential of music education in developing students' inquiry skills, focusing on problem-based learning technologies, project-based instruction, interdisciplinary integration, and the use of information and communication technologies to enhance research competencies.*

Keywords: *music culture, research competence, problem-based learning, interdisciplinary integration, musical thinking, methodological model.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: *В данной научной статье рассматриваются методические основы формирования исследовательских компетенций у учащихся на уроках музыкальной культуры в общеобразовательных школах посредством инновационных педагогических подходов. В исследовании системно проанализированы дидактические возможности музыкального образования в развитии исследовательской активности учащихся через*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

проблемное обучение, проектную деятельность, межпредметную интеграцию и использование информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: *музыкальная культура, исследовательская компетентность, проблемное обучение, межпредметная интеграция, музыкальное мышление, методическая модель.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim paradigmasida musiqa madaniyati fani endilikda nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik resurs sifatida talqin etilmoqda. Ushbu jarayonda o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish, ularni musiqiy merosni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilishga yo‘naltirish, estetik baholash va musiqiy fenomenlarga tanqidiy yondashuvni o‘stirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biriga aylanmoqda.

Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyasi, interaktiv va raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil mushohada yurituvchi ijodiy shaxs sifatida shakllantirish bugungi kunda ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa musiqa ta’limini yangilash, uning mazmunini innovatsion metodlar bilan boyitish va o‘quvchilarda fanlararo integratsiyalashgan kompetensiyalarni vujudga keltirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bilan bevosita uyg‘unlikda rivojlanmoqda. Jumladan, “Ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmonda ta’lim mazmunini chuqur yangilash, kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilish zarurligi alohida ta’kidlangan [1].

Shuningdek, Prezidentning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni madaniy merosga asoslangan holda ilmiy izlanishga yo‘naltirish ta’lim-tarbiyaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan [2].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2024-yil 16-noyabrda Prezident raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida esa maktablarda musiqa madaniyati fanining sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini kuchaytirish, amaliy cholg‘u chalish malakasini oshirish va zamonaviy o‘quv-metodik bazani yaratish yuzasidan muhim topshiriqlar berilgan [3]. Ayniqsa, musiqa fanida nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish, musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish va o‘quvchilarni ijodiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish masalalari alohida urg‘u bilan ko‘rsatib o‘tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi o‘quvchilarda mustaqil ilmiy fikrlash, tahliliy yondashuv, musiqiy fenomenlarga estetik-nazariy baho bera olish, amaliy tahlil va ijodiy loyihalash salohiyatini shakllantiradi.

So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda olib borilgan nazariy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta’limi jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash orqali o‘quvchilarda nafaqat kasbiy, balki tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Jumladan, G.M. Sharipova tomonidan ta’kidlanganidek, musiqa madaniyati darslarida musiqiy-fikr yuritish, estetik dunyoqarash va tahliliy kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari zamonaviy dars formatlarida amalga oshirilishi zarur [4].

A.A. Sobirova o‘z tadqiqotlarida musiqa fani o‘qituvchisining metodik kompetensiyasi va uni shakllantirish bosqichlarini chuqur yoritib bergan. U innovatsion ta’lim vositalaridan foydalangan holda musiqa darslarini loyihalashtirish, interfaol uslublarni qo‘llash va musiqiy-ta’limiy vazifalarni hal etishda refleksiv-tahliliy faoliyatni birlamchi deb hisoblaydi [5].

E. Qudratova esa musiqa ta’limida multimediya vositalaridan foydalanishning amaliy mexanizmlarini ochib bergan. Unga ko‘ra, raqamli texnologiyalar orqali musiqiy materiallar bilan ishlash o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy tahlil va ijodiy yondashuvlarni faollashtiradi. Bu esa bevosita tadqiqotchilik kompetensiyalarining shakllanishiga olib keladi [6].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslari doirasida o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o'rganishga, ularni innovatsion-pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot mobaynida kuzatuv, pedagogik tajriba, so'rovnoma, test va eksperimental sinov metodlari orqali olingan natijalar chuqur tahlil qilindi.

Eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi taqqosloviy tahlil shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuv (loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, interfaol metodlar) qo'llanilgan eksperimental darslarda o'quvchilarning musiqiy-analitik fikrlash darajasi, mustaqil ilmiy izlanishga bo'lgan motivatsiyasi va tanqidiy tahlil ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Eksperimental guruhda tahsil olgan 6–7-sinflar o'rtasida o'tkazilgan test natijalariga ko'ra, 73% o'quvchi musiqiy asarlarni tahlil qilish, estetik baho berish va mavzularni mustaqil izlanish asosida rivojlantirish bo'yicha yuqori natijalarni namoyon etdi. Bu ko'rsatkich nazorat guruhida 38% ni tashkil etdi.

Pedagogik eksperiment jarayonida multimodal ta'lim vositalari (audio-vizual materiallar, interaktiv resurslar) va AKT asosidagi topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning darsda ishtirok darajasi va faol muloqotga kirishish ko'rsatkichlari o'rtacha 60% dan 87% gacha oshdi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning 82% innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'zlarini tadqiqotchi sifatida his qilishganini bildirgan. Ular musiqiy fenomenlar (janrlar, milliy cholg'ular, kompozitorlar ijodi) ustida mustaqil fikrlash va izlanish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda yuqori qiziqish bildirganlar.

Musiqa fani o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan intervyu va diagnostika natijalariga ko'ra, metodik tayyorgarlik darajasi, xususan tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish, loyiha asosida dars dizayni yaratish va refleksiya metodlarini qo'llash borasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlangan. Bu esa o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va treninglar ishlab chiqishni zarur etadi.

Tadqiqot natijalarida musobaqa va loyiha asosida tashkil etilgan musiqiy-analitik topshiriqlar o‘quvchilarda ijtimoiy-madaniy tafakkur, kompozitorlik layoqati, estetik tahlil, ilmiy mulohaza yuritish kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqa madaniyati darslarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, nazariy-estetik tahlil, madaniy identitet va ijodiy izlanish faoliyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, innovatsion-pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar nafaqat bilim berish, balki shaxsiy ongli izlanishni rag‘batlantirish, reflektiv tafakkurni rivojlantirish, estetik sezgi va madaniy qadriyatlarni anglash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammo va cheklovlar ham mavjud bo‘ldi. Xususan:

Amaldagi musiqa darsliklarida tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi topshiriqlarning yetishmasligi;

O‘qituvchilarning loyiha asosida dars olib borish bo‘yicha metodik bilimlari yetarli emasligi;

AKT vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qituvchilarning malaka darajalari turlicha ekani;

O‘quv dasturlarida analitik fikrlashni shakllantiruvchi didaktik materiallar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Musiqa darslari uchun loyihaviy-analitik faoliyatga asoslangan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish;

O‘qituvchilar uchun kompetensiyaviy yondashuv asosidagi malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish;

Musiqa darslarida foydalaniladigan interaktiv va multimodal platformalarni kengaytirish.

XULOSA

Mazkur tadqiqot umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslari doirasida o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga

qaratilgan innovatsion-pedagogik yondashuvlarni aniqlash, ularning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish maqsadida olib borildi. Tadqiqot davomida musiqiy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, hamda konstruktivistik pedagogika tamoyillariga asoslangan innovatsion metodikalar orqali o‘quvchilarning analitik fikrlash, muloqotga kirishish, mustaqil izlanish, ijodiy ifoda va madaniy-estetik idrok kabi sifatlari tizimli rivojlanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”gi Farmon. 2021-yil 6-aprel, PF–6199. https://lex.uz/docs/5370812
2. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”. Prezident Farmoni PF–60-son, 2022-yil 28-yanvar. https://lex.uz/docs/5841063
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida musiqa fanining o‘qitilishi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni. 2024-yil 16-noyabr. https://president.uz/oz/lists/view/7675
4. Sharipova G.M. Musiqa o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2021.
5. Sobirova A.A. “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisiga xos metodik kompetensiyalar va ularni rivojlantirish bosqichlari.” // Pedagoglar.uz, 2022. https://pedagoglar.org/03/article/view/884
6. Qudratova E. “Musiqa madaniyati darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati.” // JDPU Ilmiy axborotlari, 2023. https://new.jdpu.uz/musiqa-madaniyati-darslarida-multimedia-vositalarida-musiqa-oqituvchisining-kompitensiyaviy-tayyorgarligi.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

O'rmonjonov Azizbek Muhammadjon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi
E-mail: azizbekormonjonov2@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida musiqa savodxonligini shakllantirish jarayonida multimodal yondashuvning pedagogik imkoniyatlari chuqur ilmiy tahlil etilgan. Tadqiqotda multimodal yondashuvning didaktik mohiyati, uning musiqiy idrok, ritmik sezgi, eshituv xotirasi va emotsional ifoda kabi musiqa savodxonligining tarkibiy komponentlariga ko'rsatadigan ta'siri empirik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan. Inklyuziv guruhdagi o'quvchilarning idrok turlari va kognitiv ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan multimodal dars modeli o'quvchilarda musiqa bilimlarini chuqur o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy faollikni rivojlantirishga xizmat qilishi isbotlangan. Maqolada multimodal metodik yondashuvning samaradorligi eksperimental pedagogik tekshiruvlar orqali aniqlangan, shuningdek, ta'lim jarayonida integratsiyalashgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida inklyuziv musiqa ta'limi uchun multimodal kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, musiqa savodxonligi, multimodal yondashuv, pedagogik integratsiya, idrok turlari, musika kompetensiyalari, didaktik moslashuv, AKT texnologiyalari, emotsional intellekt, differensial ta'lim, interaktiv metodika.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МУЛЬТИМОДАЛЬНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: *В данной научной статье всесторонне проанализированы педагогические возможности мультимодального подхода в процессе формирования музыкальной грамотности в условиях инклюзивного образования. В исследовании обосновано дидактическое содержание мультимодального подхода, его влияние на развитие компонентов музыкальной грамотности, таких как музыкальное восприятие, ритмическое чувство, слуховая память и эмоциональное выражение, на основе эмпирических данных. Разработанная модель мультимодального урока, учитывающая типы восприятия и когнитивные потребности учащихся инклюзивных групп, доказала свою эффективность в углубленном усвоении музыкальных знаний, формировании самостоятельного мышления и развитии творческой активности. В статье представлены результаты экспериментальной педагогической проверки эффективности мультимодального методического подхода, а также освещается значение интеграции информационно-коммуникационных технологий в учебный*

процесс. На основе результатов исследования разработаны усовершенствованные методические рекомендации для музыкального образования в инклюзивной среде, основанные на мультимодальном компетентностном подходе.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, музыкальная грамотность, мультимодальный подход, педагогическая интеграция, типы восприятия, музыкальные компетенции, дидактическая адаптация, ИКТ технологии, эмоциональный интеллект, дифференцированное обучение, интерактивная методика.*

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF A MULTIMODAL APPROACH IN FORMING MUSIC LITERACY IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation: *This scientific article provides a comprehensive analysis of the pedagogical potential of a multimodal approach in developing musical literacy within inclusive education settings. The study substantiates the didactic essence of the multimodal approach and its impact on key components of musical literacy—such as musical perception, rhythmic sensitivity, auditory memory, and emotional expression—based on empirical evidence. The developed multimodal lesson model, designed with consideration for the perceptual types and cognitive needs of students in inclusive groups, has been proven effective in facilitating deep learning of music knowledge, fostering independent thinking, and enhancing creative engagement. The article presents the results of experimental pedagogical evaluations of the multimodal methodological approach and highlights the importance of integrating information and communication technologies into the educational process. Based on the research findings, improved methodological recommendations have been proposed for inclusive music education, grounded in a multimodal, competency-based approach.*

Keywords: *inclusive education, musical literacy, multimodal approach, pedagogical integration, perceptual types, musical competencies, didactic adaptation, ICT technologies, emotional intelligence, differentiated learning, interactive methodology.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, har bir shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga imkon yaratish muhim ijtimoiy-psixologik va pedagogik vazifalardan biridir. Bu borada ta’limning inklyuziv modeli keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Inklyuziv ta’lim tamoyillariga asoslangan holda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasalariga to‘liq integratsiyalash, ularning intellektual, madaniy, estetik va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shu nuqtai nazardan qaralganda, inklyuziv ta'lim sharoitida musiqa savodxonligini shakllantirish jarayonida multimodal yondashuvni qo'llash, ya'ni ta'limiy axborotni turli sezgi kanallari (vizual, audial, kinestetik) orqali yetkazish, o'quvchilarning ta'lim olishini individuallashtirish va ularning rivojlanishida barqarorlikni ta'minlashda muhim pedagogik omil sifatida qaralmoqda. Multimodal yondashuv nafaqat musiqiy did va savodxonlikni shakllantirish, balki o'quvchilarning musiqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, emotsional-intellektual salohiyatini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta'lim sohasi rivoji borasida qabul qilingan muhim qaror va farmonlarda ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish, har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratish, innovatsion-pedagogik yondashuvlarni joriy etish masalalari alohida e'tibor markazida turibdi. Jumladan, Prezidentning "Yangi O'zbekistonni barpo etishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish to'g'risida"gi farmonida inklyuziv ta'limni joriy etish, zamonaviy o'quv metodologiyalarini ishlab chiqish va musiqiy ta'lim sifati ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan [1].

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish, ularning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligini ta'minlash zarurligi ta'kidlangan [2]. Mazkur hujjatlar asosida umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil qilish va zamonaviy multimodal pedagogik yondashuvlarni musiqiy ta'limga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada aynan inklyuziv ta'lim sharoitida musiqa savodxonligini shakllantirishda multimodal yondashuvning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi, xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganiladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Multimodal ta'lim muhiti o'quvchilarning musiqiy tajribasini boyitish, ularning idrok, eshitish, nutq va motorik faoliyatini uyg'unlashtirish imkonini beruvchi integrativ pedagogik model sifatida ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘nggi yillarda inklyuziv ta’limga oid ilmiy-pedagogik qarashlar inson huquqlari, pedagogik tenglik, shaxsiylashtirilgan ta’lim va ta’limda xilma-xillik kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan holda jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-hissiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda san’at ta’limi, jumladan, musiqa savodxonligini shakllantirish muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur jarayonda multimodal yondashuv asosidagi pedagogik amaliyotlar didaktik yangilanishlar uchun samarali asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham musiqa ta’limining inklyuziv sharoitdagi o‘rni va multimodal metodlarning pedagogik samaradorligi masalalari atroflicha yoritilgan. Jumladan, pedagogika fanlari doktori N.Jo‘rayevaning “Inklyuziv ta’lim: nazariy-metodik asoslar” nomli monografiyasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlashda didaktik moslashuv, emotsional-intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va multimodal resurslardan foydalanishning zaruriyati asoslab berilgan [3].

Shuningdek, M.Islomova va D.Mahmudovaning “Musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi ilmiy ishlarida musiqiy savodxonlikni shakllantirishda multimodal metodik yondashuvlar, ya’ni vizual, audial va kinestetik kanallar orqali bilimni yetkazish vositalari ta’lim samaradorligini oshirishi ta’kidlanadi [4]. Mualliflar multimodal ta’lim muhiti orqali bolalarda musiqiy eshituv, ritmik sezgi, ijodiy tasavvur va emotsional-madaniy kompetensiyalar rivojlanishini kuzatganlar.

Pedagogika fanlari doktori Sh.Qurbonovaning “Maxsus pedagogika: nazariya va amaliyot” nomli qo‘llanmasida esa imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlashda multimodal yondashuv asosidagi didaktik modellar, kompensator vositalar va muqobil kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi ilmiy asosda yoritilgan [5].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa savodxonligini rivojlantirishda multimodal yondashuv o‘quvchilarning individualligini hisobga oluvchi, differensial yondashuvga asoslangan va o‘qituvchining ijodiy-pedagogik kompetensiyasini talab qiluvchi murakkab didaktik tizimni tashkil etadi. Ayniqsa,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

inklyuziv ta'lim sharoitida bu yondashuv musiqiy ifoda, eshituv madaniyati va emotsional javob qaytarish kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

Tahlil va sintez – inklyuziv ta'lim, multimodal yondashuv va musiqa ta'limiga oid nazariy va amaliy manbalar o'rganildi, asosiy konseptual yondashuvlar ajratib olindi va umumlashtirildi. Ushbu metod asosida multimodal yondashuvning inklyuziv sharoitda qo'llanishidagi pedagogik ustuvorliklar aniqlashtirildi.

Pedagogik kuzatuv – musiqa madaniyati darslarida multimodal ta'lim elementlarining qo'llanishi, o'quvchilarning emotsional javobi va faolligi real o'quv mashg'ulotlari davomida kuzatildi.

Empirik tahlil – umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4–6-sinflarida olib borilgan musiqa darslari asosida multimodal metodlar ta'sirini o'rganish maqsadida amaliy mashg'ulotlar va o'quvchilarning oraliq baholari tahlil qilindi.

Komparativ tahlil – mahalliy va xorijiy (AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya) inklyuziv musiqa ta'limi tajribalari taqqoslab o'rganildi. Natijada, multimodal yondashuvga asoslangan ta'lim modellarining umumiy va farqli jihatlari aniqlab berildi.

Pedagogik tajriba – tajriba-sinov mashg'ulotlari asosida multimodal yondashuv (audio-vizual vositalar, interaktiv texnologiyalar, ritmik harakatlar)ni tatbiq etish orqali musiqa savodxonligini shakllantirishga oid yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida multimodal yondashuv asosida tuzilgan musiqa ta'limi dasturining inklyuziv sharoitdagi samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, diagnostik testlar, amaliy mashg'ulotlar va interaktiv baholash texnologiyalaridan foydalanildi. Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatlaridagi 5 ta umumta'lim maktabining 4–6-sinflarida tahsil olayotgan, turli darajadagi rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar ishtirokida o'tkazildi.

Eksperimental guruhda multimodal ta'lim yondashuvi asosida o'tkazilgan musiqa darslarining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda musiqa savodxonligining asosiy komponentlari – notani idrok qilish, ritmik sezgi, eshituv xotirasi, musiqiy fikrlash va emotsional javob berish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayonda multimodal vositalar – vizual (slaydlar, video), audial (musiqa parchalari, tovushli mashqlar), kinestetik (ritmik harakatlar, xoreografik topshiriqlar) o'zaro integratsiyalashgan holda tatbiq etildi.

Quyidagi jadvalda nultimodal yondashuv asosida o'tkazilgan eksperiment natijalarini (eksperimental guruh, N=65) ko'rishimiz mumkin:

Jadval 1.

№	**Ko'rsatkichlar**	**Dastlabki ko'rsatkich (%)**	**Yakuniy ko'rsatkich (%)**
1	Musiqa savodxonligining umumiy darajasi	72%	88%
2	Vizual-esituv idrok va eshituv xotiraning rivojlanishi	69%	86%
3	Dars jarayonida emotsional faollik va ishtirok darajasi	74%	90%
4	Multimodal topshiriqlarga nisbatan ijobiy munosabat	70%	87%
5	Mustaqil ijodiy faoliyatga kirishish qobiliyatining shakllanishi	68%	83%

Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, multimodal yondashuv asosida tashkil etilgan musiqa ta'limi o'quvchilarning shaxsiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda, ularning didaktik ehtiyojlariga moslashuvchan ta'lim muhitini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun sezgi kanallarining bir nechta turi orqali bilimlarni qabul qilish ularda o'zlashtirish darajasining ortishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, multimodal yondashuv asosida o'qitilgan guruh o'quvchilarida musiqaga nisbatan ijtimoiy-emotsional munosabat ijobiylashgan, o'zini ifoda qilish, guruhda ishlash va o'z g'oyalarini ijodiy ifodalash ko'nikmalari shakllangan.

Tadqiqotda aniqlanishicha, multimodal darslar ko‘proq interaktivlik, o‘zaro muloqot, tanqidiy fikrlash va refleksiyani faollashtirgan.

Biroq, ayrim holatlarda quyidagi cheklovlar ham kuzatildi:

O‘qituvchilarning multimodal metodikani to‘liq o‘zlashtirmaganligi sababli ba’zi darslarda metodik uyg‘unlik yetarli darajada ta’minlanmadi.

Didaktik materiallarning multimodal xususiyatlarga ega tayyor variantlarining yetishmasligi metodik murakkabliklarga olib keldi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlashda psixologik-pedagogik moslashuv jarayonlari uchun yetarli vaqt talab qilinishi kuzatildi.

Yuqoridagi natijalar asosida inklyuziv ta’lim muhitida multimodal yondashuvni samarali joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Musiqa o‘qituvchilari uchun multimodal metodlar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Multimodal o‘quv materiallari va didaktik resurslar bankini yaratish;

Inklyuziv sinflarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan musiqiy differensial topshiriqlar bankini ishlab chiqish;

Psixologik-pedagogik xizmatlar bilan o‘zaro hamkorlikda musiqiy ijtimoiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish.

XULOSA

Ushbu tadqiqot doirasida inklyuziv ta’lim sharoitida musiqa savodxonligini shakllantirishda multimodal yondashuvning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan nazariy, metodik va amaliy izlanishlar olib borildi. Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-pedagogik xulosalar chiqarildi:

Multimodal yondashuv – bu o‘quvchilarning o‘ziga xos idrok turlari (vizual, audial, kinestetik) va sezgi kanallari orqali ta’limiy axborotni qabul qilish, qayta ishlash va mustahkamlashga asoslangan integrativ metodik konsepsiya bo‘lib, ayniqsa inklyuziv ta’lim sharoitida didaktik moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Musiqa ta’limi kontekstida multimodal yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini shakllantirishda kompleks ta’sir ko‘rsatadi: notaviy idrok, ritmik sezgi, eshituv xotira, musiqiy tafakkur va emotsional-estetik qobiliyatlar o‘zaro uyg‘un ravishda rivojlanadi.

Inklyuziv guruhdagi o‘quvchilarning musiqiy kompetensiyalarini shakllantirishda multimodal yondashuv asosida tuzilgan metodik tizimning quyidagi pedagogik afzalliklari aniqlandi:

individuallashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini qo‘llash imkoniyati;

ta’limiy motivatsiyani faollashtirish va darsga bo‘lgan emotsional qiziqishni oshirish;

muloqotga layoqatli, ijtimoiy moslashuvchan shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ muhit yaratish.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan eksperimentlar va diagnostik tahlillar natijasida multimodal yondashuv asosida ishlab chiqilgan darslar modeli musiqa faniga oid bilimlarning chuqurroq o‘zlashtirilishi, ijodiy ifoda, mustaqil fikrlash va ko‘rgazmali idrok ko‘nikmalarini sezilarli darajada shakllantirganini ko‘rsatdi.

Multimodal yondashuvni amaliyotga joriy etish jarayonida aniqlangan kamchiliklar – o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi, didaktik resurslar yetishmasligi va differensial yondashuvga nisbatan tayyorgarlik yetarli emasligi – mazkur metodikani ta’lim tizimiga chuqur integratsiya qilishni talab etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan takliflar:

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavr va magistrlar uchun “Multimodal metodlar asosida musiqa o‘qitish” nomli maxsus kursni kiritish;

Inklyuziv sinflar uchun mo‘ljallangan multimodal o‘quv kontent va multimediya resurslar bankini ishlab chiqish;

Amaliyotchi musiqa o‘qituvchilarining multimodal metodik yondashuvlar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish;

Davlat ta’lim standartlariga multimodal o‘qitish komponentlarini qo‘shish orqali ta’lim mazmunini differensiallashtirish va moslashtirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limda multimodal yondashuv asosida musiqa savodxonligini shakllantirish ta’lim-tarbiyaning yangi bosqichiga o‘tishni ta’minlaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va idrok xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning pedagogik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

inklyuziyaga jalb qilinishini, ijodiy va ijtimoiy faolligining oshishini, o‘zini anglash va estetik dunyoqarashining rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
3. Jo‘rayeva N. Inklyuziv ta’lim: nazariy-metodik asoslar. – Toshkent: Fan, 2021. – 234 b.
4. Islomova M., Mahmudova D. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – “Pedagogik mahorat” ilmiy-metodik jurnali, 2023, №1. – B. 45–49.
5. Qurbonova Sh. Maxsus pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 278 b.

TA'LIM TIZIMIDA DASTURIY – METODIK MAJMUA YARATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi
Namangan Davlat Universiteti doktoranti
Tel:.+998 97 250 70 90
E-mail: gavharoysoliyeva8@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida dasturiy-metodik majmua (DMM) yaratish zaruriyati va uning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Dasturiy-metodik majmua tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, an'anaviy va elektron o'qitishdagi roli yoritilgan. Xususan, "Hisoblash usullari" fanini o'qitishda DMMdan foydalanish tajribalari o'rganilib, ularning o'quv jarayoniga ta'siri ilmiy asoslangan. Shuningdek, dunyo va O'zbekiston tajribasi misolida DMM yaratish bo'yicha metodik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda mavjud muammolar, taklif etilayotgan yechimlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishning afzalliklari yoritilib, oliy ta'limda raqamli resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so`zlar: *Dasturiy-metodik majmua, Oliy ta'lim, Elektron ta'lim muhiti, Hisoblash usullari, Pedagogik muammo, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Metodik tizim.*

СОЗДАНИЕ ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Солиева Гавхарой Ёдгоржон кызы
Докторант Наманганского государственного университета
Тел.: +998 97 250 70 90
Эл. почта: gavharoysoliyeva8@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируется необходимость создания программно-методического комплекса (ПМК) в системе высшего образования и его роль в повышении качества образования как педагогическая проблема. Раскрываются понятие ПМК, его компоненты и роль в традиционном и электронном обучении. В частности, изучается опыт использования ПМК при преподавании предмета «Вычислительные методы» и научно обосновывается их влияние на образовательный процесс. Также рассматриваются методические подходы к созданию ПМК с использованием мирового и узбекского опыта. В исследовании обозначены существующие проблемы, предлагаемые пути их решения и преимущества внедрения современных информационно-коммуникационных технологий, показаны пути повышения эффективности использования цифровых ресурсов в высшем образовании.*

Ключевые слова: *Программно-методический комплекс, Высшее образование, Электронная среда обучения, Вычислительные методы, Педагогическая проблема, Информационно-коммуникационные технологии, Методическая система.*

CREATING A PROGRAM-METHODICAL COMPLEX IN THE EDUCATION SYSTEM AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi
PhD student of Namangan State University
Tel:.+998 97 250 70 90
E-mail: gavharoysoliyeva8@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the need to create a software and methodological complex (SMC) in the higher education system and its role in improving the quality of education as a pedagogical problem. The concept of a software and methodological complex, its components, and its role in traditional and electronic learning are highlighted. In particular, the experience of using SMC in teaching the subject "Computational Methods" is studied, and their impact on the educational process is scientifically substantiated. Also, methodological approaches to creating SMC are considered using the experience of the world and Uzbekistan. The study highlights existing problems, proposed solutions, advantages of introducing modern information and communication technologies, and shows ways to increase the efficiency of using digital resources in higher education.*

Keywords: *Software and methodological complex, Higher education, Electronic learning environment, Computing methods, Pedagogical problem, Information and communication technologies, Methodological system.*

KIRISH

Universitetda dasturiy – metodik majmualar orqali o`qitishni tashkil etishda asosiy talab, ta'lim sifati va mazmunini ta'minlashdan iborat bo`lib, talabalarga bilim berish samarasini yuqori darajada oshirish, sifat harajatlarni kamaytirish hamda o`qituvchi va talaba uchun qulay hamda oson bo`lishini ta'minlashdan iborat.

Ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash holatini yaxshilash, tayyorlanayotgan mutaxassislar kasbiy samaradorligini oshirish, ta'lim – tarbiya jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, zamonaviy o`quv – uslubiy majmualar bilan ta'minlash, faol o`qitish usullarini qo`llash, dasturiy – metodik majmualardan foydalanishni tashkil etishga bog`liq.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Shunday ekan, ta'lim muassasalarida iqtidorli mutaxassis kadrlarga bo`lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya uslublarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo`lgan hamda zamonaviy pedagogic va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo`llash ko`nikma va malakasini puxta egallagan ijodkor mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki so`nggi yillarda ko`pgina mamlakatlarda ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Samarali ta'lim tizimining ahamiyatini anglash ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik konseptsiyalarini qabul qilishga sabab bo`ldi. Masalan AQSHda 2000 – yilda ta'lim departamenti tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish rejasi" bajarilmoqda, Yevropada qabul qilingan va muvoffaqiyatli amalga oshirilayotgan milliy dasturlarni yo`lga qo`yish bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi ta'lim istiqbollariga doir bir qator millatlararo loyihalar tasdiqlangan va moliyalashtirilmoqda. Rossiya esa "Milliy ta'lim doktrinasi" va "Ta'lim tizimining umumiy informatsion muhitini yaratish" bo`yicha maqsadli rejalar qabul qilingan. Tabiiyki, O`zbekistonda ham "Ta'lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning, qolaversa, "2017 – 2021 – yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasi" Davlat dasturining mantiqiy davomiyati sifatida, ta'lim tizimini jahon andozalari darajasiga ko`tarish bo`yicha, jumladan, bu sohada innovatsiyalarni qo`llab quvvatlash, informatsion texnologiyalarni tezkorlikda joriy etish bo`yicha bir qator qarorlar va eng muhimi ularni amalga oshirish bo`yicha e'tiborga loyiq tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko`rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida, yangi avlod o`quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta'lim muassasalarining o`quv jarayoniga keng tatbiq etish, barcha ta'lim muassasalarini zamonaviy o`quv, o`quv – metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot - resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish ko`zda tutiladi.

Ta'lim tizimida, ham konseptual, ham instrumental (uskunaviy) harakterdagi umumiy va lokal (ichki) muammolar mavjud. Konseptual muammo deganda, o`qitishning aniq innovatsion uslubiyotining rivoj topishida ta'lim paradigmasining yangilanishi va mazmunan boyib borishi bilan bog`liq muammolarni, shuningdek, umumiy va milliy harakterga ega ta'limning har jihatdan muvofiq modelining yaratilishi tushuniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'limning instrumental muammolari spektri, shubhasiz, ma'lum ma'noda keng ko`lamli bo`lib, unda meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish, o`quv – uslubiy adabiyotlar, fanlar bo`yicha yaratilgan dasturiy – metodik majmualar, texnik vositalar bilan ta'minlash masalalari, shuningdek, o`quv jarayonini innovatsion va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, o`qitish uslubiyotining asosiy qismini egallaydi.

Agar rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi oldida yangi bilimlar va ustuvor texnologiyalarni kashf eta oladigan mutaxassislarni tarbiyalash birlamchi vazifa bo`lsa, iqtisodiyoti o`qish yoki rivojlanish davrida bo`lgan mamlakatlarda esa birinchi navbatda yangi texnologiyalarni o`zlashtirilishini ta'minlovchi, bunday amaliyot natijasida hamda orttirilgan bilim va ko`nikmalar asosida mustaqil tarzda o`xshash va mumkin qadar ustivor texnologiyalarni yarata oladigan hamda istiqbolda yangi bilimlarni kashf eta oladigan mutaxassislarni yetishtirish vazifasi qo`yilmoqda. Dunyoning barcha davlatlarida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish tobora birlamchi strategik vazifalar qatoriga qo`shilmoqda. Qanday muammolarni hal qilinishi bu vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi? Xususan, O`zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar ta'lim tizimi oldida turgan muammo va vazifalarni qaysilari kechiktirilmagan asnoda o`z yechimini topishi kerak?

Tabiiyki, bu savollarning batafsil javoblari alohida tadqiqotning mazmuni va tarkibini tashkil qilishi mumkin. Bu borada umumiy maqsadlar va tamoyillar, yuqorida aytilganidek, ta'lim to`g`risidagi qonun hamda hukumatning bir qator qarorlarida keltirilib o`tilgan. Bizning maqsadimiz pedagogic va axborot

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

texnologiyalariga tayangan holda o`z faoliyatini tashkillashtirishni maqsad qilib qo`ygan oliy ta'lim tizimi pedagoglari e'tiboriga ma'lum tajriba va nazariyani tahlili asosida yuzaga kelgan tavsiya hamda xulosalarni taklif etishdan iborat.

Ilmiy – texnik taraqqiyot yutuqlarini iqtisodiyotda, moddiy boyliklar yaratishda tobora ahamiyati oshib borishi, globallashuv, moliyaviy, siyosiy va sotsial muammolar, jamiyatda shaxsni tutgan o`rni va uning barqarorligi muammosi – bu barchasi ta'lim tizimidan hozirjavoblikni talab etadi. Zarur axborotlarni tez sur'atda qidirib topish, texnik loyihalardagi singari, gumanitar sohaga oid loyihalarda ham muvoffaqiyatli natijani ta'minlash, o`z vaqtida ta'lim paradigmasi jamiyat tizimidan qisqa muddat ichida aktual bilimlar va kasbiy ko`nikmalar bera olish va "ta'lim oluvchining mobilligi" talab qilinadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 20 – apreldagi PQ-2909 sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to`g`risida" gi Qaroridan [8] kelib chiqadigan ta'lim sifatini ko`tarish va tizimdagi mavjuda ilmiy salohiyatdan unumli foydalanish ustuvor vazifalari to`g`risidagi qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator tayanch oliy ta'lim muassasalarida o`quv jarayoni va o`quv – uslubiy faoliyatini modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo`yicha bir qancha ishlar amalga oshirila boshlandi. Eng avvalo ta'lim sifatini oshirish maqsadida electron ta'lim muhiti ishlab chiqilib, tajriba – sinov tariqasida o`quv jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobilyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o`quv – uslubiy majmular bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Elektron ta'lim muhiti sharoitida esa bu tushuncha yangicha mazmun kasb etadi, ya'ni dasturiy – metodik majmular electron ta'lim muhiti uchun asosiy o`qitish vositalaridan biri bo`lib xizmat qiladi.

Shu o`rinda yagona, ya'ni uzluksiz ta'lim jarayonida an'anaviy va innovatsion komponentalarni muvofiqlashtirish va optimallash vazifasi tug`iladi. Ko`p hollarda muayyan muammoni hal etishga kirishish, mos masalalar yechish va vazifalarni

bajarishdan avval tadqiqot ob'ekti yoki tadqiqot mazmuniga ta'rif berish maqsadga muvofiq bo`ladi. Biz tadqiqot mazmuniga ta'rif beramiz:

Ta'rif: Bu ma'lum bir fan, kurs yoki ta'lim yo`nalishi uchun mo`ljallangan dasturiy ta'minot, uslubiy qo`llanma, o`quv rejalari, metodik materiallar va boshqa resurslarning integratsiyalangan to`plami – Dasturiy-metodik majmua deb ataymiz.

Dasturiy – metodik majmua atamasining "dasturiy" degan qismida mutaxassislik standarti, unga mos o`quv rejasi va fanning mazmunini ifodalovchi dasturlar bilan bir qatorda, kompyuter dasturiy ta'minoti asosida yaratilgan o`qitish jarayonini samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan electron manbalar hamda ulardan, jumladan, multimedia va platforma vositalaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturlar tushuniladi. Ya'ni "dasturiy" nomli atama bu holda variativ bo`lib, ishlatilish joyiga bog`liq ma'noga ega. Dasturiy metodik majmua o`qituvchining faoliyatida o`quv materialidan variativ foydalanishiga imkoniyat yaratadi va uning komponentlaridan biri – o`quv materialining electron formalarini yaratishda an'anaviy metodik ishlanmalarni yaratishga nisbatan maxsus metodik yondashuvlarni qo`llanilishini talab etadi.

Dasturiy - metodik majmua ta'rifiga binoan qanday ta'lim tizimi bo`lishidan qat'iy nazar (u xoh an'anaviy shakldagi, xoh electron shakldagi ta'lim tizimi bo`lsin) barcha turdagi o`quv mashg`ulotlarida kompyuter programmalarining qo`llanishini nazarda tutiladi. Keng ma'noda muhokama etilayotgan majmualar talabalarda (tinglovchilarda, o`z bilimini oshirishni istovchi ixtiyoriy kishilarda) informatsion texnologiyalarni qamrovchi tarzda foydalanishga o`rgatadi, kelajak professional faoliyatida mustaqil yangi bilimlar egasi bo`lishida kuchli vosita, ya'ni informatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyoj va moyillikni shakllaydi.

Har bir dasturiy – metodik majmuada yangi o`quv materialini o`rganish, o`quv faoliyatida uni mustahkamlab borish va o`zlashtirish darajasini ta'minlanishi nazarda tutilishi kerak. O`z vaqtida dasturiy – metodik majmualarni yaratishdan maqsad – yangi bilimlarni o`zlashtirish bo`yicha ko`rsatkichlarni oshirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar malakasini yuqori zamon talabiga javob beradigan darajalarga ko`tarishdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun avvalo yangi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mavzularni o`qitishda an'anaviy bayon – namoyish uslubi o`rniga talabalar faolligini oshirishga yo`naltirilgan tamoyillarga asoslanish lozim bo`ladi.

A.A.Sushensov "Hisoblash usullari" kursini o`zlashtirishda dasturiy-metodik majmuadan foydalanish metodikasini o`z ilmiy tadqiqot ishida yoritib bergan bo`lsa [96], A.V.Ryabuxina [89] esa "Hisoblash matematikasi" kursidan alohida texnik bo`limlari uchun metodik tizim yaratish taklifini bergan.

A.A.Sushensov - "Dasturiy-uslubiy majmualardan foydalangan holda sonli optimallashtirish usullarini o'qitish metodikasi(2003)" dissertatsiyasida hisoblash matematikasini o'qitish samaradorligini oshirish uchun dasturiy-metodik majmuani loyihalash, ishlab chiqish va o'quv jarayoniga joriy etish, dasturiy-metodik majmuadan foydalangan holda chiziqli bo'lmagan optimallashtirish usullarini o'qitish metodikasini ishlab chiqish va sinovdan o`tkazishdan iborat ekanligini bayon etgan.

Bubenshchikova Irina Aleksandrovna – "Dasturiy-metodik majmua matematik modellashtirish sohasida ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida(2010)" dissertatsiyasida o'quv jarayonida dasturiy-metodik majmuadan foydalanish orqali matematik modellashtirish sohasida ta'lim sifatini oshirish ("Tabiiy fanlarning matematik modellari" bo'limini o'rganish misolidan foydalanish).

Kuznetsova Irina Aleksandrovna - "Matematik modellashtirish va sonli usullar" kursini o'rganish jarayonida pedagogika universiteti matematika talabalariga modellashtirishni o'rgatish.(2002)" dissertatsiyasida modellashtirishni o'qitishning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllari va ularni amalga oshirish shartlari o'rtasidagi qonuniyatlarni aniqlashdan iborat bo`lgan.

Matematik ta'limni axborotlashtirish masalalari ustida ko'plab tadqiqotchilar - A.P.Ershov, JÏ.X. Zaynutdinova, M.P. Lapchik, G.G. Levitas, L.P.Martirosyan, N.I. Pak, M.I. Ragulina, I.V. Robert va boshqalar. Tadqiqotning asosiy g'oyasi o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish, talabalarning mustaqil tadqiqot faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida matematika fanlarini o'qitish jarayoniga AKT vositalarini joriy etish zarurligidan iborat.

Oliy o'quv yurtlarida "Hisoblash usullari", "Son metodlari" fanlarini o'qitish muammolari va umumta'lim maktabining informatika kursida hisoblash

matematikasining elementlari I.A. Kuznetsova, V.V. Mokshina, I.N. Palchikova, M.I. Ragulina, E.A. Ryabuxina, A.V. Ryabyx, T.A. Stepanova. Biroq, ushbu mualliflarning asarlarida ushbu fanlarni o'qitishning kompleks uslubiy tizimini ishlab chiqish masalalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish va ulardan foydalanish asosida ushbu fanlar mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan va zamonaviy fan va texnika yutuqlarini aks ettiruvchi fan axborot muhitini yaratish muammolari haligacha etarli darajada o'z aksini topmagan.

Matematik modellashtirish bilan bog'liq fanlarni o'rganishda maxsus matematik paketlardan (Mathcad, MATLAB, Mathematica, Maple va boshqalar) foydalanishga bir qator mualliflar e'tibor berishadi - V.N. Govoruxin, V.P. Dyakonov, J.I.A. Mironovskiy, S.B. Biroq, sanab o'tilgan dasturiy mahsulotlardan o'quv jarayonida foydalanish har doim ham oqlanmaydi, chunki ulardan foydalanish uchun juda qimmat litsenziyalarni sotib olish kerak. Bundan tashqari, talabalarga dasturiy mahsulot bilan ishlash asoslarini o'rgatish kerak, bu juda ko'p mehnat talab qiladi, ayniqsa vaqt cheklovlari.

Talabalar bilimini intensivlashtirish masalalari V.G. Boltyanskiy [23], B.V.Gnedenko [43], A.N. Kolmogorov [83] va boshqalar. Ularning tadqiqotlarida matematika o'qitish muammolariga jiddiy e'tibor beriladi. Matematika o‘qitish metodikasining alohida tadqiqot yo‘nalishlari darajasidagi turli jihatlar R.M. asarlarida o‘z aksini topgan. Aslanov, G.D.Gleyzer, A.V. Efremov, V.N. Kelbakiani, M.R.Kuvaev, L.D. Kudryavtsev, G.G. Levitas, M. Nugmonov, K.A. Rybnikov, G.I. Sarantsev, A.A. Stolyarov, L.M.Fridman, B.P. Erdniev va boshqalar.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, matematika ta'limida axborot texnologiyalarini pedagogik jihatdan asosli qo'llash muammosini hal qilish yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Shu bilan birga, kompyuter yordamida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish hozirgi vaqtda butun o'quv jarayoni, jumladan, hisoblash matematikasi samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biridir. Kompyuterlarni o'quv jarayoniga pedagogik jihatdan asosli va maqsadli joriy etish boshqa an'anaviy o'qitish usullari uchun erishib bo'lmaydigan keng imkoniyatlarni ochib beradi. Bu yerda, bizning fikrimizcha, E.V.ning dissertatsiya tadqiqotini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ta'kidlash kerak. Klimenko [80], E.I. Gujvenko [48], V.T. Petrova [131], matematik ta'limni jadallashtirishga bag'ishlangan. "O'qitishning faollashtiruvchi vositalari, shakllari va usullarini qo'llash orqali o'quv jarayonini intensivlashtirish ikkita o'zaro bog'liq vazifani qo'yadi: ta'lim sifatini oshirish va bir vaqtning o'zida vaqt xarajatlarini kamaytirish" [7, s. 30].

XULOSA

Bugungi kunda talaba-yoshlarni kompyuter hamda Internetdan foydalanib hal qilinadigan masalalar ko`proq o`ziga jalb etmoqda. Shuning uchun Internet sahifalarida “Hisoblash usullari” kursi bo`yicha mavjud electron darsliklarni tahlil qildik hamda birinchi va ikkinchi avlod electron darsliklarini aniqladik. Xususan, Internet global tarmog`iga murojaat qilganimizda, “Hisoblash usullari” kursidan kabi olimlarning electron darsliklarini ko`rishimiz mumkin. Bu darsliklarda har bir ma’ruzada mavzuga oid savollar to`plami, laboratoriya mashg`ulotlari uchun topshiriqlar, Paskal dasturlash tilida tuzilgan dasturlar matni keltirilgan. G.P.Ismatullayev, M.S.Kosbergenovalarning “Hisoblash usullari” kursidan o`quv qo`llanma, Toshkent-2014, A.Abdirashidov, A.I.Babayarovlarning “Hisoblash usullari” kursidan mexaniklar uchun amaliy mashg`ulotlar o`quv qo`llanma, Samarqand-2018, A. Abdirashidov, A.Abdurashidovlarning “Hisoblash mexanikasining sonli usullari” uslubiy qo`llanma, Samarqand-2020, Adash Imomov, Sayfiddin Toshboyevalarning “Hisoblash usullari” kursidan o`quv qo`llanma, Toshkent-2023 o`quv qo`llanmalari keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isroilov. M.I. Hisoblash metodlari. Toshkent, O‘qituvchi, 1- qism, 2003, 2-qism, 2008.
2. Aloev R.D., Xudoyberganov M.U. Hisoblash usullari kursidan laboratoriya mashgulotlari to‘plami. UzMU.o‘quv qo‘llanma. 2008 y.1106.
3. G.P.Ismatullaev, M.S.Kosbergenova. Hisoblash usullari. “Tafakkur-bustoni”. Toshkent 2014.
4. Imomov A. Toshboyev S.M. Hisoblash usullari. O‘quv qo‘llanma 132 b. Namangan 2022 yil.
5. G.Soliyeva. “International journal of science and technology” xalqaro ilmiy jurnal, Mart 2025-yil, “O‘zbekiston va hindiston ta’limida "hisoblash usullari" fanida lagranj interpolyatsiya ko‘phadini o‘qitish metodikasi” maqola.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

6. G.Soliyeva. “NamDU ilmiy axborotnomasi” Aprel 2025-yil, “Oliy ta’lim tizimida hisoblash usullari fanida chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi usulini o`qitish metodikasini takomillashtirish” maqola.
7. G.Soliyeva. “Yosh matematiklarning yangi teoremalari” respublika ilmiy-amaliy anjumani, 24-May, 2025 -yil, “Dasturiy-metodik majmualar orqali talabalarda hisoblash usullari kursini mustaqil o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirish” tezis.
8. G.Soliyeva. “Fizikaning zamonaviy muammolari va rivojlanishi istiqbollari” I xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 23-oktabr, 2024-yil, “Matematika fanini o‘qitishda yangi metodlar” maqola.
9. G.Soliyeva. “Fizikaning zamonaviy muammolari va rivojlanishi istiqbollari” I xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 23-oktabr, 2024-yil, “Nyutonning interpolyasion formulalar” maqola.
10. G.Soliyeva. “ Aniq fanlarni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish: muammo, yechim va takliflar” Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari, 25-noyabr 2024-yil, “Splayn funksiyaning yaqinlashishi”.
11. G.Soliyeva. “Science shine” xalqaro ilmiy jurnal, 30-Aprel 2025-yil, “Nochiziq tenglamalar sistemalarini yechish uchun dasturiy ta’minot yaratish”.

MALAKALI DZYUDOCHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMIDA MASHG‘ULOT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Qodirov Sirojiddin Erkinboyevich
Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
qodirov.sirojiddin@list.ru

Annotatsiya: *Maqolada malakali dzyudochilarning mashg‘ulot jarayonlarini ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida samarali tashkil etish ishlab chiqilgan. Sport takomillashuv bosqichi uchun alohida maqsad va vazifalar belgilangan. Model asosida sportchining yoshi va sport stajiga mos yuklama, metodika va nazorat vositalari aniqlangan. Nazariy-metodik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulotlar tarkibiy qismlarini kompleks va individual yondashuv asosida olib borish sport natijalarining barqaror oshishiga xizmat qiladi. Model O‘zbekiston hamda xalqaro ilg‘or tajriba asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, trener-o‘qituvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Malakali dzyudo, ko‘p yillik tayyorgarlik, sport mashg‘ulotlari, texnik-taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, bosqichlilik, integratsiyalashgan yondashuv, nazorat-tahlil.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА В СИСТЕМЕ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ДЗЮДОИСТОВ

Аннотация*: В статье разработана эффективная организация тренировочного процесса квалифицированных дзюдоистов в системе многолетней подготовки. Для этапа спортивного совершенствования определены отдельные цели и задачи. На основе модели определены нагрузки, методика и средства контроля, соответствующие возрасту и спортивному опыту спортсмена. Теоретико-методический анализ показывает, что реализация компонентов подготовки на основе комплексного и индивидуального подхода способствует устойчивому росту спортивных результатов. Модель разработана с учетом отечественного и зарубежного опыта и имеет практическое значение для тренеров и преподавателей.*

Ключевые слова: *Квалифицированное дзюдо, многолетняя подготовка, спортивная тренировка, технико-тактическая подготовка, психологическая подготовка, физические качества, постепенность, комплексный подход, контроль и анализ.*

EFFICIENCY OF ORGANIZATION OF TRAINING PROCESSES IN THE SYSTEM OF MULTI-YEAR TRAINING OF QUALIFIED JUDO PLAYERS

Annotation: *The article develops an effective organization of training processes of qualified judo players in the system of multi-year training. Separate goals and objectives are set for the stage of sports improvement. Based on the model, the load, methodology and control*

tools appropriate to the age and sports experience of the athlete are determined. Theoretical and methodological analyses show that conducting training components based on a comprehensive and individual approach contributes to a sustainable increase in sports results. The model is developed based on Uzbek and international best practices and is of practical importance for trainers and teachers.

Keywords: *Qualified judo, many years of preparation, sports training, technical and tactical preparation, psychological preparation, physical qualities, gradualism, integrated approach, control and analysis.*

KIRISH

Darhaqiqat, musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish uchun sportchi nafaqat kuch-quvvatga, balki yetuk texnik-taktik ko‘nikmaga, mustahkam ruhiy barqarorlikka va o‘z tayyorgarlik darajasini tahlil qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lmog‘i lozim. Shu bois, mazkur tadqiqot yuqori malakali dzyudochilarning umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik-taktik, psixologik hamda nazorat-tahliliy tayyorgarlik turlarini qamrab olgan holda, ko‘p yillik tayyorgarlik tizimini tashkil etishning integrallashgan metodik modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yuqori malakali dzyudochilarning uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonini tashkil etish modeli taklif etiladi. Maqolaning yangiligi shundaki, unda dzyudochilarni tayyorlashning barcha asosiy tarkibiy qismlari yagona integrativ modelga birlashtirilib, ko‘p yillik davr mobaynida ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi yoritiladi. Nazariy va amaliy ahamiyati – trener-o‘qituvchilar va sport mutaxassislari ushbu modeldan foydalangan holda mashg‘ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirishlari, sportchilarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashlari mumkin. Modelni ishlab chiqishda mavjud ilmiy-adabiy manbalar tahlili hamda malakali dzyudochilarning mashg‘ulot jarayonlarini pedagogik kuzatuv asosida o‘rganish natijalari asos qilib olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avvalo, mavzuga doir mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, jumladan sport treningi nazariyasi hamda kurash sport turlarida sportchilarni tayyorlash bo‘yicha tadqiqotlar chuqur adabiy tahlil qilindi. Xususan, sportchilarning ko‘p yillik rivojlanish modellari va davrlashtirish nazariyasiga oid ilmiy ishlarga tayandik (masalan, Matveyev, Bompa, Blumenstayn va boshqalar asarlari). Dzyudo sportida

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qo‘llaniladigan tayyorgarlik tizimlari bo‘yicha xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Masalan, yurtimizga yaqin bo‘lgan Rossiya, Yaponiya, Yevropa mamlakatlarida yuqori malakali dzyudochilarni tayyorlash metodikasi tahlil qilindi. Yaponiyada qabul qilingan tizim Long-Term Athlete Development (LTAD) – sportchining uzoq muddatli rivojlanish tamoyillariga muvofiq bosqichlarga bo‘lingan bo‘lib, u dzyudoning barcha tayyorgarlik fazalarini o‘z ichiga olishi kuzatilganLTAD modeli sportchini bosqichma-bosqich (“boshlang‘ich tayyorgarlik”dan tortib “oliy sport mahorati” bosqichigacha) rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir bosqichning maqsad va vazifalari aniq belgilangan.

Adabiyotlarni o‘rganish bilan birga, O‘zbekistonda va xorijda faoliyat olib borayotgan tajribali dzyudo trener-o‘qituvchilari bilan suhbatlar o‘tkazildi, ularning mashg‘ulot jarayonini tashkil etishdagi yondashuvlari **pedagogik kuzatuv** va tahlil orqali o‘rganildi. Jumladan, Respublikamiz terma jamoasi va hududiy ixtisoslashgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida dzyudochilar mashg‘ulotlariga kuzatuv olib borilib, ularda jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus jihatlari, texnik-taktik mashqlar ulushi, psixologik tayyorlash usullari va nazorat tahlil ishlari qayd etib borildi. Olingan ma’lumotlar ilmiy manbalar ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik kuzatuvlar asosida yuqori malakali dzyudochilarni uzoq muddatli tayyorlashning tashkiliy-metodik modeli ishlab chiqildi. Modelni ishlab chiqishda dzyudochilarning tayyorgarligini 5 asosiy tarkibiy qismga ajratdik: (1) umumiy jismoniy tayyorgarlik, (2) maxsus jismoniy tayyorgarlik, (3) texnik-taktik tayyorgarlik, (4) psixologik tayyorgarlik, (5) nazorat-tahliliy tayyorgarlik. Har bir tayyorgarlik turining maqsad, vazifalari va mazmuni sportchining ko‘p yillik rivojlanishining muayyan bosqichlariga bog‘liq holda shakllantirildi.

Model quyidagi metodik yondashuvlarga amal qilindi:

- Bosqichlilik tamoyili: sportchilar tayyorgarlik darajasi va yoshiga ko‘ra bir necha bosqichlarga ajratilib, har bir bosqich uchun alohida maqsad va vazifalar belgilandi. Bu bosqichlar shartli ravishda “Boshlang‘ich tayyorgarlik”, “O‘quv-

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mashg‘ulot ”, “Sport takomillashuv” va “Oliy sport mahorati” deb nomlandi (mazmuni quyida keltiriladi).

- Komplekslilik tamoyili: modelda barcha tayyorgarlik turlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda va muvozanatda olib borilishi nazarda tutildi. Ya’ni, sportchining jismoniy rivojlanishi uning texnik o‘sishi va ruhiy barqarorligi bilan bir vaqtda ta’minlanadi.
- Uzluksizlik tamoyili: ko‘p yillik tayyorgarlik davomida bosqichlar uzviylikda bo‘lib, har bir keyingi bosqich avvalgisining mantiqiy davomi sifatida qaraldi. Sportchining yoshi kattalashib, mahorati oshgan sari tayyorgarlik mazmuni va yuklamalar mutanosib tarzda ortib boradi.
- Individual yondashuv: modelni qo‘llash jarayonida har bir sportchining yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi ko‘zda tutildi. Ayniqsa, yuqori malakali bosqichda individual rejalashtirish, kuchsiz tomonlarni bartaraf etish va sportchining yutuqli uslubini shakllantirishga urg‘u beriladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida statistik ma’lumotlar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi. Jumladan, dzyudochilarning yoshi va yillar davomida erishgan sport natijalari bo‘yicha statistik ma’lumotlar, jahon chempionlari va olimpiada sovrindorlarining tayyorgarlik tajribasi haqidagi manbalar o‘rganilib, modelni asoslashda qo‘llandi.

Metodologiya sifatida tizimli yondashuvga tayangan holda dzyudochini tayyorlash jarayoni murakkab tizim deb qaralib, uning tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Keyingi bo‘limda ishlab chiqilgan model va uning tarkibiy qismlari batafsil bayon etiladi.

Tadqiqot natijasida yuqori malakali dzyudochilarni ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida bosqichma-bosqich rivojlantirishga mo‘ljallangan metodik model ishlab chiqildi. Ushbu model dzyudochini to‘rt bosqichli rivojlanish tizimi ko‘rinishida tasavvur qiladi. Har bir bosqichda tayyorgarlikning barcha turlari (umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik-taktik, psixologik, nazorat-tahliliy) bo‘yicha o‘ziga xos maqsad va vazifalar belgilangan (1-jadvalga qarang).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Yuqori malakali dzyudochilarni ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida rivojlantirish bosqichlari va har bir bosqichdagi tayyorgarlik yo‘nalishlarining asosiy vazifalari.

Sport takomillashuv bosqichi (yoshlar va kattalarga o‘tish, taxminan 17–20 yosh): Bu davrda sportchi endi to‘liq dzyudoga ixtisoslashadi, uning hayot tarzida ushbu sport yetakchi o‘ringa chiqadi. Sportchining ko‘pchilik hollarda sport mahorati bo‘yicha sport ustaligiga nomzod va sport ustalari (1-dan yoki undan yuqori) darajasiga erishgan davri ham aynan shu bosqichga to‘g‘ri keladi. Mashg‘ulot jarayoni ham sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tariladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik endilikda yordamchi rolga o‘tadi – asosiy e’tibor maxsus jismoniy sifatlarni maksimal darajada oshirishga qaratiladi. Shunday bo‘lsa-da, yil davomida umumjismoniy mashg‘ulotlar (kross yugurishlar, umumiy bardamlikni saqlovchi trenirovkalar) ham rejali ravishda olib boriladi, chunki umumiy baza yo‘qolib ketmasligi kerak. Maxsus jismoniy tayyorgarlik esa aynan sport takomillashuv bosqichining negizini tashkil etadi. Bu bosqichda dzyudochining jismoniy tayyorgarligi deyarli butunlay sportning o‘ziga xos ehtiyojlariga bo‘ysundiriladi. Masalan, haftalik mashg‘ulot dasturida 2 kun alohida kuch-quvvat mashg‘ulotlariga ajratilishi mumkin (trenajyor zali, og‘irliklar bilan mashqlar), 2-3 kun texnik-taktik o‘quv bellashuvlar mashg‘ulotlari bo‘lsa, qolgan kunlar aralash yoki dam olish kunlari bo‘lishi mumkin. Kuch tayyorgarligi mazmunida ham endi an’anaviy bodibilding mashqlaridan ko‘ra dzyudoga moslashtirilgan mashqlar ustun turadi. Masalan, bo‘yin va yelka mushaklarini mustahkamlash uchun kurashchilarga xos bo‘lgan maxsus mashqlar (bo‘yinga og‘irlik qo‘yib ko‘tarish, sherikni yelka orqali ko‘tarib harakatlanish va b.) ishlatiladi.

1-jadval

1-jadval

Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimining metodologik modeli

Bosqich (Na’muna viy yoshi)	**Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT)**	**Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)**	**Texnik-taktik tayyorgarlik (TTT)**	**Psixologik tayyorgarlik (PTT)**	**Nazorat-tahliliy tayyorgarlik (NTT)**
Sport takomillashuv bosqichi (yoshlar va kattalar o‘tish bosqichi, ~17–20 yosh)	Jismoniy tayyorgarlikda yuqori natijalarga erishish: kuch tayyorgarligini intensivlashtirish (og‘ir atletika elementlari, shtanga mashqlari); maxsus chidamlilikni oshirish (uzoq davom etuvchi randorilar, sirpanchiq poligonlarda mashq qilish); tezkor kuch (eksplozivlik)ni rivojlantirish (sakrashlar, plyometrika).	Maxsus jismoniy tayyorgarlikning ustuvorligi: dzyudochilarga xos kuch-quvvat fazilatlarini maksimal darajada shakllantirish (maksimal tutqich kuchi, portlovchan kuch, anaerob chidamlilik); mashg‘ulotlarda kurashga yaqin bo‘lgan yuklamalar (masalan, takroriy qisqa janglar orqali “jangovar chidamlilik”ni oshirish).	Texnik-taktik mahoratni chuqurlashtirish: sportchining uslubini shakllantirish, ya’ni unga eng yaxshi mos keladigan texnikalar kompleksini rivojlantirish; turli vaziyatlar uchun taktik kombinatsiyalarni ishlab chiqish (hujumkor va himoyaviy taktika variantlari); o‘quv bellashuvlarlar (randori) sonini ko‘paytirish va sifatini oshirish, trener-o‘qituvchi ko‘rsatmalari bilan har bir o‘quv bellashuvlarni tahlil qilish; xalqaro va respublika musobaqalarida qatnashib, tajribani boyitish.	Musobaqa sharoitida ruhiy barqarorlikni oshirish: stressga bardoshlilik treninglari (vizualizatsiya, autogen mashqlar orqali hayajonni boshqarish); yutqazish va yutuqni to‘g‘ri qabul qilish ko‘nikmasi; diqqatni jamlash va raqibga konsentratsiya qila olish qobiliyatini oshirish; muhim startlar oldidan psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlari (masalan, raqibni o‘rganish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash).	Nazorat-tahlil tizimini chuqurlashtirish: mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilish (har haftalik va har oylik yuklama hajmi va intensivligini rejalashtirish va qayd etish); sportchining funksional holatini testlar orqali baholash (masalan, yurak urish chastotasi, laktat darajasi o‘lchovi, qo‘l kafti dinamometriyasi va hokazo); videotasvirlar orqali texnik xatolar tahlili va tuzatish choralari; raqiblar harakatini tahlil qilib, ularga qarshi reja tuzish.

Eksploziv kuchni (portlovchan kuch) oshirish uchun plyometrik mashqlar – to‘sqindan sakrashlar, tezkor burilishlar – qo‘llanadi. Maxsus chidamlilikni oshirishga alohida e’tibor beriladi: 5-8 daqiqa davom etuvchi randorilarni bir necha marta takrorlash va ularning orasidagi qisqa dam olishlar orqali jangovar chidamlilik shug‘ullantiriladi. Shuningdek, sportchi o‘z vaznini nazorat qilishni o‘rganadi – zarurat tug‘ilganda vazn tashlash yoki yig‘ish metodikalariga amal qiladi (parhez, ortiqcha vaznni qisqa muddatda tashlash usullari va h.k.). Bu jihatlar yuqori darajadagi musobaqalarda o‘ta muhim bo‘lgani bois, sport takomillashuv bosqichidanoq ularga ko‘nikiladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Texnik-taktik tayyorgarlik sport takomillashuv bosqichida sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tariladi. Endi sportchi hamma texnikani ketma-ket o‘rganishdan ko‘ra, o‘zining toj usullari va uslubini shakllantirishga kirishadi. Trener-o‘qituvchi sportchi repertuaridagi eng samarali usullarni aniqlab, ularni mukammal darajaga yetkazishga yordam beradi. Masalan, sportchi eng yaxshi bajaradigan 3-4 ta tashlash usuli (aytaylik, uchi-mata, seoi-otoshi, ashi-guruma, tomoe-nage) ajratib olinadi va mashg‘ulotlarda aynan shu usullar turli vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatiladi. Ya’ni, sportchi o‘ziga qulay bo‘lgan texnik arsenali asosida o‘yinni quradigan bo‘ladi. Boshqa kamroq o‘zlashtirilgan usullar ham butunlay chetga surilmaydi – ular yordamchi sifatida mashq qilinadi (ayni paytda raqiblarni chalg‘itish yoki kombinatsiya qurish uchun). Taktik tayyorgarlik ham endi batafsilroq: sportchiga turli raqib turlariga qarshi kurash uslublari o‘rgatiladi (bo‘ychan raqibga nisbatan yaqin masofada kurashish, chapakamol raqibga qarshi o‘ng taraflama usullar qo‘llash va hokazo). Har bir musobaqadan oldin trener-o‘qituvchi va sportchi birgalikda ishtirokchilar ro‘yxatini ko‘rib chiqib, potensial raqiblarning uslubini tahlil qiladi va ularga qarshi strategiyalar belgilab oladi. Randori mashg‘ulotlari (erkin o‘quv bellashuvlar) bu bosqichda juda ko‘payadi va ularning sifati oshadi: randori real musobaqa jangiga maksimal yaqin bo‘lishi kerak. Shu maqsadda ba’zan boshqa jamoalarning sportchilari bilan qo‘shma mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, o‘quv bellashuvlar uchun yangi raqiblar taklif qilinadi – bu sportchining turli uslublarga moslashuvini oshiradi. Sportchi endi xalqaro maydonga ham chiqadi – yoshlar o‘rtasidagi Osiyo va jahon chempionatlari, xalqaro turnirlar orqali katta sahnaga moslashadi. Bu tajribalar uning keyingi, eng yuqori bosqichga poydevor vazifasini o‘taydi.

Psixologik tayyorgarlik sport takomillashuv bosqichida professional tus oladi. Sportchi yoshi ulg‘aygan sayin, uning ruhiy jihatdan o‘zini anglash va boshqarish qobiliyati ortadi, shu bois psixologik mashg‘ulotlar samarasini oshirish mumkin bo‘ladi. Bu bosqichda ko‘pincha jamoada sport psixologi faoliyat ko‘rsatadi yoki trener-o‘qituvchining o‘zi yetarli tajribaga ega bo‘lsa, psixologik treninglarni tashkil qiladi. Musobaqaoldi ruhiy tayyorgarlikning muhim qismi – psixologik barqarorlikni oshirish. Sportchi muhim startlar (masalan, jahon chempionati finali yoki Osiyo o‘yinlari) oldidan kuchli hayajonlanishi tabiiy, ammo u bunga qanchalik bardosh

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bera olishi natija uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu davrda sportchiga stressni boshqarish texnikalari chuqur o‘rgatiladi. Masalan, sportchi o‘zida kuchli hayajon yoki qo‘rquv alomatlarini sezsa, qanday nafas olish, qanday fikrlash kerak – shu jihatlar mashq qildiriladi. Ko‘pincha vizualizatsiya usuli qo‘llanadi: sportchi ruhan gilamga chiqishini, raqibi bilan ko‘zma-ko‘z turib jang qilayotganini tasavvur qiladi, bu holatga ko‘nika boradi. O‘z-o‘zini motivatsiya usullari ham ahamiyatli – sportchi o‘ziga shiorlar, ruhlantiruvchi gaplar aytib borishi (masalan, “men tayyorman, men bunga erishaman” kabi). Bu bosqichda sportchi mag‘lubiyat va g‘alaba mas’uliyatini chuqurroq his eta boshlaydi, shu bois unga ruhiy ko‘mak zarur bo‘ladi. Yutuqlari va kamchiliklarini muhokama qilish, kerak bo‘lsa, psixologik yordam ko‘rsatish (masalan, burn-out – ruhiy charchash belgilarini vaqtida payqab, dam berish) bu bosqich psixologik tayyorgarligining muhim qismidir. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, jismoniy mashg‘ulotlar sportchilarning nafaqat jismoniy holatiga, balki psixologik holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 12 haftalik maxsus jismoniy dastur nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ruhiy barqarorligini ham oshirganligi qayd etilgan Bu shuni anglatadiki, jismoniy va psixologik tayyorgarlik bir-birini to‘ldirib borishi lozim.

Nazorat-tahliliy tayyorgarlik sport takomillashuv bosqichida to‘la kuch bilan ishlay boshlaydi. Endi har bir mashg‘ulot rejalashtirilgan va uning bajarilishi nazorat ostida bo‘ladi. Trener-o‘qituvchi har kunlik va haftalik mashg‘ulot yuklamasini oldindan belgilaydi (masalan, haftaning dushanba-kunlari og‘ir jismoniy yuklama, seshanba texnik mashg‘ulot, chorshanba tiklanish va yengil mashg‘ulot, payshanba yana yuklama va h.k.). Shu rejaga rioya qilingan-qilinmagani doimiy nazorat qilinadi. Sportchining funktsional ko‘rsatkichlari muntazam tekshirilib boriladi. Masalan, mashg‘ulotdan oldin va keyin sportchining yurak urish tezligi (puls) va subyektiv charchoq darajasi (RPE – mashg‘ulot zo‘riqishining subyektiv bahosi) qayd etilib, ortiqcha yuklama alomatlari bormi-yo‘qmi aniqlanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, mashg‘ulotlarda yuklamani nazorat qilish sportchi holatini optimal ushlab turishda juda muhim: trenerlar turli fiziologik va psixologik ko‘rsatkichlarni monitoring qilish orqali yuklamani moslab borishlari mumkin. Xususan, jismoniy tayyorgarlik laboratoriyalarida yurak urishidagi variativlik

(HRV), qo‘l kafti kuchi, vertikal sakrash balandligi kabi ko‘rsatkichlarni haftalik o‘lchash amaliyoti mavjud bo‘lib, bu bilan sportchining tiklanish darajasi va charchoq holati baholanadi. Bizning modelda ham bunday monitoring elementlari nazarda tutilgan. Shuningdek, musobaqa janglari videotasmalari imkon qadar tahlil qilinadi: sportchining qaysi usullari muvaffaqiyatli, qaysi holatda xato qilgani yozib boriladi va bu ma’lumot keyingi mashg‘ulot rejalarini tuzishda inobatga olinadi. Xulosa qilib aytganda, sport takomillashuv bosqichida nazorat-tahlil ishlari “ilmiy trener-o‘qituvchilik” darajasiga ko‘tariladi: trener-o‘qituvchi faqat tajribaga emas, balki ma’lumot va tahlillarga asoslanib qarorlar qabul qiladi.

XULOSA

Sport takomillashuv (sport takomillashuv) bosqichida sportchi to‘laqonli ixtisoslashgan kurashchiga aylanadi. Uning mashg‘ulot rejalari maksimal darajada dzyudo talablariga moslashtiriladi – kuch, tezlik, maxsus chidamlilik bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga intilinadi. Sportchining eng samarali usullarini yanada charxlash va o‘z uslubini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Shu bosqichdan boshlab trener-o‘qituvchilar shtabi to‘liq ilmiy yondashuvga o‘tadi: mashg‘ulotlar detallashtirilgan reja asosida nazorat qilinadi, sportchi holati muntazam testlar orqali baholanadi, musobaqa videolari tahlil qilinadi va h.k. Nazorat-tahlilning bunday kuchaytirilishi sportchini ortiqcha yuklanish va jarohatlardan himoya qilishga, mashg‘ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati shundaki, model asosida tuzilgan tayyorgarlik rejalarini qo‘llagan trener-o‘qituvchilar sportchilarining natijalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin – masalan, jarohatlar kamayishi, jismoniy ko‘rsatkichlar yaxshilanishi, musobaqa natijalarining barqarorlashuvi va yuksalishi. Zero, ilmiy izlanishlar bilan tasdiqlanishicha, puxta rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan mashg‘ulot jarayoni sportchilarning maksimal imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu model aynan shunday puxta tizimni yaratishga qaratilgan

Adabiyotlar.

1. Qodirov Sirojiddin Erkinboyevich (2024). UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARI VA MALAKALI DZYUDOCHILARINING TEZKOR-KUCH KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI. Research Focus, 3 (1), 165-171. doi: 10.5281/zenodo.10522295.

2. Qodirov Sirojiddin Erkinboyevich (2024). DZYUDOCHILARNING KUCH VA TEZKOR KUCH QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLULLARI. Research Focus, 3 (1), 159-164. doi: 10.5281/zenodo.10522214

3. Kerimov F.A. Sport soxasida ilmiy tadkikotlar. T. ITA-press, 2020.-263 b.

4. Matveev L.P. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodologiyasi. M.-Sport, 2021-520 b.

5. Murod Arslanovich Ibragimov. "IMKONIYATI CHEKLANGAN YUNON-RUM KURASHCHILARNI O'RGATISHNING OPTIMAL NISBATLARI" Research Focus, vol. 3, no. 2, 2024, pp. 181-186. doi:10.5281/zenodo.10653992

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ADABIY TA'LIMDA BADIIY MATN BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna
Namangan davlat pedagogika instituti
Filologiya kafedrasi mudiri
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Namangan davlat pedagogika instituti O'zbel tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi ***Olimova Odinaxon***
E-mail: olimovaodina0520@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqolada adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn bilan ishlashning dolzarb masalalari, o'qituvchi va o'quvchilar duch keladigan muammolar hamda ularni samarali hal etish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Adabiy ta'limda matn ustida ishlash faqat voqelikni qayta hikoya qilish emas, balki estetik idrok, badiiy tafakkur va tanqidiy tahlilni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, maqolada matn bilan ishlashda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil o'qish va ijodiy yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlari: *adabiy ta'lim, badiiy matn, matn tahlili, estetik idrok, muammo, yechim, interfaol metodlar, ijodiy tafakkur, tanqidiy yondashuv.*

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ В РАБОТЕ С ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *в статье рассматриваются актуальные вопросы работы с художественным текстом в процессе литературного образования, проблемы, с которыми сталкиваются учителя и учащиеся, и пути их эффективного решения. В литературном образовании работа с текстом рассматривается не только как пересказ действительности, но и как средство формирования эстетического восприятия, художественного мышления и критического анализа. В статье также обосновывается эффективность интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, самостоятельного чтения и творческих подходов в работе с текстом.*

Ключевые слова: *литературное образование, художественный текст, анализ текста, эстетическое восприятие, проблема, решение, интерактивные методы, творческое мышление, критический подход.*

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN WORKING WITH ARTISTIC TEXT IN LITERARY EDUCATION

Annotation: *this article discusses the current issues of working with artistic text in the process of literary education, the problems faced by teachers and students, and ways to*

effectively solve them. In literary education, working with text is considered not only as a retelling of reality, but also as a means of forming aesthetic perception, artistic thinking, and critical analysis. The article also substantiates the effectiveness of interactive methods, information and communication technologies, independent reading, and creative approaches in working with text.

Keywords: *literary education, artistic text, text analysis, aesthetic perception, problem, solution, interactive methods, creative thinking, critical approach.*

KIRISH

Adabiy ta'limda badiiy matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning estetik didini shakllantiradi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va adabiy jarayonlarga ongli yondashuvni tarbiyalaydi. Lekin bu jarayonda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Birinchi navbatda, o'quvchilarning kitob mutolaasiga qiziqishi yetarli darajada emasligi muammolardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Zamonaviy axborot oqimlari, internet va ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarning e'tiborini badiiy adabiyotdan chalg'itib qo'ymoqda. Natijada ular matn bilan ishlash jarayonida yuzaki yondashishga moyil bo'lishadi. Ikkinchi muammo o'quvchilarning badiiy matnni to'g'ri anglash malakalarining sustligida namoyon bo'ladi. Ko'pincha o'quvchilar matnni faqat syujet doirasida qabul qilishadi, obrazlar, badiiy vositalar, ramziy ma'nolarni anglab yetishmaydi. Bu esa matn ustida chuqur tahlil olib borishni qiyinlashtiradi. Uchinchi muammo o'qituvchilarning ba'zida matn bilan ishlashda an'anaviy metodlardan chetlashmasligidir. An'anaviy yondashuv ko'proq matnni qayta hikoya qilish, syujetni qayta aytib berish bilan cheklanib qoladi. Natijada o'quvchilar ijodiy va tanqidiy fikrlash imkoniyatidan mahrum bo'lishadi [4,5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy matn bilan ishlash jarayonida o'qituvchilarning maqsadi o'quvchilarda estetik idrokni shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, matndan hayotiy xulosalar chiqarishga undash bo'lishi kerak. Bunda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, interfaol metodlardan foydalanish badiiy matnni tahlil qilish jarayonini jonlantiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Debat" kabi metodlar o'quvchilarni faol fikrlashga chorlaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Masalan, “Debat” metodida matn qahramonlari harakatini baholash, ularning qarorlariga turlicha yondashuvni muhokama qilish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, “Insert” metodi orqali o‘quvchilar matndan o‘zlari uchun yangi ma’lumotlarni ajratib olish, qiziq bo‘lgan jihatlarni belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar [5,6].

Yana bir muhim yo‘nalish – bu badiiy matnni zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rganishdir. Bugungi kunda elektron darsliklar, onlayn kutubxonalar, multimedia resurslari matn ustida ishlash jarayonini samaraliroq qiladi. Masalan, o‘quvchilar adabiy asarning turli sahna ko‘rinishlarini teatr yoki film variantida ko‘rish orqali matnni chuqurroq his qilishlari mumkin. Bu usul estetik idrokni kuchaytiradi va obrazlarni yaxshiroq tasavvur qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, audiokitoblar ham matnni idrok etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Audiokitoblar yordamida o‘quvchilar matnni eshitish orqali qahramonlarning kayfiyati, ruhiy kechinmalarini chuqurroq his qilishadi.

Badiiy matn bilan ishlashdagi yana bir muhim jihat – bu o‘quvchilarning mustaqil mutolaa qilishini rag‘batlantirishdir. Mutolaa o‘quvchining tafakkurini kengaytiradi, tasavvurini boyitadi va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shu boisdan ham o‘qituvchilar o‘quvchilarga yoshiga mos, qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarni tavsiya etishlari zarur. Masalan, kichik sinf o‘quvchilariga xalq ertaklari, dostonlardan parchalar, milliy yozuvchilarimizning bolalarga mo‘ljallangan asarlarini o‘qish tavsiya qilinsa, yuqori sinflarga murakkabroq psixologik va ijtimoiy muammolarni yorituvchi asarlar berilishi mumkin. Shu tariqa o‘quvchi asta-sekin matn bilan ishlashda chuqur tahlil qilish, badiiy vositalarni aniqlash, ularning ma’nosini anglashga o‘rganadi [3,7].

Adabiy ta’limda matn bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolardan yana biri – bu vaqtning yetishmasligidir. O‘qituvchilar ko‘pincha dasturda belgilangan katta hajmdagi materialni qisqa muddatda o‘tishga majbur bo‘ladilar. Natijada ayrim asarlar yuzaki o‘qib chiqiladi, matn ustida chuqur ishlashga imkon qolmaydi. Bu muammoni hal etish uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlar, kitobxonlik kechalari, adabiy mushoiralar, insholar tanlovini yo‘lga qo‘yish samarali bo‘lishi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mumkin. Bunday tadbirlar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, o‘qiganlarini tahlil qilishga va o‘z fikrlarini erkin bayon etishga o‘rgatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy matn bilan ishlashda o‘quvchilarning til boyligini oshirish ham muhim vazifalardan biridir. Matndagi badiiy tasvir vositalarini tushuntirish, sinonim, antonim, frazeologizmlarni aniqlash o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi. Nutqi boy o‘quvchi esa matn ustida ishlash jarayonida o‘z fikrini aniq va lo‘nda ifoda eta oladi. Shuningdek, badiiy matn asosida yozma ishlar – insho, bayon, ijodiy matn yaratish topshiriqlari o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Yana bir muhim muammo – o‘quvchilarning badiiy matnga befarqligi. Bunga sabab sifatida ba’zida o‘qituvchilarning dars jarayonini qiziqarli tashkil etmasligi yoki o‘quvchiga mos bo‘lmagan asarlarni tanlashi ko‘rsatiladi. Shu bois, matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va hayotiy tajribalarini hisobga olish lozim. Masalan, zamonaviy yoshlarni ko‘proq qiziqtiradigan mavzularni yoritgan asarlarni tanlash, mualliflarning yoshlar uchun dolzarb bo‘lgan muammolarni yorituvchi ijod namunalari orqali matn ustida ishlash samarali bo‘ladi.

Muammolarning yechimlaridan yana biri – bu integratsion yondashuvni qo‘llashdir. Adabiy matnni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rganish o‘quvchilarni qiziqtiradi. Masalan, tarixiy asarni tarix darsi bilan bog‘lash, geografik manzaralar tasvirlangan matnni geografiya bilan uyg‘unlashtirish, musiqaga oid obrazlarni musiqiy darslar bilan solishtirish o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi. Bu usul badiiy matnni hayotiy voqealar bilan bog‘lash imkonini beradi va o‘quvchilar uchun darsni qiziqarli qiladi.

Shuningdek, badiiy matn bilan ishlashda zamonaviy test texnologiyalari ham samarali qo‘llanishi mumkin. Testlar o‘quvchining matnni qay darajada anglaganini, asosiy g‘oya va xulosalarni tushunganini aniqlashda yordam beradi. Lekin testlar faqat bilimni o‘lchash vositasi bo‘lib qolmasligi, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi savollar bilan boyitilishi kerak.

Adabiy ta'limda badiiy matn bilan ishlashda o'qituvchining pedagogik mahorati ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi dars jarayonida matnga jon bag'ishlashi, o'z nutqi, ohangdorligi va ifodasi orqali o'quvchilarni asar ruhiga olib kirishi kerak. O'quvchi o'qituvchining ta'sirchan nutqi orqali asarni chuqurroq his qiladi, obrazlar dunyosiga sho'ng'iydi va badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu boisdan ham o'qituvchining badiiy matnni o'qish va tahlil qilish uslubiyati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, adabiy ta'limda badiiy matn bilan ishlashda mavjud muammolar ko'p qirrali bo'lib, ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab qilinadi. O'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish, integratsion yondashuvni yo'lga qo'yish, darsdan tashqari tadbirlar orqali kitobxonlikni keng targ'ib qilish muhim yechimlar sifatida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi adabiy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga va ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi [6,7].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn bilan ishlash o'quvchilarning ma'naviy va intellektual rivojida hal qiluvchi omillardan biridir. Chunki badiiy matn o'quvchini nafaqat bilimga, balki estetik did va mustaqil fikrlashga ham chorlaydi. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi obrazlarni tahlil qiladi, muallifning badiiy niyatini anglashga harakat qiladi, voqealar zanjiri va syujet ortidagi chuqur g'oyalarni kashf etadi. Shu orqali u hayotiy tajribasini boyitadi, jamiyat va insoniyat haqidagi qarashlarini shakllantiradi.

Ammo jarayonda uchraydigan muammolarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. O'quvchilarning mutolaaga bo'lgan qiziqishi pasayib borayotgani, matnni faqat yuzaki o'qib chiqishlari, o'qituvchilarning an'anaviy yondashuvlardan chetlashmasliklari adabiy ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy pedagogik metodlardan, interfaol texnologiyalardan, multimedia vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shuningdek, dars jarayonidan tashqarida ham kitobxonlikni keng targ'ib etish,

o‘quvchilarni adabiy kechalar, mushoiralar, bahs va tanlovlarga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matn bilan ishlashni to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni ijodkorlikka undaydi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchining pedagogik mahorati, nutqi va dars jarayonini qiziqarli tashkil etishi o‘quvchilarni badiiy adabiyotga oshno qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Demak, adabiy ta’limda badiiy matn bilan ishlashdagi muammolarni hal qilish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki yosh avlodni barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda olib boriladigan izchil izlanishlar, metodik yangiliklar va pedagogik tajribalar kelajak avlodni har tomonlama yuksaltirishning muhim garovi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov, I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Nazarov, Q. *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004.
3. Jo‘rayev, A. *Adabiy ta’lim metodikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. *Adabiyotshunoslik lug‘ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Azizxo‘jayeva, N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2006.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari.
7. UNESCO. *Reading in the 21st Century: Literacy and Educational Development*. – Paris, 2016.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGI G'OYALAR VA XORIJIY TAJRIBALAR: ULARNING YUTUQLARI

Xasanboyev Azizbek Botirali o`g`li
Namagan davlat pedagogika instituti Kreativ Pedagogika va psixologiya kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. *XXI asrda ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida ko'rilmoqda. Raqamli transformatsiya, globallashuv va inson kapitaliga bo'lgan ehtiyoj ta'lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda (OECD, 2021). An'anaviy ta'lim modeli endilikda o'zining cheklangan jihatlari bilan ajralib turib, o'quvchini passiv bilim oluvchi sifatida shakllantirgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim yondashuvlari o'quvchini faol bilim yaratuvchi, kreativ va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida tayyorlashni ko'zlamoqda. Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSh tajribalari global miqyosda ilg'or ta'lim modellaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Ushbu maqolada mazkur davlatlarning ta'lim tizimidagi yangi g'oyalar, ularning yutuqlari hamda O'zbekiston ta'limi uchun olingan saboqlar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim, innovatsiya, xorijiy tajriba, Finlyandiya modeli, Singapur modeli, raqamli ta'lim, PISA*

НОВЫЕ ИДЕИ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ИХ ДОСТИЖЕНИЯ

Аннотация. *В XXI веке образовательный процесс рассматривается как стратегический фактор развития общества. Цифровая трансформация, глобализация и потребность в человеческом капитале требуют новых подходов со стороны системы образования (ОЭСР, 2021). веке образовательный процесс рассматривается как стратегический фактор развития общества. Цифровая трансформация, глобализация и потребность в человеческом капитале требуют новых подходов со стороны системы образования ОЭСР, 2021). В то время как традиционная модель обучения теперь отличается своими ограничениями и формирует учащегося как пассивного получателя знаний, современные подходы к обучению направлены на подготовку учащегося как активного создателя знаний, творческого и критически мыслящего человека. Опыт Финляндии, Сингапура, Южной Кореи и США рассматривается во всем мире как одна из передовых образовательных моделей. В данной статье будут проанализированы с научной точки зрения новые идеи в системе образования этих государств, их достижения, а также уроки, извлеченные для образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *современное образование, инновации, зарубежный опыт, финская модель, сингапурская модель, цифровое образование, Пиза*

NEW IDEAS AND FOREIGN EXPERIENCES IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: THEIR ACHIEVEMENTS

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Annotation. *In the XXI century, the educational process is seen as a strategic factor in the development of society. Digital transformation, globalization and the need for human capital demand new approaches from the education system (OECD, 2021).nnotation. In the 21st century, the educational process is seen as a strategic factor in the development of society. Digital transformation, globalization and the need for human capital demand new approaches from the education system (OECD, 2021). While the traditional educational model is now characterized by its limited aspects, shaping the reader as a passive learner, modern educational approaches seek to prepare the learner as an active knowledge-maker, creative, and critical-minded individual. The experiences of Finland, Singapore, South Korea and the United States are seen as one of the advanced education models globally. This article analyzes new ideas in the educational system of these states, their achievements and lessons learned for the education of Uzbekistan from a scientific point of view.*

Keywords: *modern education, innovation, foreign experience, Finnish model, Singapore model, digital education, PISA*

KIRISH

Bugungi kunda sifatni ta'minlashning yo'nalishlaridan biri bu oliy ta'lim muassasalarida nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy mamlakatlar bilan shakllanishi albatta eng taraqqiy etgan ta'lim usullarni tadbiq etishni taqozo etadi. Buning asosida video konferenciyalar, masofaviy ta'lim turlarini amalga oshirish mumkin. Onlayn rejimida o'tkaziladigan bunday faol muloqot jarayonida, ikki tomondagi olimlar o'rtasida dolzarb muammolar bo'yicha baxs-munozaralar, ularning yechimlari, ma'lum bilim sohalari bo'yicha tajriba almashish kabi vazifalar amalga oshirilishi lozim. Etirof etish kerakki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayondir. Shu tufayli yurtimizda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablaǵlar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta'minlash bu borada ta'lim tizimi sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Ta'lim tizimlarini rivojlantirishda xalqaro reyting va baholash dasturlarining ahamiyati beqiyosdir. Ular nafaqat mamlakatlarning ta'lim sifatini o'lchash, balki global taqqoslash imkoniyatini ham yaratadi. Ushbu reyting va dasturlar orqali davlatlar o'z ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, xalqaro tajribadan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. PISA OECD tomonidan tashkil etilgan bu dastur 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy fanlar

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bo‘yicha funksional savodxonligini o‘lchaydi. Har uch yilda bir marta o‘tkaziladi. Faqat faktik bilimni emas, balki hayotiy vaziyatda bilimdan foydalanish qobiliyatini ham baholaydi. Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ularning ta’lim tizimi samaradorligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Abstract: *This article examines the theoretical, pedagogical and practical aspects of developing the intellectual abilities of future history teachers in higher education institutions, identifies the main problems and proposes approaches to solving them. The article analyzes modern pedagogical approaches, including active teaching methods, interdisciplinary practice and the integration of digital technologies that serve to develop the intellectual potential of students.*

Keywords: *Intellectual abilities, didactic games, information technologies, innovative technologies, information resources, digitization, computerization, modernization, interactive methods, critical thinking, virtual reality.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'limda tarix fani o'qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat ma'lumotlarni yetkazish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tanqidiy qarash kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Tarix fani o'qituvchilari esa aynan ushbu intellektual maqom orqali o'quvchilarga tarixiy hodisalarni yaxshiroq anglash va ularni zamonaviy kontekstda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shu bois, ularning intellektual salohiyatini oshirish uchun samarali omillarni aniqlash va qo'llash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqola ushbu yo'nalishda dolzarb omillarni yoritish va amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chet-el mamlakatlarida pedagogning intellektual rivojlanishi bilan bog'liq izlanishlar D.A.Rostovix, R.V.Shutov, A.Y.Nikitin, O.V.Inshakov, N.Glebova, V.Nechayev, A.Bikovskiy, N.Y.Trushkina, A.S.Stepanenko, O.D.Shipunova kabi tadqiqotchilarning faoliyatida kuzatilsa, yurtimizda S.Botirova, F.Aqchayev, J.Yuldashev kabi pedagoglarning faoliyatida kuzatiladi. Mavzuni o'rganishda manbalarni o'rganish asosida va pedagogik amaliyot tajribalari bilan kuzatish, analiz, tizimli tahlil metodlaridan foydalanib mavzu tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek: «Ta'lim-tarbiya kabi muhim va strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mutlaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg'or tizimni yaratmasak, oldimizda ko'ndalang turgan bironta muammoni yecholmaymiz» [1].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ayni masala bo‘lajak ta’lim sohasi vakillarini intellektual va pedagogic jihatdan professional qilib tayyorlanishisiz erishilishi qiyin. Jamiyat dunyoqarashini rivojlantiruvchi ijtimoiy fanlar, jumladan tarix fani pedagoglarining kasbiy kompotensiyalarini oshirish ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

O‘qituvchining intellektual qobiliyatlari ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Zamonaviy tarix o‘qituvchisi esa, rivojlangan intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Jumladan, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish qobiliyati, fanlararo sintez bilan shug‘ullanish qobiliyati va o‘qitishga ijodiy yondashish kabi kognitiv-oedagogik ko‘nikmalar tarix o‘qituvchisi uchun kasbiy talablarga aylanib bormoqda. O‘quv jarayonida intellektual qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuv va vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta’lim tizimida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tarix fani o‘qituvchilari uchun bu salohiyat o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni teran anglash, tahlil qilish va ahamiyatini tushuntirishda asosiy vositadir. «Axborot texnologiyalari - bu axborotni qayta ishlash uchun odamlar tomonidan qo‘llaniladigan usullar va qurilmalar to‘plami» [2]. Bugungi kunda axborot texnologiyalari ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirib, o‘qituvchi kasbining talablarini oshirmoqda. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida bo‘layotgan tarix fani o‘qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining roli alohida ta’kidlanishi kerak.

Shu bilan birga tarix fani pedagoglari ta’lim innovtsiyalari va yangilanishlarga muntazam moslashib borishlari va dogmatik pedagog yondashuvidan voz kechishlari lozim. Shuni yodda tutish kerakki, «hayot – doimiy taraqqiyot jarayoni, XXI asr o‘qituvchisi esa har qanday o‘zgarishlarga tayyor, interfaol o‘qitish usullarini mohirona egallagan yuqori malakali mutaxassisdir» [3]. Oliy ta’limda tarix fani o‘qituvchilari nafaqat mustahkam ilmiy asosga ega bo‘lishi, balki intellektual qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi lozim. Buning asosi sifatida ularning muntazam kasbiy rivojlanishi va ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni o‘zlashtirishi ko‘riladi. Bu omillar o‘qituvchilarning samaradorligini oshirish va zamonaviy ta’lim talablariga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

K.S. Tojiboyeva intellektual-pedagogik kompetensiyani samarali o‘qitish va tarbiyalash uchun olingan bilim va tajribani kasbiy faoliyatda qo‘llash, o‘qituvchining innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyati sifatida belgilaydi [4]. Bu kompetensiya o‘qituvchidan ta’lim jarayonini tahlil qilish, muammoli yo‘nalishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun innovatsion yechimlarni taklif qilish qobiliyatini talab qiladi. Shuningdek, u o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini baholash va o‘qitish usullarini takomillashtirish imkonini beruvchi reflektiv qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarini yo‘lga qo‘yish, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradigan qulay ta’lim muhitini yaratish ham muhim jihatdir.

Zamonaviy jamiyat jadal o‘zgarib bormoqda: raqamlashtirish va axborot resurslari hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda va texnologiya misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanmoqda. Bu ta’limga tez va samarali hal qilinishi kerak bo‘lgan yangi talablarni talab qiladi. Bu innovatsion texnologiyalarni o‘qitish va o‘qitishga ishonchli integratsiya qilishga qodir bo‘lgan yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti o‘qituvchilarning kasbiy ta’lim va kasbiy rivojlanishiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun o‘qituvchilar talab qiladigan ko‘nikma va bilimlarning umumiy ta’rifini ishlab chiqish zarurligini ta’kidladi. [5]

Ta’lim tizimi modernizatsiya qilinib, kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassislar tayyorlashning moslashuvchan, ko‘p bosqichli modeli ishlab chiqilmoqda. Shaxslarning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi, dunyoqarashining shakllanishida tarix fani o‘qituvchilari asosiy rol o‘ynaydi. Binobarin, zamonaviy dunyoda talab katta bo‘lgan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash alohida e’tibor va puxta yondashuvni talab etadi. Kasbiy ishtiyoq va muntazam intellektini yuksaltirishga intilishi uchun o‘qituvchining ish muhiti ham talablarga javob berishi lozim. So‘nggi tadqiqotlar o‘qituvchining ishtiyoqi va o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi va sinfdagi hayotiylik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqladi. [6]

Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tizimli qo‘llab-quvvatlash, jumladan, o‘qituvchilar malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, texnik infratuzilma bilan ta’minlash zarur. Faqat

kompleks yondashuv orqali tarix fanini samarali o‘qitishga qodir, o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirishda barqaror natijalarga erishish mumkin. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning zamonaviy dunyo talablarini hal qilishga tayyorligini ta’minlashda yangi istiqbollarni ochib beradi.

XULOSA

Oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik ta’limni modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Zamonaviy raqamli vositalar, o‘qitishning interfaol usullari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, balki ularning tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikma va kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi. Virtual haqiqat, o‘yinlashtirish va moslashuvchan o‘quv platformalari kabi texnologiyalarni joriy etish zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan dinamik va motivatsion o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 – жилд. – Тошкент. 2020. 149-бет.
2. Бурковская М.А., Зимина О.В., Кириллов А.И. Компьютерный контроль знаний в среде Academia XXI// Информатика и образование. – М.: 2002. – №9. – С.16.
3. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований, М.: Педагогика, 1982. – С.Ю17
4. Тоджибаева К.С. Профессиональная педагогическая компетентность учителя: феноменология понятия. Журнал «Вопросы науки и образования». 2018.
5. https://web.archive.org/web/20220830172223/https://www.oecd.org/education/school/attractingdevelopingandretainingeffectiveteachers-homepage.htm [Murojaat qilingan sana: 26.09.2025]
6. Patrick, B.C., Hisley, J. & Kempler, T. (2000) "What's Everybody so Excited about?": The Effects of Teacher Enthusiasm on Student Intrinsic Motivation and Vitality", The Journal of Experimental Education, Vol. 68, No. 3, pp. 217–236.

UDK: 7.0; 37.46 ;17; 1/1461-37.5

PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA KLASTERLARINING ESTETIK TAMOYILLARI

Xusanov Bahodir Ergashevich
Falsafa fanlari doktori, dotsent.
Namangan davlat pedagogika instituti
e-mail: xbaxodir970@gmail.com
ORCID ID: orcid.org-0009-0008-4628-5220

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik ta'lim muassasalarida tarbiya klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida estetik tamoyillarning ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida estetik muhitni yaratish, o'quvchi-yoshlarning badiiy didi, go'zallikni anglash qobiliyati va estetik tafakkurini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada estetik tarbiya bilan tarbiya klasterlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi va estetik qadriyatlar tizimini shakllantirish yo'llari ilmiy asosda izohlangan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik ta'lim, tarbiya klasteri, estetik tamoyillar, estetik tarbiya, go'zallik, estetik qadriyat, ijodiy muhit, o'quv jarayoni, shaxs kamoloti.*

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение эстетических принципов в формировании и развитии воспитательных кластеров в педагогических образовательных учреждениях. Анализируются вопросы создания эстетической среды в учебном процессе, формирования художественного вкуса, способности к восприятию красоты и эстетического мышления учащейся молодежи. Кроме того, раскрывается взаимосвязь между эстетическим воспитанием и системой воспитательных кластеров, эффективность применения современных педагогических технологий и пути формирования системы эстетических ценностей.*

Ключевые слова: *педагогическое образование, воспитательный кластер, эстетические принципы, эстетическое воспитание, красота, эстетические ценности, творческая среда, учебный процесс, развитие личности.*

AESTHETIC PRINCIPLES OF EDUCATIONAL CLUSTERS IN PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: *This article explores the importance of aesthetic principles in the formation and development of upbringing clusters within pedagogical educational institutions. It analyzes the creation of an aesthetic environment in the educational process, the development of artistic taste, the perception of beauty, and the enhancement of students'*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

aesthetic thinking. The paper also examines the interrelation between aesthetic education and educational clusters, the effectiveness of applying modern pedagogical technologies, and the scientific foundations for shaping a system of aesthetic values.

Keywords: *pedagogical education, upbringing cluster, aesthetic principles, aesthetic education, beauty, aesthetic values, creative environment, educational process, personal development.*

KIRISH

Estetik tafakkur asosida shakllangan olamni estetik idrok etish va o‘zlashtirish o‘z davrida Yevropa mamlakatlari taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan edi. Shu bois milliy taraqqiyotimizning estetik mohiyati ajdodlarimizning turmush tarzi va hozirgi ilg‘or davlatlarning ijtimoiy sohada erishgan yutuqlari va tajribalariga asoslanadi. Ushbu metodologik asos tarbiya klasterlarining estetik tamoyillarini belgilab beradi. Estetik tarbiya insonning go‘zallikdan hunuklikni, ulug‘vorlikdan tubanlikni, fojeaviylikdan kulgulilikni ajrata olish qobiliyatlariga qarab belgilanadi. Garchand, didsizlik estetik munosabatlar jarayoniga havf soladigan g‘ayriestetik hodisa bo‘lmasada, lekin, u xalqni, millatni va hatto jamiyat fojeasini keltirib chiqarishi mumkin. [1] Bu fojea odamlarning chinakam san’at asarlariga bepisand munosabatida, “ommaviychilik madaniyati”ning turli ko‘rinishlariga rag‘bat bildirishida, bema’ni, hayosiz va axloqiy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi adabiyotlarni o‘qish, kino filmlarni tomosha qilishga ehtiyojning kuchayib borishida ko‘rinadi. Aytish mumkinki, bunday holat o‘z navbatida insonni hayot go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishga, ma’naviyatni qudratli kuchga aylantirishga halaqit beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarbiyada ayniqsa, estetik tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyatga ega. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo‘lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Pirovardida inson bunday maqsadlarning ta’siridan zarar ko‘radi. Odatda, bu holat hayotiy ideal fazilatlarining estetik munosabatlarga asoslanmasligi natijasida ro‘y beradi. Estetik tarbiya o‘zaro munosabatlarda fikr – maqsad – harakat – fikr uyg‘unligini talab etadi. Tuyg‘ulari xali shakllanib ulgurmagan, estetik didi risoladagidek bo‘lmagan odam hayotiy qiyinchilik va tashvishlar qarshisida ojizlik qiladi va natijada yot g‘oyalar ta’siriga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tushib qoladi. Ana shunday salbiy holatlarning paydo bo'lmasligi uchun ham san'at o'zini tobora insonga yaqinlashtirib boradi. Zero, chinakam san'at insonni bu xolatdan qutqara oladi, uni ma'naviy taxdidlardan himoyalaydi.

Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari quyidagilardan iborat:

Go'zallik va ulug'vorlikka asoslangan estetik idealni shakllantirish. Bu tamoyil insoniy fazilatlarning badiiy-estetik ideallariga chiroy bag'ishlaydi. Estetik g'oyalarning oliy maqsadi - inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, shon-sharafi va qadr-qimmati, nafosati va estetik didini yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy mezoni go'zallik va ulug'vorlik bilan o'lchanadi. Sharq xalqlarida ma'naviy-madaniy omillarga, ulardan ijtimoiy taraqqiyotda foydalanishga intilish kuchli bo'lib, u tarixiy-madaniy paradigmaga aylangan. Shuning uchun ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar davlatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tarkibiy qismi, yuksak ma'naviyatli yangi avlodni shakllantirish jamiyat islohotlarining natijasi, mezoni sifatida qaraladi.

Ilg'or estetik qadriyatlarni qayta tiklash. Ushbu tamoyil madaniy merosga munosabat, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, xalqimiz tomonidan yaratilgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini rivojlantirish va ularga yangicha jilo berish orqali o'z aksini topadi. Bu mustaqillikning estetik qadriyatga aylanishi va uning xalqimiz, millatimizning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot haqidagi orzu istaklarini real voqelikka aylantirishida keng imkoniyatlarning yaratilishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, mustaqillikni estetik qadriyatga aylanishi milliy taraqqiyot jarayonida ma'naviy mezon vazifasini bajardi. Milliy estetik va axloqiy qadriyatlarning qaror topishi va ularning uyg'un rivojlanishi qonuniyatlariga doir fikrlarida Mukarram Nurmatova birinchilardan bo'lib mustaqillik tushunchasini oliy axloqiy va estetik qadriyat sifatida ko'rsatib o'tadi. Uning fikriga ko'ra "Aslida mustaqillik o'zining ma'no-mazmuniga ko'ra xalqimizning kundalik hayotidan joy olgan oliy axloqiy va esteik qadriyatdir. Buning mazmuni xalqimizga erkinlik berganligi, hayotiy adolatni qaror toptirganligi, yaxshilik eshiklarini ochib ulug'vorlik sari yuz tutganligi, barchani qahramonona mehnat va ijodga chorlagani bilan ifodalanadi." [2].

Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish. Mazkur tamoyil xalqning badiiy-estetik madaniyati va tarbiyasining o'ziga xosligini ifoda etuvchi vositalarni rivojlantirish orqali mamlakat hududida yashovchi xalqlarning milliy-estetik tafakkuri yuksaladi. Bugun dunyo xalqlari, davlatlari, madaniyatlari o'rtasidagi integrasion aloqalar shu darajada kengayib, umumsayyoraviy xususiyat kasb etmoqdaki, ular ayrim olgan ijtimoiy tuzum, davlat, jamiyat taraqqiyoti taqdiriga ham ta'sir qilmoqda. Davlatlararo munosabatlar, ayniqsa qo'shni davlatlarda kechayotgan o'zgarishlar, ularda yashayotgan kishilarning, aholining hayot tarzi ham lokal hodisa bo'lib qolmaydi, ular, albatta, yon-atrofdagi xalqlarga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun milliy taraqqiyotning estetik yo'nalishlari haqida gap ketganida ushbu tashqi omillarni ham hisobga olish kerak.

Ma'lumki, insoniyat tarixida g'oya va mafkuralar nihoyatda katta ahamiyat kasb etib kelgan. Jamiyat rivojida esa bunyodkorlik g'oyalarining o'ziga xos o'rni bor. Bunyodkorlik g'oyalari mohiyatan yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob vazifalarni bajarishni maqsad qilib olganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois bunday g'oyalar bashariyat tamaddunga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Moddiy boyliklarni yaratishda estetik mezonlar ustuvorligi. Bu tamoyil bevosita iqtisodiy madaniyat – estetik madaniyat – ma'naviy madaniyatning bir-biri bilan uzviy bog'liqligida amalga oshadi. Aytish kerakki, azaldan moddiy va ma'naviy omillar o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud bo'lgan. Jumladan, ma'naviy omillar - ong, fikr, g'oya, maqsad, intilish, manfaat, ehtiyojlar, shuningdek turli hissiyot, hayajon, quvonch, iztiroblar va ularni harakatga keltiruvchi ruhiy quvvatlar, qobiliyatlar, iste'dodlar ham ijtimoiy va shaxsiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Umuman taraqqiyot mana shu moddiy va ma'naviy omillarning biri-biriga bo'lgan to'xtovsiz ta'siridan iborat. Garchand, moddiy va ma'naviy omillar mohiyatan aynan bir-biriga teng bo'lmasa ham, ularning izchil birligi doimiy va mutlaq zarurdir. Faylasuf olim Tilab Mahmudovning fikriga ko'ra, odamzot paydo bo'lgandan beri ikki xil ehtiyoj bilan yashab keladi, ularning biri - moddiy talabot, ikkinchisi ma'naviy chanqoqlikdir, "har ikkalasi odamlarning turmush tarzini belgilaydi." [3] Bir so'z

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

bilan aytganda, milliy taraqqiyotning moddiy boyliklarni yaratishda estetik mezonlar ustuvorligi tamoyili tiriklik va hayot talabi bo‘lgan moddiy va ma’naviy zaruratdan tashkil topgan ekan, ularning birinchisini ikkinchisidan ustun qo‘yib bo‘lmaydi. Zero, ikkalasi ham inson umrini bezaydi, ammo ularga munosabatda oqilona mezon bo‘lishi kerak. [4].

Ta’kidlash joizki, moddiylik va ma’naviylik o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlamaslik, yoki aksincha, birinchisiga nisbatan ikkinchisiga zo‘r berish nafaqat shaxs hayoti, balki jamiyat taraqqiyotida ham nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Ma’naviyatga yetarli e’tibor berilmasa, iqtisod iqtisod uchun degan tamoyil amaliyotga kirib, faqat moddiy foyda ko‘rish ustuvorlik qila boshlaydi. Pirovardida inson kamolotidan, jamiyat rivojlanishining aniq vazifalaridan, maqsadlaridan ajralgan iqtisodiyot ma’naviyatni inkor qiladi. Aksincha, konkret insonning moddiy manfaatlari, turmush tarzi omillarini e’tibordan soqit qiladigan ma’naviyat esa iqtisodiy rivoj-lanishning manfaat-maqsadlaridan ajralib qoladi, boshqa sohalar hisobiga faqat bir sohada o‘sish, rivojlanish amalga oshirilsa, ijtimoiy taraqqiyotdagi barqarorlikka putur yetadi. Zotan, E.Fromm aytganidek, “Sosializm faqat iqtisodiy rivojlanish to‘g‘risidagina o‘ylagani uchun stalinizmni maydonga keltirdi” [5]

“Go‘zallik g‘oyadan iborat va g‘oya tarzida anglanmog‘i lozim”-deya uqtirgan olmon mumtoz faylasufi Georg Fridrix Gegel tabiatdagi go‘zallikka nisbatan san’atdagi go‘zallikning ustuvor ekanligini ta’kidlaydi U mutlaq g‘oya o‘zlikni anglashning yuksak shakli bo‘lgan san’atdagina go‘zallik sifatida namoyon bo‘ladi, degan edi. Chunki, san’at nafaqat voqelikni badiiy qiyofalar orqali aks ettiradi, balki voqelikdan-da yuksak bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Barcha hodisalarni moddiy asosdan tozalashga qodir bo‘lganligi uchun ham san’at go‘zallikni yarata oladi. Bu borada olmon klassik falsafasi vakili Xeorg Xegel tabiatdagi go‘zallikni san’atdagi go‘zallikka nisbatan quyi bosqichda turishini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, san’atning yaratuvchisi bo‘lgan insonda ilohiy asos - ruh bor, u yaratgan san’at asariga o‘sha ruh o‘tadi. Tabiatdagi go‘zallikka nibatan san’atdagi go‘zallikning ustuvorligi ham ana shu jihat bilan belgilanadi. Bu bilan faylasuf go‘zallik mohiyatan

ilohiylik kasb etuvchi hodisa ekanligini, san'at mohiyatan ma'naviy hodisa ekanligini e'tirof etgan edi. [6].

XULOSA

Jamiyat taraqqiy etib borgani sari estetik tarbiyaga ehtiyoj ortib boraveradi. Biroq, insonning yashash sharoiti bilan uning o'sib borayotgan ehtiyojlarini, orzu-umidlarini, istaklarini doimo to'la-to'kis qondirib borishning imkoni yo'q. Shunga qaramay, inson ularni yaratish uchun intilib yashaydi. Inson narsalarning moddiy va ma'naviy olamini yaratishi natijasida ijtimoiy taraqqiyot ham shakllanib boradi. Biroq, bu jarayon shaxsning tuyg'usi, didi va idealini estetik jihatdan kamol toptirishni, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini go'zallik talablariga muvofiqlashtirishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning estetik mohiyatini yosh avlod tafakkuriga singdirishni, milliy urf-odat va an'analarimizga estetik madaniyatimizning ko'rki sifatida jiddiy e'tibor qaratish kabi muhim ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Adajian Th. On the Cluster Account of Art // British Journal of Ayesthetics. 2003. N 43 (4). P. 379-385.
2. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 2009. -99 b.
3. Maxmudov T. Estetika i duxovniye sennosti. -Tashkent: Shark, 1993. – 58 s.
4. Saifnazarov I. Iqtisodiy va ma'naviy manfaatlar uyg'unligi va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2002. - 7 b.
5. Fromm E. Insonning hozirgi holati //Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2000. - № 3. – 109 b.
6. Gegel G. Estetika. V 4 x-t. -Moskva: Iskusstvo. 1971, T.3.-312 s.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

GAROVGA OLISH HOLATLARIDA MUZOKARALAR OLIB BORISH

Xidirov Mirxojiddin Sunatillaevich
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ixtisoslashtirilgan o'quv markazi maxsus bo'linmalar tayyorgarligi tsikli katta o'qituvchisi

***nnotatsiya**: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan, terrorchilarning jamiyatga qo'rquv solish va o'z talablarini amalga oshirishning samarali usuli bo'lgan insonlarni garovga olish holatlari bilan bog'liq maxsus operatsiyalarda muzokara olib borishning zarurligi va nozik jihatlari to'g'risida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlari:** Muzokara, muzokarachi, garovga olish, aloqa, muloqot, ekstremal muzokara, faol tinglash, empatiya.*

ПРОВЕДЕНИЕ ПЕРЕГОВОРОВ В СИТУАЦИЯХ ЗАХВАТА ЗАЛОЖНИКОВ

***Аннотация**: В етой стате говориця о необходимости и тонкостях ведения переговоров в спецоперациях, связаннўх с тем, что в настояҳее время являеця одной из актуалнўх тем: «террористў оказўвают влияние на обҳество беря в заложники людей, что являюця еффективнўм способом реализации своих требований ».*

***Ключевўе слова:** переговорў, переговорў, захват заложников, обҳение, диалог, екстремалнўе переговорў, активное прослушивание, емпатия.*

NEGOTIATIONS IN HOSTAGE SITUATIONS

***Abstract**: This article talks about the necessity and intricacies of negotiating in special operations related to what is currently one of the topical topics: "terrorists influence society and take hostages of people who are an effective way to fulfill their demands".*

***Key words:** negotiations, negotiations, hostage-taking, communication, dialogue, extreme negotiations, active listening, empathy.*

KIRISH

Hozirgi kunda jahonning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan mojaroli vaziyatlarni tahlil etadigan bo'lsak, har qanday kelishmovchiliklarni kuch bilan hal etish samarali va ko'p qo'llaniladigan usulga aylanib bormoqda. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, har qanday holatda ham qarama-qarshi tomonlarning bir stol

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

atrofida o‘tirib, ulkan miqdordagi zararlar va yo‘qotishlarni oldini oladigan samarali muzokara olib borish muhim va dolzarb masala bo‘lib qolmoqda

Muzokaralar – hayotimizning ajralmas qismidir va biz muzokaralarda doimiy ishtirok etamiz. Odamlar muzokaralarda o‘zlari shubhalanmagan holda ham ishtirok etadilar. Masalan: bozorda sotib olmoqchi bo‘lgan biror narsaning narxi ustida begona kishi bilan savdolashamiz, turmush o‘rtog‘ingiz bilan kechki ovqat to‘g‘risida kelishib olasiz, Qo‘shma Shtatlar Davlat kotibi o‘zining Rossiyalik hamkasbi bilan yadro qurollarini qisqartirish bo‘yicha kengash o‘tkazadi. Bularning barchasi muzokaralardir.

METODOLOGIYA

Muzokara – مزاكره (arab tilidan olingan bo‘lib -muhokama qilish, suhbat, anjuman degan ma’nolarni anglatadi) - tomonlar (muzokarachilar) o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv bo‘lib, vaziyatni nazoratga olish va qaror qabul qilish bo‘yicha o‘z maqsadlariga erishish uchun tomonlar o‘rtasida bo‘ladigan muloqot. Muzokaraning oxirgi nuqtasi bitm, shartnoma bilan yakunlanadi.

“Biz aynan muzokaralarni olib borish qobiliyatimiz darajasida yashaymiz”.

Garovga olish holatidagi muzokaralar esa ekstremal muzokaralarning bir turidir.

Ekstremal muzokaralar xavflilik darajasi juda yuqori bo‘lgan har qanday muzokaralarni o‘z ichiga oladi. Bunga eng keng tarqalgan misol qilib garovga olinganlar mavjud bo‘lgan holatdagi muzokaralarni aytib o‘tish mumkin.

Muzokaralar, garovga olish bilan bog‘liq mojaroli vaziyatlarni hal qilishda kuch ishlatish (qurolli kuchlardan foydalanish), kimyoviy moddalardan foydalanish, jinoyatchilarning talablarini qondirish kabi usullar bilan bir maqomdagi usul sifatida foydalaniladi.

Garovga olish amaliyoti qadimgi davrlardan beri keng tarqalgan bo‘lib, biror hudud hukmdorlarining qarindoshlari orasidan garovga olinganlar boshqa garovga olgan hudud hukmdorlariga sodiqligining kafolati bo‘lgan. Urushlar paytida garovga olinganlar ko‘pincha dushmanga qo‘shimcha bosim o‘tkazish yoki “tirik qalqon” sifatida foydalanish uchun olingan.

Afinada, biron bir afinalik xorijiy davlatda zo‘ravonlik oqibatida vafot etsa, u holda o‘ldirilgan kishining qarindoshlari bo‘ynida uning o‘limi uchun qasos olish degan muqaddas burch degan qonun mavjud edi. Agar fojia sodir bo‘lgan davlat qotilni topshirishdan bosh tortsa yoki uni bermasa va shu bilan birga jinoyatni o‘z zimmasiga olsa, u holda qotillik uchun qasoskor androlepsiyaga huquqiga ega edi.

Androlepsiya (qadimgi yunon. “odam” va “men olaman”) chet elliklarni garov sifatida qonuniy ravishda o‘g‘irlash va ushlab turish.

Shunday qilib, u ushbu davlatning uchta fuqarosini keyinchalik Afina sudiga topshirish uchun qo‘lga olishi mumkin edi. Agar sud tomonidan androlepsiya noqonuniy deb topilgan bo‘lsa, ayblovchining o‘zi jazoga tortilgan[1].

Amerika fuqarolar urushi davrida 1863 yilda chiqarilgan yo‘riqnomada tinch aholiga nisbatan repressaliyalar to‘g‘risidagi ba’zi qoidalar mavjud bo‘lib, ular repressaliyalar faqat majburlash choralari bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. 1874 yilgi Bryussel konferensiyasida garovga olishni qonuniy ravishda cheklashga urinish qilingan, ammo bunga erishilmadi. Shuning uchun 1899 va 1907 yillardagi Gaaga konferensiyalarida bu masala ko‘tarilmagan.

1907 yilgi quruqlik urushi qonunlari va urf-odatlari to‘g‘risidagi Gaaga konvensiyasida 50-modda paydo bo‘ldi:

Ayrim alohida shaxslarning hatti-harakatlari uchun butun bir halq yoki uyushgan jamoaga nisbatan pul yoki boshqa ko‘rinishdagi jazo turini qo‘llash, yuklash mumkin emas.

Biroq, ushbu Konventsiya tahririyat qo‘mitasi 50-modda garovga olinganlarni qatl qilishni nazarda tutmaydi, deb qaror qildi, ya’ni repressaliya jazo emas, balki majburlash vositasidir.

1929 yilgi harbiy asirlar bilan muomila qilish to‘g‘risidagi Jeneva bitimiga asosan harbiy asirlarni qatl qilish rasmiy ravishda taqiqlangan. 1949 yilgi Jeneva konventsiyasigacha, urush davrida tinch aholini himoya qilish bo‘yicha xalqaro shartnomalar mavjud emas edi, chunki garovga olish va begunoh odamlarni qatl qilishni taqiqlovchi harbiy huquqiy normalari mavjud emas edi[2].

Ikkinchi jahon urushi davrida Amerikaning amaldagi "Quruqlikda urush olib borish qoidalari" ning 358-bandida eslatib o‘tilgan:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

...dushman qurolli kuchlari yoki uning aholisi tomonidan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida olib ketilgan va ushlab turilgan garovga olinganlar, agar dushman bu harakatlarni to‘xtatmasa, jazolanishi va yo‘q qilinishi mumkin.

1949 yilgi Jeneva konventsiyasi tinch aholiga qarshi repressallarni, shuningdek, har qanday garovga olishni taqiqladi.

“Garovga olishga qarshi xalqaro konventsiya”ning 1-moddasiga quyidagicha yoritilgan: “Ushbu Konventsiyaga asosan davlatni, xalqaro hukumatlararo tashkilotni, ayrim jismoniy yoki yuridik shaxs yoki shaxslar guruhi ya’ni uchinchi shaxsni, garovga olinganni ozod qilishning bevosita yoki bilvosita sharti sifatida har qanday harakatni sodir etish yoki qilmaslikka majburlash maqsadida boshqa shaxsni qo‘lga olgan yoki ushlab turgan va o‘sha shaxsni o‘ldirish, jarohatlash yoki ushlab turishda davom etish bilan tahdid qilgan har qanday shaxs garovga olish jinoyatini sodir etgan deb hisoblanadi”.

O‘zbekiston Respublikasi terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunning 2-moddasida “garovga ushlab turilgan shaxs – qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, halqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo‘lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs” tushunchasi yoritib o‘tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muzokaralar olib borishning “The Behavioral Change Stairway Model” taktikasi.

Garovga olinganlarni ozod qilishda qo‘llaniladigan muzokara taktikalarini hayotning turli sohalarida qo‘llash mumkin. Bu erda asosiy maqsad - odamni o‘z nuqtai nazarini o‘zgartirishga majbur qilishdir.

Muzokaralarda AQSh ning FQB tomonidan “The Behavioral Change Stairway Model” (hulq atvorni o‘zgartirish zinapoyasi modeli) ishlatiladi. Erik Barker uni nima uchun u nomunosib qo‘llarda ish bermayotgani va ishlashi uchun nimani bilish va nima qilish kerakligini talqin qiladi. Shunday qilib, u besh bosqichdan iborat:

* **Faol tinglash**. - Ularning nuqtai nazarini tinglang va tinglayotganingizni bildiring.

* **Empatiya**. - Siz ular qaerdan kelib chiqqanligi va o‘zlarini qanday his qilishlari haqida tasavvurga ega bo‘lasiz.

* **O‘zaro tushunish**.- (Hamdardlik-bu siz his qilayotgan narsadir). O‘zaro tushunish-bu ular buni javoban his qilishlari. Ular sizga ishonishni boshlaydilar.

* **Ta’sir qilish**. - Endi ular sizga ishonishganidan so‘ng, siz ular bilan muammolarni hal qilish va harakatlar rejasini tavsiya qilish uchun ishlash huquqiga ega bo‘lasiz.

* **Xulq-atvorni o‘zgartirish**: ular harakat qila boshlaydilar. (Va, ehtimol, ular qo‘llarini ko‘tarib chiqib kelishadi.)

Ushbu modelning eng muhim dastlabki bosqichi: faol tinglash. Qolgan bosqichlar uning davomi hisoblanadi. Ammo ko‘pchilik juda yomon tinglaydi. Biz o‘zimizni tinglashlariga shunchalik berilib ketamizki, suhbatdoshni tinglashni ham, suhbatning maqsadini ham unutamiz.

Faol tinglash asoslari juda oddiy:

* Odam nima demoqchi ekanligini tinglang. Xalaqit bermang, tanqid qilmang yoki baholamang.

* Boshingizni qimirlatib, kichik izohlarni qoldiring.

* Uning

aytganlarini takrorlang.

* Haqiqatan ham tinglaganingizni anglatadigan savollar bering. Ular munozarani oldinga siljitadi.

XULOSA

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga holda, muzokaralar – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning garovga olish bilan bog‘liq jinoyatlarni bartaraf etishdagi harakatlarining samarali va maqbul varianti ekanligini qayd etib o‘tmoqchiman.

Muzokaralarni olib borishda avvalambor muloqot o‘rnatish texnikasi va muzokara olib borish taktikasini to‘g‘ri tanlay olish muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada ilmiy jihatdan tahlil etilgan “The Behavioral Change Stairway Model” muzokara olib borish taktikasi, hozirgi kunda ham muammoni muvaffaqiyatli hal etishning samarali usuli hisoblanadi.

Kelgusida huquqni muhofaza etish organlarida garovga olish bilan bog‘liq krizis vaziyatlarda muammoni kuch ishlatmasdan, yo‘qotishlarsiz hal etish uchun muzokara olib borishning “The Behavioral Change Stairway Model” usuliga ilmiy yondashgan holda o‘rganib, hozirgi zamon talabiga mos keluvchi muzokara taktikasini ishlab chiqishni taklif etaman.

Adabiyotlar:

Andreeva, A. A. Osnovno‘e modeli povedeniya v peregovornom protsesse. Molodoy ucheno‘y. — 2019. — № 5 (243). — S. 284-285.
2. Mixaylovskaya, E. M. Takticheskie priemo‘ vedeniya delovo‘x peregovorov. Molodoy ucheno‘y. — 2014. — № 4 (63). — S. 582-584.
3. I.I.Bondarevskiy, uchebnik «Spetsialnaya taktika» 2017.11.01. str 394
4. Igor Rizov “Muzokara olib borish sirlari”.
5. Jelezova, L. Yu. Rol gruppo‘ vedeniya peregovorov pri zaxvate zalojnikov. Molodoy ucheno‘y. — 2023. — № 6 (453). — S. 163-166.
6. Rodjer Fisher, Uillyam Yuri, Bryus Paton. «Kak dobitsya DA, ili Peregovoro‘ bez porajeniya»

MUNDARIJA

1. **Geografiya va tarix fanlari integratsiyasining metodologik umumiyliklari** 3
Toxiriyon A.Sh., Abdullayeva D.N.

2. **Biologiya fanidan mediaresurslar vositasida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish** 9
Saparov K.A., Jumaniyazova S.Q.

3. **Проблемы формирования культуры чтения у учеников старших классов** 19
Ходжаев Д.Х., Самаров А.Х.

4. **Midiergonomik qarashlar - pedagog va rahbarlarning kompetentligini oshirib borishi sifatida** 25
Eraliyev X.A.

5. **Mediatexnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari hamda tarix darslarida qo‘llanilishi** 31
Qoriyev A.U.

6. **Til, sheva va tafakkur: tog‘ay murod prozasida xalqona nutqning roli** 39
Ravshanova M.Z., Xashimova X.D.

7. **Talis xalqaro baholash dasturi asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish** 43
Boymanova M.I.

8. **"O‘zbek xalq ertaklari qahramonlarini o‘zgartirish vaqti kelmadimikin?"** 50
Abdumajidova D.A., Sapayeva G.A.

9. **Pedagogik muloqotni shakllantirish orqali milliy ong va milliy g’ururni shakllantirish** 54
Ismoilov T.I., Mirzaraximova Z.M.

10. **Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod orqali shakllantirishning nazariy asoslari** 61
Isroilova N.A.

11. **Yosh belbog‘li kurashchilarga texnik usullarni o‘rgatish metodikasi** 70
Xakimov Sh.T.

12. **Yosh yunon-rim kurashchilarini morfofunktsional ko‘rsatkichlarining texnik-taktik tayyorgarlik jarayoniga ta’sirini o‘rganish tahlili** 78
Madaminov X.A.

13. **13-14 yoshli voleybolchi qizlarning darsdan tashqari sport mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarligini oshirish samaradorligi** 87
Karimova G.B.

14. **11-12 yoshdagi futbolchining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usullari** 97
Xolmurodov L.Z.

15. **The literary legacy of bahmanyar: a tajik literary icon** 104
Nazarova Sh.

16. **Изучение педагогико-психологического анализа заинтересованности магистров — будущих специалистов в технической области** 108
Шокиров Х.Т., Абдуазизова В.В.

17. **Bilim berishning zamonaviy vositalari samaradorligi va "ilm orqali bilim berish» tamoyili** 117
Kodirkhonov M.R., Matkarimov A.M.

18. **Talabalarning fizikadan mustaqil ta'lim faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish imkoniyatlari** 130
G'afforova Sh.F.

19. **Algoritmni optimallashtirishning sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalari** 137
Najmetdinova N.S.

20. **Malakali kikkikbokschilarda kinematik va kinetik ko'rsatkichlar asosida zarba texnikasini o'rganish** 149
Ismoilov G'.T.

21. **Malaka oshirish tizimida pedagoglar metodik kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari va muhim vazifalari** 157
Tuxtasinov M. G'.

22. **Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda mashqlar ahamiyati** 166
Shahobiddinova D.B.

23. **Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini triz texnologiyalar vositasida rivojlantirish** 174
Ergashev B.O.

24. **Oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv va hayotiy faoliyati uchun axborotlarni mustaqil izlab topishi pedagogik muammo sifatida** 180
Turobova Z.Sh.

25. **Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida** 187
Ismoilov R.Y.

26. **Interaktiv vizual ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari** 194
Sulaymonova S.U.

27. **Talabalarning kasbiy kompetentligini mustaqil ta'lim orqali rivojlantirish** 203
G'ofurova M.R.

28. **Antroposentrik yondashuv asosidagi til ta'limida raqamli ta'lim vositalarining o'rni** 216
Sobirova M.Y.

29. **Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda tizimli, sinergetik va akmeologik yondashuvlar** 228
Aziboyev Sh.O.

30. **Xorijiy tillarni o'qitishda mediasavodxonlikning o'rni va ahamiyati** 234
To'xtaboyeva Y.S.

31. **Bo'lajak o'qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari** 241
Madaliyev B.E.

32. **Talabalar uchun elektr zanjirlarida umumiy qarshilikni hisoblash metodikasi** 253
Ramatova M.U., Xajibayev D.G'., Jalekeshov A.S.

33. **O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanlarini o'qitishning ahamiyati** 260
Nabiyev B.M.

34. **Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish orqali kreativ tafakkurni rivojlantirish prinsiplari** 267
Xakimova M.A.

35. **Maktab o'quvchilarni futbol sport turiga saralash va yo'naltirishda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili**
Bobomurodov A.E.

36. **The steam approach in music education: developing creative thinking and problem-solving skills in students** 293
Usmonjanova G.A.

37. **Maktab o‘quvchilarni basketbol sport turiga saralash va yo‘naltirishda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili** 301
Bobomurodov A.E.

38. **“Umid va najot manbalari: Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hamda O. Genrining “So‘nggi yaproq” hikoyalarini badiiy qiyoslash”** 312
Karimova F.Z.

39. **EFL sinflarida ijtimoiy tarmoqlar orqali chet tillarni o’rganish: imkoniyatlar va qiyinchiliklar** 317
Xamidova K.B.

40. **Jamiyat hayotida ijtimoiy ong va ma’naviyat uyg‘unligi** 324
Tursunov R.A.

41. **Biologiya fanida texnologik xaritalardan foydalanish va uning fan doirasidagi dolzarbligi** 331
Umaraliyeva Sh.F.

42. **Bo‘lajak pedodoglarda kiberxavsizlik ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik jihatlari** 335
Jo‘rayev V.T., Mo‘minova M.M., Turdimatov M.M.

43. **Methods for improving students physical fitness through basketball** 345
Soyibjonov B.

44. **Oliy ta’limda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari** 351
Raxmonov I.A.

45. **Alisher Navoiyning “Hasbi hol” masnaviysi badiiy talqini** 358
Burxonova M.

46. **Milliy cholg‘ular haqida o‘quvchilarda bilim va qiziqishni shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining metodik asoslari** 365
Ergashev I.Q.

47. **Umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion-pedagogik yondashuvlari** 374
Odashaliyeva F.O.

48. **Inklyuziv ta’lim sharoitida musiqa savodxonligini shakllantirishda multimodal yondashuvning pedagogik imkoniyatlari** 380
O‘rmonjonov A.M.

49. **Ta’lim tizimida dasturiy – metodik majmua yaratish pedagogik muammo sifatida** 389
Soliyeva G.Y.

50. **Malakali dzyudochilarning ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish samaradorligi** 399
Qodirov S.E.

51. **Adabiy ta’limda badiiy matn bilan ishlashdagi muammolar va yechimlar** 409
Tillayeva R.T., Olimova O.

52. **Zamonaviy ta’lim tizimidagi yangi g‘oyalar va xorijiy tajribalar: ularning yutuqlari** 415
Xasanboyev A.B.

53. **Gimnastika ko‘pkurashida elementlarning texnik tayyorgarlik omillari** 420
Eshtayev A.K.

54. **Gimnastik mashg‘ulotlarning sodda usullari (xorijiy davlatlar tajribasi asosida)** 433
Kurbanov J.A.

55. **Oliy ta’limda bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish omillari** 440
Omonova Z.T.

56. **Pedagogik ta’lim muassasalarida tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari** 445
Xusanov B.E.

57. **Garovga olish holatlarida muzokaralar olib borish** 451
Xidirov M.S.